

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI


“ENERGETIKA VA RADIODELEKTRONIKA” fakulteti

“Ishlab chiqarish jarayonlarini
avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasi
o'qituvchisi

SH. U. ESHONQULOV, N. A. QARSHIBOYEV

“SUN'IY INTELLEKT ASOSLARI” tanlov
fanidan

O'QUV QO'LLANMA



Ta'limganishlari:

**60711400 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish
va boshqarish (kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati).**

Sun’iy intellekt asoslari

Jizzax politexnika instituti “Energetika va radioelektronika” fakulteti “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasi p.f.n., v.b., dotsent Sh.U.Eshonqulov, assistenti N.A.Qarshiboyevlar tomonidan “Sun’iy intellekt asoslari” tanlov fanidan o‘quv qo‘llanma. Jizzax. 2023. 312 bet.

Kirish qismida Axborot texnologiya(AT)lar va tizimlar evolyutsiyasi ular intellektuallashuvining yuqoriroq darajasi bilan aniqlanadi.

Intellektual ATlar - informatikaning kelajagi porloq va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va amaliy sohasi hisoblanadi.

O‘quv qo‘llanmada qo‘yilgan asosiy maqsad - SIAning asosiy tushunchalari va rivojlanish bosqichlari, SIAning tasnifi, sinflari va arxitekturasi, SIAda bilimlarni tasvirlashning mantiqiy modelidan foydalanib mulohazalar mantiqi va predikatlar mantiqi asosida mantiqiy xulosalashlarni hosil qilish, noaniqlikni modellashtirish va noravshan mantiqiy xulosa chiqarish, qidiruv yordamida SIA muammolarni yechish, tasodifiy jarayonlarda qaror qabul qilish va o‘yinlar nazariyasi, mashinali o‘qitish va ma’lumotlarning intellektual tahlilida Bayesli yondahuv va klasterlash masalasi, neyronli to‘r(NT)lar, SIni rivojlanish istiqbollari va yo‘nalishlari bilan tanishish, shuningdek, sun’iy intellekt tizim(SIA)larning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganish, SIAlarni inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilish asoslarini o‘rganish, turli SIAlarida kechayotgan axborot jarayonlarining roli va xarakteri to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilishdan iboratdir.

O‘quv qo‘llanmaning asosi sifatida muallif tomonidan o‘quv jarayonida talabalarga o‘qilayotgan materiallar olingan. Uning strukturasi va mazmunini to‘ldirishda SIAning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shtan yuqorida keltirilgan olimlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalarda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanmaga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasining 2012-2014 yillar uchun e’lon qilingan A5-ФК-0-18644-A5-049: «Informatika va axborot texnologiyalari hamda kasb ta’limi (Informatika va axborot texnologiyalari) ta’lim yo‘nalishlaridagi Intellektuai tizimlar fanidan o‘quv-uslubiy majmular yaratish» amaliy grantida olingan yakuniy natijalar hamda 2015-2017 yillar uchun e’lon qilingan A5-038 - «Qo‘lyozma matnlarni (harf, raqam, yordamchi belgilar, so‘zlar) va shaxs imzolarini anglovchi, ularning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlovchi algoritmlar va dasturiy vositalarni yaratish» amaliy grantida olingan dastlabki natijalar ham kiritilgan.

“Sun’iy intellekt asoslari” tanloov fani bo‘yicha dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejallashtirilgan “Diskret matematika”, “Informatika”, “Dasturlash asoslari”, “Dasturlash texnologiyasi”, “Ma’lumotlar banki va bazalari”, “Timsollarni anglash

nazariyasi”, “Ma’lumotlarning intellektual tahlili” fanlari bilan uzviy bog’liq va shu fanlardan olingan bilimlarga asoslanadi.

O’quvchilarga tavsiya etilayotgan ushbu kitob “Sun’iy intellekt asoslari” ixtisoslik fani bo‘yicha namunaviy ishchi dastur va sillabuslarga javob beradi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma universitet va institatlarda “Sun’iy intellekt asoslari” tanlov fanini o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lib, oliv ta’limning 60711400 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati), bakalavr yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Bu o‘quv qo‘llanmadan SIA sohasi bo‘yicha shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar va mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

O‘quv qo‘llanmada asosiy g‘oya yanada tushunarli bo‘lishi uchun har bir topshiriqning bo‘limlarida misollar keltirilgan. Shuningdek, har bir mashg‘ulotning oxirida nazorat savollari, mustaqil ishslash va amaliy ko‘nikmani mustaxkamlash uchun masala va topshiriqlar berilgan.

O‘quv qo‘llanma kamchiliklardan holi bo‘lmaganligi tufayli, muallif o‘quv qo‘llanma haqidagi tanqidiy fikr va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va o‘z tashakkurini izhor etadi.

O‘quv qo‘llanmaning qo‘lyozmasi bilan mufassal tanishib, uning sifatini yaxshilash yo‘lida foydali ko‘rsatma va maslahatlar bergan taqrizchilar texnika fanlari nomzodii, A.A.Abdumalikov va dotsent K.G.Jabbarovlarga muallif o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Taqrizchilar:

- 1.Mirzo ulug‘bek nomidagi O‘zMU jizzax filiali “Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish” kaferasi, t.f.n., dotsent A.A.Abdumalikov
- 2.JizPI “ICHJA vz B” kafedrasи dotsenti. K.G.Jabbarov

Ushbu O‘quv qo‘llanma jizzax politexnika instituti 2023 yil 25 yanvar № 6 sonli kengaytirilgan ilmiy uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi, tasdiqlandi va chop etishga ruxsat berildi.

“Sun’iy intellekt asoslari” tanlov fanidan o‘quv qo‘llanma, Jizzax politexnika instituti qoshidagida tipografiyada chop etishga ruxsat etilgan, 2023 yil, 312 bet. © Jizzax politexnika instituti, 2023 yil

© Jizzax politexnika instituti

Schrifti “Times New Roman” ISBN 978-9943-9748-1-4

So`z boshi

Axborot texnologiya(AT)lar va tizimlar evolyutsiyasi ular intellektuallashuvining yuqoriqoq darajasi bilan aniqlanadi.

Intellektual ATlar – informatikaning kelajagi porloq va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va amaliy sohasi hisoblanadi. U kompyuterlardan foydalanish bilan bog`liq barcha ilmiy va texnologik yo`nalishlarga sezilarli darajada ta’sir ko`rsatadi, u jamiyatga ilmdan nima kutilayotgan bo`lsa o`shani bugunning o`zidayoq bermoqda, amaliy ahamiyatga ega bo`lgan natijalar, ularning ko`pchiligi ularni qo`llash mumkin bo`lgan sohalarda tubdan o`zgarishlar qilishga qodir.

Intellektual ATlarning maqsadlari, birinchidan, kompyuterlar yordamida yechiladigan masalalar ko`lamini kengaytirish, ayniqsa sust strukturalangan predmet sohalarda va ikkinchidan, zamonaviy mutaxassisning intellektual axborotni qo'llab-quvvatlash darajasini oshirishdan iborat.

Intellektual ATlarning ilmiy fundamentidagi kalit komponent sun’iy intellekt(SI) hisoblanadi.

SI haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar - «Aqliy mashinalar» ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish birinchi bo`lib Stanford universitetining (AQSh) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956 yili tashkil topgan ilmiy to`garakda paydo bo`ldi.

Bu to`garak tarkibiga Massachuset (AQSh) texnologiya oliygohi «Elektronika va hisoblash texnikasi» fakultetining faxriy professori Marvin Minskiy, «Umumiy masala yechuvchi» va «Mantiqchi-nazariyotchi» intellektual dasturlar bunyodkorlari – kibernetik Allen Nyuell va Carnegie-Mellen, dorilfununning mashhur psixolog Gerbert Saymon, hisoblash texnikasining ko`zga ko`ringan mutaxassislari Artur Samuel, Oliver Selfridj, Klod Shennon va boshqalar kirar edilar. Aynan shu to`garakda «Sun’iy intellekt» tushunchasi paydo bo`ldi.

SIning ilmiy yo`nalish sifatida yaratilishi va rivojlanishi uchun chet elda N.Viner, U.Makkallox, U.Pitts, D.Makkarti (birinchi bo`lib «Artificial intelligence» terminini kiritdi), F. Rozenblatt, Sazerlend, M. Minskiy, S. Peypert, A. Nyuell, G. Saymon, Dj. Shou, E. Feygenbaum, A. Kolmeroe, N. Xomskiy, T. Vinograd, M. Kuillian, R. Shenk, I. Kilson, P. Uinston, L. Zade, R. Reddi, D. Lenat, Dj. Xinton, Dj. Anderson, J.-L. Lorer va boshqalar o’z xissasini qo’shgan. Sobiq ittifoqda, keyinchalik esa Rossiyada SI shakllanishi va rivojlanishini A.A. Lyapunov, A.I. Berg, G.S. Pospelov, M.M. Bongard, A.V. Gavrilov, V.F.Xoroshevskiy, A.P. Yershov, L.T.

Kuzin, A.S. Narinyani, A.I. Polovinkin, V.V. Chavchanidze, V.K. Finn, E.V. Popov, E.X. Tiugu, O.I. Larichev, A.I. Galushkin, A.V.Chechkin, D.A.Pospelov va boshqalarning nomlari bilan bog`lashadi. Shuningdek, O`zbekistonda M.M.Kamilov, T.F.Bekmuratov, SH.X.Fazilov, R.Xamdamov, K.Ignatyev, A.X. Nishanov va boshqa olimlar SI sohasida ilmiy natijalarga erishgan va hozirgi vaqtida ham ilmiy-tadqiqotlarni shogirdlari bilan birga davom ettirmoqda.

Zamonaviy ATlarning asosiy yo`nalishlardan biri insonga talluqli bo`lgan vazifalarni bajaruvchi sun`iy intellekt tizimlarni yaratishdir.

O`quv qo`llanmada qo`yilgan asosiy maqsad – SIning asosiy tushunchalari va rivojlanish bosqichlari, SIning tasnifi, sinflari va arxitekturasi, SIda bilimlarni tasvirlashning mantiqiy modelidan foydalanib mulohazalar mantiqi va predikatlar mantiqi asosida mantiqiy xulosalashlarni hosil qilish, noaniqlikni modellashtirish va noravshan mantiqiy xulosa chiqarish, qidiruv yordamida SI muammolarni echish, tasodifiy jarayonlarda qaror qabul qilish va o`yinlar nazariyasi, mashinali o`qitish va ma`lumotlarning intellektual tahlilida Bayesli yondahuv va klasterlash masalasi, neyronli to`r(NT)lar, SIni rivojlanish istiqbollari va yo`nalishlari bilan tanishish, shuningdek, sun`iy intellekt tizim(SIT)larning o`ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini o`rganish, SITlarni inson faoliyatining turli sohalarida qo`llanilish asoslarini o`rganish, turli SITlarida kechayotgan axborot jarayonlarining roli va xarakteri to`g`risida umumiy tasavvur hosil qilishdan iboratdir.

O`quv qo`llanmaning asosi sifatida Toshkent axborot texnologiyalar universiteti va uning Samarqand filialida muallif tomonidan o`quv jarayonida talabalarga o`qilayotgan materiallar olingan. Uning strukturasi va mazmunini to`ldirishda SIning rivojlanishiga o`z hissasini qo`shgan yuqorida keltirilgan olimlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan monografiya, darslik, o`quv qo`llanma va ilmiy maqolalarda keltirilgan ma`lumotlardan foydalanilgan.

O`quv qo`llanmaga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo`mitasining 2012-2014 yillar uchun e`lon qilingan A5-ФҚ-0-18644-A5-049: «Informatika va axborot texnologiyalari hamda kasb ta`limi (Informatika va axborot texnologiyalari) ta`lim yo`nalishlaridagi Intellektuai tizimlar fanidan o`quv-uslubiy majmular yaratish» amaliy grantida olingan yakuniy natijalar hamda 2015-2017 yillar uchun e`lon qilingan A5-038 – «Qo`lyozma matnlarni (harf, raqam, yordamchi belgilar, so`zlar) va shaxs imzolarini anglovchi, ularning qaysi shaxsga tegishli

ekanligini aniqlovchi algoritmlar va dasturiy vositalarni yaratish» amaliy grantida olingan dastlabki natijalar ham kiritilgan.

“Sun’iy intellekt” fani bo`yicha dasturni amalga oshirish o`quv rejasida rejorashtirilgan “Diskret matematika”, “Informatika”, “Dasturlash asoslari”, “Dasturlash texnologiyasi”, “Ma’lumotlar banki va bazalari”, “Timsollarni anglash nazariyasi”, “Ma’lumotlarning intellektual tahlili” fanlari bilan uzviy bog`liq va shu fanlardan olingan bilimlarga asoslanadi.

O`quvchilarga tavsiya etilayotgan ushbu kitob “Sun’iy intellekt” ixtisoslik fani bo`yicha namunaviy va ishchi dasturlarga javob beradi.

Kitob universitet va institatlarda “5350500-Kompyuter injiniringi” va “5330600-Dasturiy injiniring” bakalavr yo`nalishlari bo`yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo`ljallangan. Bu o`quv qo’llanmadan SI sohasi bo`yicha shug`ullanuvchi tadqiqotchilar va mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

O`quv qo’llanma kirish, sakkizta bob, xotima, qisqartma so’zlar, o’zbekcha hamda inglizcha atamalardan iborat.

Kirish qismida o`quv qo’llanmadagi masalalar, SIning asosiy masalasi, SIning bazaviy funksiyalari, SI sohasidagi tadqiqotlarning bazaviy yo`nalishlari taqdim etilgan.

Birinchi bobda SI haqida umumiylar ma’lumotlar keltirilgan bo`lib, fanning mazmunu, maqsadi va vazifalari, asosiy tushunchalari va ta’riflari, rivojlanish bosqichlari, SI ni modellashtirishning asosiy yo`nalishlari va sinflari, Tyuring testlari, intellektual agentlar, asosiy tarkibiy qismlari va arxitekturasi, asosiy xususiyatlari hamda SI masalalarini yechish va qo’llanilish sohalari tavsiflangan.

Ikkinci bob SIda bilimlarni tasvirlashning mantiqiy modeliga bag’ishlangan bo’lib, unda mulohazalar mantiqi va predikatlar mantiqining asosiy tushunchalari va ta’riflari, mulohazalar mantiqida isbotlashning sintaktik va semantik usullari, birinchi tartibli predikatlar, SIda deduktiv, induktiv va abduktiv mantiqiy xulosalashlar keltirilgan.

Uchinchi bob mantiq chekllovlarini va noaniqlikni modellashtirishga bag’ishlangan bo’lib, unda ma’lumot va bilimlarning noaniqligi, xususiyatlari, noravshan bilimlar va ular ustida amallar, noravshan munosabatlari, noravshan mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari va lingvistik o’zgaruvchilar tavsiflangan.

To`rtinchi bobda SI masalalarini qidiruv yordamida muammolarni echish keltirilgan bo’lib, unda holatlar fazosida yechimni qidiruvning chuqurligi, kengligi va evristikli qidiruv strategiyalari bayon etilgan.

Beshinchi bob qaror qabul qilishning markov jarayonlari va o'yinlar nazariyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda Markov modeli va Markov tasodifiy jarayonlari, Monte-Karlo usuli yordamida statistik, ommaviy xizmat ko'rsatish va imitatsion modellashtirish, o'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari, matriksaviy o'yin, alfa-betta parchalanish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish tavsiflangan.

Oltinchi bobda mashinali o'qitish va ma'lumotlarning intellektual tahlili qaralgan bo'lib, unda Bayesli yondashuv va Bayes to'rlari, Data Mining – ma'lumotlarning intellektual tahlili, obyektlarni klasterlash usullari va algoritmlari, klasterlashning amaliy paketlari tavsiflangan.

Ettinchi bob NTlarning asosiy tushunchalari va elementlari, arxitekturasi, obyektlarni anglab olishga o'rgatishning umumiyligi sxemasi va uslubiy jihatlari, ular yordamida yechiladigan asosiy masalalar, NTlarni tavsifi va ularning turlari, yutuqlari va kamchiliklari bayon etilgan.

Sakkizinchi bob SIni rivojlantirish istiqbollari va yo'nalishlariga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanmada asosiy g'oya yanada tushunarli bo`lishi uchun har bir bobning bo'limlarida misollar keltirilgan. Shuningdek, har bir bobning oxirida nazorat savollari, mustaqil ishslash va amaliy ko'nikmani mustaxkamlash uchun nazorat testlari, masala va topshiriqlar berilgan.

O'quv qo'llanma kamchiliklardan holi bo`lmaganligi tufayli, muallif o'quv qo'llanma haqidagi tanqidiy fikr va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va o`z tashakkurini izhor etadi.

O'quv qo'llanmaning qo'lyozmasi bilan mufassal tanishib, uning sifatini yaxshilash yo`lida foydali ko`rsatma va maslahatlar bergen taqrizchilar texnika fanlari doktori, professor Sh.X.Fazilov va texnika fanlari nomzodi Z.A.Qarshiyevlarga muallif o`z minnatdorchiligini bildiradi.

Muallif

Kirish

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi ustunlik mamlakatlarning maydoni va tabiiy resurslari bilan aniqlanmaydi. Endi barcha sohalardagi ustunlikni ta'lim saviyasi va jamiyatda to'plangan bilimlar hajmi belgilaydi. Kelajakda qaysi mamlakat yangi bilimlarni yaratishda va o'zlashtirishda oldingi o'ringa chiqsa, o'sha mamlakat gullab-yashnaydi. Bunda asosiy ro'lni yangi ATLari, unda esa-SIning usullari va vositalari egallaydi. SIning asosiy texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilish uchun SIning muhim konsepsiyalari qanday tarzda dasturiy yechimlarga tadbiq etilganligini o'rganish zarur. Dasturlar turli jarayonlar tavsifini aniq qurishga imkoniyat yaratadi. Ularning strukturasini yechiladigan masalalar strukturasini o'zida aks ettiradi.

Sun'iy intellekt deganda – maqsadli yo'nalishdagi harakatni o'zida namoyon qilish qobiliyatiga ega ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar tushuniladi. Sun'iy yoki formal tizimlar muloqot, bilimlarni yig'ish, idrok etish, o'rgatish, anglab olish, moslashish va h.k. larni o'z ichiga oladi.

SI – hisoblash mashina(HM)larining insonlarga aqli bo`lib ko`rinadigan tomonlarini bajarishga imkon beradigan konsepsiylar haqidagi fan. Inson aqli o`zi nima? U fikrlash qobiliyatiga egami? U bilimlarni o'zlashtirish va qo'llash qobiliyatiga egami? U g`oyalarni almashish va ular bilan ishslash qobiliyatiga egami? Shubhasiz, bu barcha qobiliyatlar aqlning qismini tashkil etadi. Lekin bu so`zga oddiy ma'noda ta'rif berib bo`lmaydi. Chunki aql – bu ma'lumotlarni qayta ishslash va namoyish etish sohasidagi bilimlarning qorishmasidir [1, 6].

SIning asosiy masalasi HMLarini foydaliroq qilish va aql asosida yotadigan prinsiplarni tushunishdan iborat. Modomiki asosiy masalalardan biri HMLarini foydaliroq qilish ekan, hisoblash texnikasi sohasidagi olim va injenerlar SI qiyin masalalarni hal qilishda ularga qanday yordam berishi mumkinligini bilishlari kerak.

SIT sohasidagi tadqiqotlarning *boshlanishini* (50-yillar oxiri) Nyuell, Saymon va Shoulnarning turli xil masalalarni yechish jarayonlarini tadqiq qilish ishlari bilan bog`lashadi. Ular ishining natijasi mulohazalar hisobidagi teoremalarni isbotlashga mo`ljallangan «Mantiqchinazariyotchi» va «Umumiylashtirish» dasturlari bo`ldi. Bu ishlar SIT sohasidagi tadqiqotlarning birinchi bosqichini boshlab berdi. Shuningdek, ushbu bosqich davomida turli xil o`yinlar, boshqotirmalar va matematik masalalar tadqiqot maydoni hisoblangan.

O`zlarining dasturlarini tavsiflashda Nyuell va Sayman dalil sifatida shuni ta'kidlashdiki, ularning dasturlari inson fikrlashini (tafakkurini) modellashtirar ekan. 70-yillar boshida ular bunga o`xshash ko`plab ma'lumotlarni chop etishdi va fikrlashni (tafakkurni) modellashtiradigan dastur tuzishning umumiyl usulini taklif etishdi. Nyuell va Saymanning ishlari ko`pchilikni jalgan qilgan bir paytda Massachusetts texnologiya instituti, Stenford universiteti va Stenford tadqiqotlar institutida tadqiqotchilar guruhi tomonidan SIT sohasidagi tadqiqotlarda masalani yechish yo`li matematik va belgilar mantiqi asosida rivojlandi.

SIT sohasini tadqiq etishda Robinsonning rezolyutsiyalar usuli katta ta'sir etdi. Bu usul predikatlar mantiqidagi teoremalarni isbotlashga asoslangan va isbotlashning mukammal usuli hisoblangan. 60-yillar oxiriga kelib turli xil o`yinlar, boshqotirmalar va matematik masalalar kabi tadqiqotlarni sun'iy muhitlarda emas, balki real muammoli muhitlarda qo'llashga harakatlar qilindi. SITning real muhitlarda ishlaydigan tadqiq qilish integral robotlarni yaratish masalasiga olib keldi. Bunday ishlarning o'tkazilishini SIT ustidagi tadqiqotlarning *ikkinchi bosqichi* deyish mumkin.

70-yillar o`rtalarida Stenford universiteti, Stenford tadqiqotlar instituti va boshqa bir qancha joylarda laboratoriya sharoitida ishlaydigan robotlar yaratildi. Bunday tajribalarning o'tkazilishi bir qancha muammolarni hal qilishni talab qildi. Bunday muammolarga bilimlarni namoyish etish, ko`rish orqali idrok etish, robotlar bilan tabiiy tilda muloqot qilish kabilar kiradi. Bu muammolar tadqiqotchilar oldiga yanada aniqroq ifodalangan vazifalarni qo`ydi. Bu davr SITni tadqiq etishning *uchinchchi bosqichi* edi. Uning xarakterli tomoni tadqiqotchilardan oldiga qo`yilgan masalani real muhitda o`zi yechadigan muqobil ishlaydigan tizimni emas, balki inson intellektini va EHMning imkoniyatlarni birlashtiradigan inson-mashina tizimlarini yaratish masalasidan iborat edi.

Hozirgi vaqtida raqobat kurashidagi ustunlik mamlakatning o`lchovlari bilan ham, uning tabiiy resurslari bilan ham aniqlanmaydi. Endilikda buni jamiyat to`plagan ta'lim darajasi va bilimlar hajmi hal qiladi. Kelajakda boshqa mamlakatlarga qaraganda yangi bilimlarni yarata olgan va egallagan mamlakatlarga gullab yashnaydi. Bunda asosiy ro'lni yangi ATlar o`ynasa, ularda esa SI usullari va vositalari o`ynaydi.

SIT deganda fe'l – atvori maqsadga yo`naltirilgan qobiliyatni o`zida aks ettiruvchi ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar tushuniladi[6].

Oxirgisi o`zida aloqa, bilimlarni jamlash, qarorlar qabul qilish, o`rganish, moslashish va boshqa xususiyatlarni o`zida namoyon etadi. Hozirgi vaqtida kompyuterlarni intellektuallashtirishning turg'un yo'nalishi

va uning dasturiy ta'minoti (DT) mavjud. Kelajakdagi kompyuterlarning asosiy funksiyalari – ko`proq hisoblashga oid bo`lmagan xarakterdagi masalalarni, ya`ni mantiqiy xulosa chiqarish, BBni boshqarish, intellektual interfeys ta'minoti va boshqa masalalarni yechishga qaratilgan. Kompyuterlarni intellektuallashtirish maxsus apparaturalarni (masalan, neyrokompyuterlar) va DTlarni (Ekspert tizim (ET)lar, bilimlar bazasi (BB), masala yechuvchilar va h.k.) yaratish hisobiga amalga oshiriladi,

“Sun’iy intellekt tizim” tushunchasining ishchi ta’rifi [1]da keltirilgan. Tizim intellektual hisoblanadi, agar unda uchta bazaviy funksiyalar amalga oshirilgan bo`lsa:

1. *Bilimlarni taqdim etish va qayta ishlash funksiyasi.* SIT o`zida tevarak atrof to`g`risidagi bilimlarni to`plashga qodir bo`lishi, ularni pragmatika va ziddiyatsizliklar nuqtai nazaridan sinflashi va baholashi, yangi bilimlarni qabul qilish jarayonlarini aniqlaydi, ma'lumotlar bazasi(MB)da saqlanayotgan bilimlar bilan yangi bilimlar o`rtasidagi bog`lanishlarni aniqlashi lozim.

2. *Mulohaza funksiyasi.* SIT mantiqiy xulosa yordamida yangi bilimlarni vujudga keltirishi va to`plangan bilimlarda qonuniylik mexanizmini namoyon qilishi, alohida (shaxsiy) bilimlar asosida umumlashgan bilimlarni olishi va o`z faoliyatini mantiqiy rejalashtirishi kerak.

3. *Aloqa funksiyasi.* SIT inson bilan unga yaqin bo`lgan tilda aloqa qilishi va insonning tevarak-atrofni qabul qilishiga (avvalo, ko`rish va ovozli) analogik bo`lgan kanallardan ma'lumot qabul qilish, “o`zi uchun” yoki biror kishining iltimosiga ko`ra shaxsiy faoliyatni tushuntirishni shakllantirishni bilishi (ya`ni, “Buni qanday amalga oshirdim?” kabi savollarga javob berishi), insonga uning xotirasida saqlanayotgan bilimlar hamda mulohaza qilishning mantiqiy vositasi hisobiga yordamlashishi kiradi.

SITning asosiy texnologiyalari haqidagi tasavvurni shakllantirish uchun, uning dasturiy yechimlarda muhim konsepsiyanining mujassamlanishini o`rganishimiz lozim.

SIT sohasida tadqiqot strukturasini aniqlashdagi urinishlar takror-takror amalga oshirilgan. Bu savol borasidagi barchasidan ko`ra mashhur nuqtai nazarlar [1]da ifoda etilgan. Unga muvofiq SIT sohasidagi tadqiqotlar ikkita bazaviy yo`nalishlarni o`z ichiga oladi:

- *Bionik*, inson ongi uchun xarakterli va inson tomonidan yechiladigan masalalar asosida yotuvchi strukturalar va jarayonlarni sun’iy qaytadan tiklash muammolari bilan shug`ullanadi;

- *Dasturli-pragmatik*, inson intellektini (qidirish, sinflash, o`qitish, qaror qabul qilish, timsollarni anglash, mulohaza va boshqalar) alohida huquq deb hisoblaydigan masalalarni yechish uchun dasturlar tuzish bilan shug`ullanadi.

Birinchi yo`nalish bo`yicha sun`iy NTlar modellarini qo`llaydigan DT yaratish muammolari qarab chiqiladi.

Bionik yo`nalishning maqsadlari va masalalari qiyinligi tufayli oxirgi vaqtgacha SITda dasturli-pragmatik yo`nalish ustunlik qiluvchi hisoblanadi, garchi kelajakda baribir bionik yo`nalish ehtimol aniqlovchi bo`ladi.

Dasturli-pragmatik yo`nalishda uchta yondashuv ajratiladi:

- *lokal* yoki *maqsadli* – insonning intellektual faoliyatiga xos, inson erishishi mumkin bo`lgan natijalardan kam bo`lmaydigan har bir masala uchun (masalan, shaxmat o`yini uchun o`yin dasturi) yaratish;
- *tizimli* yoki *bilimlarga asoslangan* – hozirgi vaqtda bu yondashuv ustunlik qilmoqda, bilimlar asosida intellektual masalalarni yechish uchun dastur tuzishda avtomatlashtirish vositalarini yaratish;
- dasturlashtirishning metaprotseduralarini qo`llovchi intellektual dasturlar tuzish uchun tabiiy tilda masalalarni tavsiflash.

SITlari teoremalarni isbotlash, komp'yuter o`yinlari, timsollarni anglash, qaror qabul qilish, adaptiv dasturlash, mashinada musiqalarini bastalash, tabiiy tilda ma'lumotlarni qayta ishlash, o`qituvchi to`rlar va boshqa yo`nalishlarda keng qo`llanilmoqda.

80-yillarning boshlarida SI sohasida «Ekspert tizimlar» mustaqil yo`nalish sifatida shakllandi. SIning amaliy tizimlarini yaratilishida ETlar birinchi qadam bo`lib hisoblanadi [6, 24, 20].

ETlar SI tizimlarni bir qismi bo`lib, u nazariy jihatdan bu sohani rivojlantirishda muhim ro`l o`ynadi. ETlar SI g`oyalari va usullariga asos bo`lib, unda bilimlar, ma'lumotlar yig`indisi va ular yordamidagi boshqaruv tizimlari hamda mantiqiy qidiruv, assotsiativ, hisoblash amallari va bilimlar manbai aniq bir ko`rinishda ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda ETlar *tibbiyotda* - ichak, sil va gipertonik kasalliklarning turli shakllariga tashxis qo`yishda; *harbiy sohada* – samolyot yerga qo`nishida uchuvchiga yordam berishda, analitikka tutuvchi signalni jo`natgan radar turini aniqlashda, xaritada o`zgarish kiritish bo`yicha kartografik ishlarni amalga oshirishda, raqiblarning buyruq beruvchi markazlari, boshqaruvi va aloqalarining razvedka qilinganida olingan natijalarni qayta ishlashga yordamlashishda, raqibning radioalmashish razvedkasi sohasida vaziyatni baholashni amalga oshirishda va razvedkadagi analitiklarga keyingi qurolli to`qnashuv qachon va qayerda

bo`lishini bashorat qilishda; *informatikada* – MBni ishlab chiquvchi va MBning konseptual sxemasini aniqlovchi mutaxassislarga yordamlashishda; *kompyuter tizimlarida* - lokal tizimlarni loyihalashda va katta EHMDagi katta razryadli MVT operatsion tizimlarni boshqarishda; *elektronikada* – telefon tarmog`idagi nosozliklarni aniqlashda, uni sozlash va tiklash chora-tadbirlari bo`yicha tavsiyalar berishda; *energetikada* – energetik tizimlarda ishdan chiqish holatlarini aniqlash va tuzatishda; *geologiyada* – foydali qazilmalarni topishda va holatini aniqlashda; *qishloq xo`jaligida* – mevali bog`larga qarashga maslahat berishda; *matematikada* – teoremalarni isbotlashda va algebraik ifodalarni soddalashtirishda; *kimyoda* – murakkab organik molekulalar strukturalarini anglashda; *biologiyada* – DNK strukturasini aniqlashda keng va samarali tadbiq etilmoqda.

1-BOB. SUN'iy INTELLEKT FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA USULI. SUN'iy INTELLEKT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

1-§. Fanning mazmuni

Tadqiqotlar va odamlar intellektual deb hisoblagan xatti-harakatlarni aniqlaydigan mashinalarni yaratilishini biz sun'iy intellekt deb ataymiz. Eng keng tarqalgan va zamonaviy mashinalar - kompyuter texnikasi va aloqa vositalari hisoblanadi, shuning uchun ham SI yo'nalishi kompyuterlar va hisoblash tizimlari sohasiga tegishli hisoblanadi.



Intellekt atamasi lotincha *intellektus* so'zidan olingan bo'lib - bu aql, idrok, ong tushunchalarini anglatadi; insonning fikrlash qobiliyati [6]. Shunga ko'ra, sun'iy intellekt (*artificial intelligence*) - inson intellektining alohida funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi avtomatik tizim sifatida qaraladi, masalan, oldindan to'plangan tajribalarga asoslangan bilimlar va tashqi ta'sirlarni ratsional tahlil qilish asosida optimal tanlash va qaror qabul qilish.

SI ning turli xil ta'riflari mavjud. Quyida ulardan ba'zilarini keltiramiz [6,16]:

- 1) "[avtomatlashtirish] qaror qabul qilish, muammoni hal qilish, o'qitish, o'rgatish ... kabi insoniy fikrlash bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari" (Belman, 1978).
- 2) "Hisoblash modellarini qo'llash orqali intellektual qobiliyatlarni o'rganish" (Charniak, McDermott, 1985).
- 3) "Inson tomonidan amalga oshirilganda intellektni talab qiluvchi funksiyalarini bajaruvchi mashinalarni yaratish san'ati" (Kurzweil, 1990).
- 4) "Hisoblash jarayonlari nuqtai nazaridan intellektual xatti-harakatlarni tushuntirish va takrorlash bilan shug'ullanadigan fan sohasi" (Shalkoff, 1990).
- 5) "Anglab olishni, fikrlashni va harakat qilishni ta'minlaydigan hisoblashlarni o'rganish" (Winston, 1992).
- 6) "Intellektual xarakter(xulq-atvor)larni avtomatlashtirish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi" (Luger, Stubblefield, 1993).

Barcha urinishlarga qaramasdan hozirgacha "Sun'iy intellekt" tushunchasining aniq ta'rifi mavjud emas, va u yangi ilmiy g'oyalar paydo bo'lishi bilan uning ta'rifi yana o'zgaradi. Keling, bu kontseptsiyaning hech

bo'limganda chegaralarini aniglaylik. I. Rich SIni hozirgi vaqtida inson yaxshi bajara oladigan funksiyalarni amalga oshiruvchi kompyuterlarni yaratishga yo'naltirilgan tadqiqotlar sohasi sifatida qaraydi [1, 6, 16]. Odamlarda namoyon bo'ladigan bunday funksiyalarga, idrok etish, tahlil, mulohaza yuritish, bilimdan foydalanish, harakatlarni rejalashtirish, mantiqiy xulosalash va hokazolar kiradi. J. Allen SIga juda yaqin tarif berган: "SI -insonlar yechishi mumkin bo'lgan masalalarni yecha oladigan mashinalarni yaratish haqidagi fan" [16]. Bu yerda SI markazida inson tomonidan muvaffaqiyatli yechiladigan va kompyuterlar tomonidan yomon yechiladigan masalalar qaralgan. Keltirilgan ikkita ta'rifda inson va mashina imkonoyatlari taqqoslangan. Mashinalarning intellektual darajasini aniqlash uchun 1959 yillarda A.Tyuring tomonidan empirik test taklif etilgan [16]. Ushbu testga ko'ra ekspert kompyuter yoki inson bilan muloqot qilaolgan. A.Tyuringning fikricha - agar kompyuter muloqotda qatnasha olsa, u holda u intellektual hisoblangan. Shuningdek, SI- intellektual mashina umumiy nazariyalarini yaratish va ushbu nazariyalarni amaliy masalalarni yechish uchun intellektual tizim(IT)larni yaratishda qo'llashdan iborat.

Har birimizning inson intellektuali to'g'risida o'zimizning sub'ektiv tasavvurlarimiz bo'lsada, oxirgi vaqtarda SI to'g'risida olimlarning turlicha ta'riflari mavjud [16].

- 1) Har qanday, ayniqla, tegishli xatti-harakatlar orqali yangi vaziyatga muvaffaqiyatli javob berish qobiliyati.
- 2) Maqsadga erishishga olib boradigan harakatlarning rivojlanishi uchun haqiqiy faktlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish qobiliyati.
- 3) Yangi dasturiy texnologiyalarni ishlab chiqish va yangi kompyuter arxitekturalariga o'tish.
- 4) Oldindan yaratilgan tizimlar uchun yaroqsiz bo'lgan amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati.
- 5) Oqilona xatti-harakatlarni avtomatlashtirish bilan shug'ullanadigan kompyuter fanlari sohasi.
- 6) Boshqarish masalalarini tabiiy intellektga nisbatan kompyuter yordamida yomon yechmaydigan usullarni formallashtirish.
- 7) Nazorat kompyuteri bilan muammoni hal qilishning rasmiy usullari tabiiy intellektdan yomon emas.
- 8) Insonning intellektli faoliyatini modellashtirishga bag'ishlangan informatika bo'limi.

9) Intellektli avtomatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan informatika bo'limi.

10) Mantiqiy xulosalash va harakatni, o'rganishni amalga oshiradigan hisob-kitoblar haqidagi fan.

11) Informatika yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning maqsadi: an'anaviy intellektli, qabul qilinadigan vazifalarni, tilni tushunish, xulosa, bilimni boshqarish, ta'lim, favqulodda rejalashtirish va amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan kompyuter tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

12) Insonning faoliyatini yetarlicha intellektli qiladigan sun'iy tizimlarni yaratishga qaratilgan fan.

Taniqli britaniyalik A.Endryu biologik va biofizik muammolarga va SI modellariga alohida e'tibor qaratdi. D. Xofstadter SIning fundamental matematika, rasm va mumtoz musiqa bilan yaqin aloqalarini ko'rsatdi [16].

Shunday qilib, bugungi kunda SI ni aniq tarzda ta'riflaydigan hech qanday ta'rif yo'q. Ko'pchilik nuqtai nazardan quyidagi uchta ta'rifda umumiylilik mavjud [16, 17].

1) Intellektual hisoblangan va oldindan rasmiylashtirilmagan va avtomatlashtirilmagan masalalarni yechish uchun yangi modellar va usullar ishlab chiqilayotgan asosiy tadqiqotlar.

2) Fon Neymann arxitekturasi emas, balki yangi dasturiy texnologiyalarni ishlab chiqish va kompyuterga o'tish bilan kompyuterda muammolarni hal qilish bo'yicha yangi g'oyalar bilan bog'liq tadqiqot.

3) Ilgari yaratilgan tizimlar bilan yechib bo'lmaydigan amaliy masalalarni yecha oladigan amaliy tizimlar to'plami haqidagi tadqiqotlar.

SIT- bu kompyuterli, kreativ tizim (ko'p funksiyali, integratsiyali, intellektualli), murakkab strukturali moslashish, o'rnatish uchun, (sintaktik, semantik, pragmatik axborot) maqsadga erishish uchun (aniq maqsadlilik) muhit o'zgarishiga moslashish va soha o'zgarishidagi ichki holat hisoblanadi.

D.V. Gaskarov intellektli tizimlar uchun uchta ta'rifni keltiradi [16]:

1) IT - bu operatorlarni jalb qilmasdan muammolarni hal qilish uchun intellektual qo'llab-quvvatlovchi axborotli hisoblash tizimi.

2) Intellektuallashtirilgan tizim - bu operator ishtirokida muammolarni hal qilishda intellektual qo'llab-quvvatlaydigan axborotli hisoblash tizimi.

3) Intellektual qo'llab-quvvatlaydigan tizim- mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan tizimdir.

SIT deganda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lgan apparat dasturiy majmualari tushuniladi:

- olam va ommalashgan tajrabalarga asoslanmagan bilimlarni faol idrok etish asosida ularni yig'ish va tuzatish;
- mantiqiy xulosalash asosida harakatlarni maqsadga yo'naltirish, noaniqliklarni tavsivlashning turli darajadagi algoritmlari va murakkab tizimlarini boshqarish.

2-§. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari

1200 yillardayoq, sun'iy odam va uning aqlini yaratish uchun urinishlar bo'lган. Ixtirochi Raymond Lullius turli tushunchalarni, tabiiy hodisalani, sub'yeqtlar va ob'yeqtlnarni ramzlarini anglatuvchi harflar bilan belgilangan va turli ranglarga bo'yagan doiralardan tashkil topgan mashinani ishlab chiqgan [12,16].

Mantiqiy amallar yordamida ularning turli kombinatsiyalaridan "bilimlar formulalari" hosil qilindi.

20-asrning 40-yillarida elektron hisoblash mashina(EHM)larning paydo bo'lishi SIning rivojlanishiga sezilarni ta'sir ko'rsatdi.

SI sohasidagi tadqiqotlar ikkita maqsadga yo'naltirilgan:

- 1) Tabiiy intellektning mohiyatini tushuntirish (inson intellekti);
- 2) Yangi bilimlarni qayta o'zgartirish va intellektual masalalarni yechish uchun mashina intellektini qo'llash.

Birinchi maqsadni psixologlar amalga oshiradilar. Ular masalani yechishda inson harakati modelini nazorat qiladi va uni tuzatadilar.

Ikkinci maqsadni tadqiqotchi bajaradi. U odamlar foydalanadigan usullardan qat'iy nazar, tizimning intellektual xatti-harakatini sintez qiladi

Bu maqsadlarga muvofiq SI ikki asosiy qismga bo'linadi: neyrokibernetika va kibernetika "qora quti" [16].

Birinchi yo'nalish ta'kidlaydiki, faqat inson miyasi fikrlash qobiliyatiga ega, shuning uchun ixtiyoriy mashina inson miyasining strukturasi va unug ishslash prinsipini bajarishi lozim.

1950-yillarning oxirida Amerika olimlar U. Mack Kalok, U. Pitts, F. Rosenblatt tomonidan birinchi neyroto'rlar va neyrokompyuterlar ishlab chiqarila boshlandi va ular hozirgi davrda SITning neyrokompyuterlar yo'nalishini tashkil etadi [16].

Ikkinci yo'nalish fikrlaydigan qurilmalaning hatti-harakati prinsiplarini emas, balki ularning ishslashini modellshtirish, ya'ni intellektual masalalarni yechish algoritmlarini izlash, boshqacha qilib aytganda qurilmalar inson miyasi kabi fikrashi emas, balki shaxsiy fikrlash modellariga asoslanishi lozim.

Sun'iy intellektning shakllanishi. SI sohasidagi ishlar neyrokibernetikaning paydo bo'lishidan boshlandi. Inson miyasi ko'p nerv hujayralari - neyronlardan iborat bo'lganligi sababli, tadqiqotchilar neyronlarning birgalikdagi harakatlarini takomillashtirib, intellektli mashina qurishga harakat qilishdi. Neyrokibernetikaning asosiy g'oyasini quyidagicha ifodalash mumkin. Fikrlashi mumkin bo'lgan yagona narsa - inson miyasi hisolanadi. Shuning uchun har qanday o'ylaydigan qurilma inson miyasi strukturasi va hatti-harakati kabi bajarilishi kerak, uning tuzilishini, harakat tamoyilini takrorlaydi. Shunday qilib, neyrokibernetika inson miyasining tuzilishi va uning faoliyatini modellashtirish bilan bog'liq.

1943 yilda Y. Mak Kolak va U.Pits ikkita turg'un holatda turuvchi neyronlar uchun formal mantiqiy modelni taklif qildilar [16].

D.Hebb 1949 yilda neyronlarni o'ganish maqsadida neyronlar orasidagi bog'lanishlar vaznini o'zgartirishning oddiy qoidalarini ishlab chiqdi. 1951 yilda M. Minskiy va D. Edmonds 40 ta neyronlardan iborat neyrokompyuter yaratdi [12,16].

SI borasida olib borilayotgan tadqiqotlarni shartli ravishda uch bosqichga bo`lish mumkin [1,6,12,16].

Birinchi bosqichda (1956-1970 yy.) olimlarning harakati evristik (mutaxassisning tajribasi natijasida) qidiruv nazariyasini yaratishga va faoliyat yoki intellekt darajasiga tegishli bo'lgan «masala yechuvchilar»ni yaratish bo'yicha muammoni hal qilishga qaratilgan. Tadqiqot uchun instrument (asbob) bo`lib EHM xizmat qilgan, har xil o`yinlar, boshqotirmalar, oddiy musiqa asarlari, matematik masalalar o`ylab topilgan. Shunga o`xshash masalalarni tadqiqot uchun tanlash, muammo muhitning oddiyligi va aniqligini, yetarli darajada oson tanlab olish imkoniyatini va usulga qarab sun'iy konstruktsiyani tuzishni talab qiladi. Bu yo`nalishda bir qancha yutuqlarga erishildi. Xususan shaxmat dasturlari hozir juda yuqori takomilga yetkazildi.


Asosiy qiyinchiliklar masalani yechish uchun yaratilgan usullarni sun'iy muhitlarda emas, balki haqqoniy muhitda qo'llashga urinish jarayonida sodir bo`ldi. Bu qiyinchiliklar tashqi dunyo to`g`risidagi bilimlarni ifodalash muammolari bilan, bu bilimlarni saqlashni tashkil qilish va ularni yetarli darajada qidiruv, EHM xotirasiga yangi bilimlarni kiritish hamda eskirib qolganlarini olib tashlash, bilimlarning to`laligi va bir-biriga zidligini tekshirish va shunga o`xshashlar bilan bog`liq. Ko`rsatilgan muammolar bugungi kunda ham to`la yechilmagan, lekin hozirgi paytga kelib shu narsa ravshan bo`lib qoldiki, muammolarni yechish - samarali SI tizimini yaratishning kaliti ekan.

1956 yilda Dartmut kolleji (AQSh) seminarda "sun'iy intellekt" atamasi taklif etildi [6, 16]. SI bo'yicha birinchi ishlar M.Minskiy va J. Makkarti rahbarligida Massachussets Texnologiya Institutida va G.Saymon va A. Nyuell rahbarligida Carnegie Mellon Universitetida olib borildi. Ular S.I.ning "otalari" hisoblanadilar.

SI sohasidagi evristik qidiruv va teoremalarni tasdiqlash (1956-1969) bo'yicha tadqiqotlarning boshlanishi (50-yillarning oxirlari) turli muammolarni hal qilish jarayonlarini tekshirgan Nyuell, Sayman va Shoylarning ishlari bilan bog'liq [6, 16]. Ularning natijalari "MANTIQCHI-NAZARIYOTCHI" deb nomlangan dasturlar bo'lib, ular teoremalarni isbotlash uchun mo'ljallangan va "MASALANI UNIVERSAL YECHUVCHI" bo'lgan. Ushbu ishlar SI sohasidagi tadqiqotlarning birinchi bosqichining boshlanishi bo'lib, u turli xil murakkab usullarni qo'llagan holda muammolarni hal qiladigan dasturlarni ishlab chiqish bilan bog'liq.



Allen Nyuell
(1927-1992)



Xerbert Saymon
(1916-2001)



Jon Klifford Shoy
(1922-1991)

1957-yilda Amerikalik fiziolog F. Rozenblatt tomonidan ob'yektlarni idrok etuvchi va tanuvchi modeli - perseptron taklif qilindi [16].

Perseptron yoki obyektlarni tanib oluvchi dastur ikki rejimda ishlaydi: tanishni o'rgatish rejimida va tanib olish rejimida. Tanishni o'rgatish rejimida, kimdir (odam, mashina, robot yoki tabiat), o'qituvchi kabi, mashinaga ob'yektlarni taqdim etadi va ularning har birining qaysi sinfga qarashli ekanligini oldindan ma'lum qiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida hal qiluvchi qoidalar quriladi. Tanib olish rejimida mashinaga yangi ob'yektlar kiritiladi va ular hal qiluvchi qoidalar yordamida imkoniyat darajasida to'g'ri sinflashtiriladi yoki tanib olinadi.

1960-yillar oxirida ba'zi tillar uchun lug'atdan foydalanish qoidalari va asosiy grammatik qoidalarni sinflash va yetarlicha qayta ishslashga asoslangan holda ilmiy yoki ishchi matnlarni tarjima qiladigan algoritmlar yaratildi.

Mantiqiy fikrlashni modellashtirish masalasiga kelsak, bunda eng yaxshi masalalar modeli sifatida teoremalarni isbotlashni avtomatlashtirish

masalasi hisoblanadi. 1960 yildan boshlab birinch tartibli predikatlar mulohazasida teoremalarni isbotlashni amalga oshiradigan bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Bu dasturlar SI da deduktiv xulosalashda qo'llanilgan. Bunday dasturlar K.Grin va Xao Vanga tomonidan ishlab chiqilgan.

Amerikalik kibernetik A.Samuel tomonidan mashinada shashka o'ynaydigan dastur yaratildi [16]. 1962 yilda bu dastur asosida mashina AQShning eng kuchli shashkachisi R. Nili bilan o'ynadi va uni yutib chiqdi.

SI asosiy yo'nalashlaridan biri-robototexnika hisoblanadi. Birinch yaratilgan robotlarni intellektual deb hisoblab bo'lmaydi. Faqat 1960 yillarda universal kompyuterlar bilan boshqariladigan sezuvchi robotlar yaratila boshladi [12,16]. Misol sifatida 1969 yilda Yaponiyada "sanoat intellektual roboti" yaratish loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyihaning maqsadi - yig'ish-montaj ishlarini bararuvchi sezuvchi manipulyatsiyali robotni yaratishdan iborat edi.

Shunday qilib, 1960-yillarning oxirida SI sohasida asosiy e'tibor masalalarni tavsivlash va holatlar fazosida yechimlarni qidiruv usullariga, hususan, masalalarni mantiqiy shaklda tavsiflash va rezolyusiyalar usuli asosida teoremalarni avtomatik isbotlash qaratildi.

Semantik tarmoqlar 1967 yilda M. Quillian tomonidan taklif qilingan [6, 16]. Tabiiy tilni tushunish tizimini yanada takomillashtirish R. Shenk va W. Wuds nomlari bilan bog'liq.

E. Feygenbaum, B. Bukhenenom, E. Liderbergom tomonidan 1969 yilda ishlab chiqilgan dastur bu - DENDRAL [6, 16, 23] hisoblanadi. *DENDRAL* - murakkab organik molekulalar strukturalarini tanish uchun qo'llaniladigan ekspert tizim

Ikkinci bosqichda asosiy e'tibor (70-yillarning boshidan to 80-yilgacha) intellektual robotlar (real uch o'lchovli muhitda mustaqil holda harakat qiladigan va yangi masalalarni yechadigan robotlar) qurishga qaratildi. Stenford universitetida va Stenford ilmiy tekshirish institutida va boshqa ba'zi bir joylarda laboratoriya sharoitida ishlaydigan tajribaviy robotlar ishlab chiqildi.

Bu borada intellektual funksiyalarning kerakli doirasi: maqsadga yo'naltirilgan xulq(holat)ni ta'minlash, tashqi muhit to'g'risidagi axborotlarni qabul qilish, harakatlarni tashkil etish, o'qitish, odam va boshqa robotlar bilan muloqotni uyuştirish tadqiq qilindi va amalga oshirildi. Masalan, robotlarda maqsadga yo'naltirilgan xulq(holat)ni ta'minlash uchun ular atrof-muhit haqida bilimlar majmuasiga ega bo'lishi zarur. Bu bilimlar robotga tashqi muhit modeli ko'rinishida kiritib qo'yilishi

lozim. Robotning tashqi muhit modeli - bu o`zaro bog`langan ma'lumotlar yig`indisi bo`lib, bu ma'lumotlar mos sinfdagi masalalarini yechish uchun kerak. Robotning bilimlar tizimiga muhitning o`zgarishini qayta ishlab chiquvchi va shu asosda navbatdagi masalani yechishga imkon beruvchi algoritmlar hamda bu rejaning bajarilishini va oldindan rejallashtirilgan harakatlarning kutilayotgan natijalarini nazorat qiluvchi algoritmlar kiritilishi kerak. Demak, intellektual robotlar bilimlar manbaiga ega bo`lishi shart. Bu bilimlar manbaida bilimlar va «Reja tuzuvchi» maxsus blok saqlanadi. «Reja tuzuvchi» blokning zimmasiga robotning harakati dasturini tuzish yuklangan. Bu harakat dasturi robot tomonidan qabul qilinadi va robotning ko`rish vositasi(sensor) tizimi orqali kuzatiladi. Robotning ish jarayonida «Yechuvchi blok» bo`lishi kerak. Bu blok robotning harakati to`g`risidagi yechimni qabul qiladi. Har ikkala blok bilimlar manbaida saqlanuvchi bilimlar asosida ishlaydi. Bu bosqichda ayrim muammolar aniqlandiki, intellektual robotlar yaratishda ularni hal etish zarur. Shunday muammolarga faoliyat ko`rsatadigan muhit haqidagi bilimlarni tasavvur etish, ko`z bilan ko`rganlarni o`zlashtirish, o`zgaruvchan muhitda robotlar xulqi(holati)ning murakkab rejalarini tuzish va robotlar bilan tabiiy tilda muloqotda bo`lish kiradi.

1970 - yillarning boshlarida A. Nyuel va G.Saymonlar fikrlashni modellashtiradigan dasturni tuzish uslubini taklif etdilar [12,16].

1973 yilda Wuds LUNAR tizimini yaratdi, bu esa geoglarning oydan olib kelingan toshlarning namunalari bo'yicha tabiiy tilda savollar berishiga imkon berdi [6, 16].

1973 yilda A. Kolmeroe AQSh, Yevropa, Rossiyada ommalashgan mantiqiy dasturlash tili - Prolog tilini yaratdi. Keyinchalik FRL, KRL, GUS mantiqiy dasturlash tillari ishlab chiqildi [16].

Yaqin vaqtлага qadar murakkab intellektual o`yinlarga yaqqol misol sifatida shaxmat qaralgan. 1974 yilda DT bilan ta'minlangan mashinalar o'rtasida xalqaro shaxmat musobaqasi o'tkazildi. Bu musobaqada shaxmat dasturi bilan ta'minlangan sovet (Rossiya) mashinasi "Kaissa" g'alaba qozondi.

Keyinchalik E. Feigenbaum, B. Bukxenen, E. Shortliff MYCIN - ichak kasalliklariga tashxis qo`yuvchi ekspert tizimini ishlab chiqdi [6,16]. Unda qonda yuqumli kasalliklarni aniqlashga imkon beradigan 450 ga yaqin qoidalar mavjud.

1979 yilda "PROSPECTOR" ekspert tizimi yaratilgan [6, 16]. *PROSPECTOR* foydali qazilmalarni topishda maslahat beruvchi ekspert tizim hisoblanadi.

SI sohasidagi navbatdagi tadqiqotlarning rivojlanishiga predikatlar mantiqi teoremalarini isbotlashga asoslangan Robisonning rezolyusiya usulining paydo bo'lishi ta'sir etdi. Bu tadqiqotlarning maqsadi-inson yechadigan masalalarni huddi insonga o'xshab yechadigan dasturlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.

Uchinchi bosqich (1980 -yillar boshi) idrok etuvchi, dinamik muhitda murakkab rejalarini amalga oshiruvchi, bilimlarni tavsiflovchi, inson bilan tabiiy tilda muloqot qiluvchi robotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq.

Sanoatda qo'llanadigan birinchi IT 1982 yilda McDermott tomonidan ishlab chiqilgan K1 ekspert tizimi edi [6,16]. K1 tizimi VAX oilasining kompyuter tizimlarini sozlash uchun ishlatilgan. Digital Equipment Corporation tomonidan Carnegie Mellon (AQSh) universiteti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan tizimning tijorat versiyasi XCON deb nomlandi [6, 16].

1981 yilda Yaponiyada SI tamoyillariga asoslangan 5-avlod mashinalari uchun loyihaning boshlanishi haqida xabar berildi. Ushbu loyiha SI sohasida ko'plab mamlakatlarda tadqiqotlarning jadallashtirilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

1985 yildan boshlab, ekspert tizimlar, undan keyin tabiiy tillarni (EYa-tizimlari) tushunuvchi tizimlar, so'ngra neyronli to'r(NT)lar tijorat ilovalarida faol qo'lanila boshladи.

SITlarini ishlab chiquvchilariga savdodagi muvaffaqiyatlar darhol kelmadi. 1960-1985 yillar mobaynida SIning yutuqlari asosan SITni amaliy masalalarni yechishga qo'llashdagi muvaffaqiyotlari bilan bog'liq.

1986-1996 yillarda SI sohasidagi tadqiqotlarda mustaqil yo'nalish sifatida *ekspert tizim(ET)lar* yoki bilimlar injeneriyasi shakllandi [6,16,23]. Bu yo'nalishdagi masalalarga inson-ekspertga qiyin tyulgan, y'ni bilimlarga va masalani yechish uchun xulosalash proseduralariga asoslangan dasturlar yaratish va tadqiqotlar olib borish kabilar kiradi.

1996-2000 yillarda SI sohasidagi tadqiqotlarda *integrallashgan va gibrid prinsiplariga asoslangan tizimlar* yaratildi va shakllandi. Bu tizimlarning asosi - bilimlar bazasi, bilimlarni avtomatik olish, deduktiv, abduktiv va noravshan mantiqiy xulosalash, muammoli-yo'naltirilgan muloqot tili, statik va dinamik axborotlarni qayta ishslash kabilar hisoblanadi.

1990-yillardan boshlab SIda asosan ikkita yo'nalish ustunlik qilmoqda: integratsiyalashuv (o'zaro birlashuv) va detsentrallashuv (markazlahgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tish).

Integratsiyalashuv jarayonlar SIning turli modellarini, masalan noravshan ET va NTlarni o'zida birlashtiruvchi integrallashgan va gibridd tizimlarini yaratish bilan bog'liq. Bunday integrallashgan tizimlarda bilimlarni tavsiflashning turli modellari, fikrlashning turli shakllari, idrok etish va timsollarni anglash modellari o'z aksini topadi.

Detsentrallashuv jarayonlar SIda bir-biri bilan o'zaro bog'langan ko'p sonli intellektual agentlarning jamoaviy hatti-harakati nuqtai nazaridan qaraladi.

Agent quyidagilarni amalga oshiradi:

- boshqa agentlarga ta'sir etadi;
- o'zining shaxsiy maqsadlarini tashkillashtiradi;
- boshqa agentlar bilan muloqot qiladi;
- o'zini nazorat qiladi;
- muhitning lokal tavsifini quradi;
- vazifasini bajaradi va xizmat ko'rsatadi.

XXI asr boshlanishi SIning o'zini-o'zi o'rgatadigan, moslashuvchan, o'zida NTlarni va bilimlarni tavsiflash modellarini birlashtiruvchi gibridd tizimlar uchun intellektual muloqotli tizimlarni yaratish va tadqiqotlar olib borish bilan xarakterlanadi.


SITlarining hozirgi davrgacha va kelajakdagi vaqtli taqvimi 1.1-rasmida keltirilgan.

3-§. Zamonaviy intellektual tizimlar va ularning asosiy yo'nalishlari

Tarixiy jihatdan SIni modellashtirishning *uchta asosiy yo'nalishlari* shakllandi [1, 5, 6, 12, 16, 17].

Birinchidan, tadqiqotning maqsadi inson miyasining tuzilishi va mexanizmlari va yakuniy maqsadi fikrlash sirlarini oshkor qilishdir. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlarning zarur bosqichlari psixofiziologik ma'lumotlarga asoslangan modellarni qurish, ular bilan tajriba o'tkazish, intellektual faoliyat mexanizmlari bo'yicha yangi farazlarni ilgari surish, modellarni takomillashtirish va boshqalar.

Ikkinci yondashuvda tadqiqot obyekti sifatida SI qaraladi. Bu yerda so'z kompyuterlar yordamida intellektual faoliyatni modellashtirish masalasi haqida boradi. Bu yo'nalishdagi ishlarning maqsadi - kompyuterlar uchun algoritmik va DTni yaratishdir, bu esa intellektual vazifalarni insondan yomonroq bo'lmasdan holda yechish imkonini beradi.



1.1-rasm. SIning vaqtli taqvimi.

Va nihoyat, *uchinch yondashuv* tabiiy intellekt va SI imkoniyatlarini birlashtiruvchi interfaol intellektual tizimlar yoki inson-mashina tizimlarini yaratishga mo'ljallangan.

SI mutaxassislari orasida SI sohasi va hatto uni tadqiq etish maqsadlarida yagona nuqtai nazar yo'q. Hozirgi vaqtida SIni modellashtirish uchun ikkita nuqtai nazar (yo'nalishlar) ajratilmoqda: tizimning ichki strukturasini modellashtirishga qaratilgan SI va funksiya vazifasini qat'iy belgilashdan iborat mashinali intellekt.

Neyrobionikaning tarafdorlari inson miyasida yuz beradigan sun'iy jarayonlarni modellashtiradi. Shunday qilib, SI his qilish mexanizmlarini tushunish, miyaning ishlash usullarini ochish, biologik tuzilmalarni modellashtirish uchun texnik vositalar yaratish va ulardag'i jarayonlarni o'rganadi.

3.1. Neyrobionik yo'nalish

Neyronli modellar nafaqat inson miyasining funksiyalarini takrorlaydi, balki shu bilan bir qatorda o'zlarining funksiyalarini ham bajarishi mumkin. Shuning uchun ham neyronli modellashtirishda bir-birini o'zar to'ldiruvchi ikkita maqsad bor edi va hosirgi vaqtida ham mavjud: birinchisi - fiziologiya va psixologiya darajasida inson miyasi tizimlari faoliyatini tushunish, va ikkinchisi - inson miyasi tizimlari faoliyatiga o'xshash funksiyalarini bajaruvchi hosoblash mashinalarini (sun'iy NTlarni) yaratish [16].

1949-yilda D.Hebb modeli [16]-inson yordamida o'rgatish modeli yaratildi. U shunday o'rgatuvchi qonunni yaratdiki, ushbu qonun sun'iy NTlarni o'ganuvchi algoritmlar uchun boshlang'ich nuqta bo'ldi.

1950-1960 yillarda bir guruh tadqiqotchilar birinchi sun'iy NTlarini yaratdilar. Dastlab ular elektron tarmoqlar sifatida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik yanada moslashuvchan kompyuterli modellash muhitiga o'tkazildi. Neyronkompyuter yaratish g'oyasi Fon Neyman EHMLarining yaratilishi bilan bir vaqtida paydo paydo bo'lgan [16].


Mak Kallok va Pittsalarning neyro-hisoblash (Mc Culloch and Pitts, 1943) bo'yich asosiy ishlari 1943 yilda paydo bo'ldi [16]. Ular inson miyasiga o'xshab ishlaydigan komputer sxemasini taklif qildilar va nerv katakchalari-neyronning qisqartirilgan modelini yaratdilar.

Birinchi tajribaviy neyrokompyuter Snark 1951 yilda Marvin Minsky tomonidan qurilgan, ammo neyrokompyuterning birinchi muvaffaqiyatini Amerikalik Frank Rosenblattning perseptronni (ingliz tilidan perceptron –

his, his qilish) ishlab chiqishi bilan bog'lashadi [16]. U sodda tasvirlarni o'rganish bo'yicha birinchi ishlab chiqilgan NTlardan biri edi.

Ilmiy jamoatchilikning NTlarga bo'lган qiziqishi 1980 yillar boshida fizik Xopfildning nazariy ishlaridan so'ng boshlandi (1982, 1984) [16].

Neyronli qayta ishlash tizimlarini 1.2-rasmdagidek sinflash mumkin.



1.2 –rasm. Neyronli qayta ishlash tizimlarini sinflash.

Umumiy maqsadlarga mo'ljallangan neyropaketlar –keng ko'lamli vazifalar (masalan, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash) uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlardir.

Neyroilovalarni ishlab chiqish tizimlari - bu ma'lumotlarni qayta ishlash uchun o'rnatilgan NTlardan foydalanadigan dasturiy kodni ishlab chiqishi mumkin bo'lган dasturdir.

Murakkab NTlarini ishlab chiqish uchun qulay vositalardan biri – MATLAB hisoblanadi. MATLAB qayta ishlash (*wavelet* – tahlil, statistika, iqtisodiy tahlil va h.k.) usullari bilan birgalikda neyroto'rli usullarni tahlili uchun qulay muhit hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida neyroto'rlar ishlab chiqarishning aniq (korxonani boshqarish, tashkiliy-texnik tizimlar, reaktorlar va boshqalar) masalalarida keng qo'llanolmoqda. Misol uchun, Falcon mahsuloti plastik karta to'lovlar bo'yicha bankning avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimiga kiritilgan.


3.2. Axborotli yo'nalishi

Axborotli yo'nalishi uch tipga bo'linadi [16].

1. Evristik dasturlash - bu original uslublarni ishlab chiqish, masalalarni inson kabi, ba'zi hollarda undan ham yaxshi yechadigan

algoritmlarni ishlab chiqishdir. *Evristik* – bu murakkab masalalar yechimni topishda qo'llaniladigan tizimning samaradorligini oshirish uchun foydalilaniladigan qoida, strategiya, uslub yoki qoidalar tushuniladi. *Evristik dastur* - bu evristikani ishlatajigan kompyuter dasturi. Webster lug'atiga ko'ra, "evristik" - "kashfiyotni osonlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Evristik dasturlar shaxmat, shashka, karta o'yinlarini o'nashi mumkin, savollarga javoblarni topadi, matematik hisoblar sohasidan yechimlarni topadi, matematik mantiq va geometriya teoremlarini isbotlaydi, o'z tajribalari asosida o'rgatishlarni amalga oshiradi va turli xil masalalarni yechadi. D.A.Pospelov tomonidan taklif etilgan intellektual masalalarni yechuvchi dasturlar strukturasi 1.3-rasmda keltirilgan [16, 17].




1.3-rasm. Intellektual masalalarni yeshuvchi dasturlar.

2. Bilimlarga asoslangan tizimlar. Bu ikkinchi asosiy yo'nalish bo'lib, SIning poydevorini tashkil etadi [16]. Ushbu yo'nalishda bilimlar asosida SIni o'rganish muammolari o'rganiladi (1.4 - rasm).


SI bo'yicha o'rganilayotgan keyingi katta muammo - bu tizim xotirasida bilimlarning tasvirlanishi. Buning uchun turli xil bilimlarni tasvirlash modellari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda intellektual tizimlarda to'rtta asosiy bilimlar modelidan foydalanadi:

- Semantik tarmoqlar;
- Freymlar;
- Mantiqiy tizimlar;
- Produksiyalar.



1.4-rasm. Bilimlarga asoslangan tizimlar strukturasi.

3. Intellektual dasturlash. SIdagi ushbu yo'nalish dasturchining ushbu sohaga nisbatan qarashlariga mos keladi. Intellektual ilovalarni yaratishdagi qiyinchiliklar foydalanilgan algoritmik tilga, instrumental tizimga, dasturlash paradigmalariga, intellektual axborot tizim(IAT)ni yarish vositalariga va bilimlarni olishga, grafikli tizimlarga bevosita bog'liq (1.5-rasm) [1,12,16].



1.5-rasm. Intellektual tizimlarning asboblar vositalari

Ko'plab dasturiy tillar orasida SI bo'yicha kichik bir qismi ishlatiladi:

1)C, C ++ kabi an'anaviy dasturlash tillari asosan instrumental tizim yaratish uchun qo'llaniladi.

2) Maxsus dasturlash tillari:

- Ro'yxatlarni qayta ishslashga yo'naltirilgan LISP va uning ko'p sonli versiyalari;
- PROLOG mantiqiy dasturlash tili. Oldin mashinali tarjima qilishda, keyinroq esa mantiqiy ifodalardan mantiqiy xulosalashda qo'llaniladi;

- Rekursif funksiyali REFAL tili.

3)BNEda qo'llaniladigan tillar: KL-1, KRL, FRL freymlarga mo'ljallangan, PILOT produsiyali modellarga mo'ljallangan.

Instrumental tizimlar yetarli darajada tez rivojlanadi va turli xil intellektual tizimlarni loyihalash va yaratish uchun mo'ljallangan. Hozirgi davrgacha ETlar deb nomlanuvchi ko'plab instrumental vositalar ishlab chiqilgan [1,12,16]. Masalan, EKO, Leonardo, Nexpert Object, Kappa, EXSYS, GURU, APT, KEE Vva h.k.

Shuningdek, oxirgi yillarda integrallashgan instrumental tizimlar ishlab chiqarila boshlandi. Sunday tizimlarga misol sifatida Work bench tizimlarga KEATS, Shelly, VITAL larni keltirish mumkin [16].

Aniqlik uchun birinchi tizimning tarkibiy qismlarni keltiramiz:

- matnli bilimlarni qismlarga ajratish;
- freymlı modeldan foydalanib bilimlarni tavsivlash;
- gipertekstli va kontseptualli modellarni yaratish uchun grafikli interfeys;

- to'g'ri va teskari xulosalashning interpretatori;
- mantiqiy chaqirishni vizuallashtirish instrumenti;
- bilimlar bazasidagi jadvallarni boshqarish interfeysi.

Intellektual tizimlarni yaratish vositalari. Bularga muammoga / predmetga yo'naltirilgan qobiq va muhitlarni kiritamiz: muayyan sinf muammolarini (bashoratlash, rejalashtirish, boshqarish va h.k. larni) yechishga mo'ljallangan va muayyan funksional modullarni o'z ichiga olgan vositalar;

▪predmet soha tiplari haqidagi bilimlar uchun - predmetga mo'ljallangan vositalar.

Dasturlash paradigmalariga quyidagilar kiradi:

- protsedurali dasturlash;
- ma'lumotlarga mo'ljallangan dasturlash;
- qoidalarga mo'jallangan dasturlash;
- obyektga mo'jallangan dasturlash.

Birinchi paradigmadagi protsedurali dasturlash jarayon(lar)ning deterministik harakatlar ketma-ketligini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Ikkinci paradigmadagi ma'lumotlarga mo'ljallangan dasturlash ma'lumotlarga murojaat qilishda ishlatiladi.

Qoidalarga asoslangan paradigmada "shart-harakat" qoidalari aniqlanadi va ular yordamida ma'lumotlar bazasidagi timsol(obraz) bilimlar bazasidagi namunaviy timsol bilan solishtiriladi.

Obyektga mo'ljallangan paradigmada lokal proseduralar va lokal qiymat(o'zgaruvch)larga ega bo'lgan obyektlar deb ataladigan tushunchalar atrofida tashkillashtiriladi. Bu yerda xatti-harakatlar obyektlar orasidagi xabarlarni bir-biriga jo'natish orqali amalga oshiriladi. Obyekt xabarni olib, lokal protseduralar va qiymarlar asosida ushbu habarni lokal ravishda o'zgartiradi.

Kognitiv grafikli tizimlar intellektual dasturlashning yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U matnli va ko'rinishga ega bo'lgan obyektlar haqidagi bilimlar asosida ularni aniqlash bilan shug'ullanadi. Bu yo'nalish juda istiqbolli bo'lib, keljakda bu sohada masalalarni yechishning yangi uslublari va ularni yechishning yangi texnologiyalari yaratiladi.

SITlarini qurishning turli yondashuvlari. SITlarini qurishning turli yondashuvlari oldin ham bo'lgan va hozirgi vaqtida ham mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, SIni to'liq quradigan tizimlar oldin ham bo'lмаган va hozirgi davrda ham mavjud emas. Shuning uchun SIni qurishdagi yondashuvlarning qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini aniq aytish qiyin masalaligicha qolmoqda.

SITlarini qurishning quyidagi mavjud yondashuvlarini keltiramiz:

1) **Mantiqiy yondashuv.** Mantiqiy model uchun asos sifatida Bul algebrasi xizmat qiladi. Bul algebrasining rivojlanishi predmet belgilar, ular orasidagi munosabatlar, mavjudlik va ixtiyorilik kvantorlarini o'z ishiga olgan predikatlar mantiqi hisobiga kengaydi. SIning har bir tizimining ishlashi asosan mantiqiy qoidalarga asoslangan. Bunga misol sifatida teoremlarni isbotlashni keltirish mumkin. Teoremlarni isbotlashda boshlang'ich ma'lumotlar aksiomalar sifatida ma'lumotlar bazasida, ular orasidagi munosabatlar mantiqiy xulosalash qoidalari sifatida saqlanadi. Bundan tashqari, har bir mashinada maqsadlarni generatsiy qilish bloki mavjud bo'ladi va xulosalash tizimi ushbu maqsadlarni teoremlar ko'rinishda isbotlaydi.

2) **Strukturali yondashuvda** inson miyasining tuzilishini modellashtirish asosida SIni qurish masalalari qaraladi. Bunday modelni qurishga misol sifatida Rozenblatt perseptronini, xatoliklarni teskari tarqalishiga asoslangan NTlar, Hopfield NTlar va stoxastik NTlarini keltirish mumkin. Shuningdek, NTlar timsollarni anglash masalalarida ham keng miqyosda qo'llanilmoqda.

3) **Evolyutsion yondashuvda** SIni qurish masalalarida asosiy e'tibor boshlang'ich modellar va qoidalarni qurishga qaratiladi va undan keyin ular asosida SIni qurish evolyutsiyali (uzluksiz rivojlanish) shaklda rivojlanadi. Bu rivojlanish turli tipdagи usullarni o'z ichiga oluvchi yangi modellarni

qo'llash bilan amalga oshiriladi. Masalan, NTlar modeli, mantiqiy qoidalar nabori va boshqa ixtiyoriy modellar bo'lishi mumkin. Bu modellar kompyuterga kiritilgandan so'ng, u usbu modellarni tekshirish asosida ular orasidan eng yaxshilarini tanlaydi va ularni generatsiya qilish natijasida yangi modellar hosil qilinadi, hosil qilingan yangi modellar orasidan eng yaxshisi tanlanadi va h.k. Shuni ta'kidlash joizki, evolyutsion modellar evolyutsion o'rgatuvchi algoritmlar ko'rinishida bo'ladi.

4) *Imitatsiyali yondashuv* kibernetika sohasidagi "qora quti" tushunchasi bilan uzviy bog'liq. "Qora quti" – kirish va chiqish signallarining vazifasi ma'lum bo'lgan, ichki strukturasi va mazmuni haqidagi axborotlar noma'lum bo'lgan ma'lumotlar majmuasi, dasturiy modul va qurilma. Obyektning xatti-xarakatini imitatsiy qilishni "Qora quti" misolida ko'rish mumkin. Bunda "Qora quti"ning, modelning tuzilishi va uning qanday boshqarilishi muhim emas, balki ushbu modelning o'zini tutishi boshqa vaziyatlarda ham o'zgarmasligi lozim.

Shunday qilib, imitatsiyali yondashuvda – insonning boshqalardan nusxa olish qobiliyati, ya'ni boshqalar nima qilayotgan bo'lsa, xuddi ularga o'xshab bajarishni amalga oshirish modellashtiriladi. Ko'p hollarda nusxa olish qobiliyati insonga biror ishni bajarishda vaqtini kam sarflashga olib keladi.

SIni qurishning yuqorida keltirilgan yondashuvlari tahlilidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, amaliy masalalarni yechishda ular orasida qat'iy chegara yo'q. Amaliyotda shunday masalalar uchraydiki, ularni yechishda aralash tizimlardan foydalaniladi, ya'ni ularning bir qismini yechishda ma'lum bir yondashuvga mos usullardan foydalanilsa, boshda qismini yechishda boshqa yondashuga mos usullardan foydalaniladi.

3.3. Sun'iy intellekt tizimlarini sinflash

Muammolarni maqsadli tavsiflash uchun SI tizimlarini sinflashning eng muhimlarini keltiramiz.

A.V. Andreychikov va O.N. Andreychikova SITlarni quyidagicha sinflashni taklif qiladi [16]:

Intellektual axborot tizimi (IAT) - muammolarni hal qilish uchun yuqori malakali ekspertlar bilimlarini o'rganish va qo'llashdir. Bunday tizimlarning xususiy holi sifatida exspert timlarni keltirish mumkin.

1) *Tabiiy tilli interfeys va mashinali tarjima*. Bu tabiiy tilda insonning kompyuter bilan aloqa jarayonini amalga oshirishni ta'minlaydigan tizimlarni ishlab chiqish va usullarni tadqiqot qilishdan iborat.

2) *Nutqni generatsiya qilish va tanib olish*. Ovozli aloqa tizimlari kompyuterga axborot kiritish tezligini oshirish, shuningdek, masofadan turib ivozli muloqotni amalga oshirish uchun yaratilgan.

3) *Vizual axborotlarni qayta ishlash*. Bunday tizimlarda tasvirni qayta ishlash, tahlil qilish va sintez qilish masalalari yechiladi.

4) *O'rgatish va o'zini-o'zi o'rgatish*. Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtiruvchi protseduralardan foydalangan holda bilimlarni yig'ish va shakllantirishni avtomatlashtirish uchun modellar, usullar va algoritmlar yaratish. Bu tizimlarga Data-mining, Knowledge, Discovery va boshqalar kiradi.

5) *Timsollarni anglash*. Obyektlarni belgilari asosida o'rganish jarayonida sinflarga xos belgilarni topish va ular asosida yangi obyektlarning oldindan berilgan sinflarning qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlash yoki obyektlarni avtomatik ravishda sinflarga ajratishdan iborat.

6) *O'yinlar va mashinali ijod qilish*. Mashinali ijod qilish - bu musiqalar, rasmlar va grafikalar, she'rlar, badiiy asarlar, yangi obyektlarni kashf etish, intellektual kompyuter o'yinlarini yaratish uchun mo'ljallangan mashinali dasturlar.

7) *SI tizimlarining DTi*. SI tizimlarini yaratishning instrumental vositalariga- belgili axborotlarni qayta ishlash (LISP, SMALLTALK), mantiqiy dasturlash tillari (PROLOG, LISP, CLIPS, EKLIPS, PLANNER, MERKURY, ALISE, KL0, ShapeUp), bilimlarni tavsiflash tillari (OPS-5, KRL, FRL), instrumental vositalardan iborat integrallashgan dasturiy muhitlar (KE, ARTS, GURU, G2), shuningdek, ekspert tizimning qobig'lari (BUILD, EMYCIN, EXSYS, Professional, ҶКСНЕПТ) kiradi.

8) *Yangi kompyuter arxitekturasi*. Bu belgili axborotlarni qayta ishlashga qaratilgan Fon Neyman arxitekturasiga asoslanmagan kompyuterlarni yaratish. Hozirgi vaqtida parallel va vektorli kompyuterlar mavjud.

9) *Intellektual robotlar*. Hozirgi vaqtida qat'iy sxemali boshqarishga ega dasturlashtiriladigan manipulyatorlar ishlatiladi.

E.V. Lutsenko SITlarning quyidagi sinflarini qarab chiqishni taklif etadi [16]:

1. *Intellektual teskari aloqali va intellektual interfeysli tizimlar*. Intellektual interfeys - foydalanuvchilar uchun matnli so'rovlarini qayta

ishlash dasturlari orqali axborotlar kompleksi va foydalanuvchi resurslari o'rtasida o'zaro ta'sir o'tkazish interfeysi.

Misol sifatida shaxsni qo'l yozuvi bo'yicha identifikatsiya va autentifikatsiya qilish dasturini keltirish mumkin. *Autentifikatsiya* - bu foydalanuvchining haqiqatan ham o'zi ekanligini tekshirish. *Identifikatsiya* – bu shaxsni tanib olishdir.

2. Biologik teskari aloqa (BTA) tizimlari – foydalanuvchining psixofizik (biologik) holatiga bog'liq tizimlar hisoblanadi.

▪ Yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash uchun konveyerda xodimlarning holatini nazorat qilish;

▪ O'z holatini funksional buzilish tufayli boshqara olmaydigan bemorlarni o'rgatish uchun kompyuterli trenajorlar.

3. *Semantik rezonansli tizimlar* – foydalanuvchining ma'noli omillarga nisbatan psixologik reaksiyasiga va uning ongingin holatiga bog'liq bo'lgan hatti-harakat tizimlari.

4. *Virtual haqiqiy (amaliy) tizimlar.*

1) Virtual haqiqiy tizimlar - kompyuter yordamida yaratilgan, foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarga amaliy javob beruvchi 3D muhitli model.

2) *Timsollarni anglab olishning avtomatlashtirilgan tizimlari.* Timsollarni anglovchi tizim (TAT)lar – SI tizimlarining alohida sinfl bo'lib, ular quyidagilarni ta'minlaydi:

▪ obyektlarning aniq timsollarini va umumlashgan timsollarning sinflari shakllantiriladi;

▪ o'qituvchi yordamida o'rganish - bunda obyektlarning qaysi sinfga qarashliligi, obyektlar, belgilar soni ma'lum bo'ladi va ular asosida etalon tanlovdagi har bir sinfga xos muhim belgilar topiladi, topilgan belgilar yordamida yangi ob'yeqtar aniqlanadi;

▪ o'qituvchisiz o'rganish – bunda obyektlarning qaysi sinflarga qarashliligi va sinflar soni noma'lum, obyektlar, belgilari soni ma'lum bo'ladi va ular asosida obyektlar to'plami sinflarga ajratiladi;

▪ o'zini-o'zi o'rganish- bunda obyektlarning qaysi sinflarga qarashliligi va sinflar soni noma'lum, obyektlar, belgilari soni ma'lum bo'ladi, obyektlar to'plami klasterlar yordamida sinflarga ajraladi va sinflar soni obyektlarni sinflash jarayonida avtomatik ravishda hosil qilinadi;

3) Qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi avtomatlashtirilgan tizimlar. Bu tizimlar – bu zaif strukturalangan va strukturalanmagan qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydigan, deyarli interfaol tizim bo'lib, menedjerga (boshqaruvchiga) boshqaruv qarorlarini qabul qilishda,

ma'lumotlarni birlashtirib, murakkab analitik modellar va foydalanuvchilarga mo'ljallangan DTlarni yagona kuchli tizimga aylantirishda yordam berish uchun mo'ljallangan. Qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi tizimi foydalanuvchi tomonidan boshidan to amalga oshirilguncha boshqariladi va har kuni ishlataladi. Dastlabki ma'lumotlarning ko'p qirrali va noaniqligi sharoitida dastlabki alternativ variantdan oqilona variantni tanlashni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan.

4) *Ekspert tizimlar*. Ekspert tizim(ET)lar predmet sohada ekspert yoki mutaxassislar guruhining o'rnini bosadigan dastur hisoblanadi. ETlari zaifstraturalshgan va murakkab formatlashtirilgan masalalarda yuzaga keladigan amaliy muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan.

5) *Genetik algoritmlar va evolyutsiyani modellashtirish*. Genetik algoritmlar biologik evolyutsiyani kompyuterli imitatsiya asosida funksional optimallashtirishning moslashuvchan usullari hisoblanadi. Genetik algoritm optimallash muammolarini hal etishning eng yangi usuli hisoblanadi.

6) *Kognitivli modellashtirish*. Bu omillarning nazorat obyektiga ta'sirida o'xshashlik va farqlarni inobatga olgan holda, tekshiruv obyektining maqsadli holatiga o'tqazishning ta'sir kuchini va yo'nalishini aniqlash imkonini beruvchi tahlil usuli.

7) *Tajribadan (empirik ma'lumotlar) bilimlarni olish va ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish (Data Mining)*. Ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish inson faoliyatining turli sohalarida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan "hom" ma'lumotlarda oldindan noma'lum, ahamiyatsiz, amalda foydali va tushunarli izohlashni aniqlash jarayonidir. Telekommunikatsiya muammolarini hal qilishda, valyuta bozorini tahlil qilishda va hokazolarda Data Mining texnologiyasining yutuqlari banklarda faol qo'llaniladi.

8) *NTlari*. Sun'iy NT - bu bir-biriga bog'langan neyronlar to'plami. Odatda, to'rdagi barcha neyronlarning uzatish funksiyalari aniqlanadi va vaznlar to'rning parametrlari bo'lib ular o'zgarishi mumkin. Neyronlarning ayrim kirishlari to'rning tashqi kirishlari va ba'zi chiqishlar to'rning tashqi chiqishi hisoblanadi. To'rning kirishiga biron-bir raqamni mos qo'yib, biz to'r chiqishlarida raqamlar to'plamini olamiz. Deyarli har qanday muammoni NT orqali hal qilinadigan masalaga olib kelish mumkin.

S.N.Pavlov E.V. Lutsenko va D.V. Gaskarovning tasniflarni tahlil qilib, SIning quyidagi yo'nalishlarini taklif qiladi [16].

1) Birinchi avlod (oddiy, murakkab) va II avlod ETlari (integrallashgan, ko'p funksionalli, intellektualli, kreativli (ijodli) va gibridli.

2) Intellektual ishlab chiqarish tizimlari: savol-javob tizimlari, mantiqiy - hisoblash tizimlari, intellektli LIAT, ABT.

3) NTLari va neyrokompyuterlar (NTLari va neyrokompyuter texnologiyalari).

4) BBni qurish va qurishni avtomatlashtirish, tahlil qilish, qayta ishslash va bilimlarni olish.

5) O'rgatish va o'zini-o'zi o'rgatish (maslahatchi tizimlar, intellektual murabbiylar, maktab va oliy ta'lim tizimlari).

6) Evolyutsion modellashtirish (genetik algoritmlar, sinflovi chi tizimlar, genetik dasturlash, evolyutsion dasturlar, evolyutsion strategiyalar).

7) Mashinali tarjima qilish tizimlari.

8) Tabiiy-tilli aloqa tizimlari (muloqot qilish, tabiiy-tildagi mulohazalarni tusunadigan va o'zgartiradigan mashina tiliga o'tish).

9) Ovozli muloqot tizimlari (sintez (matn-ma'no), nutqni tahlil qilish va anglab olish (ma'no-matn)).

10) Vizual axborotlarni ishslash tizimi (tasvirlarni ishslash, tahlil va sintez qilish).

11) Timsollarni anglovchi tizimlar.

4-§. Sun'iy intellektni inson faoliyatining turli sohalariga tadbiq etish

SI ning qo`llanilish sohalariga quyidagilar kiradi:

- Teoremalarni isbotlash;
- O`yinlar;
- Timsollarni anglash;
- Qaror qabul qilish;
- Adaptiv (moslashuvchan) dasturlash;
- Mashinada musiqalarini bastalash;
- Tabiiy tilda ma'lumotlarni qayta ishslash;
- O`qituvchi to`rlar (neyroto`rlar);
- Og`zaki kontseptual o`qitish.

NTlar quyidagi sohalarga qo`llanilmoqda: timsollarni anglash, ma'lumotlarni ishslash, timsollardagi ma'lumotlarni to'ldirish, assosiativli qidiruv, sinflash, optimallashtirish, bashoratlash, tashxis qo'yish, signallarni

ishlash, jarayonlarni boshqarish, ma'lumotlarni segmentlash, ma'lumotlarni siqish, murakkab jarayonlarni boshqarish, mashinali ko'rish, nutqlarni tanish va h.k.

Hozirgi vaqtida har bir predmet sohada NTli masalalarni topish mumkin.

Iqtisod va biznes. Bozorlar va banklarning sinishini oldindan aytish, avtomatik diling, kreditlarni qaytarmaslikning oqibatini baholash, ko'chmas mulk narxini baholash, avtomatik reytinglash, buyum va pulli oqimlarni optimallashtirish, chek va shakllarni hisoblashni avtomatlashtirish kabi masalalarni yechishda qo'llaniladi.

Misol: yirik savdo shaxobchalarida ma'lumotlarning katta oqimimini tahlil qiluvchi NTli vosita (<http://www.retek.com>).

Tibbiyot. Bu sohada tibbiy tasvirlarni ishslash, bemorlarning holatini monitoring qilish, tashxis qo'yish, davolashni samaradorligini faktotli tahlil qilish, davolashni nazorat qilish kabi masalalar yechiladi. *Misol:* ko'z qatlami tomirlaridagi melonomlarni oldindan tashhislash tizimi (<http://www.chat.ru/neurocon>).

Avionika. Bu sohada o'rgatuvchi avtomatlar, radar signallarini anglab olish, kuchli shikastlangan samolyotda uchish apparatini boshqarishga moslashish kabi masalalar yechiladi. *Misol:* Samolyotning qanday shikastlanish turidan qat'iy nazar real vaqt rejimida uchishni avtomatik rejimga o'tkazish.

Aloqa. Bu sohada bideoaxborotlarni siqish, tez kodirovka-dekodirovkalash, sotkali tarmoqlarni va paketlarni marshrutlash sxemalarini optimallashtirish kabi masalalar yechiladi. *Misol:* ranglarni 240:1 darajada qisish orqali kodlashtirishning maxsus sxemasi (<http://www.ee.duke.edu/ce/JPL/paper.html>).

Internet. Bu sohada axborotlarni assotsiativ qidiruv, elektron kotibalar va tarmoqlardan foydalanuvchi agentlar, tizimlarda axborotlarni filtrlash, manzilli reklama, elektron savdo uchun manzilli marketing kabi masalalar yechiladi. *Misol:* alohida neyroagentlar ko'rinishidagi foydalanuvchilarining kasbiga qiziqishlarini va foydalanishlarini ta'minlovchi AGENTWARE tizimi (neyrokotibalar) (<http://www.agentware.com>).

Siyosiy texnologiyalar. Bu sohada sotsiologik so'rovlarni tahlil qilish va umumglashtirish, reytinglarni tashhislashni oldindan aytish, muhim faktorlarni ajratib olish, aholining sotsial dinamikasini vizuallashtirish kabi masalalar yechiladi.

Xavfsizlik va qo'riqlash tizimlari. Ushbu sohada shaxsni anglab olish, shaxs ovozini va yuzini tanib olish, avtomobilarning tartib raqamini tanib

olish, aerokosmik rasmlarni tahlil qilish, axborot oqimlarni monitoring qilish, yasama(imzo, rasm, so'z, chek va h.k.)larni aniqlash kabi masalalar yechiladi. **Misol:** yasama cheklarni aniqlash tizimi (Tearing up the Rules, Banking Technology, noyabr 1993).

Axborotlarni kiritish va ishlash. Ushbu sohada qo'lyozma cheklarni ishlash, imzolarni, barmoq izlarini va ovozlarni aniqlash, kompyuterga iqtisodiy va soliq xujjatlarini kiritish kabi masalalar yechiladi. **Misol:** to'lov xujjatlarini va soliq deklaratsiyalarini avtomatik kiritish va anglab olish uchun Flex Read seriyali paketlar.

Rossiyada YU.I.Juravlev ilmiy raxbarligida RASPOZNAVANIE dasturiy tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, undagi dasturlar bibliotekasi chiziqli, mantiqli, statistik, neyroto'rlar, bashoratlashning gibridd usullari, bashoratlash usullari, sinflash va pretsedentlardan bilimlarni olish, hamda bashoratlash va sinflashning uyushgan usullari bilan ta'minlangan.

RASPOZNAVANIE tizimi tarkibiga kiruvchi dasturiy paketlar (PARK, OBRAZ, DISARO, LOREG va TaxonSearch) ko'plab amaliy masalalarni yechishda qo'llanilgan va amaliyatga tadbiq etilgan:

Biznes va va moliya sohasida:

- kvartiralarning narxini baholash;
- kreditli kartochkalarni nazorat qilishda;
- harakatdagi obyektlarni anglashda.

Tibbiyotda va sog liqni saqlash sohasida:

- aholini yoshi bo'yicha klasterlashda;
- ko'krak rakini anglashda;
- insultga tashxis qo'yish;
- yurak tomirlariga tashxis qo'yish;
- sariq kasalligini bashoratlash;
- qandli diabet kasalligini bashoratlash;

Texnik tashxis qo'yish sohasida:

- dvigatellarning yaroqli yoki yaroqsizligini aniqlashda;
- texnik qurilmalarning holatini nazorat qilishda.

Qishloq xo'jaligi sohasida:

- ekin maydonlarining holatini aniqlashda;
- mevalarni o'lchoviga qarab taxlashda.

Geologiya sohasida:

- kam uchraydigan metallar va neft qazilmalarini anglash.
- foydali qazilmalarining holatini aniqlash.

Tasvirlarni qayta ishlash sohasida:

- qo'lyozma raqamlarni, harflarni va simvollarni anglash;
- shaxs imzolarini anglash;
- biometrik belgilar – barmoq izlari, qo'l, yuz, quloq, ko'z tasvirlari anglash;
- tasvirlar ketma-ketligida dinamikani segmentlash va anglash.

Exspert tizim(ET)lar – bu SI ning amaliy tizimlari bo'lib, ular biror bir predmet sohadagi exspertlarning empirik bilimlari asosida shakllantirilgan bilimlarga asoslanadi. ETlar exspertlar soni kam bo'lganda, masalani yechishda yetarli operativlik holati yetishmaganda yoki exspertlar uchun havfli va sog'lig'iga zarar etkazuvchi sharoitlarda qo'llaniladi.

ETlar yordamida yechiladigan masalalar sinfiga quyidagilarni kiritish mumkin: tashxislash, bashoratlash, anglash, boshqarish, loyihalash, monitoringlash.

ETlardan foydalaniladigan faoliyat sohalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tibbiyat, hisoblash texnikasi, harbiy ishlar, mikroelektronika, radioelektronika, huquqshunoslik, iqtisod, ekologiya, geologiy (foydali qazilmalarni qidiruv), matematika.

Ishlab chiqarishda, harbiy sohada, informatikada, kompyuter tizimlarida, elektronikada keng va samarali qo'llanilayotgan ETlarga **misollar** [6, 16, 19, 21]:

- *DENDRAL* – murakkab organik molekulalar strukturalarini tanish uchun ET;
- *MOLGEN* – DNK strukturasini aniqlovchi ET;
- *XCON* – VAX 11 hisoblash komplekslarini loyihalashtiruvchi ET;
- *MYCIN* – ichak kasalliklariga tashxis qo'yuvchi ET;
- *PUFF* – sil kasalligiga tashxis qo'yuvchi ET;
- *MACSYMA* – algebraik ifodalarni soddalashtiruvchi ET;
- *YES/MVS* – katta EHM dagi katta razryadli MVS operatsion tizimlarni boshqaruvchi ET;
- *PROSPECTOR* – foydali qazilmalarni topishda maslahat beruvchi ET;
- *POMME* – mevali bog'larga qarashga maslahat beruvchi ET;
- *AIRPLANE* – samolyot yerga qo'nishida uchuvchiga yordam beruvchi ET;
- *ESPLAN* – Baku neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarishni rejalashtiradigan ET;
- *MODIS* – gipertonik kasalliklarning turli shakllariga tashxis qo'yuvchi ET;
- *MIDAS* – energetik tizimlarda ishdan chiqish holatlarini aniqlash va tuzatish uchun ET;

- *NetWizard* – lokal tizimlarni loyihalovchi ET;
- *ACES* - xaritada o`zgarish kiritish bo`yicha kartografik ishlarni amalga oshiradigan ET;
- *ASTA* - analistikka tutuvchi signalni jo`natgan radar turini aniqlashga yordam beradigan ET;
- *DART*- raqiblarning buyruq beruvchi markazlari, boshqaruvi va aloqalarining razvedka qilinganida olingan natijalarni qayta ishlashga yordamlashadigan ET;
- *HANNIBAL*- raqibning radioalmashish razvedkasi sohasida vaziyatni baholashni amalga oshiradigan ET;
- *I&W* - razvedkadagi analitiklarga keyingi qurolli to`qnashuv qachon va qayerda bo`lishini bashorat qilishida yordamlashadigan ET;
- *RUBRIC* – foydalanuvchiga formatlanmagan matnlarni o`zida mujassamlashtirgan MBga kirish huquqini olishga yordam beradigan ET;
- *CODES* – MBni ishlab chiquvchi mutaxassisga, MBning kontseptual sxemasini aniqlash uchun IDEF1 yondashuvni qo`llashni istayotgan mutaxassisga yordamlashadigan ET;
- *MIXER* - Texas Instruments SBIS TI990 uchun ishlab chiqilgan mikrodasturlarni yozishda dasturchilarga ko`maklashadigan ET;
- *ACE* - telefon tarmog`idagi nosozliklarni aniqlashda, uni sozlash va tiklash chora tadbirlari bo`yicha tavsiyalar beradigan ET.

5-§. O”zbekistonda intellektual tizimlarning rivojlanishi

Vatanimizda Norma kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ETlari:

- Amaliy buxgalteriya ET;
- Kichik korxona elektron buxgalteriya ET;
- Amaliy soliq to`lovlari ET;
- «A» dan «Ya»gacha tekshiruv ET;
- Kadrlar bo`yicha maslahatchi ET;
- Soliqlar: savollar va javoblar ET;
- Eksport-import operatsiyalari ET;
- Tashkilot yuristi ET;
- Qurilish ET;
- Kichik korxona: hisob, soliq, huquq ET;
- Aqlli bichish-tikish ET;
- Mohir taxlam ET.

Har xil qo`llanishga mo`ljallangan intellektual robotlarni yaratish borasida 50 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, O`zbekistonda ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining mexatronika markazi a`zolari Moskva shahridagi «Rossiya ko`rgazmalar markazi»da 2014 yil 25-26 yanvar kunlari o`tkazilgan ACP Geek Picnic ko`rgazmasida ishtirok etdi. Ko`rgazma hozirgi kundagi erishilgan yutuqlarni namoyish etish hamda yoshlar orasida zamonaviy texnologiyalarga bo`lgan qiziqishni orttirish maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu ko`rgazmada kichik robotlar, uchuvchi moslamalar, gumanoid robotlar, mega robotlar, 3D-printerlarda robot qismlarini yasash va boshqa shu kabi yo`nalishlar bo`yicha stendlar namoyish etildi. Shuningdek, ko`rgazma davomida mega-sumo, mini-sumo, mikro-sumo, nano-sumo, Lego-sumo va gumanoid-sumo bahslari o`tkazilgan. Unda O`zbekiston jamoasi mini-sumo va mikro-sumo turlarida Robotjon hamda Mikro Robotjonlar bilan qatnashdi (1.6-rasm).



Robotjon
(O`zbekiston)



Chapdan: Olimjon To`ychiev, Eldor Hasanov, Maxmud Sultonov



1.6-rasm. O`zbekistonlik “Robotjon” hamda “Mikro-Robotjon” yaratuvchilari.

O`zbekistonliklar ushbu bahslarda birinchi marotaba qatnashganliklariga qaramasdan umumjamoa hisobida 4-o`rinni egalladi. Robo-sumoning har bir yo`nalishida ishtirok etayotgan robotlar uchun alohida o`lcham, og`irlik shartlari mavjud. Ammo barcha yo`nalishlarning

bir qoidasi bor: 3 daqiqa ichida raqib robotini aylana maydondan surib chiqarish zarur. Ikki kun davom etgan musoboqada O`zbekiston, Rossiya, Ukraina, Belarus, Frantsiya va boshqa davlatlardan 60ga yaqin jamoalar ishtirok etdi. Vatanimizda ishlab chiqarilgan Mikro Robotjon musobaqada «Eng texnologik robot» deb topildi.

SITlari kelajakda *qishloq xo`jaligida* – ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishi, daraxtlarni kesishi va tanlash xususiyatiga asoslanib parvarishlashni ta`minlashi; *tog` sanoatida* – insonlar uchun o`ta xavfli bo`lgan sharoitlarda ishlashi; *ishlab chiqarishda* – yig`ish va texnik nazoratning turli xil masalalarini bajarishi; *tashkilotlarda* – jamoa va alohida xodimlar uchun jadval tuzishi, yangiliklar haqida qisqacha ma'lumot berish bilan shug`ullanishi; *o`quv yurtlarida* – talabalar yechadigan masalalarni ko`rish, undagi xatolarni qidiruv va ularni bartaraf qilish masalarini hal qilishi, talabalarni hisoblash tizimlarining xotirasida saqlanadigan superdarsliklar bilan ta`minlashlari; *kasalxonalarda* – be`morlarga tashxis qo`yish, ularni kerakli bo`limga yuborish va davolash davomida ularga maslahatlar berishi va nazorat qilishi; *uy ishlarida* – ovqat tayyorlash, mahsulot harid qilish bo`yicha maslahatlar berishi, uyning va bog`dagi gazonlarning holatini nazorat qilish kabi masalalarni amalga oshirishi lozim.

Kasalxonalarda HMLari be`morlarga tashxis qo`yish, ularni kerakli bo`limga yuborish va davolash davomida ularni nazorat qilishlari kerak. Uy ishlarida HMLari ovqat tayyorlash, mahsulot harid qilish bo`yicha maslahatlar berish, uyning va bog`dagi gazonlarning holatini nazorat qilishi kerak. Albatta ayni vaqtida bularning hech qaysisini amalga oshirish imkon yo`q, lekin SI sohasidagi tadqiqotlar ularni amalga oshirish imkonini berishi mumkin.

6-§. Tyuring testlari va suhbatdosh kompyuter dasturlari

Tyuring testi SI yaratish masalasida muhim vosita bo`lib, u tizimning intellektual bo`lishi uchun minimal texnologiyalardan foydalanishga imkon yaratadi [16, 19].

Bu texnologiyalar quyidagilardan iborat:

- *tabiiy tilni qayta ishlash*-bunda intellektual tizim inson bilan tabiiy tilda muloqotni tashkil qila olishi kerak;
- *bilimlarni tasvirlash*-bunda intellektual tizim umumiylari va maxsus bilimlarni tasvirlay olishi, inson bilan muloqot jarayonida doimiy ravishda

bilimlarni o‘rganishi va bu jarayonda o‘zining bilimlar bazasini to‘ldirib borishi lozim;

- *mantiqiy xulosalash-* intellektual tizim inson bilan muloqot jarayonida olgan bilimlaridan foydalanib, mantiqiy xulosalashlarni tabiiy tilda javoblar shaklida amalga oshirishi kerak;

- *mashinali o‘rgatish* – bunda intellektual tizim moslashuvchan va muloqotda o‘zgaruvchan holatlarga ko‘nikuvchan bo‘lishi, o‘zining bazasidagi mavjud bilimlarni shablon sifatida o‘xhash xolatlarga qo‘llay olishi kerak.

- *qo‘shimcha sensorlar va bajaruvchi qurilmalar*-bunda intellektual tizim xuddi insonlar xayotida qo‘llaniladigan datchiklarga (videokameralar, audiosensorlar, gazoanalizatorlar va b.q.) va soxaga ta’sir etishi uchun turli tipdagi manipulyatorlarga ega bo‘lishi kerak.

Keltirilgan texnologiyalarning intellektual tizimda mavjudligi va Tyuring testidan to‘liq o‘tishi tizim intellektining inson intellektiga o‘xhash ekanligi xaqida xulosa chiqarishga imkoniyat yaratishi mumkin.

Kompyuterning intellektga ega ekanligini tekshirish maqsadida Tyuring testi ishlab chiqilgan.

Tyuringning maqsadi – har qanday mashinaning inson bilan tenglasha olmasligini isbot qilishdan iborat bo‘lgan. U insonga o‘xshab fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan «intellektual mashina» lar yaratish masalalari bilan shug‘ullangan. 1947 yillarda shaxmat o‘ynaydigan mashinalar yaratish mumkinligi va shunga asoslanib o‘ylaydigan kompyuter yaratish mumkin degan fikrni aytgan. Shundan kelib chiqib Tyuring mashinali intellektning inson intellekti bilan qanchalik musobaqlashishini tushuntirish maqsadida o‘zining testini yaratdi.

Tyuring testi – empirik test bo‘lib, u Alan Tyuring tomonidan 1950 yilda «Mind» jurnalida «Вычислительные машины и разум» (angl. Computing Machinery and Intelligence) nomli maqolasida taklif etilgan [16,17,19].

Bu testning ma’nosи quyidagidan iborat: «Inson bitta kompyuter va boshqa bitta inson bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. U bergen savollariga olingan javoblarga qarab inson yoki kompyuter dasturi bilan suhbatlashayotganligini aniqlashi kerak. Kompyuter dasturining vazifasi – insonni chalg‘itib, noto‘g‘ri qaror qabul qilishga majbur etishdan iborat».

Testdagи barcha qatnashuvchilar bir-birini ko‘rmaydi. Agar sudya testda qatnashuvchilarning qaysi biri inson ekanligini aniq aytma olmasa, u holda mashina testdan o‘tdi deb hisoblanadi. Mashinaning og‘zaki nutqni anglashi emas, balki faqat intellektini testdan o‘tkazish maqsad qilinganligi

uchun suhbat kompyuterda ekran va klaviatura yordamida «faqat matn» rejimida amalga oshiriladi. O‘zaro xat yozishuv belgilangan vaqt oralig‘ida olib boriladi. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan dasturlarning birortasi ham Tyuring testidan to’liq muvaffaqiyatlari o‘tgan emas.

Birinchi bo‘lib 2014 yilda Yevgeniy Gustman kompyuterli dasturi Tyuring testidan o‘tkazildi. Ushbu testda 5 ta superkompyuterlar qatnashdi. Sinov 5 minutlik yozma suhbatdan iborat bo‘ldi. Testda 25 nafar odamlar va 5 ta chat-botlar qatnashdi. Ushbu testda Odessalik 13 yashar Yevgeniy Gustmanning mashina bilan emas, balki inson bilan suxbatlashganligini 33 % sudyalar tasdiqladi.

Bundan tashqari, «JFRED», «Elbot the Robot», «Ultra Hal» va «Cleverbot» kabi dasturlar ham ishlab chiqilgan, ular ham Tyuring testidan o‘tkazilgan va Yevgeniy Gustman kompyuterli dasturiga yaqin natijalar olingan.

Tyuring testlarining versiyalari. Testning birinchi varianti 1950 yilda nashr etilgan bo‘lib ancha chigal bo‘lgan. Testning hozirgi standart versiyasi quyidagi topshiriqlardan iborat. Ekspertlar guruxi noma’lum mavjudot bilan suxbatlashadilar. Ular suhbatdoshini ko‘rmaydilar va u bilan faqat aoxida tizim orqali, masalan klaviatura yordamida muloqot qiladi. Ekspertlar suhbatdosha ixtiyoriy mavzuda ixtiyoriy savollar berishi mumkin. Agar ekspertlar tajriba oxirida inson yoki mashina bilan suxbatlashganligini ayta olmasa yoki ular haqiqatdan ham mashina bilan suxbatlashganligini ayta olsa, u holda ushbu mashina Tyuring testidan o‘tgan hisoblanadi.

Tyuring testlarining 3 ta asosiy versiyalari mavjud bo‘lib, 2 tasi «Вычислительные машины и разум » maqolasida keltirilgan, uchinchi versiyasi esa Saula Treydjera (Saul Traiger) terminalogiyasi bo‘yicha standartli Tyuring testi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida Tyuring testidan to’liq o‘tish qobiliyatiga ega bo‘lgan kompyuterli dastur mavjud emas, lekin IBM kompaniyasi tomonidan 2019 yilda real vaqt rejimida inson miyasining barcha neyronlarining bir-biri bilan aloqasini modellashtiruvchi kompterli tizimlarni yaratish rejalashtirilgan. Ushbu tizim Tyuring testida 50% natijani berishi mumkin.

Tyuring testining kamchiliklari. Testning eng katta kamchiliklaridan biri – bu mashinaga insonni chalg‘itish, aldash maqsad qilib qo‘yilganlidir. Bundan tashqari, ushbu testda inson va kompyuterning fikrlash qobiliyatini aniqlash masalasi qo‘yilganligiga qaramasdan, u inson va kompyuterning nutqiy suxbatlarining o‘xshashliklarini baholaydi.

7-§. Intellektual agentlar

Agent tushunchasining aniq ta'rifi bugungi kungacha mavjud emas. Asosan agentning ta'rifi sifatida 1996 yilda Tokiyada lингвистика bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan quyidagi ta'rifdan foydalaniladi: "Agent-bu qandaydir muhitda joylashgan, uni o'zgartiradigan va ushbu muhitga ta'sir etadigan buyruqlarni bajaruvchi hisoblanadi. Agent dastur va apparat kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi" [9].

Agentning aniq ta'rifi hozirgacha mavjud emasligini hisobga olib, quyida agentning ba'zi bir ta'riflarni keltiramiz.

Agent - bu apparatli yoki dasturiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, u sohib yoki foydalanuvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilish qobiliyatiga egadir.

Agent - bu o'zining muhiti haqidagi ma'lumotlarni maxsus qurilmalar (datchiklar va boshqalar) yordamida qabul qiluvchi va ushbu muhitga bajaruvchi mexanizmlar yordamida ta'sir etishdir.

Agent - bu o'ziga tegishli bo'lgan aniq funksiyalarini yoki boshqa agentning funksiyalarini bajaruvchi dasturli moduldir.

Agent sifatida inson qaralganda maxsus qurilmalar sifatida - uning ko'zi, qulog'i va his etish a'zolari hisobga olinadi, bajaruvchi mexanizmlari sifatida esa - uning qo'li, oyog'i, og'zi va tanasining boshqa qism a'zolari qaraladi.

Misol. Taksi haydovchisining muammoli muhiti.

Agent tipi	Unumdorlik ko'rsatkichla ri	Muhit	Bajaruvchi mexanizmlar	Datchikla r
Taksi haydov- chisi	Qoida ramkasida xavfsiz va tez haydash hamda eng ko'p foyda olish.	Yo'llar, boshqa trans- port vosita- lari, piyoda- lar, mijozlar .	Rolli boshqaruv, gaz, tormoz, yoryg'lik signallari, ovozli signallar, display.	Videoka- meralar, masofani ultraovozli o'lchagich, boshqarish tizimi, dvigatel datchiklari.

Agent sifatida robot qaralganda maxsus qurilmalar sifatida - undagi videokameralar va masofa o'lchagich dalnomerlar hisobga olinadi, bajaruvchi mexanizmlari sifatida esa - undagi turli xil dvigatellar qaraladi.

Agent sifatida DT qaralganda kiruvchi sensorli ma'lumotlar sifatida fayllarni va tarmoqli paketlarni o'zida saqlovchi klavishalarni bosish kodlari qatnashadi, unig muhitga ta'sirini esa ma'lumotlarni ekranga chiqaruvchi, fayllarni yozuvchi va tarmoqli paketlarga uzatuvchi DTlar bilan ifodalanadi.

Matematik nuqtai nazaridan agentning mohiyatini ba'zi atrof-muhit ta'sirlarini idrok etishni ixtiyoriy aniq aktlar ketma-ketligi ko'rinishida akslantiruvchi agent funksiyasi yordamida tavsiflash mumkin.

Intellektual agent (IA) -bu axborotlarni yig'ish va qayta ishslash jarayonida hamda maqsadli yo'nalshida axborotlar fazosi ichida avtonom harakat qiluvchi inson harakatini modellashtirishdir [9].

IAning muhim xususiyati - uning axborotlar noaniq, noravshan va qarama-qarshi bo'lganda harakat qila olish qobiliyatiga ega ekanlidir.

SIda IA sifatida shunday mazmunlar tushuniladiki, ular jarayonlar holati haqidagi ma'lumotlarni sensorlar yordamida oladi va bu ma'lumotlarga aktuatorlar orqali ta'sir etadi. IA - bu dasturiy tizim, murakkab avtomatlashtirilgan tizim bo'lishi mumkin, masalan texnologik, logistik, iqtisodiy yoki ixtiyoriy boshqa jarayonlarni kompleks boshqaruv. Agar agentning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi qo'yilgan talablar darajasida adekvatli bo'lsa, u holda agentning intellektualligi to'g'risida gapirish mumkin.

Kompyuterda IA-bu dastur bo'lib, u kompyuter foydalanuvchisi tomonidan ko'rsatilgan topshiriqlarni uzoq vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajaradi. Bunday IAlardan operatorga yordam berishda yoki axborotlarni yig'ishda foydalaniladi. IAlar bajaradigan topshiriqlarga misollar sifatida Internetda ma'lumotlarni doimiy qidiruv va yig'ish, kompyuter viruslari, botlar, qidiruv ishlarini keltirish mumkin.

Bitta kompyuter yoki lokal tarmoqda UNIX operatsion tizimlarida IA sifatida demon qatnashadi.

Intellektual agentlarning sinflari. SIda agentlarning bir nechta tipi mavjud [9]. Masalan:

1. *Fizik agent* - bu atrof-muhit haqidagi axborotlarni sensorlar yordamida qabul qiladi va manipulyatorlar yordamida harakat qiladi.

2. *Vaqtli agent* - bu vaqt bo'yicha o'zgaradigan axborotlardan foydalanuvchi va ba'zi harakatlarni taklif etuvchi, yoki ma'lumotlarni kompyuter dasturiga yoki insonga taqdim etuvchi va axborotlarni dasturli kiritish orqali oluvchi hisoblanadi.

Qabul qiluvchi axborotlarni qayta ishlashiga qarab barcha agentlarni beshta guruhgaga ajratish mumkin:

1. *Oddiy agentlar.* Bunday agentlar joriy bilimlar asosida harakat qiladi. Ularning agentlik funksiyasi “shart-harakat” sxemasiga asoslanadi.

IF (shart) THEN harakat

Bu funksiya muvaffaqiyatlidir, qachonki bizni o’rab turgan muhitni to’liq nazoratga olish mumkin bo’lsa.

2. *Modellarga asoslangan agentlar.* Bunday agentlar faqat qisman kuzatuvga tushadigan muhitlar uchun mo’ljallangan.

3. *Aniq bir maqsadga yo’naltirilgan agentlar.* Bunday agentlar vaziyatlar haqidagi axborotlardan o’zlariga keraklilarini saqlaydi. Bu esa agentga vaziyatlarning turli holatlari orasidan aniq maqsadga olib keluvchi holatni tanlash imkonini beradi.

4. *Amaliyotchi agentlar.* Bunday agentlar joriy holat ular uchun qanchalik zarur ekanligini farqlash qobiliyatiga ega bo’ladi. Farqlash bahosi «foydalilik funksiyasi» yordamida hosil qilinishi mumkin.

5. *O’rgatuvchi agentlar.* Bunday agentlar avtonom agentlar ham deb ataladi, chunki ular o’rgatishda bog’liqmaslik va qobiliyatga asoslanadi hamda o’zgaruvchan holatga moslashuvchan bo’ladi.

O’rgatuvchi agentlar tizimi quyidagi qobiliyatlarni namoyon etishi kerak:

- atrof-muhit bilan o’zaro aloqa jarayonida o’rgatishi va rivojlanishi;
- real vaqt rejimiga moslashishi;
- katta hajmli ma’lumotlarga asoslanib tez o’rgatishi;
- mummolarni yechishning yangi uslublariga qadamba-qadam moslashishi;
- bazani to’ldirish uchun misollar bazaiga ega bo’lishi;
- munosabatda, hatoda va yutuqda o’zini tahlil qila olishi.

Har bir jamoa yoki muallif tomonidan masalaning yechimi, yaratilayotgan ishlanma, joriy etish texnikasi va o’rnatilgan mezonlar kabi parametrlarni hisobga olishiga qarab agentlarni quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- avtonom agentlar;
- maxsus assistentlar;
- IAlar;
- sotsial agentlar va h.k.

Tashqi olamni ichki tasvirlash imkoniyat darajasi va agentlarning harakat uslublariga qarab ularni quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- lokalli agentlar;

- tarmoqli agentlar;
- mobilli agentlar;
- interfeysli agentlar;
- transtliyatsiya qiluvchi agentlar;
- marshrutlovchi agentlar va h.k.

Agent arxitekturasi. Agentlar arxitekturasi agentning funksional komponentalariga qo'yilgan va ish jarayonida uning komponentalarini o'zaro aloqasini tashkillashtirishning qabul qilingan usullari strukturasining ko'rinishiga qarab sinflashtiriladi.

Agentlar arxitekturalarini bazaviy sinflash qabul qilingan arxitekturalarga asoslanadi. Bunga ko'ra agentlar arxitekturasi ikkita sinfga ajratiladi:

- bilimlarga asoslangan agentlar arxitekturasi - "Aqlii agent arxitekturasi";
- tashqi olam hodisalarini hisobga oluvchi tizimlar harakatiga asoslangan agentlar arxitekturasi - "Reaktivli arxitektura".

Faqat agentlarning juda oddiy ilovalarini birpog'onali sxema ko'rinishida ifodalash mumkin. Qoidaga ko'ra agent arxitekturasi ko'ppog'onali sxemada ifodalanadi. Ko'ppog'onali arxitekturada har bir pog'ona agentlarning turli xil, ya'ni tashqi hodisalarni idrok etish va ularga oddiy ta'sir etish kabi funksional xarakteristikalarini ifodalaydi. Funksional xarakteristikalarga quyidagilar kiradi:

- munosabat bildirish;
- maqsadlarni boshqaruv;
- boshqa agentlar munosabatiga qarab harakatni boshqarish;
- agentning ichki holatini yangilash;
- tashqi olam holatini bashoratlash;
- navbatdagi qadamda o'zining harakatini aniqlash va h.k.

Agent arxitekturasida ko'p uchraydigan pog'onalar quyidagi masalalarga mas'ul hisoblanadi:

- harakatlarni qabul qiladi va bajaradi;
- reaktivli munosabatni amalga oshiradi;
- lokal rejallashtirishni amalga oshiradi;
- kooperativli munosabatni amalga oshiradi;
- tashqi muhitni modellashtiradi;
- maqsadni shakllantiradi;
- agentni o'rganadi.

Kompyuter sohasidagi intellektual agentlar. Bu sohada asosan to'rtta tipli intellektual agentlar mavjud [9]:

1. Sotish bilan shug'ullanuvchi robotlar;
2. Foydalanuvchiga mo'ljallangan yoki personal agentlar;
3. Boshqaruvchi va kuzatuvchi agentlar;
4. Axborotlarni oluvchi agentlar.

1. *Sotish bilan shug'ullanuvchi robotlar*-tarmoq resurslaridan (ko'proq intenetdan) sotiladigan tovarlar va xizmat ko'rsatish to'g'risidagi axborotlarni to'playdi. Bunday robotlar xo'jalik tovarlari, ya'ni kompakt-disklar, kitoblar, elektr tovarlari va boshqa tovarlarni sotish uchun samarali ishlaydi. Bunday robotlarga misol sifatida *Amazon.com* ni keltirish mumkin.

2. *Foydalanuvchiga mo'ljallangan yoki personal agentlar*-bu sizning nomingizdan sizning qiziqishingizga qarab harakat qiluvchi IA hisoblanadi. Bunday agentlar quyidagi topshiriqlarni bajaradi:

- sizning pochtangizni tekshiradi, ularni muhimligi bo'yicha saralaydi, keladigan xat to'g'risida sizni xabardor qiladi;
- kompyuter o'yinlarida sizning opponentingiz sifatida o'ynaydi;
- yangiliklarni to'playdi;
- tanlangan fan bo'yicha axborotlarni izlaydi;
- mustaqil ravishda web-shakllarni to'ldiradi va kelajakda foydalanish uchun axborotlarni saqlaydi;
- web - sahifalarni ko'rib chiqadi va tayanch axborotlarni yoritadi;
- siz bilan turli mavzularda bahslashadi.

3. *Boshqaruvchi va kuzatuvchi agentlar*-bu kuzatishni amalga oshiradi va hisobotlarni jo'natadi. Masalan, "NASA's Jet Propulsion Laboratory" da inventarlar, rejalashtirish, jadval tuzish holatlarini kuzatuvchi agent bor. Bunday agentlar kompyuter tarmoqlarini kuzatadilar va tarmoqga ulangan har bir kompyuter konfigurasiyasini nazorat qiladi.

4. *Axborotlarni oluvchi agentlar*-bu ma'lumotlar omborida harakat qilib ma'lumotlarni yig'ish bilan shug'ullandi. Ma'lumotlar ombori turli manbalardan olingan axborotlarni o'zida birlashtiradi. Axborotlarni yig'ish -bu kelajakda foydalanish uchun ma'lumotlarni qidirish jarayoni, masalan, sotuvni ko'paytirish yoki sotib oluvchilarni jalb etish.

Dasturiy agentlar. Dasturiy agentlarni sinflashda quyidagi asosiy alomatlardan foydalaniladi:

- 1) tashqi muhit haqidagi ichki tasvirlashlarning rivojlanish darajasi;
- 2) munosabat uslubi.

Birinchi alomat bo'yicha agentli dasturlar intellektual (kognitivli, fikrlovchi) va reaktiv agentlarga bo'linadi.

Intellektual agentlar o'zida mavjud bilimlar bazasiga, harakatlarni fikrlash va tahlil qilishning mavjudligi uchun tashqi muhitni yaxshi va simvolli modellashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Reaktivli agentlar tashqi olam haqida umuman yoki cheklangan tasavvurga ega va bashorat qilish ko'lami juda cheklangan bo'ladi. Ular o'zining harakatini rejashtirish qobiliyatiga ega bo'lmaydi, tashqi olam ta'siriga kuchli bog'langan bo'ladi. Ular fikrlashdan foydalanmaydi va shaxsiy resurslarga han ega bo'lmaydi.

Kognitivli agentlar reaktivli agentlarga nisbatan tashqi olam to'g'risida ko'proq tasavvurga ega bo'ladilar. Bunga ular o'zlaridagi mavjud bilimlar bazasi va masalani yechishning mexanizmlari yordamida erishadilar. Kognitivli agentlar tashqi olamni ichki tasavvur etish va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanganligi sababli turli holatlarni saqlash va tahlil qilish, o'z harakatiga ta'sir etuvchi turli holatlarni bashorat qilish, o'z harakatlaridan kelib chiqib kelajakda qanday harakat qilishni rejashtirish uchun xulosa chiqarish qobiliyatlariga ega.

Mobilli agentlar-bu tarmoq bo'yicha ko'chib yuradigan dastur hisoblanadi. Ular o'zining harakatini bajarish uchun kliyent kompyuterdan chiqadi va masofaviy serverga ko'chadi, undan keyin yana orqaga qaytadi. Mobil agentlar ko'pagentli tizimlar uchun istiqboli porloq hisoblanadi, lekin hozirgi vaqtida ularni yaratishning alohida standartlari mavjud emas, bir qator muammolar, ya'ni tarmoq bo'yicha siljishning rasmiy uslublari, tarmoq bo'yicha beriladigan viruslardan himoyalash, agentlar tomonidan shaxsiy mulk huquqiga rioya qilish, axborotlarning maxfiyligini saqlash kabilar o'z yechimini topaolmayapti.

Subagentlar IAlar tarkibiga kiradi va ular quyi pog'onadagi qayta ishlash va bajarish funksiyalarini amalga oshiradi. IAlar va subagentlar birgalikda murakkab masalalarni bajarishda to'liq tizimni tashkil etadi.

Subagentlarning bir nechta tipi mavjud:

- 1) Vaqtli agentlar-tezkor qaror qabul qilish uchun;
- 2) Fazoli agentlar-haqiqiy olam bilan o'zaro aloqa qilish uchun;
- 3) Sensorli agentlar-sensorli signallarni qayta ishlash uchun;
- 4) Qayta ishlaydigan agentlar - nutqni tanish tipidagi muammolarni yechadi;
- 5) Qaror qabul qiluvchi agentlar-muammolar bo'yicha qaror qabul qilish uchun;
- 6) O'rgatuvchi agentlar - boshqa IAlar uchun strukturalar va ma'lumotlar bazasini yaratish uchun;

7) Dunyoviy agentlar-avtonom ravishda harakat qilish maqsadida o'zida barcha qolgan agentlarni birlashtirish uchun.

Dasturiy agentlarga misollar. 1) IBM firmasi tomonidan ishlab chiqilgan ABE (Agent Building Environment) agentlarni yaratish muhiti - IA larga asoslangan hamda mavjud ilovalarni yangi agentlar bilan to'ldiruvchi ilovalarni yaratish uchun qo'llaniladi. Bunda IA muhit shartlarini kuzatadi, qoidalar asosida qaror qabul qiladi va natijada ba'zi harakatlarni bajaradi.

2) Bits & Pixels firmasi tomonidan ishlab chiqilgan Intelligent Agent Library maxsuloti agentlarning o'zaro aloqasini va agentlar guruhini qurishni ta'minlash uchun qo'llaniladi. U KQML tiliga asoslangan va Web-ivalolarda ishlaydigan agentlarning namunaviy misollarini o'z ichiga olgan. Bu ilova mobil agentlarni yaratishda qo'llaniladi.

Bilimlarga asoslangan agentlar. Bilimlarga asoslangan ixtiyoriy agentning asosiy komponenti uning bilimlar bazasi hisoblanadi. Bilimlar bazasini yangi bilimlar bilan to'ldirib borish va bilimlar bazasidagi mavjud bilimlarni o'zgartirishning ma'lum uslubi (dasturi) mavjud bo'lishi kerak. Bilimlar bazasidagi bilimlar mantiqiy mulohazalar sifatida qaraladi va ular ustida mantiqiy amallarni qo'llab mantiqiy xulosalar hosil qilinadi. Bunday mantiqiy amallarni bajarish uchun maxsus Tell va Ask dasturlaridan foydalananiladi. Bu dasturlar mavjud bilimlarga mantiqiy amallarni qo'llab yangi mantiqiy xulosalarni hosil qiladi. Tell va Ask dasturlaridan foydalanuvchi agent dasturining ishlashi uch qadamdan iborat. Birinchi qadamda - Tell funksiyasi yordamida qabul qilingan ma'lumotlar bilimlar bazasiga joylashtiriladi, ikkinchi qadamda - Ask funksiyasi yordamida qanday harakatni amalga oshirish kerakligi haqida bilimlar bazasiga so'rov yuboriladi. Ushbu so'rovga javob berish jarayonida tashqi olamning joriy holati bo'yicha mukammal fikrlashlar o'kaziladi, mumkin bo'lgan harakatlar ketma-ketligi asosida olingan natijalar tahlil qilinadi. Uchinchidan, agent Tell funksiyasi yordamida o'zining tanlagan variantini ro'yxatga oladi va o'z harakatini bajaradi. Tell funksiyasi o'zining navbatdagi amali yordamida action harakatining haqiqiy bajarilganligi haqida bilimlar bazasiga ma'lumot yuboradi.

Ko'pagentli tizimlar. Ko'pagentli tizimlar o'zining bilimlar bazasiga va fikrlash vositalariga ega bo'lgan alohida intellektual tizimlarning birlashmasidan iborat bo'ladi. Ko'pagentli tizimlarni qandaydir maqsadga erishish uchun hamkorlik qilayotgan bir nechta agentlarning dasturiy tizimi sifatida qarash mumkin. Agarda har bir agent tizim tomonidan o'ziga

alohida qo'yilgan masalani yecha olmasa, u holda agentlar ushbu masalani birlgilikda yechilishi kerak.

Ko'agentli tizimlar quyidagi qoidalarga tayanadi:

1) ko'agentli tizimlar oddiy va bir-biri bilan bog'liq agentlar birlashmasidan hosil qilinadi;

2) har bir agent hodisalarga munosabatini lokal tarmoqda mustaqil va boshqa agentlar bilan o'zaro kelishilgan holda aniqlaydi;

3) agentlar o'rtasidagi aloqalar gorizontal bo'ladi, yani boshqa agentlar bilan o'zaro kelishilgan holda boshqaruvni tashkil etuvchi agent-supervizor mavjud emas;

4) agentlarning global harakatini aniqlash uchun aniq qoidalari yo'q;

5) agentlarning o'zaro lokal munosabatlaridan jamoaviy pog'onada harakat, xususiyat va struktura hosiil qilinadi.

Ko'agentli tizimlarni yaratish va ulardan foydalanish nuqtai-nazaridan DCOM, Java RMI, COBRA kabi texnologiyalar ancha samarali hisoblanadi.

DCOM - bu turli dasturlash tizimlaridan foydalanib yaratilgan ilovalarni birlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Java RMI ilovasi mijoz va serverdan iborat bo'ladi. Serverda tarmoq orqali uzatish uchun obyektlar yoki masofadagi ilovalarni chaqirib olish uchun usullar yaratiladi, mijozda esa masofadgi obyektlardan foydalanuvchi ilovalar hosil bo'ladi. *Java RMI* ilovasining asosiy xususiyatlaridan biri -bu tarmoq bo'yicha nafaqat usullarni, balkim obyektlarni ham uzatish imkoniyatining mavjudligidir.

COBRA ilovalar o'rtasidagi aloqani o'rnatadi, bunda u IDL interfeysidan foydalanadi.

Intellektual agentlarning xususiyatlari. IAlarga xos asosiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- *avtonomlik (mustaqillik)* - sohibning ishtirokisiz o'zining shaxsiy harakatlarini va ichki holatini nazorat qilish hamda faoliyat yuritish qobiliyatiga egaligi;

- *faollik* - tashkillashtirish va amalga oshirish qobiliyatga egaligi;

- *kirishimlilik* - boshqa agentlar bilan o'zaro bog'lanishni va aloqani yo'lga qo'yishga egaligi;

- *reaktivlik* - tashqi muhit holatini adekvatli idrok etish va unung o'zgarishiga ta'sir etish qobiliyatiga egaligi;


- *maqsadga yo'naltirilganlik* - shaxsiy dalillarini aniq maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga egaligi;

- *bazaviy bilimlarning mavjudligi* - o'zi, boshqa agentlar va tashqi muhit haqidagi bazaviy bilimlarga egaligi;
- *ishontirish* - vaqt o'zgarishi bilan bilimlar bazasining qismi o'zgarishiga osontirish qobiliyatiga egaligi;
 - *intilish* - aniq maqsadga ishtiyoq qobiliyatiga egaligi;
 - *niyat (maqsad)* - o'zning majburiyatlarini yoki hohishlarini bajarishi uchun agent tomonidan rejalashtirilgan harakatlarning mavjudligi;
 - *majburiyatilik* - bir agentning boshqa agentlar tomonidan qilingan iltimos yoki topshiriqlarni bajarish masalalari.
- *rostgo'ylik* - chin ma'lumotlarni yolg'onga almashtirmaslik qobiliyatga egaligi;
- *xayriyohlik* (mehribonlik) - agent o'zining oldiga qo'ygan shaxsiy masalasini yechishda boshqa agentlar bilan qarama-qarshiliklarning oldini olish maqsadida ular bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatiga egaligi;
- *al'truizm* (o'z manfaatlaridan voz kechib boshqalarga yaxshilik qilish, g'amxo'rlik ko'rsatish) - shaxsiy manfaatlaridan umumiy maqsadlarni ustun qo'yish qobiliyatiga egaligi;
- *harakatchanlik* - agentning tarmoqda kerakli axborotlarni qidirishni amalga oshirish qobiliyatiga egaligi.


8-§. Sun'iy intellektning asosiy tarkibiy qismlari va arxitekturasi

SIning tarkibiy qismlari 1.7-rasmdagidek keltirish mumkin. SI tizimlaridan predmet sohaga, masala tipiga va foydalanuvchiga moslashish nuqtai-nazaridan foydalanishning funksional strukturasini 1.8-rasmda keltirish mumkin. Bu struktura uchta hisoblash vositalari majmuasidan tashkil topgan. *Birinchi majmua* masalani samarali yechish nuqtai nazaridan loyihalangan dasturni bajaruvchi vositalar majmuidan tashkil topgan, ba'zi hollarda muammoli yo'naliishga ega. *Ikkinci majmua* - keng doiradagi foydalanauvchilar talablariga tez moslashuvchi strukturaga ega bo'lgan intellektli interfeys vositalari majmui. *Uchinchi vositalar majmui* birinchi va ikkinchi majmuaning o'zaro aloqasini ta'minlaydigan BB hisoblanadi. *Bajaruvchi tizim* shakllangan dasturni bajarishni ta'minlaydigan barcha vositalar majmuini birlashtiradi. *Intellektual interfeys* – dasturiy va instrumrntal vositalar tizimi bo'lib, foydalanauvchilar uchun ularning kasbiy faoliyatida vujudga keladigan masalalarni yechishda kompyuterni qo'llashni ta'minlaydi. BB – boshqa komponentalarga nisbatan markaziy o'rinni egallaydi. Chunki BB orqali masalani yechishda

ishtirok etadigan hisoblash tizimlari vositalarining birlashuvi amalga oshiriladi.



1.7 – rasm. *SIning tipik sxemasi.*



1.8-rasm. SI tizimlarini qo'llashning funksional strukturasi.

BBga asoslangan tizimlar quyidagi intellektual algoritmlar bazasida amalga oshiriladi:

- ekspert tzimlar;
 - NTlar;
 - noaniq mantiq;
 - genetik algoritmlar.

9-§. Sun’iy intellektning asosiy xususiyatlari

SI asosan formallahmagan masalalarni echish uchun mo`ljallangan.

Formallahmagan masalalar odatda quyidagi xususiyatlarga ega bo`ladi [6]:

- xatolikli, birxilliksiz, to`liqmaslik va boshlang`ich ma'lumotlarning qarama-qarshilikligi;
- xatoli, muammo haqidagi bilimlarning to`liqmasligi va qarama-qarshilikligi;
- yechim fazosi o'lchamining kattaligi, ya’ni yechimni qidiruvda birma-bir tekshirishning katta bo`lishi;
- ma'lumotlar va bilimlarning dinamik o`zgaruvchanligi.

SIT ni *yutuqqa* olib kelgan sabablar quyidagilar hisoblanadi [6].

Integrallashganlik. SIning boshqa axborot vositalar (CASE, MBBT, kontroller, berilganlar kontsentratori va boshqalar) bilan oson integrallashadigan texnik vositalari ishlab chiqilgan.

Ochiqlilik va ko`chimlilik. SI ning texnik vositalari ochiqlik va ko`chimni ta'minlaydigan standartlarni kuzatish orqali ishlab chiqiladi.

An’anaviy dasturlashtirish tillari va ishchi stansiyalardan foydalanish. SI tizimlarida Lisp, Prolog va boshqa texnik vositalardan an’anaviy dasturlashtirish tillariga(C, C++ va boshqalar) o’tish integrallash ta’mintonini qisqartirdi, EHM da operatsiya bajarish tezligini oshirdi va operativ xotira hajmini kamaytirdi. Ishchi stansiyalardan foydalanish sohalar doirasini kengaytirdi.

Mijoz-server arxitekturasi. Mijoz-server arxitekturasi bo`yicha taqsimlangan hisoblashlarni qo`llab-quvvatlaydigan SIning sohalari ishlab chiqarilgan. Ular qurilmalar qiymatini tushiradi, ishonchni va umumiyligi ishlab chiqarishni yuksaltiradi.

Muammoli sohaga mo`ljallangan ITlar. Umumiy masalalarni yechishga mo`ljallangan ITlardan muammoli, fanga mo`ljallangan ITlarga o’tish, sohalarni qayta ishlash muddatini qisqartiradi, sohalardan foydalanish samaradorligini oshiradi, ekspert ishini tezlashtiradi va osonlashtiradi hamda axborot va DTdan (obyektlar, sinflar, qoidalar, protseduralar) qayta foydalanishni ta’minlaydi.

Nazorat savollari

1. SI nima?
2. SI ning olimlar tomonidan taklif qilingan qanday ta’riflari mavjud?

3. Bugungi kunda SIni ko'pchilik nuqtai nazaridan umumiyligga ega uchta ta'rifni keltiring?

4. Ixtirochi Raymond Lullius qanday mashinani ishlab chiqgan?

5. Nechanchi yilda va qayerda "sun'iy intellekt" atamasi taklif etildi?

6. SI bo'yicha birinchi ishlar kimlar tomonidan olib borilgan?

7. Nechanch yildan boshlab birinch tartibli predikatlar mulohazasida teoremalarni isbotlashni amalga oshiradigan dasturlar ishlab chiqilgan?

8. Deduktiv xulosalashda qo'llanilgan birinchi dasturlarni kimlar yaratgan?

9. Nechanchi yillarda universal kompyuterlar bilan boshqariladigan sezuvchi robotlar yaratila boshladi?

10. Robisonning rezolyusiya usuli nimaga asoslangan va uning maqsadi nima?

11. SI usullarini rivojlanishining uchta pog'onasini keltiring?

12. 1-avlod intellektual tizimlarni (ETlarni) yaratish va shakllanish etapini izohlang?

13. 2-avlod intellektual tizimlarni (integrallashgan va gibridd) yaratish va shakllanish etapini izohlang?

14. Axborotli yo'naliш qanday qismlarga bo'linadi?

15. Axborotli yo'naliшida bilimlarga asoslangan tizimlarni tavsiflang.

16. Kognitivli grafika deganda nimani tushunasiz?

17. S.N. Pavlov tomonidan taqdim etilgan SI tizimlarini sinflashni keltiring.

18. Strukturali, evolyutsiyali va imitatsiyali yondashuvlarni izohlang?

19. SITlari kelajakda qanday masalalarni amalga oshirishi lozim?

20. SITlarning tipik sxemasi qanday bloklardan iborat?

21. SITlardan foydalanishning funksional strukturasi qanday bloklardan iborat?

Nazorat testlari

1. Intellekt -butushunchalarini anglatadi.

- a) ong va insonning fikrlash qobiliyati;
- b) harakat va bilish;
- c) sezish va his qilish;
- e) bilish va anglab olish.

2. "Sun'iy intellekt" atamasi nechanchi yida va qayerda taklif etilgan.

- a) 1956 yilda Dartmut kolleji seminarida;
- b) 1956 yilda Massachussets Texnologiya Institutida;

- c) 1956 yilda Carnegie Mellon Universitetida;
 - e) 1956 yilda Dartmut Universitetida seminarida.
3. SI -bu tushunchalarini anglatadi.
- a) inson intellektining alohida funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi avtomatik tizim;
 - b) inson intellektining to'liq funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi fizik qurilma;
 - c) inson intellektining to'liq funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi dasturiy ta'minot;
 - e) inson nerv sistemasining strukturasi.
4. SITi deganda -bu tushuniladi.
- a) olam va ommalashgan tajrabalarga asoslangan bilimlarni faol idrok etish asosida ularni yig'ish va tuzatish;
 - b) insonning fiziologik holati;
 - c) insonning fiziologik va psixiologik holati;
 - e) insonning fiziologik holati asosida harakatlarni maqsadga yo'naltirish.
5. "Mantiqchi-nazariyotchi" va "Masalani universal yechuvchi" dasturlarni nechanchi yillarda va kimlar yaratgan?
- a) 1950-yillarning oxirlarida Nyuell, Sayman va Shoylar;
 - b) 1955-yilda D. Edmonds va F. Rosenblatt;
 - c) 1950-yilda Nyuell va F. Rosenblatt;
 - e) 1957-yilda F. Rosenblatt va J. Makkarti.
6. Anglab oluvchi "Perseptron" modelini nechanchi yilda va kim yaratgan?
- a) 1957-yilda F. Rosenblatt; b) 1955-yilda D. Edmonds;
 - c) 1950-yilda Nyuell; e) 1957-yilda J. Makkarti.
7. Birinch tartibli predikatlar mulohazasida teoremlarni isbotlashni amalga oshiradigan dasturlarni nechanchi yilda va kimlar yaratgan?
- a) 1960-yilda K.Grın va Xao Vanga; b) 1955-yilda D. Edmonds va K.Grın;
 - c) 1950-yilda Nyuell va K.Grın; e) 1957-yilda J. Makkarti va Xao Vanga.
8. Fikrlashni modellashtiradigan dasturni tuzish uslubini nechanchi yilda va kimlar taklif etdilar?
- a) 1970-yilda A. Nyuel va G.Saymon;
 - b) 1965-yilda D. Edmonds va K.Grın;
 - c) 1970-yilda K.Grın va G.Saymon;
 - e) 1957-yilda A. Nyuel va Xao Vanga.

9. SI usullarini rivojlanishining birinchi pog'onasida tadqiqot maydonida masalalar sifatida..... qaralgan.
- a) turli xil o'yinlar, boshqotirmalar, matematik masalalar;
 - b) inson yechmaydigan masalalar;
 - c) insonga o'xshab yechmaydigan dasturlar;
 - e) sezuvchi robotlar yaratish.
10. SI usullarini rivojlanishining ikkinchi pog'onasi bilan bog'liq.
- a) integrallashgan robotlarning yaratilishi;
 - b) sezuvchi robotlarning yaratishlishi;
 - c) ETlarning yaratishlishi;
 - e) gapiruvchi robotlarning yaratilishi.
11. Sun'iy intellekt usullarini rivojlanishining uchinchi pog'onasi bilan bog'liq.
- a) idrok etuvchi, dinamik muhitda murakkab rejalarining amalga oshirilishi hamda bilimlarni tavsiflovchi, inson bilan tabiiy tilda muloqot qiluvchi robotlarni ishlab chiqarilishi;
 - b) bilimlarni tavsiflovchi mexanik robotlarni ishlab chiqarilishi va ularga dasturiy ta'minotlarni qo'llanilishi;
 - c) mehanik integrallashgan robotlarning yaratilishi hamda idrok etuvchi, dinamik muhitda murakkab rejalarining amalga oshirilishi;
 - e) inson bilan tabiiy tilda muloqot qiluvchi mexanik robotlarni ishlab chiqarilishi va ularning bilimlarni tavsiflashda qo'llanilishi.
18. SIdan foydalanishning funksional tuzilishi qanday komplekslardan iborat?
- a) Bajaruvchi tizim, intellektual interfeys, bilimlar bazasi;
 - b) Foydalanuvchi, muloqot tizimi, programmalar;
 - c) Hisoblash, translyatorlar, axborotli qatlam;
 - e) Konseptual qatlam, bajaruvchi, qidiruv vositalari.

2-BOB. MULOHAZALAR VA PREDIKATLAR MANTIQI

1-§. Mulohaza. Mulohazalar ustida amallar

SIda bilimlarni turlicha tasvirlashda matematik mantiq asosni tashkil etadi [14,16,20]. Mantiqiy tasvirlash SIda ishlataladigan boshqa («tarmoqli» va «obyektivli» kabilar) tasvirlashlar uchun tayanch hisoblanadi. Bu turdag'i modellar asosida formal tizim yotadi.



Matematik mantiq(MM)ning mulohazalar algebrasida asosiy tekshirish obektlari bo'lib gaplar xizmat qiladi. MM har bir gapning ma'nosiga qarab, uning chin, haqqoniy, to'g'ri yoki yolg'on, noto'g'ri bo'lishi bilangina qiziqadi.

Matematik mantiq: "Har bir gap chin yoki yolg'on bo'lish xossasiga ega" deb qabul qiladi. Mulohazalar sifatida faqat chin yoki yolg'on qiymat qabul qila oladigan darak gaplar qaraladi. Demak, har bir mulohaza ma'lum holatda chin yoki yolg'on qiymatga ega. Bundan keyin, chin qiymatni qisqacha "1" va yolg'on qiymatni "0" bilan belgilaymiz.

Mulohazalarni belgilash uchun, asosan, lotin alfavitining kichik harflari $a, b, c, \dots, u, v, \dots, x, y, z$ foydalaniladi.

Ma'lum mulohazalar borki, hamma mumkin bo'lgan holatlarda (vaziyatlarda) 1 (0) qiymatni qabul qiladilar. Bunday mulohazalarga absolyut chin (yolg'on) mulohazalar deb aytildi.

x_1, x_2, \dots, x_n ta o'zgaruvchi mulohaza berilgan bo'lsin. Bularning har qaysisi chin va yolg'on qiymatlarni qabul qiladi. Shuning uchun quyidagi qiymatlar satrini tuzish mumkin:

$$\begin{aligned} & 0, 0, \dots, 0, \\ & 1, 0, \dots, 0, \\ & 0, 1, \dots, 0, \\ & \dots\dots\dots \\ & 1, 1, \dots, 1. \end{aligned}$$

Demak, o'zgaruvchilar soni n ta bo'lsa, u vaqtida $C_n^0 + C_n^1 + C_n^2 + \dots + C_n^n = 2^n$ ta qiymatlar satriga ega bo'lamiz.

$x_1, x_2 : 2^2 = 4$ ta qiymatlar satri.

$x_1, x_2, x_3 : 2^3 = 8$ ta qiymatlar satri.

MMda "emas", "yoki", "va", "agar...", u holda", "shunda va faqat shundagina...., qachon...." so'zlar (bog'lovchilar) elementar mulohazalar orasidagi mantiqiy amallar deyiladi. Mulohazalar ustida bu amallar

bajariladi va buning natijasida yana mulohazalar hosil bo'ladi. Bu amallarga mantiqiy amallar nomi berilgan. Bu amallar quyidagilardir.

Inkor amali. x mulohazaning inkori deb atalgan \bar{x} mulohaza, x mulohaza "1" qiymatni qabul qilganda, \bar{x} mulohaza "0" qiymatni qabul qiladi va aksincha. Inkor amali oddiy tildagi manfiy sifatdosh "emas" ga to'g'ri keladi. Masalan " x emas" - \bar{x} . **Konyunksiya (mantiqiy ko'paytma) amali.** "Va" bog'lovchisiga mos keluvchi mantiqiy amalga konyunksiya amali deb aytamiz. x va y mulohazalarning konyunksiyasi $x \wedge y$ mulohaza, x va y mulohazalar chin bo'lgandagina chin qiymatni qabul qilib, qolgan hollarda esa, yolg'on qiymatni qabul qiladi.

Dizyunksiya (mantiqiy yig'indi) amali. Rad etmaydigan ma'noda ishlatiladigan "yoki" bog'lovchisiga mos keladi. Ikki x va y mulohazaning dizyunksiyasi $x \vee y$ murakkab mulohaza bo'lib, u faqat x va y yolg'on bo'lgandagina yolg'on qiymat qabul qilib, qolgan hollarda chin qiymatni qabul qiladi.

Implikasiya amali. "Agar....., u holda....." bog'lovchisiga mos keladi. Ikki x va y mulohazalarning implikasiyasi $x \rightarrow y$ deb shunday mulohazaga aytildiki, u faqat x chin va y yolg'on bo'lgandagina yolg'on bo'lib, qolgan hamma hollarda chindir.

Ekvivalensiya (tengkuchlilik) amali. "Shunda va faqat shundagina, qachonki" bog'lovchisiga mos keladi. Ekvivalensiya $x \leftrightarrow y$ amali x va y mulohazalar bir xil qiymat qabul qilgandagina chin, boshqa hollarda u yolg'on qiymat qabul qiladi.

Sheffer amali. Faqat x va y mulohazalar chin bo'lgandagina, $x|y$ mulohaza yolg'on dir.

Pirs amali (strekasi). Faqat x va y mulohazalar yolg'on bo'lgandagina $x \downarrow y$ mulohaza chindir.

Yuqorida keltirilgan mantiqiy amallar chinlik jadvali 2.1-jadval yordamida beriladi.

2.1 –jadval. Mantiqiy amallarning chinlik jadvali.

x	y	\bar{x}	\bar{y}	$x \wedge y$	$x \vee y$	$x \rightarrow y$	$x \leftrightarrow y$	$x y$	$x \downarrow y$
1	1	0	0	1	1	1	1	0	1
1	0	0	1	0	1	0	0	1	0
0	1	1	0	0	1	1	0	1	0
0	0	1	1	0	0	0	1	1	0

Bu amallar yordamida elementar mulohazalardan murakkab mulohaza quriladi.

2-§. Mulohazalar mantiqida isbotlash usullari

MMda isbotlash muammosi-bu agar x_1, x_2, \dots, x_n boshlang'ich mulohazalar chin deb hisoblanganda, y xulosaning chin qiymatini topishdan iborat bo'ladi va $x_1, x_2, \dots, x_n \vdash A$ ko'rinishda belgilanadi. Isbotlarda va xulosalarda " \vdash " belgi «chiqarish mumkin» kabi o'qiladi.

Mantiqda isbotlash muammosini yechishning ikkita asosiy usullari mavjud: *semantikli va sintaktikli*[16, 19].

1. Isbotlashning *semantikli usulda* ($x_1, x_2, \dots, x_n; A$) formulaga kiruvchi barcha o'zgaruvchilarni hisobga olib, ushbu o'zgaruvchilar qiymatlarining mumkin bo'lgan barcha holatlari uchun chinlik jadvali tuziladi. Keyin ushbu jadvalning barcha qatorlarida x_1, x_2, \dots, x_n o'zgaruvchilar chin qiymat qabul qilganda, y formulaning ham chin qiymat qabul qilishi tekshiriladi. Bu usul juda qulay, lekin juda ko'p hisoblashlarni bajarishni talab qiladi.

2. Isbotlashning *sintaktik usulida* avval mulohazalar yoziladi va ularga xulosalash qoidalarini qo'llab yangi chin formulalarni hosil qilishga harakat qilinadi. Ushbu hosil qilingan formulalardan va boshlang'ich mulohazalardan navbatdagi yangi formulalar hosil qilinadi va ushbu jarayon talab qilingan xulosani hosil qilguncha davom ettiriladi (ta'kidlaymizki, bu hamma vaqt ham amalga oshavermaydi). Bu jarayon mantiqiy xulosalash hisoblanadi va u ko'pincha matematikada teoremlarni isbotlashda qo'llaniladi. Bu usulni navbatdagi bo'limda keltiramiz.

2.1. Mulohazalar mantiqida isbotlashning semantik usuli

Mulohazalar mantiqi formulasini isbotlashning semantik usuli ($x_1, x_2, \dots, x_n; A$) formulaga kiruvchi barcha o'zgaruvchilarni hisobga olib, ushbu o'zgaruvchilar qiymatlarining mumkin bo'lgan barcha holatlari (satrlari) uchun chinlik jadvali tuziladi va ushbu jadvalning barcha satrlarida x_1, x_2, \dots, x_n o'zgaruvchilar chin qiymat qabul qilganda, A formulaning ham chin qiymat qabul qilishi tekshiriladi.

Oddiy mulohazalarni inkor, diz'yunktsiya, kon'yunktsiya, implikatsiya va ekvivalentsiya mantiqiy amallar vositasi bilan ma'lum tartibda birlashtirish natijasida hosil qilingan murakkab mulohazani formula deb aytamiz.

Masalan: $[x_1 \vee (x_2 \wedge x_3) \leftrightarrow (x_2 \vee x_3)] \rightarrow x_4;$ $[x_1 \wedge (x_2 \leftrightarrow x_3)] \wedge (x_2 \rightarrow x_5);$ $(x \rightarrow y) \wedge (x \leftrightarrow y);$ $((x \rightarrow y) \leftrightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow (z \vee x)$ murakkab mulohazalar

formulalar bo‘ladilar. Qavslar mulohazalar ustida mantiqiy amallarning qaytartibda bajarilishini ko‘rsatadi.

Mulohazalar mantiqida x_1, x_2, \dots, x_n oddiy mulohazalarning har biri va bu formulalar ustida mantiqiy amallarni qo’llab hosil qilingan ($A \wedge B$), ($A \vee B$), ($A \rightarrow B$), ($A \leftrightarrow B$) va \bar{A} lar ham formulalar bo’ladi.

A va B formulalarning qiymatlari elementar mulohazalarning har bir qiymatlari satrida bir xil bo‘lsa, A va B formulalarga tengkuchli formulalar bo’ladi va bu $A=B$ tarzda belgilanadi.

A va B formulalarning tengkuchli bo‘lish-bo‘lmasligi ular uchun tuzilgan chinlik jadvallari yordamida aniqlanadi.

Misol. $A = \bar{x} \vee y \wedge z$ va $B = x \rightarrow y \wedge z$ formulalar berilgan bo‘lsin. 2.2-chinlik jadvalidan foydalanib A va B formulalarning tenkuchliligini tekshiramiz:

2.2-jadval. A va B larning tenkuchliligini isbotlashning chinlik jadvali.

x	y	z	\bar{x}	$C = y \wedge z$	$A = \bar{x} \vee C$	$D = y \wedge z$	$B = x \rightarrow D$
0	0	0	1	0	1	0	1
0	0	1	1	0	1	0	1
0	1	0	1	0	1	0	1
0	1	1	1	1	1	1	1
1	0	0	0	0	0	0	0
1	0	1	0	0	0	0	0
1	1	0	0	0	0	0	0
1	1	1	0	1	1	1	1

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sakkista qiymatlar satri uchun A va B formulalarning mos qiymatlari bir xil. Demak, $A=B$.

Elementar mulohazalarning hamma qiymatlar satrlarida faqat chin qiymatni qabul qiluvchi formula tavtologiya (aynan chin) deb ataladi. A formulaning tavtologiya ekanligi yoki emasligini chinlik jadvali yordamida aniqlaymiz.

Tavtologiyaga misollar:

- 1) $A = x \wedge (1 \vee 0) \wedge (x \rightarrow y) \rightarrow y = 1$; 2) $A = \bar{y} \wedge (x \rightarrow y) \rightarrow \bar{x} \wedge (\bar{x} \vee x) = 1$;
- 3) $A = (\bar{x} \wedge x) \vee ((x \rightarrow y) \rightarrow ((x \vee z) \rightarrow (y \vee z))) = 1$;

Chinlik jadvali yordamida $A = x \wedge (1 \vee 0) \wedge (x \rightarrow y) \rightarrow y = 1$ tavtologiyani isbotlaymiz.

2.3 –jadval. Tavtologiyani isbotlashning chinlik jadvali.

x	y	$A = 1 \vee 0$	$B = x \rightarrow y$	$C = x \wedge A$	$D = C \wedge B$	$F = D \rightarrow y$
0	0	1	1	0	0	1
0	1	1	1	0	0	1
1	0	1	0	1	0	1
1	1	1	1	1	1	1

Agar $(A \leftrightarrow B)$ va $(A \rightarrow B)$ tavtologiyalar bo'lsa, u holda mos ravishda A va B lar mantiqiy ekvivalent va B A ning mantiqiy xulosasi bo'ladi.

Chinlik jadvalini tuzishning dasturiy ta'minoti [3]. Dastur quyidagi modullardan iborat:

- 1) «Hisoblash» moduli - mantiqiy funksiya ifodasi kiritigach uning chinlik jadvali shiqarish maydonida hosil qilish vazifasini bajaradi;
- 2) «Tozalash» moduli - kiritish maydonidagi formulani o'chiradi;
- 3) «Ma'lumot» oynasi - funksilarni kiritish maydoniga klaviatura yordamida kiritishda yordamchi qo'llanma vazifasini bajaradi;
- 4) Funksiya ifodasini sichqoncha yordamida tez kiritish maxsus tugmalar orqali amalga oshiriladi.

Dasturni ishslash jarayoni foydalanuvchiga tushinarli bo'lishi uchun, quyida to'rtta o'zgaruvchiga bog'liq mantiqiy formulani chinlik jadvalini tuzish jarayonini ko'rib chiqamiz.

Bizga to'rtda o'zgaruvchiga bog'liq $F = (x \wedge y \leftrightarrow z) \oplus t$ berilgan bo'lsin. Kiritish maydonida formula ($[x]$ and $[y] \leftrightarrow [z]$) + $[t]$ ko'rinishida namoyon bo'ladi. «Hisoblash» moduli ishga tushirilgach, dastur oynasining chiqarish maydonida $2^4 = 16$ ta satrdan iborat chinlik jadvali hosil bo'ladi, ya'ni muloqot oynasi 2.1-rasmdagi ko'rinishda bo'ladi.

Dastur xulosasiga ko'ra $F = (x \wedge y \leftrightarrow z) \oplus t$ tavtologiya emas.

Demak n ta o'zgaruvchiga bog'liq formulaning chinlik jadvali 2^n ta satrdan iborat bo'ladi, o'zgaruvchilar soni ortib borishi bilan chinlik jadvali hajmi ham ortib boradi. Bu esa hisoblashlarda qiyinchilik keltirib chiqaradi. «Chinlik jadvali» dasturi o'zgaruvchilari soni 10 tagacha bo'lgan formulalarning chinlik jadvalini aniq hisoblaydi va bu foydalanuvchilar uchun ancha qulaydir.

Tavtologiya formulalar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular mantiq qonunlarini ifodalaydi. Shu munosabat bilan quyidagi masala tug'iladi: shunday usulni topish kerakki, u chekli miqdordagi amal yordamida mantiq algebrasining ixtiyoriy muayan formulasini aynan chin yoki aynan chin

emasligini aniqlasın. Bunday usul yechiluvchi usul yoki algoritm, yoki yechiluvchi protsedura deyiladi. Qo‘yilgan masalaning o‘zi esa “*echilish muammosi*” deyiladi. Bu muammo faqatgina mulohazalar algebrasi uchungina emas, balki boshqa mantiqiy sistemalar uchun ham qo‘yiladi. U mulohazalar algebrasi uchun ijobjiy ravishda yechiladi. Bu yerda yechiluvchi protsedura sifatida chinlik jadvalini olishimiz mumkin, chunki bunday jadval har bir muayan formula uchun qo‘yilgan savolga javob beradi. Agar berilgan formulaga mos keladigan jadvalning oxirgi ustunida faqat “chin” bo‘lsa, u holda bu formula aynan “chin”, agar oxirgi ustunda hech bo‘lmaganda bitta “yolg’on” bo‘lsa, u holda formula aynan chin emas bo‘ladi. Tabiiyki, amalda bu usulni har doim bajarib bo‘lmaydi (chunki formulada n ta o‘zgaruvchi qatnashsa, bunday jadval 2^n ta satrga ega bo‘ladi). Lekin har doim chekli miqdordagi amal bajarib, printsip jihatdan qo‘yilgan savolga javob berish mumkin. Keyingi paragraflarda boshqa bir yechiluvchi protsedurani, ya’ni mulohazalar mantiqi sintaktikasi usulini keltiramiz, u berilgan formulani normal shaklga keltirishga asoslangan. Normal shakllar MMning boshqa masalalarida ham ishlatalidi.

Nomi	Amallar
x o‘zgaruvchi	[x]
Qavslar	0
Inkor	!
Konyunksiya	and
Sheffer shtrixi	na
Dizunksiya	or
Pirs strelkasi	no
Implikasiya	->
Ekvivalensiya	<=>
2 modul bo‘yicha qo’shish	+

	x	y	z	t	F
1)	0	0	0	0	1
2)	0	0	0	1	0
3)	0	0	1	0	0
4)	0	0	1	1	1
5)	0	1	0	0	1
6)	0	1	0	1	0
7)	0	1	1	0	0
8)	0	1	1	1	1
9)	1	0	0	0	1
10)	1	0	0	1	0
11)	1	0	1	0	0
12)	1	0	1	1	1
13)	1	1	0	0	0
14)	1	1	0	1	1
15)	1	1	1	0	1
16)	1	1	1	1	0

2.1-rasm. To’rtta o‘zgarubchi uchun chinlik jadvalini hosil qilish.

2.2. Mulohazalar mantiqida isbotlashning sintaktik usuli

Mulohazalar mantiqi formulasini isbotlashning sintaktik usulida avval mulohazalar formula ko'rinishga keltiriladi va ularga xulosalash qoidalari qo'llanilib yangi chin formulalarni (ta'kidlaymizki, bu hamma vaqt ham amalga oshavermaydi) hosil qilishga harakat qilinadi. Bu jarayon mantiqiy xulosalash hisoblanadi va u ko'pincha SIda maqsadli tasdiqlarni isbotlashda qo'llaniladi.

Ixtiyoriy mantiqiy ifodalarni normal (sodda) ko'rinishga keltirish uchun quyidagi asosiy tengkuchliliklardan foydalaniladi [12, 14, 19, 20]:

- 1) $x \wedge y = y \wedge x$; 2) $(x \wedge y) \wedge z = x \wedge (y \wedge z)$; 3) $x \vee y = y \vee x$;
- 4) $(x \vee y) \vee z = x \vee (y \vee z)$; 5) $x \wedge (y \vee z) = (x \wedge y) \vee (x \wedge z)$;
- 6) $x \vee (y \wedge z) = (x \vee y) \wedge (x \vee z)$; 7) $\overline{x \vee y} \equiv \overline{x} \wedge \overline{y}$;
- 8) $\overline{x \wedge y} \equiv \overline{x} \vee \overline{y}$; 9) $x \wedge \overline{x} \equiv 0$; 10) $x \vee \overline{x} \equiv 1$; 11) $x \wedge x \equiv x$;
- 12) $x \vee x \equiv x$; 13) $x \wedge (x \vee y) \equiv x$; 14) $x \vee x \wedge y \equiv x$; 15) $x \vee 0 \equiv x$;
- 16) $x \vee 1 \equiv 1$; 17) $x \wedge 1 \equiv x$; 18) $x \wedge 0 \equiv 0$; 19) $x \rightarrow y \equiv \overline{x} \vee y$;
- 20) $x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y) \wedge (y \rightarrow x)$; 21) $x \leftrightarrow y \equiv \overline{x} \wedge \overline{y} \vee x \wedge y$.

Keltirilgan tengkuchliliklar formulalar uchun ham o'rinali bo'lib, ular ixtiyoriy mantiqiy ifodalarni normal ko'rinishga keltirishga imkon yaratadi.

Formulalarning normal shakllari. Tengkuchli almashtirishlar bajarib, mulohazalar algebrasining formulalarini har xil ko'rinishlarda yozish mumkin. Mantiqiy xulosalashda formulalarning normal shakllari katta ahamiyatga ega. Formulalarning normal shakllari sifatida dizyuntiv normal shakl(DNSH) va konyunktiv normal shakl(KNSH)lar qaraladi.

DNSH deb elementar konyunksiyalarning dizyunksiyasiga va KNSH deb elementar dizyunksiyalarning konyunksiyasiga aytiladi.

Misol. DSHga $A = x \wedge y \vee x \wedge z \vee x \wedge \overline{y} \wedge z$, KNSHga $B = (x \vee y) \wedge (\overline{x} \vee z) \wedge (x \vee \overline{y} \vee z)$ formulani keltirish mumkin.

Mantiq algebrasining bitta formulasi uchun bir nechta DNSH (KNSH) mavjud bo'lishi mumkin. Formulalarni bir qiyamatli ravishda normal shaklda tasvirlash uchun takomil diz'yunktiv normal shakl (TDNSH) va takomil kon'yunktiv normal shakl (TKNSH) deb ataluvchi ko'rinishlari ishlatiladi.

Agar DNSH (KNSH) ifodasida bir xil elementar kon'yunktsiyalar (elementar diz'yunktsiyalar) bo'lmasa va hamma elementar

kon'yunktsiyalar (elementar diz'yunktsiyalar) to'g'ri va to'liq bo'lsa, u holda bunday DNSH (KNSH) TDNSH (TKNSH) deb aytildi.

Masalan, $A = x \wedge y \wedge z \vee x \wedge y \wedge \bar{z} \vee \bar{x} \wedge y \wedge z \vee x \wedge \bar{y} \wedge z$ DNSH x, y, z mulohazalarga nisbatan TDNSH bo'ladi. $B = (x \vee y) \wedge (x \vee \bar{y}) \wedge (\bar{x} \vee y)$ KNSH x, y mulohazalarga nisbatan TKNSH bo'ladi.

Endi mulohazalar mantiqi formulasini TDNSHga keltirish algoritmini keltiramiz.

1. A formulani konyunksiya, dizyunksiya va inkor mantiqiy amallar orqali ifodalaymiz (inkor amaldi faqatgina o'zgaruvchilar ustida bo'lishi kerak). So'ngra distributivlik qonunlaridan foydalanib, A formulani DNSHga keltiramiz va hamma lozim bo'lgan soddalashtirishlarni bajaramiz.

2. Agar DNSH ifodasida bir nechta bir xil elementar konyunksiyalar mavjud bo'lsa, u holda $x \vee x = x$ tengkuchlilik formulasidan foydalanib ulardan bittasini A ifodasida qoldiramiz.

3. Quyidagi ikki usul orqali hamma elementar konyunksiyalarni to'g'ri elementar konyunksiyalarga aylantiramiz:

a) agar biror elementar konyunksiya ifodasida birorta o'zgaruvchi o'zining inkori bilan qatnashgan bo'lsa, u holda $x \wedge \bar{x} = 0$, $1 \wedge x = x$, $x \vee x = x$ tengkuchlilik formulalarga asosan biz bu elementar dizyunksiyani DNSH ifodasidan olib tashlaymiz;

b) agar birorta o'zgaruvchi elementar konyunksiya ifodasida bir necha marta qatnashgan bo'lsa (yoki hamma holda inkor ishorasi ostida emas, yoki hamma holda inkor ishorasi ostida), u vaqtida $x \wedge x = x$ formulasiga asosan biz ulardan faqatgina bittasini DNSH ifodasida qoldiramiz.

Natijada, hamma elementar konyunksiyalar to'g'ri elementar konyunksiyalarga aylanadi.

4. Agar ba'zi elementar konyunksiyalar to'liq elementar konyunksiyalar bo'lmasa, ya'ni konyktiv hadlarda elementar mulohazalarning ba'zilari (yoki ularning inkorlari) mavjud bo'lmasa, u holda $x_i \vee \bar{x}_i = 1$ va $K \wedge 1 = K$ formulalardan foydalanib bunday elementar konyunksiyalarni to'liq elementar konyunksiyalar holatiga keltirish kerak.

Agarda elementar konyunksiya ifodasida bir nechta y_1, y_2, \dots, y_m o'zgaruvchilar qatnashmayotgan bo'lsa, u holda uning ifodasiga ($y_i \vee \bar{y}_i$) ($i = \overline{1, m}$) dizyunksiyalarni mantiqiy qo'shib, distributivlik qonunini qo'llaymiz. Natijada, bitta to'liq emas elementar konyunksiya o'rniga $2m$ ta to'liq elementar konyunktsiyalarga ega bo'lamiz.

5. To‘rtinchi qadam bajarilishi natijasida DNSH ifodasida bir xil elementar konyunksiyalar paydo bo‘ladi. Shuning uchun yana 2- qadamni ishlatamiz.

Demak, 1-5 - qadamlar natijasida DNSH ifodasida bir xil elementar konyunksiyalar mavjud bo‘lmaydi va hamma elementar konyunksiyalar to‘g’ri va to‘liq bo‘ladi. Natijada TDNSH hosil bo‘ladi.

Misol. 1. $A = (x \leftrightarrow y) \rightarrow z$ formulani TDNSH keltiramiz.

$$\begin{aligned}
A &= (x \leftrightarrow y) \rightarrow z = (\bar{x} \wedge \bar{y} \vee x \wedge y) \rightarrow z = \overline{\bar{x} \wedge \bar{y}} \vee x \wedge y \vee z = \bar{x} \wedge \bar{y} \wedge x \wedge y \vee z = \\
&= (\bar{x} \vee \bar{y}) \wedge (\bar{x} \vee \bar{y}) \vee z = (x \vee y) \wedge (\bar{x} \vee \bar{y}) \vee z = x \wedge \bar{x} \vee x \wedge \bar{y} \vee \bar{x} \wedge y \vee y \wedge \bar{y} \vee z = \\
&= 0 \vee x \wedge \bar{y} \vee \bar{x} \wedge y \vee 0 \vee z = x \wedge \bar{y} \vee \bar{x} \wedge y \vee z = x \wedge \bar{y} \wedge 1 \vee \bar{x} \wedge y \wedge 1 \vee 1 \wedge z = \\
&= x \wedge \bar{y} \wedge (z \vee \bar{z}) \vee \bar{x} \wedge y \wedge (z \vee \bar{z}) \vee (x \vee \bar{x}) \wedge (y \vee \bar{y}) \wedge z = x \wedge \bar{y} \wedge z \vee x \wedge \bar{y} \wedge \bar{z} \vee \\
&\quad \vee \bar{x} \wedge y \wedge z \vee \bar{x} \wedge y \wedge \bar{z} \vee x \wedge y \wedge z \vee \bar{x} \wedge y \wedge z \vee \bar{x} \wedge \bar{y} \wedge z = \\
&= x \wedge \bar{y} \wedge z \vee x \wedge \bar{y} \wedge \bar{z} \vee \bar{x} \wedge y \wedge z \vee \bar{x} \wedge y \wedge \bar{z} \vee x \wedge z \vee \bar{x} \wedge y \wedge z \vee \bar{x} \wedge \bar{y} \wedge z.
\end{aligned}$$

Agar hosil qilingan elementar konyunksiyalarni

$$K_1 = x \wedge \bar{y} \wedge z; \quad K_2 = x \wedge \bar{y} \wedge \bar{z}; \quad K_3 = \bar{x} \wedge y \wedge z; \quad K_4 = \bar{x} \wedge y \wedge \bar{z};$$

$$K_5 = x \wedge y \wedge z; \quad K_6 = \bar{x} \wedge y \wedge z; \quad K_7 = \bar{x} \wedge \bar{y} \wedge z.$$

belgilasak, u holda TDNSHni $A = K_1 \vee K_2 \vee K_3 \vee K_4 \vee K_5 \vee K_6 \vee K_7$ ko’rinishda yozish mumkin.

Tavtologiyalarni sintaktik usul formulalari bilan isbotlash.

Tavtologiyalarni isbotlash uchun mulohazalar mantiqining asosiy tengkuchliliklaridan foydalanamiz va qavslarni oshirish, formulaning aynan chin ekanligini aniqlaymiz. Masalan,

$$\begin{aligned}
A &= x \wedge (1 \vee 0) \wedge (x \rightarrow y) \rightarrow y = \overline{x \wedge 1 \wedge (\bar{x} \vee y)} \vee y = \bar{x} \vee \bar{1} \vee \overline{\bar{x} \vee y} \vee y = \bar{x} \vee 0 \vee \bar{x} \wedge \bar{y} \vee y = \\
&= \bar{x} \vee x \wedge \bar{y} \vee y = (\bar{x} \vee x) \wedge (\bar{x} \vee \bar{y}) \vee y = 1 \wedge (\bar{x} \vee \bar{y}) \vee y = 1 \wedge \bar{x} \vee (\bar{x} \vee x) = \bar{x} \vee 1 = 1
\end{aligned}$$

Tavtologiya va almashtirishlardan foydalanib xulosa chiqarish uchun muhim vosita *ekvivalentlik* hisoblanadi. Bunda ekvivalent formulalarni o’zaro almashtirishni to‘g’ri amalga oshirishni bilish kerak. Masalan, $x \vee y$ formula $y \vee x$ formula bilan almashtirish mumkin, chunki $x \vee y \leftrightarrow y \vee x$.

$x \leftrightarrow y$ ekvivalentlikni ikki taraflama $x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y) \wedge (y \rightarrow x)$ implikatsiya bilan almashtirish mumkin, chunki bu ifodalar chinlik jadvalida bir xil qiymatlar qabul qiladi. $x \leftrightarrow y$ ekvivalentlikni konyunktiv normal shaklga ham keltirish mumkin. Buning uchun implikatsuyani dizyunksiya va inkor amallari yordamida $x \rightarrow y = \bar{x} \vee y$

almashtirishdan foydalanamiz . U holda
 $x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y) \wedge (y \rightarrow x) = (\bar{x} \vee y) \wedge (\bar{y} \vee x)$ ekvivalentlikni hosil qilamiz.
 Bu ifodada qavslarni ochish bilan dizyunktiv normal shaklni hosil qilamiz:
 $x \leftrightarrow y = (x \rightarrow y) \wedge (y \rightarrow x) = (\bar{x} \vee y) \wedge (\bar{y} \vee x) = (\bar{x} \wedge \bar{y}) \vee (\bar{x} \wedge x) \vee (y \wedge \bar{y}) \vee (x \wedge y) =$
 $= (\bar{x} \wedge \bar{y}) \vee 0 \vee 0 \vee (x \wedge y) = (\bar{x} \wedge \bar{y}) \vee (x \wedge y).$

Boshqacha aytganda, agar x va y ekvivalent bo'lsa, u holda ularning ikkalasi ham chin yoki ikkalasi ham yolg'on bo'ladi.

Ekvivalentlikga asoslangan tautologiyalarga **misollar**:

- 1) $A = ((x \rightarrow y) \wedge (y \rightarrow z)) \rightarrow (x \rightarrow z) = 1;$
- 2) $A = (x \vee y) \leftrightarrow (y \vee x) = 1;$
- 3) $A = x \wedge (x \vee y) \leftrightarrow x = 1;$
- 4) $A = (x \rightarrow (x \rightarrow y)) \leftrightarrow (x \wedge y \rightarrow z) = 1;$

Mantiqiy xulosalash prodseduralarida ekvivalentlikdan ikkita uslubda foydalanish mumkin:

- 1) Ikkita alohida implikatsiyalar shaklida ifodalash;
- 2) Almashtirishlardan foydalanish.

Mantiqda tautologiyalarga qarama-qarshi o'zgaruvchilarning mumkin bo'lgan barcha qiymatlari naborida faqat «yolg'on (0)» qiymat qabul qiluvchi formulalar ham mavjud. Masalan, x ning har qanday qiymatlarida $A = x \wedge \bar{x} = 0$; $A = (\bar{x} \vee y) \wedge (\bar{x} \rightarrow y) = 0$.

Mantiqiy formulalarni TDNSH va TKNSHlarga keltirish dasturiy ta'minoti [3]. Dastur quyidagi modullardan iborat:

- 1) «Hisoblash» moduli - mantiqiy funksiya ifodasi kiritilgach uning chinlik jadvalini, TKNSH va TDNSH ko'rinishlarini shiqarish maydonida hosil qilish vazifasini bajaradi;
- 2) «Tozalash» moduli - kiritish maydonidagi formulani o'chiradi;
- 3) Ma'lumot oynasi - funksilarni kiritish maydoniga klaviatura yordamida kiritishda yordamchi qo'llanma vazifasini bajaradi;
- 4) Funksiya ifodasini sichqoncha yordamida tez kiritish maxsus tugmalar orqali amalga oshiriladi;
- 5) TKNSH va TDNSH chiqarish maydonlarida formulalarning normal shakllari ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

«Hisoblash» moduli ishga tushirilgach, dastur oynasining chiqarish maydonida $2^3=8$ ta satrdan iborat chinlik jadvali va formulalarning TDNSH va TKNSH ko'rinishlari hosil bo'ladi (2.2-rasm).

Chiqarish maydonida TDNSH va TKNSH larning ko'rinishlari quyidagicha:

1) $(x \text{ or } !y \text{ or } z) \text{ and } (x \text{ or } !y \text{ or } !z) \text{ and } (!x \text{ or } y \text{ or } !z) \text{ and } (!x \text{ or } !y \text{ or } !z)$.

2) $(!x \text{ and } !y \text{ and } !z) \text{ or } (!x \text{ and } !y \text{ and } z) \text{ or } (x \text{ and } !y \text{ and } !z) \text{ or } (x \text{ and } y \text{ and } !z)$.

Bu ifodalarning matematik ko'rinishi quyidagicha:

$$1) (x \vee \bar{y} \vee z) \wedge (x \vee \bar{y} \vee \bar{z}) \wedge (\bar{x} \vee y \vee \bar{z}) \wedge (\bar{x} \vee \bar{y} \vee \bar{z}).$$

$$2) (\bar{x} \wedge \bar{y} \wedge \bar{z}) \vee (\bar{x} \wedge \bar{y} \wedge z) \vee (x \wedge \bar{y} \wedge \bar{z}) \vee (x \wedge y \wedge \bar{z}) = \bar{x}\bar{y}\bar{z} \vee \bar{x}\bar{y}z \vee x\bar{y}\bar{z} \vee xy\bar{z}.$$

2.2-rasm. TDNSH va TKNSH larni hosil qilish.

3-§. Predikatlar mantiqi

Predikatlar mantiqi(PM)da quyidagi *simvollardan* foydalanamiz [14, 20]:

1. $a, b, c, \dots, u, v, \dots, x, y, z$ simvollar – 1 (chin) va 0 (yolg'on) qiymatlar qabul qiluvchi o'zgaruvchi mulohazalar va qandaydir M to'plamdan qiymat oluvchi predmet o'zgaruvchilar;

3. $A(\cdot), B(\cdot) \dots$ - bir joyli va $A(\cdot, \cdot, \dots, \cdot)$, $B(\cdot, \cdot, \dots, \cdot) \dots$ - n joyli o'zgaruvchi predikatlar.

4. $A^0(\cdot), B^0(\cdot, \cdot, \dots, \cdot) \dots$ - o'zgarmas predikatlar simvoli.

5. $\wedge, \vee, -, \rightarrow, \leftrightarrow$ - mantiqiy amallar simvollar.

6. \forall, \exists - kvantorli amallar simvollar.

7. (,) (qavs, vergul) – qo’shimcha simvollar.

Predikat tushunchasi. Mantiq algebrasida mulohazalar faqatgina chin yoki yolg’on qiymat olishi nuqtai nazaridan qaraladi. Bunda mulohazalarning strukturasi va mazmuni qaralmaydi. Ammo fanda va amaliyotda mulohazalarning strukturasi va mazmunidan kelib chiqadigan xulosalardan foydalilaniladi.

Masalan, “Axmad-inson; demak, Axmad-sutemizuvchi». Asos (shart) va xulosa mulohazalar mantiqining elementar mulohazalari bo’ladi va ularni bu mantiq nuqtai nazaridan bo’linmas, bir butun deb va ularning ichki strukturasini hisobga olmasdan qaraladi. Shunday qilib, mantiq algebrasi mantiqning muhim qismi bo’lishiga qaramasdan, ko’pgina fikrlarni tahlil qilishga qodir (yetarli) emas.

Shuning uchun ham mulohazalar mantiqini kengaytirish masalasi vujudga keldi, ya’ni elementar mulohazalarning ichki strukturasini ham tadqiq eta oladigan mantiqiy sistemanı yaratish muammosi paydo bo’ldi.

Bunday sistema mulohazalar mantiqini o’zining bir qismi sifatida butunlayiga o’z ichiga oladigan PMdir.

PM an’naviy formal mantiq singari elementar mulohazani *subyekt* va *predikat* qismlarga bo’ladi.

Subyekt – bu mulohazada biror narsa haqida nimadir tasdiqlaydi; *predikat* – bu subyektni tasdiqlash.

Masalan, «Zarrux-talaba» mulohazasida «Zarrux» - subyekt, «talaba» - predikat. Bu mulohazada «Zarrux» «talaba bo’lish» xususiyatiga ega ekanligi tasdiqlanadi.

Agar keltirilgan mulohazada ma’lum Zarruxni odamlar to’plami S dagi x o’zgaruvchi bilan almashtirsak, u holda « x -talaba» ko’rinishidagi mulohazaga ega bo’lamiz. x o’zgaruvchining bir xil qiymatlari uchun bu shakl chin mulohazalar va x o’zgaruvchining boshqa qiymatlari uchun bu shakl yolg’on mulohazalar beradi.

Aniqki, bu shakl bir x argumentli funksiyani aniqlaydi. Bu funksianing aniqlanish sohasi odamlar to’plami S va qiymatlar sohasi $\{1, 0\}$ to’plam bo’ladi.

Biror M to’plamda aniqlangan va $\{1, 0\}$ to’plamdan qiymat qabul qiluvchi bir argumentli $P(x)$ funksiyaga *bir joyli predikat* deb aytildi [14, 20]. M to’plamga $P(x)$ predikatning aniqlanish sohasi deb aytamiz.

$P(x)$ predikat chin qiymat qabul qiluvchi hamma $x \in M$ elementlar to'plamiga $P(x)$ predikatning chinlik to'plami deb aytildi.

Masalan, « x -bakalavr» - $P(x)$ predikati S talabalar to'plamida aniqlangan va uning *chinlik to'plami* hamma bakalavrlar to'plamidan iborat. Bir joyli predikatlarga yuqorida keltirilgan misollar *predmetlarning xususiyatlarini* ifodalaydi.

Agar $P(x)$ predikat barcha $x \in M$ to'plamda chin (yolg'on) qiymat qabul qilsa, u holda u *aynan chin (aynan yolg'on)* deb aytildi [20].

Endi *ko'p joyli predikat tushunchasini* aniqlaymiz. *Ko'p joyli predikat predmetlar orasidagi munosabatni* aniqlaydi.

Ikki joyli predikat deb $M = M_1 \times M_2$ to'plamda aniqlangan va $\{1, 0\}$ to'plamdan qiymat oluvchi ikki argumentli $P(x, y)$ funksiyaga aytildi [14, 20].

Masalan, « x, y -talaba» uchun $P(x, y)$ predikati $M = M_1 \times M_2$ talabalar to'plamida aniqlangan bo'lsin. «Teng» munosabati ikki talaba orasidagi binar munosabatni ifodalaydi. « $x = y$ » (bu yerda $x, y \in M$) binar munosabat ikki argumentli $P(x, y)$ funksiyani ifodalaydi. Bu funksiya $M = M_1 \times M_2$ to'plamda aniqlangan va qiymatlar sohasi $\{1, 0\}$ to'plam bo'ladi.

n - joyli predikat ham xuddi shunday aniqlanadi.

Umumiy holda PMda faktlar n-joyli $P(x_1, x_2, \dots, x_n)$ predikatlar bilan belgilanadi. Bu yerda P-predikat (funktor) va x_i -predikatning argumentlari. Argumentlar predikatlat nomi yoki $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ funksiyalar bo'lishi mumkin. Bu yerda f-funksiya nomi, x_1, x_2, \dots, x_n -xuddi predikatlar argumentlari kabi predmet soha o'zgaruvchilari yoki o'zgarmaslar hisoblanadi. Predikatni izohlash natijasida funkторлар va argumentlar predmet sohadan (*qatorlar, sonlar, strukturalar va h.k.*) o'zgarmas qiymatlar qabul qiladi.

($n > 1$)-joyli predikatdan bilimlar injeneriyasida n ta mohiyatlar (obyektlar)-predikat argumentlarni bir-biri bilan o'zaro bog'laydigan n-joyli munosabatlarni tasvirlash uchun foydalilanadi.

Misol. Ota ("Farrux", "Zarrux Farruxovich") predikat "Farrux" va "Zarrux Farruxovich" mohiyatlar qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langanligini anglatadi, chunonchi, Farrux Zarruxning otasi yoki Zarrux Farruxning o'g'li hisoblanadi.

($n=1$)-joyli predikat predikat nomi bilan belgilangan obyektning argumenti yoki xarakteristikasini belgilovchi mohiyat (obyekt) xususiyatini ifodalaydi.

Misol. Uy-g'ishtli, 5-baho, "Amir Temur"-ko'cha, "20 noyabr 1958 y." - tug'ilgan kun, "Sun'iy intellekt"-imtihon.

($n=0$)-joyli predikat (argumentlarsiz) barcha predmet sohaga taalluqli hodisa, belgi yoki xususiyatni anglatishi mumkin. Masalan, "ishning tugashi", "darsning boshlanishi", "daryoning oqishi", "soatning yurishi".

Predikatlar ustida mantiqiy amallar. Predikatlar ham mulohazalar singari faqatgina chin (1) va yolg'on (0) qiymat qabul qilganliklari tufayli ular ustida mulohazalar mantiqidagi hamma mantiqiy amallarni bajarish mumkin.

Bir joyli predikatlar misolida mulohazalar mantiqidagi mantiqiy amallarning predikatlarga tatbiq etilishini keltiramiz.

M to'plamda $A(x)$ va $B(x)$ predikatlar aniqlangan bo'lsin. $A(x)$ va $B(x)$ predikatlar uchun mantiqiy amallar chinlik jadvali yordamida aniqlanadi (2.4 –jadval).

2.4 –jadval. Predikatlar uchun mantiqiy amallarning chinlik jadvali.

$A(x)$	$B(x)$	$\overline{A(x)}$	$\overline{B(x)}$	$A(x) \wedge B(x)$	$A(x) \vee B(x)$	$A(x) \rightarrow B(x)$	$A(x) \leftrightarrow B(x)$
1	1	0	0	1	1	1	1
1	0	0	1	0	1	0	0
0	1	1	0	0	1	1	0
0	0	1	1	0	0	0	1

Misol. N natural sonlar to'plamida $A(x)$: « x - toq son» va $B(x)$: « x - 5 ga karrali» predikatlar uchun « x -toq son va $x-5$ ga karrali» predikatlar konyunksiyasi $A(x) \wedge B(x)$ mos keladi va uning chinlik sohasi $M_a \cap M_b = \emptyset$ - bo'sh to'plamdan iborat bo'ladi. Bu holda $A(x) \wedge B(x)$ formulaning aynan yolg'on ekanligini aniqlaymiz.

Misol. M bakalavrlar to'plamida $P(x)$: « x - bakalavr» va $Q(x)$: « x - stipendiya sovrindori» predikatlar uchun « x -bakalavr yoki x - stipendiya sovrindori» predikatlar dizyunksiyasi $A(x) \vee B(x)$ mos keladi va uning chinlik sohasi $M_a \cup M_b \neq \emptyset$ - bo'shmas to'plamdan iborat bo'ladi. Bu holda $A(x) \vee B(x)$ formulaning aynan chin ekanligini aniqlaymiz.

Umumiylilik va mavjudlik kvantorlari [14, 20]. M to'plamda aniqlangan $A(x)$ predikat berilgan bo'lsin. Agar $a \in M$ ni $A(x)$ predikatning x argumenti o'rniga qo'ysak, u holda bu predikat $A(a)$ mulohazaga aylanadi.

PMda yana ikkita amal mavjudki, ular bir joyli predikatni mulohazaga aylantiradi.

Umumiylit kvantori. M to'plamda aniqlangan $A(x)$ predikat berilgan bo'lsin. Har qanday $x \in M$ uchun $A(x)$ chin va aks holda yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohaza ifodasini $\forall x A(x)$ shaklda yozamiz. Bu mulohaza endi x ga bog'liq bo'lmay qoladi va u quyidagicha o'qiladi: «Har qanday x uchun $A(x)$ chin». \forall simvol umumiylit kvantori deb aytildi. Aytilgan fikrlarni matematik tilda quyidagicha yozish mumkin:

$$\forall x A(x) = \begin{cases} 1, & \text{agar } x \text{ amma } \in M \text{ uchun } A(x) = 1 \text{ bolsa,} \\ 0, & \text{aks xolda} \end{cases}$$

$A(x)$ predikatda x ni erkin (ozod) o'zgaruvchi va $\forall x A(x)$ mulohazada x ni umumiylit kvantori \forall bilan bog'langan o'zgaruvchi deb aytildi.

Mavjudlik kvantori. $A(x)$ predikat M to'plamda aniqlangan bo'lsin. Hech bo'limganda birorta $x \in M$ uchun $A(x)$ predikat chin va aks holda yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohaza ifodasini $\exists x A(x)$ shaklda yozamiz. Bu mulohaza x ga bog'liq emas va uni quyidagicha o'qish mumkin: «Shunday x mavjudki, $A(x)=1$ », ya'ni

$$\exists x A(x) = \begin{cases} 1, & \text{agar birortax } \in M \text{ uchun } A(x) = 1 \text{ bolsa,} \\ 0, & \text{aks xolda} \end{cases}$$

\exists simvol mavjudlik kvantori deb ataladi. $\exists x P(x)$ mulohazada x o'zgaruvchi \exists kvantori bilan bog'langan bo'ladi.

Misol. M talabalar to'plamida $A(x)$ predikat berilgan bo'lsin: « x - stipendiya sovrindori». Kvantorlardan foydalanib ushbu predikatdan quyidagi mulohazalarni hosil qilish mumkin: $\forall x A(x)$ - «Barcha talabalar stipendiya sovrindori bo'ladi»; $\exists x A(x)$ - «Shunday talabalar mavjudki, ular stipendiya sovrindori bo'ladi». Ravshanki, birinchi mulohaza yolg'on va ikkinchi mulohaza chin bo'ladi.

Kvantorli amallar ko'p joyli predikatlarga ham qo'llaniladi. Masalan, M to'plamda ikki joyli $A(x, y)$ predikat berilgan bo'lsin. $A(x, y)$ predikatni kvantorli amallardan foydalanib quyidagi ko'rinishlarda ifodalash mumkin:

$$\forall x \forall y A(x, y), \exists x \forall y A(x, y), \forall x \exists y A(x, y), \exists x \exists y A(x, y).$$

Misol. Talabalar to'plamida aniqlangan $A(x, y)$: « x o'xshashly» predikatni quyidagi shakllarda berish mumkin:

1. $\forall x \forall y A(x, y)$ - «Har qanday x talaba har qanday y talabaga o'xshash».

2. $\exists x \forall y A(x, y)$ - «Shunday x talaba mavjudki, u har qanday y talabaga o'xshashdir».

3. $\forall x \exists y A(x, y)$ - «Har qanday x talabaga uchun shunday y talaba mavjudki, x talaba y talabaga o'xshash».

4. $\exists x \exists y A(x, y)$ - «Shunday x talaba uchun shunday y talaba mavjudki, x talaba y talabaga o'xshash».

Bu misollardan ko'rinish turibdiki, umumiyl holda kvantorlar tartibi o'zgarishi bilan mulohazaning mazmuni va demak, uning mantiqiy qiymati ham o'zgaradi.

Misol. 3-joyli x, y, z qiymatlar uchun quyidagi tasdiq berilgan:

"Agar x ning otasi- y va onasi- z bo'lsa, u holda y va $z - x$ ning ota-onasi bo'ladi;

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$A(x, y)$ - x ning otasi- y ; $B(x, z)$ - x ning onasi- z ;

$D(x, y, z)$ - y va $z - x$ ning ota-onasi.

U holda berilgan tasdiq 3-joyli predikat

$$\forall (x, y, z) (A(x, y) \wedge B(x, z) \rightarrow D(x, y, z))$$

ko'rinishda ifodalanadi.

Chekli son elementlari bo'lган $M = \{a_1, a_2, \dots, a_n\}$ to'plamda aniqlangan $A(x)$ predikat berilgan bo'lsin. Agar $A(x)$ predikat aynan chin bo'lsa, u vaqtida $A(a_1), A(a_2), \dots, A(a_n)$ mulohazalar ham chin bo'ladi. Bu holda $\forall x A(x)$ mulohaza va $A(a_1) \wedge A(a_2) \wedge \dots \wedge A(a_n)$ konyunksiya ham chin bo'ladi.

Agar hech bo'lмаганда birorta $a_k \in M$ element uchun $A(a_k)$ yolg'on bo'lsa, u holda $\forall x A(x)$ mulohaza va $A(a_1) \wedge A(a_2) \wedge \dots \wedge A(a_n)$ konyunksiya ham yolg'on bo'ladi.

Demak,

$$\forall x A(x) = A(a_1) \wedge A(a_2) \wedge \dots \wedge A(a_n)$$

tengkuchli ifoda to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagidek fikr yuritish yo'li bilan

$$\exists x A(x) = A(a_1) \vee A(a_2) \vee \dots \vee A(a_n)$$

tengkuchli ifodanining mavjudligini ko'rsatish mumkin.

Bu yerdan kvantorli amallarni cheksiz sohalarda konyunksiya va dizyunksiya amallarining umumlashmasi sifatida qarash mumkinligi kelib chiqadi.

Predikatlar mantiqi formulasining qiymati tushunchasi. Endi PM formulasining qiymati tushunchasini aniqlaylik [14, 20].

PM formulasining mantiqiy qiymati uch xil o'zgaruvchilar: 1) formulaga kiruvchi o'zgaruvchi mulohazalarning; 2) M to'plamdag'i erkin predmet o'zgaruvchilarning; 3) predikat o'zgaruvchilarning qiymatlariga bog'liq bo'ladi.

Uch xil o'zgaruvchilardan har birining ma'lum qiymatlarida PMning formulasi chin yoki yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohazaga aylanadi.

Misol. Bemorlar to'plami M da $A(x), B(x), C(x)$ va $D(x)$ predikatlar berilgan bo'lsin:

$A(x)$: « x bemorning harorati 40^0 dan yuqori»;

$B(x)$: « x bemorning boshida og'riq bor»;

$C(x)$: « x bemorda yo'tal bor»; $D(x)$: « x bemor gripp».

Berilgan predikatlardan quyidagi mulohaza tuzish mumkin - «Agar x bemorning harorati 40^0 dan yuqori, boshida og'riq va yo'tal bor bo'lsa, u holda x bemor gripp».

Ushbu mulohazaga mos PM formulasi $\forall x(A(x) \wedge B(x) \wedge C(x) \rightarrow D(x))$ quriladi va qiymati hisoblandi.

Predikatlar mantiqining tengkuchli formulalari. $A(x)$ va $B(x)$ - o'zgaruvchi predikatlar va C - o'zgaruvchi mulohaza bo'lsin. U holda PMda murakkab formulalarni normal shaklga keltirishda (soddallashtirishda) quyidagi asosiy tengkuchli formulalardan foydalaniladi [12, 14, 20]:

- 1) $\overline{\forall x A(x)} \equiv \exists x \overline{A(x)}$; 2) $\overline{\exists x A(x)} \equiv \forall x \overline{A(x)}$; 3) $\forall x A(x) \equiv \overline{\exists x \overline{A(x)}}$;
- 4) $\exists x A(x) \equiv \overline{\forall x \overline{A(x)}}$; 5) $\forall x A(x) \wedge \forall x B(x) \equiv \forall x[A(x) \wedge B(x)]$;
- 6) $C \wedge \forall x B(x) \equiv \forall x[C \wedge B(x)]$; 7) $C \vee \forall x B(x) \equiv \forall x[C \vee B(x)]$;
- 8) $C \rightarrow \forall x B(x) \equiv \forall x[C \rightarrow B(x)]$; 9) $\forall x[B(x) \rightarrow C] \equiv \exists x B(x) \rightarrow C$;
- 10) $\exists x[A(x) \vee B(x)] \equiv \exists x A(x) \vee \exists x B(x)$; 11) $\exists x[C \vee B(x)] \equiv C \vee \exists x B(x)$;
- 12) $\exists x[C \wedge B(x)] \equiv C \wedge \exists x B(x)$; 13) $\exists x A(x) \wedge \exists y B(y) \equiv \exists x \exists y[A(x) \wedge B(y)]$;
- 14) $\exists x[C \rightarrow B(x)] \equiv C \rightarrow \exists x B(x)$; 15) $\exists x[B(x) \rightarrow C] \equiv \forall x B(x) \rightarrow C$;
- 16) $\forall x A(x) \equiv \forall y A(y)$; 17) $\exists x A(x) \equiv \exists y A(y)$.

Predikatlar mantiqi formulasining normal shakli. PM formulasinihg normal shaklida faqat inkor, konyunksiya, dizyunksiya ($-$, \wedge , \vee) amallari va kvantorli amallar (\forall , \exists) qatnashib, inkor amali elementar formulalarga (predmet o'zgaruvchilar va o'zgaruvchi predikatlarga) tegishli bo'ladi.

Ravshanki, mulohazalar algebrasi va PMdagi asosiy tengkuchliliklardan foydalanib, PMning har bir formulasini *deyarli normal*

shaklga keltirish mumkin.

Misol. $(\exists xP(x) \leftrightarrow \forall yQ(y)) \rightarrow R(z)$ formulani deyarli normal shaklga keltiraylik.

$$\begin{aligned}
 & (\exists xA(x) \leftrightarrow \forall yB(y)) \rightarrow D(z) = (\exists xA(x) \rightarrow \forall yB(y)) \wedge (\forall yB(y) \rightarrow \exists xA(x)) \rightarrow D(z) = \\
 & = (\overline{\exists xA(x)} \vee \forall yB(y)) \wedge (\overline{\forall yA(y)} \vee \exists xA(x)) \rightarrow D(z) = (\overline{\exists xA(x)} \wedge \overline{\forall yA(y)} \vee \overline{\exists xA(x)} \wedge \exists xA(x) \vee \\
 & \vee \forall yB(y) \wedge \overline{\forall yA(y)} \vee \forall yB(y) \wedge \exists xA(x)) \rightarrow D(z) = (\overline{\exists xA(x)} \wedge \overline{\forall yA(y)} \vee 0 \vee 0 \vee \forall yB(y) \wedge \\
 & \wedge \exists xA(x)) \rightarrow D(z) = (\overline{\exists xA(x)} \wedge \overline{\forall yA(y)} \vee \forall yB(y) \wedge \exists xA(x)) \rightarrow D(z) = \\
 & = (\overline{\exists xA(x)} \wedge \overline{\forall yA(y)} \vee \forall yB(y) \wedge \exists xA(x)) \vee D(z) = (\overline{\exists xA(x)} \wedge \overline{\forall yA(y)} \wedge \forall yB(y) \wedge \exists xA(x)) \vee \\
 & \vee D(z) = \overline{\exists xA(x)} \vee \overline{\forall yA(y)} \wedge \overline{\forall yB(y)} \vee \overline{\exists xA(x)} \vee D(z) = \\
 & = (\exists xA(x) \vee \forall yB(y)) \wedge (\exists y\overline{B(y)} \vee \forall x\overline{A(x)}) \vee D(z).
 \end{aligned}$$

Demak,

$$(\exists xA(x) \leftrightarrow \forall yB(y)) \rightarrow D(z) = (\exists xA(x) \vee \forall yB(y)) \wedge (\exists y\overline{B(y)} \vee \forall x\overline{A(x)}) \vee D(z).$$

PMning deyarli normal shakldagi formulalari orasida normal shakldagi formulalari muhim ro'l o'ynaydi.

Bu formulalarda kvantorli amallar yoki butunlay qatnashmaydi, yoki ular mulohazalar algebrasining hamma amallaridan keyin bajariladi, ya'ni normal shakldagi formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(\sigma x_1)(\sigma x_2) \dots (\sigma x_n) A(x_1, x_2, \dots, x_m), \quad n \leq m,$$

bunda (σx_i) simvoli o'rniga $\forall x_i$ yoki $\exists x_i$ kvantorlarning biri tushuniladi va A formula ifodasida kvantorlar bo'lmaydi.

Misol. $S \equiv \forall x \exists y A(x, y) \wedge \exists x \forall y \overline{B(x, y)}$ formulani normal shaklga keltirish talab etilsin. A formulada tengkuchli almashtirishlarni o'tkazib, uni normal shaklga keltiramiz:

$$\begin{aligned}
 S & \equiv \forall x \exists y A(x, y) \wedge \forall x \exists y \overline{B(x, y)} \equiv \forall x (\exists y A(x, y) \wedge \exists z \overline{B(x, z)}) \equiv \\
 & \equiv \forall x \exists y (A(x, y) \wedge \exists z \overline{B(x, z)}) \equiv \forall x \exists y \exists z (A(x, y) \wedge \overline{B(x, z)}).
 \end{aligned}$$

Bajariluvchi va umumqiymatli formulalar. Agar PMning S formulasi M to'plamdagи ba'zi o'zgaruvchilarning qiymatlarida chin qiymat qabul qilsa, u holda S formula M sohada bajariluvchi formula deyiladi [14, 20].

S formula M sohada aynan chin (yolg'n) formula deyiladi, agarda M to'plamdagи barcha o'zgaruvchining qiymatlarida chin (yolg'on) qiymat qabul qilsa. Aynan chin formulani umumqiymatli formula yoki mantiq qonuni deb ham atashadi.

Misol. $S = \forall x[A(x) \vee \overline{P(x)}]$ formula istalgan ixtiyoriy M sohada aynan chin bo'ladi. Demak, u umumqiymatli formula, ya'ni mantiqiy qonundir.

4-§. Birinchi tartibli predikatlar mantiqi

1- tartibli mantiqiy predikatlarning yuqori tartibli predikatlardan farqi shundaki, ularda predikatlar argumenti sifatida ifodalardan (formulalardan) foydalanish ta'qilganadi.

PMda masalani yechish ma'lum tasdiqlar (formulalar) yoki aksiomalardan foydalanib formulalar yoki predikatlar ko'rinishidagi maqsadli tasdiqlarni isbotlashga keltiriladi.

1960-yillarning oxirida PMda *Robinson* tomonidan "teskaridan" isbotlashga asoslangan *rezolyutsiyalar usuli* taklif qilindi. Bunga ko'ra maqsadli tasdiq aksiga qarama-qarshisiga (teskarisiga) aylantiriladi va aksiomalar to'plamiga qo'shiladi, ushbu yo'l bilan hosil qilingan tasdiqlar to'plamining birgalikdamasligi (qarama-qarshi ekanligi) isbotlanadi. Rezolyutsiyalar usuli bilan isbotlashni bajarish uchun tasdiqlar to'plami ustuda ba'zi almashtirishlarni bajarish talab etiladi, xususan, ular takomil konyunktiv normal shaklga (TKNSH) keltiriladi.

Formulalarni EHMda yengil ifodalananadigan TKNSH ga keltirish quyidagi bosqichlardan iborat [12]:

1. Implikatsiyalar qatnashgan formulalarni inkor va dizyunksiy qatnashadigan formulalarga hamda kvantorli formulalar ustida kelgan inkorlardan kvantor amallarini ozod qilish tengkuchliliklari yordamida almashtirishlar amalga oshiriladi:

$$\begin{aligned} 1) \quad & x \rightarrow y = \bar{x} \vee y; \quad 2) \quad \overline{x \wedge y} = \bar{x} \vee \bar{y}; \quad 3) \quad \overline{x \vee y} = \bar{x} \wedge \bar{y}; \\ 4) \quad & \overline{\forall x A(x)} \equiv \exists x \overline{A(x)}; \quad 5) \quad \overline{\exists x A(x)} \equiv \forall x \overline{A(x)}. \end{aligned}$$

2. O'zgaruvchilarni standartlashtirish yoki o'zgaruvchilarni ajratish amalga oshiriladi:

$$\begin{aligned} 6) \quad & ((\forall x A(x)) \vee B) \equiv (\forall y (A(y) \vee B)); \\ 7) \quad & ((\exists x A(x)) \vee B) \equiv (\exists y (A(y) \vee B)); \\ 8) \quad & ((\forall x A(x)) \wedge B) \equiv (\forall y (A(y) \wedge B)); \\ 9) \quad & ((\exists x A(x)) \wedge B) \equiv (\exists y (A(y) \wedge B)). \end{aligned}$$

Bu yerda y o'zgaruvchi B formulaga taalluqli emas deb qaraladi.

10) $((\forall x A(x)) \vee (\forall x B(x))) \equiv (\forall x \forall y (A(x) \vee B(y))),$ bu yerda y o'zgaruvchi $A(x)$ va $B(x)$ formulalarga taalluqli emas,

$$\begin{aligned} 11) \quad & (\exists x A(x)) \vee (\exists x B(x)) \equiv (\exists x (A(x) \vee B(x))); \\ 12) \quad & (\forall x A(x)) \wedge (\forall x B(x)) \equiv (\forall x (A(x) \wedge B(x))); \\ 13) \quad & ((\exists x A(x)) \wedge (\exists x B(x))) \equiv (\exists x \exists y (A(x) \wedge B(y))). \end{aligned}$$

bu yerda y o'zgaruvchi $A(x)$ va $B(x)$ formulalarga taalluqli emas.

Bu bosqichda har bir formulada bog'liq o'zgaruvchilar shunday qayta nomlanadiki, kvantorlar bilan bog'langan oz'garuvchilar har bir kvantor uchun yagona o'zgaruvchilarga aylanadi. Bu shunday fakt asosida amalga oshiriladiki, bunda bog'liq o'zgaruvchilar kvantor doirasida formulaning chinligini o'zgartimaydigan va formulada qatnashmagan boshqa o'zgaruvchiga almashtiriladi.

Masalan, $(\forall x)(A(x) \vee B(y)) \wedge (\forall x)(F(x))$ ifoda

$(\forall x)(A(x) \vee B(y)) \wedge (\forall z)(F(z))$ ifodaga almashtiriladi.

3. *Mavjudlik kvantorlarini yo'qotish*. Bu bosqichda mavjudlik kvantorlari $g(x)$ deb ataladigan *Skolema funksiyasi* yoki argumentli predkatlarni o'tkazish (hisoblash), ya'ni o'zgaruvchi-argumentning aniqlanish sohasidagi o'zgarmaslar bilan almashtiriladi.

6-10 tengkuchliliklar PMning ixtiyoriy formulasini quyidagi ko'rinishga almashtiradi:

$$(Q_1x_1)(Q_2x_2) \dots (Q_nx_n) F(1, x_2, \dots, x_n),$$

bu yerda ixtiyoriy Q_i - bu umumiylik kvantori yoki mavjudlik kvantori, $F(x_1, x_2, \dots, x_n)$ – kvantorlarni saqlamovchi formula. Bunday ko'rinishdagi formulaga *skolemli o'zgarmaslarini* va *funksiyalarni* kiritish bilan barcha mavjudlik kvantorlarini yo'qotish mumkin. Buning uchun PMning quyidagi qonunlaridan foydalanish mumkin:

$$\begin{aligned} 14) (\forall x)(Q_1y_1) \dots (Q_my_m)F(y_1, y_2, \dots, y_m) &\equiv \\ &\equiv (Q_1y_1) \dots (Q_my_m)F(a, y_1, \dots, y_m), \end{aligned}$$

bu yerda Q_1, \dots, Q_m - ixtiyoriy kvantorlar, a - o'zgarmas simvol formulaning boshida turgan $(\forall x)$ ifodasiga mos keluvchi shunday o'zgarmaslar sifatida alfavitga kiritiladi va a - o'zgarmas simvol skolemli o'zgarmas deb ataladi.

$$\begin{aligned} 15) (\forall x_1)(\forall x_2) \dots (\forall x_k)(\exists y)(Q_1z_1) \dots (Q_mz_m) \\ F(x_1, x_2, \dots, x_k, y, z_1, \dots, z_m) &\equiv (\forall x_1)(\forall x_2) \dots (\forall x_k)(Q_1z_1) \dots (Q_mz_m) \\ &\quad F(x_1, x_2, \dots, x_k, f(x_1, x_2, \dots, x_k), z_1, \dots, z_m), \end{aligned}$$

bu yerda Q_1, \dots, Q_m - ixtiyoriy kvantorlar, k -joyli funksionalli simvol f formulaning boshida turgan $(\forall x_1)(\forall x_2) \dots (\forall x_k)(\exists y)$ ifodasiga mos keluvchi shunday funksiya sifatida alfavitga kiritiladi va $f(x_1, x_2, \dots, x_k)$ - funksiya skolemli fuksiya deb ataladi.

16) $\exists x A(x) \equiv A(a)$, bu yerda a - skolemli o'zgarmas.

Almashtirishlarga **misollar**:

Boshlang'ich formula

$$\begin{aligned} &(\forall x)y \\ &(\forall x)(\forall y)z \end{aligned}$$

Natijaviy formula

$$\begin{aligned} &g(x) \\ &g(x, y) \end{aligned}$$

$$(\exists x)(F(x))$$

$$F(a), F(b)$$

bu yerda a va b – o'zgarmaslar. Skolema funksiyasi mavjudlik kvantori bilan bog'langan o'zgaruvchilarning aniqlanish sohasini boshqa o'zgaruvchilarning aniqlanish sohasiga akslantirishni amalga oshiradi.

4. Umumiylit kvantorlarini formulaning boshiga chiqarish.

6-16 qonunlar skolemli shakldagi ixtiyoriy PM formulalarini almashtirishni ta'minlaydi. Quyidagi ko'rinishdagi formula shunday ataladi.

$$\forall x_1, \forall x_2, \dots, \forall x_n, A.$$

Bu yerda A formula o'zida umuman kvantorlarni saqlamaydi, faqat o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar, skolema o'zgarmasları va funksiyaları saqlaydi. *A formula KNF dan iborat $\forall x_1, \forall x_2, \dots, \forall x_n, A$ skolema shakli kauzal shakl deyiladi. Kauzal shakl quyidagi umumiy ko'rinishga ega:*

$$\forall x_1, \forall x_2, \dots, \forall x_n (D_1 \wedge D_2 \wedge \dots \wedge D_m).$$

Bu yerda D_1, D_2, \dots, D_m - diyunktlarni klauzalar yoki gaplar deb atashadi.

5. *Umumiylit kvantorlarini yo'qotish.* Agar formulada biror x o'zgaruvchi bo'lsa, u holda uning aniqlanish sohasidagi barcha qiymatlarida formular o'rini degan nuqtai-nazaridan kvantorlarni olib tahlash orqali amalga oshiriladi.

6. Distributivlik qonunidan foydalanib formulani TKNSH ko'rinishga keltirish

$$A \vee (B \& C) = (A \vee B) \& (A \vee C).$$

7. \wedge -simvolni yo'qotish. Bu $(A \wedge B)$ ko'rinishdagi formulani $\{A, B\}$ formulalar to'plamiga almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

Misol. Aytaylik formulani TKNSH ko'rinishga keltirish kerak [60]:

$$(\forall x) \{ A(x) \rightarrow \{ (\forall y) [A(y) \rightarrow A(f(x, y))] \wedge \overline{(\forall y) [B(x, y) \rightarrow A(y)]} \} \}.$$

Implikarsiyalri \vee va " – " amallari orqali ifodala, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ \overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [\overline{A(y)} \vee A(f(x, y))] \wedge \overline{(\forall y) [\overline{B(x, y)} \vee A(y)]} \} \}$$

Inkorni ichkariga siljitib, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [\overline{A(y)} \vee A(f(x, y))] \wedge (\exists y) [B(x, y) \wedge \overline{A(y)}] \}) \}$$

O'zgaruvchilarni almashtirib, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [\overline{A(y)} \vee A(f(x, y))] \wedge (\exists z) [Q(x, z) \wedge \overline{P(z)}] \}) \}$$

z o'zgaruvchi $g(x)$ Skolemli funksiyaga almashtirib, mavjudlik kvantorini yo'qotib, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [\overline{A(y)} \vee A(f(x, y))] \wedge [B(x, g(x)) \wedge \overline{A(g(x))}] \}) \}$$

Umumiylig kuantorini formula boshiga chiqarib, quyidagini hosil qilamiz: $(\forall x)(\forall y)\{\overline{A(x)} \vee \{\overline{A(y)} \vee A(f(x, y))\} \wedge [B(x, g(x)) \wedge \overline{A(g(x))}]\}$

Distributivlik qonunini qo'llab, quyidagini hosil qilamiz:

$$(\forall x)(\forall y)\{\overline{A(x)} \vee \overline{A(y)} \vee A(f(x, y))\} \wedge [\overline{A(x)} \vee B(x, g(x)) \wedge \overline{A(x)} \vee \overline{A(g(x))}]$$

Umumiylig kuantorlarini yo'qotib va konyunksiy formulasini ularning to'plamari bilan almashtirib, quyidagi formulalar (gaplar) to'plamini hosil qilamiz:

$$K_1 : \overline{A(x)} \vee \overline{A(y)} \vee A(f(x, y));$$

$$K_2 : \overline{A(x)} \vee B(x, g(x));$$

$$K_3 : \overline{A(x)} \vee \overline{A(g(x))}.$$

1-tartibli PM formulalarini programmalashtirishda eng keng tarqalgani Prolog tili hisoblanadi.

1-tartibli PM bilimlarni tasvirlash usuli sifatida quyidagi kamchiliklarga ega:

- mantiqiy xulosalashning monotonligi, ya'ni olingan oraliq ma'lumotlar natijalarini qayta ko'rish imkoniyati yo'qligi (ular gipotezalar emas, balki faktlar sifatida qaraladi);
- predikatlarning parametrleri sifatida boshqa predikatlarni qo'llash mumkим emasligi, ya'ni bilimlar haqidagi bilimlarni (metabilimlarni) ifodalashning mumkin emasligi;
- mantiqiy xulosalashning determinallashganligi, ya'ni noravshan bilimlar bilan ishlash imkoniyatining yo'qligi.

5-§. Sun'iy intellektda mantiqiy xulosalashlar

5.1. Deduktiv mantiqiy xulosalash

Deduktiv xulosalash masalalarini formallashtirish. Aytaylik masala predikatlar hisobi tilida tavsiflangan bo'lsin. Agar F_0 orqali boshlang'ich tasdiqlarni, F_g orqli maqsadli tasdiqlarni belgilasak, u holda teoremlar shaklida berilgan masalani formal ko'rinishda quyidagich yozish mumkin [16]:

$$F_0 \rightarrow F_g$$

Boshqacha so'z bilan aytganda, F_0 to'plamdan mantiqiy ravishda F_g formula kelib chiqishini isbotlash zarur. F_g formula F_0 to'plamdan mantiqiy ravishda kelib chiqadi, agarda F_0 to'plamni qanoqlantiruvchi har bir izohlash F_g formulani ham qanoatlantirsa. Agarda F_0 to'plam $F_1 \wedge F_2 \wedge$

$\dots \wedge F_n \rightarrow F_g$ formula bilan tasvirlangan bo'lsa, u holda predikatlar hisobining deduktiv xulosalash masalasi formulalarning umumqiyatliliginini aniqlashga keltiriladi:

$$F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \rightarrow F_g$$


Xulosalash jarayonida ko'p hollarda teskaridan isbotlash usulidan foydalilanadi, ya'ni yuqorida keltirilgan formulaning umumqiyatliligi emas, balki formulaning bajariluvchi emasligi aniqlanadi:

$$-(F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \rightarrow F_g) \text{ yoki } F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \wedge \neg F_g$$

Boshqacha so'z bilan aytganda, birlashmaning bajarilmasligi isborlanadi. Ba'zi formulalar to'plamining bajarilmasligini aniqlash rad etish deyiladi.

SITlarining mahsuliy masalalarini yechishda deduktiv xulosalashning asosan ikkita: *teskari va to'g'ri xulosalash* usullari mavjud (bu xulosalashlar ma'ruzaning mahsuliy modellar mavzusida to'liq keltirilgan).

Hozirgi vaqtgacha SITlari sohasida ko'plab mantiqiy xulosalash tizimlari ma'lum [12,16,19]. Ularning barchasi bir-biridan foydalilanadigan modellari, mantiqiy xulosalash ko'rinishlari, ifodalanish uslublari, mantiqiy xulosalash usullari bilan farq qiladi (2.3-rasm)



2.3-rasm. Mantiqiy xulosalash tizimlarining xarakteristikasi.

Bu yerda AO'T-axboritli-o'lchovli tizim.

Fikrlash va deduktiv xulosalash prinsipi. SIning ajralmas qismlaridan biri-bu gipotezalar generatori, teoremalarni isbotlash va hisoblagichlardan tashkil topgan fikrlaydigan intellektual tizimlar hisoblanadi.

Fikrlash deganda – qandaydir tasdiqlarni qabul qilishga olib keladigan (majbur qiladigan) argument(fakt)lar ketma-ketligi tushuniladi.

Deduksiya-bu fikrlashning yuqori darajadagi ideallashtirilgan va chegaralangan shakli hisoblanadi. Agar biz inson fikrlashining ba'zi aspektlarini (axborotlarning to'griligi, noaniqligi, qarama-qarshiligi va h.k) modellashtirmoqchi bo'lsak, u holda *deduksiya* aniq yetarli bo'lmaydi va bu holda fikrlashning boshqa shakllaridan, ya'ni *abduksiya* va *induksiyadan* foydalanish mumkin.

Deduksiya (inglizchadan *deducere* - chiqarmoq)-zamonaviy mantiq termini bo'lib, mantiqiy qonunlar asosida biror mazmunni boshqasidan chiqarishni bildiradi.

Deduksiya tushunchasi Aristotel ishlarida ham uchraydi [12,16,19]. *Fikrlar to'plamidan aqli xulosalarni olishni ta'minlovchi qoidalar to'plamini Aristotel sillogizm deb atagan.*

Ushbu holatda fikr deganda-tabiyy tilda to'rtda shakldan biri bilan ifodalanadigan tugallangan mulohaza tushuniladi:

- 1) barcha x lar uchun A bajariladi - $(\forall x)A(x)$;
- 2) birorta x lar uchun A bajarilmaydi - $(\forall x)\overline{P(x)}$;
- 3) ba'zi x lar uchun A bajariladi - $(\exists x)A(x)$;
- 4) ba'zi x lar uchun A bajarilmaydi - $(\exists x)\overline{P(x)}$.

Aristotelning davomchilari *sillogizmga* asoslanib, fikrlashga nisbatan yoqori pog'onadagi abstraktsiyada turgan mulohazalar uchun deduktiv xulosalash prinsipini formallashtirdilar. Ushbu xulosalash qoidalaridan eng mashhurlari quyidagilar hisoblanadi [12,16,19].

1. *Modus Ponendo Ponens*: «Agar implikatsiya $x \rightarrow y$ va x chin bo'lsa, u holda y chin bo'ladi»:

$$\frac{x \rightarrow y, x}{y}$$

2. *Modus Tollendo Tollens*: «Agar implikatsiya $x \rightarrow y$ va y yolg'on bo'lsa, u holda x yolg'on bo'ladi»:

$$\frac{x \rightarrow y, \overline{y}}{\overline{x}}$$

3. *Modus Ponendo Tollens*: «Agar x chin va konyunksiya $x \wedge y$ yo'g'on natijaga ega bo'lsa, u holda y yolg'on bo'ladi»:

$$\frac{x \wedge y, x}{\overline{y}}$$

4. *Modus Tollendo Ponens*: «Agar x yolg'on va dizyunksiya $x \vee y$ chin bo'lsa, u holda y chin bo'ladi»:

$$\frac{x \vee y, \bar{x}}{y}$$

Bu qoidalar yordamida mulohazalar hisobi tizimida xulosalash uchun juda qulay bo'lgan «*zanjirli xulosa*» qoidasi formallashtirildi.

Zanjirli xulosa: «Agar implikatsiya $x \rightarrow y$ chin va implikatsiya $y \rightarrow z$ chin bo'lsa, u holda implikatsiya $x \rightarrow z$ chin bo'ladi».

Misol. Ushbu qoidalardan foydalanib xulosalashga misollarni qaraymiz. Aytaylik quyidagi mulohazalar (faktlar) berilgan.

1) $x \rightarrow y$. x -Agar issiqlik-energia resurslarga jahon bozrida narxlar oshsa, y - u holda byudjetga keladigan daromad o'sadi.

2) $(z \vee y) \rightarrow (z \vee t)$. R-Agar ishlab chiqarishning o'sishi kuzatilsa yoki y-daromad o'ssa ($z \vee y$), u holda z- ishlab chiqarishning o'sishiga yoki t-so'mning qiymatini mustahkamlanishiga ($z \vee t$) olib keladi.

3) $(x \rightarrow y) \rightarrow ((x \vee y) \rightarrow (z \vee y))$. x -Agar issiqlik-energia resurslarga jahon bozorida narxlar oshsa, y - u holda daromad o'sadi ($x \rightarrow y$), bundan x - mahsulotlarning (issiqlik-energia resurslarining) narxi yoki y- byudjetga keladigan daromadning o'sishidan ($x \vee y$), z- ishlab chiqarishning ulushi yoki y-daromadning o'sishi ($z \vee y$) kelib chiqadi.

Modus Ponendo Ponens xulosalash qoidasidan foydalanib 1) va 3) mulohazalardan quyidagi xulosalarni hosil qilamiz.

4) $(x \vee y) \rightarrow (z \vee y)$. Agar x - mahsulotlarning (issiqlik-energia resurslarining) narxi yoki y- byudjetga keladigan daromad o'ssa ($x \vee y Q$), u holda z- ishlab chiqarish o'sadi yoki y-daromad o'sadi ($z \vee y$).

4) va 2) mulohazalardan *zanjirli xulosa* yordamida 5) mulohazani hosil qilish mumkin.

5) $(x \vee y) \rightarrow (z \vee t)$. Agar x - mahsulotlarning (issiqlik-energia resurslarining) narxi yoki y- byudjetga keladigan daromad o'ssa ($x \vee y$), u holda z- ishlab chiqarish o'sadi yoki t- so'mning qiymati mustahkamlanadi ($z \vee t$).

Bilimlar haqida fikrlash. SIning expertiza sohasiga tegishli ko'plab tizimlarida bilimlar *faktlar* va *qoidalarga* bo'linadi. *Faktlar* – bu expertiza sohasiga tegishli ma'lumotlardir. Masalan, qandaydir universitet xodimlari haqidagi ma'lumotlar faktlar to'plamini tashkil etadi.

Fakt 1: Jumanov – dasturlash kafedrasi professori, Prof (info, Jumanov 1)

Fakt 2: Maftuna – informatika fakul'teti talabasi, Tal (info, Maftuna 4).

Qoida –bu implikatsiyalar (yoki unga ekvivalent mantiqiy shakllar)

bilan berilgan ma'lumotlar. Ular expertiza sohasiga tegishli umumlashtiruvchi bilimlarni o'zida aks ettiradi.

Qoida 1. Agar $y - x$ kafedraning professori va $w - z$ fakul'tetning talabasi ($x \neq z$), u holda w uchun y tashqi imtihon oluvchi bo'lishi mumkin,

$$Prof(x; y) \wedge Tal(z; w) \wedge Teng(x; z) \rightarrow Imt(y; w).$$

Rezolyutsiya prinsipi sun'iy imtellekt tizimlarida quyidagi amaliy masalalarini yechishda qo'llaniladi: axborotli qidiruv, robotning siljishini rejalashtirish, dasturlarni avtomatik yozish, mantiqiy dasturlash (Prolog), ETlar va h.k.

Shunday qilib, boshlang'ich formulalarga mantiqiy xulosalash qoidalarini qo'llab yangi mantiqiy formulalarni hosil qilamiz.

Demak, *deduksiya–bu ilmiy fiklash (tushunchalarni bo'laklash (tahlik) va aniqlash, qonunlarni isbotlash) jarayonlar majmui, ya'ni ayniyat qonunlari asosida mantiqiy zaruriylik bilan ishonchli mulohahalardam shunday ishonchli xulosalarni keltirib chiqarish, bu yerda xususiylik umumiylig asosida jamlanadi.*

5.2. Abduktivli va induktivli mantiqiy xulosalashlar

Abduktiv xulosalash. *Abduksiya* – bu tushuntiruvchi gipotezalarni shakllantirish jarayoni. Aniqrog'i, taklif qilingan tushuntirishlar uchun berilgan nazariyalar va kuzatuvarlar asosida abduktiv xulosalash tushuntirishlar orasidan bitta yoki ko'proq eng yaxshi tushuntirishlarni aniqlashi lozim.

Abduktiv xulosalash kuzatilayotgan hodisa va faktorlarni tushuntirish yoki sababini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Abduktiv xulosalash quyidagi sxema boyicha tasvirlanadi: qoida va natijalar berilgan bo'ladi, *xususiy holat-sababni* aniqlash talab etiladi.

SIda abduktiv xulosalash deganda eng yaxshi abduktiv tushuntirish tushuniladi.

Misol. Quyidagi qoida mavjud: «*Ushbu qutidagi barcha mevalar olmalar*»; Kuzatish natijasi quyidagicha: «*Bu mevalar olmalar*»; U holda abduksiya bo'yicha quyidagi xulosaga kelinadi: «*Bu olmalar ushbu qutidan olingan*» (sabab-tushuntirish);

Ko'p hollarda abduktiv xulosalashdan kuzatilayotgan tizimlarning noto'g'ri harakatlarini tashxislashda foydalaniladi. SITlarining amaliy sohalarida abdultiv xulosalash *tabiiy tilni tushunish, rejalashtirish, rejani anglab olish hamda bilimlarni toplash* va *o'zlashtirish* kabi masalalarini yechishda qo'llaniladi [16,19]. Shuningdek, abduktiv xulosalash fanda va

kunlik hayotimizda korxonaning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, kosmik nurlanishlarni o'rghanish kabi masalalarni yechishda ham keng qo'llaniladi.

Induktiv xulosalash. SIda abduktiv va deduktiv xulosalashdan tashqari xulosalashning induktiv sxemalaridan ham foydalaniladi. Xulosalashning bunday sxemalari mavjud xususiy tasdiqlarning umumlashmasini hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Umumlashtirish qobilyati tabiiy intellektning muhim funksiyasi hisoblanadi va ulardan yangi bilimlarni hosil qilishda foydalaniladi. Shuning uchun xulosalashning induktiv sxemasi SIning o'rghanuvchi tizimostilar elementi hisoblanadi. Chunki, o'rghanish jarayonida mavjud faktlar majmuidan umumlashtirish yo'li bilan yangi tushunchalar va faktlar shakllantiriladi. Xulosalashning induktiv sxemalari bilimlarni hosil qilish jarayonini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi.

Induktiv xulosalashning umumiyligi muammosi – bu «tabiatning ba'zi bir muntazamligini ifodalovchi faktlardan qonunlarga o'tganda biz nimaga asoslanamiz» degan prinsipni tushuntirishdan iborat.

Misol. Berilgan: x; y. Topish kerak: R.

x: Axmedov -abiturient;

y: Axmedov – xujjat topshirishga haqli;

R: Barcha abiturientlar xujjat topshirishga haqli.

Nazorat savollari

1. Mulohaza deganda nimani tushunasiz?
2. Mulohazalar ustida qanday mantiqiy amallar bajariladi?
3. Mulohazalar mantiqining qanday tengkuchli formulalarini bilasiz?
4. Mulohazalar mantiqi formulasini normal shaklga keltirishning qanday algoritmlari mavjud?
5. Tavtologiya nima?
6. Subyekt va predikat tushunchalarini izohlang?
7. Bir joyli, ikki joyli va ko'p joyli predikatlarning ta'riflarini keltiring?
8. Predikatlar ustida qanday mantiqiy amallar bajariladi?
9. Umumiylilik va mavjudlik kvantorlari amallarini tushuntiring?
10. PMning qanday tengkuchli formulalarini bilasiz?
11. PM formulasini normal shaklga keltirishning qanday algorimlarini bilasiz?
12. Deduktiv xulosalash masalalari qanday formallashtiriladi?
13. «Zanjirli xulosa» qoidasi qanday formallashtirildi?

14. Deduktivli, induktivli va abduktivli mantiqiy xulosalashlarni izohlang?

Nazorat testlari

1. $(A \wedge (A \rightarrow B) \rightarrow B) \vee \bar{A} \vee \bar{1}$ mantiqiy ifodaning qiymatini chinlik jadvali yordamida toping?

- a) aynan chin; b) aynan yolg'on; c) bajariluvchi; e) aynan chinmas.

2. Agar $A \rightarrow B$ va A chin bo'lsa, u holda B mulohaza qanday qiymat qabul qilishi mumkin?

- a) B- chin; b) B- yolg'on; c) B- chin yoki yolg'on;
- e) Aniqlash mumkin emas.

3. $U = (x \rightarrow y) \rightarrow z$ formulaga tengkuchli formulani hosil qiling?

- a) $x \wedge \bar{y} \vee z$; b) Aynan yolg'on formula; c) Aynan chin formula;
- e) $(x \leftrightarrow y) \rightarrow z$.

4. Fikrning hususiylikdan umumiyligiga, qator faktorlardan qonunga harakat jarayoni-bu.....

- a) induksiya; b) tahlil; c) sintez; e) deduksiy.

5. Fikrning umumiylididan hususiylikga, qonundan alohidilikning namoyon bo'lishiga harakat jarayoni-bu.....

- a) deduksiy; b) tahlil; c) sintez; e) abstraktlashtirish.

6. Har qanday $x \in M$ uchun $P(x)$ chin va aks holda yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohaza ifodasi to'g'ri yozilgan javobni ko'rsating?

- a) $\forall x P(x)$; b) $\exists x P(x)$; c) $\forall P(x)$; e) $\exists P(x)$.

7. N mevalar to'plamida $P(x), Q(x)$ va $R(x)$ predikatlar berilgan bo'lsin: « x -olma», $P(x)$: « x -olma pishgan», $Q(x)$: « x -olma qizil», $R(x)$: « x -olma shirin»;

Ushbu predikatlardan foydalanib $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x))$ formulaning qiymatini aniqlang?

- a) $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x))=1$; b) $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x))=0$;
- c) $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x))=1,5$; e) $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x))=\bar{1}$;

8. Ixtiyoriy M sohada chin formulani ko'rsating?

- a) $\forall x[P(x) \vee \bar{P(x)}]$; b) $\forall x[P(x) \vee 0]$; c) $\forall x[P(x) \wedge \bar{P(x)}]$; e) $\forall x[P(x) \wedge 0]$;

9. Predmet sohadagi barcha x, y, z qiymatlar uchun “Agar x ning tog'asi-y va akasi-z bo'lsa, u holda y va z-x ning qarindoshlari bo'ladi” tasdiqning ifodasini to'g'ri ko'rsating?

- a) $\forall(x, y, z)(\text{tog'asi}(x, y) \wedge \text{akasi}(x, z)) \rightarrow \text{qarindoshi}(x, y, z)$;
- b) $\exists(x, y, z)(\text{tog'asi}(x, y) \wedge (\text{akasi}(x, z)) \rightarrow \text{qarindoshi}(x, y, z))$;

- c) $\forall(x, y, z) (\text{tog'asi}(x, y)) \vee (\text{akasi}(x, z)) \rightarrow \text{qarindoshi}(x, y, z);$
 e) $\exists(x, y, z) (\text{tog'asi}(x, y)) \vee (\text{akasi}(x, z)) \rightarrow \text{qarindoshi}(x, y, z).$

10. Quyidagi qoida mavjud: «Ushbu auditoriyadagi barcha talabalar bakalavriatlar»; Kuzatish natijasi quyidagicha: «Bu talabalar bakalavriatlar»; U holda abduksiya bo'yicha keltirrilgan to'g'ri xulosani toping?

- a) «Bu bakalavriatlar ushbu auditoriyadan chiqqan»;
 b) «Bu bakalavriatlar ushbu auditoriyadan chiqmaqan»;
 c) «Bu talabalar ushbu auditoriyadan chiqqan»;
 e) «Bu talabalar ushbu auditoriyadan chiqmaqan».

11. Berilgan: $x; y.$

x : Fariza -talaba;

y : Fariza – a'lo baho olishga haqli;

Induktiv xulosalash to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- a) Barcha talabalar a'lo baho olishga haqli;
 b) Barcha talabalar a'lo baho olishga haqli emas;
 c) Barcha a'lo bahoga o'qiydiganlar-talaba;
 e) A'lo bahoga o'qiydiganlarning barchasi-talaba.

Masala va topshiriqlar

1. Quyidagilarning qaysi birlari tautologiya ekanligini isbotlang:

- 1) $A = \overline{\overline{x} \vee z} \rightarrow \overline{x \wedge z};$ 2) $A = (\overline{x} \vee y) \rightarrow (\overline{y} \rightarrow \overline{x});$ 3) $A = \overline{p_1 \rightarrow (\overline{p_2} \vee p_1)};$
- 4) $A = p \vee (p_1 \rightarrow p_2);$ 4) $A = ((p \wedge q) \leftrightarrow q) \leftrightarrow (\overline{q} \vee p);$
- 5) $A = ((p \rightarrow q) \wedge (\overline{q} \vee r)) \rightarrow (p \rightarrow r);$
- 6) $A = \overline{(x \rightarrow y) \wedge (x \rightarrow \overline{y})} \vee \overline{x};$ 7) $A = x \wedge (\overline{x} \vee y) \wedge (x \rightarrow \overline{y});$
- 8) $A = \overline{x \vee \overline{x}} \vee y \wedge \overline{y};$ 9) $A = (\overline{x} \vee (y \rightarrow z)) \rightarrow (\overline{x \rightarrow y} \vee (x \rightarrow z));$
- 10) $A = (z \rightarrow x) \rightarrow ((\overline{z} \vee y) \rightarrow (\overline{z} \vee x \wedge y));$

2. Quyidagi mantiqiy formulalarni DNSH va KNSH ko'rinishga keltiring.

- 1) $((a \rightarrow b) \wedge (a \rightarrow c)) \leftrightarrow (b \rightarrow c);$ 2) $\overline{(x \leftrightarrow z) \rightarrow ((y \leftrightarrow z) \rightarrow (x \vee y \rightarrow z))};$
- 3) $(x_1 \rightarrow x_2) \wedge (x_1 \vee x_3 \rightarrow x_3 \wedge x_2);$
- 4) $\overline{(x_1 \rightarrow x_2) \leftrightarrow (x_1 \wedge x_2 \rightarrow x_2 \wedge x_1)};$
- 5) $((a \leftrightarrow b) \wedge (b \rightarrow c)) \rightarrow (a \leftrightarrow c);$ 6) $(x \rightarrow y) \wedge (y \leftrightarrow z) \vee (z \rightarrow x);$
- 7) $(x \vee \overline{y} \rightarrow (z \vee \overline{z} \rightarrow y \vee \overline{y} \vee x)) \wedge (x \vee \overline{x \rightarrow (x \leftrightarrow x)}) \rightarrow y;$

$$8) \overline{\overline{x} \vee \overline{x} \vee y} \rightarrow \overline{x \wedge \overline{y} \wedge y};$$

$$9) \overline{x_1} \leftrightarrow (x_1 \rightarrow x_2); 10) \overline{x_1 \leftrightarrow (x_2 \rightarrow x_1)}.$$

3. Quyidagi mantiqiy mulohazalar uchun mantiqiy formulalarni quring.

1) Agar dvigatelning quvvati oshirilmasa, u holda ishonchlilik oshmaydi yoki texnik jihatdan o'zgarmaydi.

2) Agar dvigatelning quvvati oshirilsa, u holda ishonchlilik oshadi yoki texnik jihatdan o'zgaradi.

3) Voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layokatsiz va moddiy yordamga muxtoj bulgan ota-onani yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlasa, u holda eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

4) Davlat muxofazasiga olingan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazilsa, u holda eng kam oylik ish haqining o'n baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

4. Agar A=«Axmad - abituriyent» va V=«Axmad hujjat topshirishga haqli». «Ixtiyoriy abituriyent hujjat topshirishga haqli» mulohazaga mos mantiqiy formulani quring.

5. Aytaylik quyidigi atributlar mavjud:

Rang: $X1=\{sariq=0, ko'k=1, yashil=2, qizil=3\}$;

Shakl: $X2=\{0=aylana, 1=kvadrat, 2=to'rtburchak\}$;

O'lchov: $X3=\{0=kichchik, 1=katta\}$;

Vazn: $X4=\{0=yengil, 1=og'ir\}$;

Yemoqga mo'ljallanganlik darajasi: $X5=\{0=yemoqga mo'ljallangan, 1=yemoqga mo'ljallanmagan\}$;

-Berilgan sinflar:

$a1=olma; a2=to'p; a3=ko'taradigan tosh; a4=banan;$

- Berilgan qoidalar:

$$1) (X2=0) \wedge (X5=0) \rightarrow a1; 2) (X2=0) \wedge (X4=1) \rightarrow a3; 3) (X2=0) \rightarrow a2;$$

$$4) (X1=0) \wedge (X2=2) \wedge (X5=0) \rightarrow a4;$$

$$5) (X2=0) \wedge (X5=0) \vee (X2=1) \wedge (X2=2) \rightarrow a1;$$

$$6) (X1=3) \wedge (X4=0) \vee (X2=0) \wedge (X3=1) \rightarrow a3;$$

$$7) (X2=0) \vee (X1=2) \wedge (X3=1) \vee (X1=0) \wedge (X4=1) \rightarrow a2;$$

$$8) (X1=2) \wedge (X2=1) \wedge (X3=0) \vee (X4=0) \wedge (X1=3) \vee (X2=0) \rightarrow a4.$$

1 - 8 - qoidalarning chin yoki yolg'on ekanligini aniqlang.

6. Quyidagi PM formulalarini deyarli normal shaklga keltiring:

$$1) \forall x \exists y A(x, y) \rightarrow (\exists x P(x) \rightarrow \exists x Q(x));$$

- 2) $\forall x(A(x) \vee \overline{\forall yB(x, y)}) \wedge (\exists xP(x) \vee \exists xQ(x));$
- 3) $\exists xA(x, z) \wedge \exists x\forall yB(x, y) \rightarrow \forall x\forall y\overline{C(x, y, z)};$
- 4) $\forall xA(x) \vee \forall yB(y) \leftrightarrow \exists xA(x) \wedge (\forall yB(y) \vee \forall yC(y));$
- 5) $\exists x(R(x) \leftrightarrow P(x)) \rightarrow \forall y(R(y) \leftrightarrow P(y));$
- 6) $\exists x(P(x) \wedge Q(x)) \leftrightarrow \forall y(P(y) \wedge Q(y));$
- 7) $\forall xP(x) \vee \forall xQ(x) \rightarrow \exists xP(x) \vee \forall xQ(x);$
- 8) $\forall x(a \rightarrow P(x)) \leftrightarrow (a \rightarrow \forall xP(x));$
- 9) $\forall x(P(x) \rightarrow Q(x)) \leftrightarrow (\exists xP(x) \rightarrow \exists xQ(x));$
- 10) $\forall x(A(x) \rightarrow B(x)) \rightarrow (\forall xA(x) \leftrightarrow \forall xB(x));$

7. Quyidagi PM formulalarini DNSH yoki KNSH shaklga keltiring:

- 1) $(\exists xP(x) \rightarrow \exists xQ(x)) \vee \forall xQ(x);$
- 2) $\forall xA(x) \vee \exists xP(x) \rightarrow \exists xQ(x);$
- 3) $\exists xA(x, z) \rightarrow \forall x\forall y\overline{C(x, y, z)};$
- 4) $\forall xA(x) \vee \forall yB(y) \leftrightarrow \exists xA(x);$
- 5) $\exists x(R(x) \leftrightarrow P(x)) \rightarrow \exists y(R(y) \leftrightarrow P(y));$
- 6) $\exists x(P(x) \wedge Q(x)) \rightarrow \forall y(P(y) \wedge Q(y));$
- 7) $\forall xP(x) \vee \forall xQ(x) \leftrightarrow \exists xP(x) \vee \forall xQ(x);$
- 8) $\forall x(a \rightarrow P(x)) \leftrightarrow (a \rightarrow \forall xP(x));$
- 9) $\forall x(P(x) \leftrightarrow Q(x)) \rightarrow (\exists xP(x) \leftrightarrow \exists xQ(x));$
- 10) $\forall x(A(x) \leftrightarrow B(x)) \rightarrow (\forall xA(x) \leftrightarrow \forall xB(x));$

8. Quyidagi keltirilgan mulohazalarni birinchi tartibli predikatlar ko'inishiga keltiring:

- 1) Filialning har talabasi ingliz yoki nemis yoki fransuz tilini o'rganadi.
- 2) Filialning barcha talabalari ingliz, nemis va fransuz tilini o'rganadi.
- 3) Filialning barcha talabalari o'zbek, ingliz va rus tillarini o'rganadi.
- 4) Topshiriqlarni bajargan ba'zi bir talabalarga imtihonga kirishga ruxsat berildi.
- 5) Topshiriqlarni bajarmagan birorta talabaga imtihonga kirishga ruxsat berilmadi.
- 6) Ba'zi bir talabalar 2019 yilda ingliz tilidan imtihonda qatnashdi.
- 7) Ingliz tilidagi imtihonda qatnashgan har bir talaba uni topshiradi.
- 8) Birorta ham olma shirin emas.
- 9) Ixtiyoriy aksiya qimmatli qog'oz hisoblanadi.

- 10) Barcha sut emizuvchilar hayvon yoki inson hisoblanadi.
- 11) Maktabni yoki kollejni yoki liseyni bitirgan har bir inson oliv ta'lim muassasiga xujjat topshirishga haqli.
9. Quyidagi mantiqiy mulohazalar berilgan:
- 1) Umumiy fakt: $(\forall m)$ Inson (m) \Rightarrow Abituriyent (m).
 - 2) Xususiy fakt: Inson (Axmad).
 - 3) Xulosa: Abituriyent (Axmad).
- Quyidagi mantiqiy xulosa qanday qiymat qabul qiladi:
- $$((\forall m)\text{Inson}(m) \Rightarrow \text{Abituriyent}(m)) \wedge \text{Inson}(\text{Axmad}) \Rightarrow \text{Abituriyent}(\text{Axmad}).$$

10. Aytaylik M – odamlar to'plami. Quyidagi predikatlar berilgan bo'lsin:

Otasi (m_1, m_2) chin bo'ladi, qachonki agar m_1 shaxs m_2 shaxsning otasi bo'lsa va Erkak (m) chin bo'ladi, qachonki m – erkak bo'lsa, va Erkak (m) yolg'on bo'ladi, qachonki m – ayol bo'lsa. Quyidagi predikatlarning chinligini aniqlang:

- 1) $(\forall m_1, m_2)$ ($\text{Otasi}(m_1, m_2) \wedge \text{Erkak}(m_1) \Leftrightarrow \text{Ota}(m_1, m_2)$).
- 2) $(\forall m_1, m_2)$ ($\text{Otasi}(m_1, m_2) \wedge \neg \text{Erkak}(m_1) \Leftrightarrow \text{Ona}(m_1, m_2)$).
- 3) $(\forall m_1, m_2)$ ($(\exists m_3) \text{Otasi}(m_1, m_3) \wedge \text{Otasi}(m_3, m_2) \wedge \text{Erkak}(m_1) \Leftrightarrow \text{Nabira}(m_2, m_1)$).

11. Aytaylik M – odamlar to'plami.. Quyidagi qarindoshlik munosabatlari uchun predikatlarni tuzing: Aka (m_1, m_2), Xola (m_1, m_2), Opa (m_1, m_2), Singil (m_1, m_2), Tog'a (m_1, m_2) va h.k., va ushbu predikatlarning chinligini aniqlang.

12. Quyidagi faktlar berilgan:

- 1-fakt: Xodim ishlab chiqarish qoidasini buzdi;
- 2-fakt: Xodim mahsulotni saqlash qoidasini buzdi;
- 3-fakt: Xodim mahsulotni tashish qoidasini buzdi.

Ushbu faktlardan tuzilgan quyidagi qoidaga mantiqiy formulani quring.

Qoida: Agar xodim ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash va mahsulotni tashish qoidalari buzsa, u holda u ishdan bo'shatiladi.

14. Quyidagi qoida mavjud:

«*Axmedov sute Mizuvchi*»;

Kuzatish natijasi quyidagicha:

«*Barcha odamlar sute Mizuvchi*»;

Abduktiv xulosalashdan foydalanib Y: xususiy holat - sababni aniqlang?

15. Berilgan x; y.

X: Axmedov -talaba;

Y: Axmedov -o'qiydi;

Induktiv xulosalashdan foydalanib R: ni toping?

16. Berilgan x; y.

X: odam -sutemizuvchi;

Y: Axmedov -odam;

Deduktiv xulosalashdan foydalanib R: ni toping?

17. Ma'lumotlar bazasida A, B, C larning qiymatlari berilgan.

Qoida 1: $A \wedge F \wedge G \rightarrow D$;

Qoida 2: $A \wedge F \rightarrow H$;

Qoida 3: $A \rightarrow G$;

Qoida 4: $G \rightarrow F$;

Qoida 5: $H \wedge K \rightarrow S$;

Qoida 6: $A \wedge C \wedge F \rightarrow B$;

Qoida 7: $C \wedge F \wedge H \rightarrow F$;

Qoida 8: $A \rightarrow K$.

D, H, S, F qoidalarning chinligini yoki yolg'onligini isbotlang.

18. Ma'lumotlar bazasida A, B, C larning qiymatlari berilgan.

Qoida 1: $A \wedge B \rightarrow D$;

Qoida 2: $C \wedge B \rightarrow E$;

Qoida 3: $E \wedge A \rightarrow F$;

Qoida 4: $B \wedge D \rightarrow F$;

Qoida 5: $F \wedge C \wedge A \rightarrow K$;

Qoida 6: $T \rightarrow G$;

Qoida 7: $F \wedge C \wedge B \rightarrow H$;

Qoida 8: $K \rightarrow S$;

Qoida 9: $F \rightarrow P$.

H, P, S qoidalarning chinligini yoki yolg'onligini isbotlang.

3-BOB. MANTIQ CHEKLOVLARI VA NOANIQLIKNI MODELLASHTIRISH

1-§. Tarixiy ma'lumotlar

Noravshan to'plam(NoT)lar nazariyasi (*fuzzy sets theory*) bo'yicha ilmiy ishlarning boshlanishi Berkli universiteti professori *Lotfi Zade* tomonidan 1965 yilda "Information and Control" jurnalida chop etilgan "Fuzzy Sets" ilmiy maqolasi bilan bog'liq [11,16]. "Fuzzy" tushunchasi *noravshan, noqat'iy, notiniq* kabi ma'nolarni bildiradi. Bu tushuncha an'anaviy qat'iy matematika va Aristotel mantiqida qo'llaniladigan qat'iy "*tegishligishlimas*", "*chin-yolg'on*" kabi tushunchalarda oraliq tushunchalarni hosil qilish maqsadida ishlatgan.



NoTlar nazariyasing amaliy qo'llanilishining boshlanilishini 1975 yilda Mamdani va Assilyani tomonidan oddiy bug'li dvigatel bilan boshqariladigan noravshan nazorat qiluvchi qurilmaning yaratilishi bilan bo'g'lashadi. 1982 yilda Xomblad va Ostergallar sanoatda nazorat qilivchi noravshan qurilmani ishlab chiqdilar va uni Daniyaning zavodida sement pishirish jarayonini boshqarishda qo'lladilar. "*Agar - u holda*" noravshan lingvistik qoidalariga asoslangan nazorat qiluvchi birinchi sanoat qurilmasining yaratilishi NoTlar nazariyasi bilan shug'llanadigan matematiklar va muxandislar o'rtasida qiziqarli shov-shuvga olib keldi. Biroz keyinroq Bertolomeem Kosko tomonidan ixtiyoriy matematik tizim noravshan mantiqga asoslangan tizimga approksimatsiya qilinishi haqidagi teorema isbot qilindi [11,16].

NoTlarga asoslanib yaratilgan tizimlar texnologik jarayonlarni va transportni boshqarishda, tibbiy va texnika tashxisida, moliya menejmentida, bashoratlash birjasida va tasvirlarni anglashda keng qo'llanilishi bilan birgalikda uning ilovalariga videokameralar va maishiy xizmat ko'rsatishdan tortib havoda qo'riqlash raketalarini boshqarish qurilmalari va harbiy vertolyotlarni boshqarishgacha bo'lgan masalalarni yechish kiradi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, noravshan mantiqga asoslangan tizimlarni yaratishga ketadigan vaqt va uni loyihalashtirishga sarflanadigan narx ananaviy matematik apparat yordamida amalga oshirishga nisbatan ancha kam bo'lib, bunda modellarning ishlashi va shaffofligi talab darajasini qanoatlantriradi.

L.A.Zadening xizmati elementning to'plamga muallaq (ko'proq yoki kamroq darajada) tegishliligi haqidagi tushunchani kiritganligidan iborat. Uning xulosasiga ko'ra element to'plamostiga ko'proq yoki kamroq darajada tegishli bo'lishi mumkin, bu xulosadan esa to'plam ostining noravshanligi tushunchasi kelib chiqadi. Butunlay boshqa nuqtai-nazardan, yani n-o'rinni mantiqga asoslanib Post, Lukashevich va Moyzillar NoTlar nazariyasining ba'zi bir aspektlarini o'z ichiga oluvchi umumiy nazariyani yaratdilar [16].

Inson yoki kompyuter yordamida axborotlarni ishlashda ko'p hollarda kirishda, ba'zi hollarda chiqishda sonli yoki sonlimas ma'lumotlar noravshan va ehtimollimas bo'lishi mumkin. Bu noravshan va ehtimollimas ma'lumotlarni ishonchlik intervallariga joylashtirish mumkin. Bunday hollarda NoTlar nazariyasidan foydalaniladi.

L.A.Zade nimani taklif qildi? Birinchidan, u to'plamning klassikli kvantorli tushunchasini kengaytirdi, yani xarakteristik funksiyining (elementning to'plamga tegishlilik fumksiyasining) $(0;1)$ intervalda faqat o yoki 1 qiymat emas, balki ixtiyoriq qiymat qabul qilishi mumkin ekanligini ko'rsatdi. Bunday to'plam noravshan (fuzzy) deb ataldi [11]. Shuningdek, Zade NoTlar ustida bir qator *amallarni* aniqladi va mantiqiy xulosalashning "*Modus ponens*" u "*Modus tollens*" kabi mashhur usullarini umumlashtirishni taklif qildi. Undan keyin *lingvistik o'zgaruvchi (LO')* tushunchasini kiritdi va bu *o'zgaruvchilarning qiymatlari (termlari) sifatida noravshn to'plam* qatnashishini ko'rsatdi. L.A.Zade ifodalarning noravshanligi va noanoqligini o'z ichiga oluvchi intellektual faoliyat jarayonlarini tavsiplash uchun qurilma yaratdi.

Matematik NoTlar nazariyasi noravshan tushunchalar va bilimlarni tavsiplashga imkoniyat yaratadi, ushbu bilimlar ustida amallar bajaradi va noravshan xulosalashni amalga oshiradi. Ushbu nazariyaga asoslangan kompyuterli noravshan tizimlar kompyuterlarning predmet sohalarda qo'llanilish imkoniyatlarini ancha kengaytiradi.

2-§. Bilimlarning noaniqligi va ularni ishlash uslublari

2.1. Masalalarni tavsiplashda noaniqliklarning turlari


Masalani shakllantirishda haqiqiy masalani qandaydir formal tilga, umumiy holda esa-haqiqiy obyektning modelini tasvirlovchi professional tiliga akslantirish amalga oshiriladi [11, 16].

Aytaylik, O_z - elementlar va ularning ozaro aloqalaridan iborat masalalarni akslantiruvchi obyektlar to'plami va O_y – tabiiy tildagi obyektlari to'plami (tushunchalar, munosabatlar, nomlar va h.k.) bo'lsin.

Quyidagi akslantirishni qaramyz: $F: O_z \rightarrow O_y$. Aytaylik, $O_1 \in O_2 \in O_z$; $O_2 \in O_y$ va quyida keltirilgan shartlardan eng kamida bittasi bajarilsin:

$(\exists O_1)|F(O_1)| > 1$ -sinonamiya; $(\exists O_2)|F - 1(O_2)| > 1$ -polisemiya;
 $(\exists O_1)F(O_1) = \emptyset$ -noyetarlilik; $(\exists O_2)F - 1(O_2) = \emptyset$ -ortiqchalilik;
bu yerda $/X/$ - X to'plamning quvvati; \emptyset - bo'sh to'plam.

Bu holda *noaniqliklar shartidagi masalaga ega bo'lamiz* va ularni mos ravishda tilni tavsivlaning *sinonimiylar, polisemiylar, noyetarliliklar va ortiqchaliklariga* ega bo'lган masalalar deb ataymiz. Masalalarni tavsivlashda noaniqliklar turlarining daraxt ko'rinishdagi sxemasi 3.1-rasmda keltirilgan.



3.1-rasm. Masalalarni tavsivlashda noaniqliklar.

Daraxtning birinch pog'onasi masalaning elementlari to'g'risida etishmaydigan axborotlar soni bilan xarakterlanadigan terminlardan iborat:

1) *Noma'lumlik* holatida masala haqidagi boshlang'ich axborotlar umuman ma'lum bo'lmaydi. Axborotlarni yig'ish jarayonida qandaydir bosqichda quyidagilar paydo bo'lishi mumkin:

- hozircha barcha mumkin bo'lgan yoki barcha kerakli bo'lgan axborotlar yig'ilмаган (noto'liqlik yoki noyetarlilik);
- ba'zi bir elementlarning tavsivlarida aniqmasliklar bor (noaniqlilik);
- masalaning bir qator elementlari oldin yechilgan masalalarda tavsivlanishlarga o'xshab vaqtincha tavsivlangan (noadekvatlilik).

3.1-rasmida rasmida keltirilgan *noaniqliklar* turlarining mavjudligi axborotlarni yig'ishni vaqtincha to'xtaganligi yoki axborotlarni yig'ish uchun resurslarning etishmasligi bilan bog'liq.

Keyingi o'rGANISHLAR barcha elemenlari *birqiymatli* tavsivlangan aniqlik holatiga yoki *nobirqiymatlik* holatiga olib kelishi mumkin. *Nobirqiymatlik* holatida masala haqidagi barcha axborotlar yig'ilgan bo'lishi mumkin, lekin ularni aniqlaydigan tavsivlar to'liq olinmagan va olib bo'lmaydi.

2) Daraxtning ikkinchi pog'onasi *nobirqimatli* tavsivlashning mumkin bo'lgan manba(sabab)larini tavsivlaydi. Manbalar sifatida tashqi muhit (*fizik noaniqlik*) va professional til sifatida foydalanalidigan *Lingvistik noaniqlik* qatnashadi.

Fizik noaniqlik kuzatuvchi nuqtai-nazaridan haqiqiy olam obyektlarining noaniqliklarini tavsivlaydi. Noaniqlik tushunchasi o'lchaydigan asbobning imkoniyatlari bilan bog'liq, yani o'lchovning noaniqligi fizik priborlar tomonidan olinadigan qandaydir qiymatdir.

Lingvistik noaniqlik masalani tavsivlash uchun foydalilanidigan tabiiy til bilan bog'liq. *Lingvistik noaniqlik* bir tomonidan polisemiyalar deb ataluvchi tildagi so'zlarning qiymatlar to'plami yordamida, ikkinchi tomonidan frazalar ma'nosining birqiymatlimasligidan paydo bo'ladi. Bizning maqsadimiz uchun *polisemiyalarning* ikkita turini tanlash mumkin: *omonimiya* va *noravshanlik*. Agar masalaning obyektlari bitta so'z bilan akslantiriladigan bo'lib, ular turli ma'nolarni anglatsa-bu *omonimiya*.

Misol. miya - inson miyasi, hayvon miyasi. Agar ushbu obyektlar o'xshash bo'lsa, u holda bu holatni noravchanlikga tegishli deb hisoblaymiz.

2.2. Ma'lumotlar va bilimlarning xususyatlari

BBda ma'lumotlar va bilimlar xossalaring mazmuni va ular haqidagi axborotlarning chinligi boyicha bilimlarni tasvirlash bir-biridan farq qiladi. Odatda ITlarda bilimlar *noto'liq, qarama-qarshi, nomonoton, xatoli, noaniq va noravshan* bo'ladi [11, 16].

To'liqlik odatda quyidagicha ifodalanadi: ma'lum xossalari bilan berilgan formulalar to'plami uchun boshlang'ich aksiomalat tizimi va xulosalash qoidalari ushbu to'plamga kiritilgan barcha formulalar uchun xulosalashni ta'minlashi zarur. *Axborotlarning noto'liqligi* klassik mantiq usullaridan farqli ravishda maxsus yondashuvlarni talab etadi [11,16]. Bunday usullarga statistik va noravchan mantiqiy usullarni kiritish mumkin. Bu nazariyalarning afzallikkari shundan iboratki, ular ma'lumotlar haqida hech qanday oldingi va qo'shimcha axborotlarni (ehtimolliklar yoki elementning to'plamga tegishliligi haqidagi axborotlarni) talab etmaydi. Bu nazariyalardan ma'lumotlar bazasidan bilimlarni olish masalalarini yechishda foydalanish mumkin.

Monotonlik - bu mantiqiy xulosalash xossasidir. Bilimlarning to'liq nabori uchun hosil qilingan xulosalashning haqiqiyligi yangi dalillarning qo'shilishi bilan o'zgarmaydi, yani agar $A_1, A_2, \dots, A_n \vdash B_1$, u xolda $A_1, A_2, \dots, A_n, \{F\} \vdash B_1$, bu yerda $\{F\}$ -qo'shimcha tasdiqlar to'plami bo'lib, avvalgi chiqarilgan B_1 tasdiqni rad etmaydi.

Noto'liq bilimlarni nomonoton xulosalashning zarurligi uchun ularni formal ishslash vositasi sifatida nomonoton mantiq usullaridan foydalaniladi, Masalan, shartli mantiqiy amallarni kiritishga asoslangan *Makdermott va Doul nomonotonli mantiq, Reyter dunyosining yopiqligi haqidagi jimlik mantiqi, Makkartining nomonotonli mantiqi* va h.k.

Noaniqlik - bu axborotlar mazmuniga (yoki mohiyatlar qiymatiga) tegishli bo'lib, BBdagi bilimlarni tasvirlashda e'tiborga olinadi.

Noaniq bilimlarning paydo bo'lishi quyidagilar bilan bog'liq [11, 16]: ma'lumotlardagi xatoliklar; xulosalash qoidalari uchun xatoliklar; noaniq modellardan foydalanish.

Noaniq axborotlar noqarama-qarshi va qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Masalan, Axmedovning haqiqiy yoshi 25 da bo'lib, BBda yozilishi bo'yicha uning yoshi 30 da. Bu misolda axborot xato yozilgan bo'lsada, u noqarama-qarshi. Boshqacha holat ham bo'lishi mumkin, xatoli tarzda BBda Axmedovga 110 yosh yozilgan bo'lishi mumkin. Bu esa haqiqatga qatama-qarshi, chunki insonlarning yoshi 0 dan 100gacha oraliqda bo'ladi.

Noaniq axborotlarga qandaydir chegaralangan aniqlik (porog) yoki oraliq

qiymatlar (interval) bilan olingan ma'lumotlarni ham kiritish mumkin. Bu qiymatlar, masalan, o'lchov asbobining aniqlik darajasi, o'lchovni amalga oshirayotgan insonning psixologik holati va sog'ligiga bo'g'liq bo'lishi mumkin.

Noaniqliklarni tasvirlashning an'anaviy yondashuvlariga G.Sheyfer nazariyasini keltirish mumkin. Bu nazariya matematik modellarda noaniqliklarni formal tasvirlashda umumiyligi nuqtai-nazardan yondashishga imkoniyat yaratadi va shuning uchun ham u fundamental va amaliy sohalarda katta ahamiyatga ega.

3-§. Noravshan bilimlar va ular ustida amallar

3.1. Noravshan bilimlar

Endu ITlarni yaratishda muhim hisoblangan noravshan bilimlarni tasvirlash muammosiga to'xtalamiz. *Noravshan bilimlar* ozining tabiyatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin va shartli ravishda quyidagilarga bo'linadi: *noto'g'rilik, noaniqlik, nobirqiyatlik, yani ular ixtiyoriy norashanlik bo'lib, ular orasida qat'iy chegara mavjud bo'lmaydi.*

NoTlar nazariyasi - bu shunday ma'noni anglatadiki, bunda klassik matematika va haqiqiy olamda uchraydigan noaniqliklarning yaqinlashish yo'liga qadam tashlanadi, insoniyatning fikrlash va anglash jarayonlarini yaxshi tushunish niyati amalga oshadi.

Obyektlar to'plami va majmuasi matematikada asosiy tushunchalar hisoblanadi. Lekin insonda shunday bilimlar va tashqi olam bilan shunday aloqalar mavjudki, ularni klassik ma'noda *to'plam deb atash mumkin emas*. Bunday bilimlar to'plamini (yoki to'plamostini) «*noravchanli to'plamlar (yoki to'plamostilar)*» deb hisoblanadi. Bu to'plamlar noravshan chegarali sinflar bo'lib, “*elementning sinfga tegishli*” qoidasidan “*elementning sinfga tegishlimas*” qoidasiga keskin tarzda emas, balki asta-sekinlik bilan o'tiladi. Mohiyat nuqtai-nazaridan insonning fikrashi klassik ikkiqiyatli yoki ko'pqiyatli mantiqga emas, balki chin qiymatli noravshan mantiqga, notavshan aloqali va noravshan xulosalash qoidalariiga asoslanadi.

Oxirgi vaqlarda noravshan boshqarishda NoTlar nazariyasini qo'llash ancha faol va natijali tadqiqot sohalaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, sifatli bilimlarni shakllantirish SITlarida, shuningdek,

ETlarda exspertlar bilan tabiiy tilda ishlash jarayonida lingvistik noaniqliliklar bilan bog'liq jihatlar boyicha tadqiqotlar faollashdi.

3.2. Noravshan to'plamlar

Noravshan o'zgaruvchi tushunchasi. L. Zade noravshan o'zgaruvchi(*NO'*) tushunchasini quyidagi ushlik ko'rinishda kiritdi [11, 16, 24]:

$$\langle \alpha, U, G \rangle,$$

bu yerda α - NO'ning nomi;

U – universal to'plam(UT)ning aniqlanish sohasi;

G - U dagi NTning mumkin bo'lgan noravshan qiymatlariga (sematikasiga) chegaralarni tavsivlovchi NoT;

U to'plamning fizik tabiatiga qarab NO'lar *sonli* va *sonlimaslarga* ajratilishi mumkin. $U \subset R^1$ qanoatlantiruvchi o'zgaruvchilarni *sonli ozgaruvchilar* deb ataymiz.

NoTlarning asosiy qoidalari va ta'riflarini keltiramiz [37, 50, 60, 81].

Noaniq/Noravshan (*fuzzy - ingliz atamasidan*) obyekt, holat va hodisalar ni noaniq, to`liq bo`lmagan, taxminiy, mumkin bo`lgan baholashlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday baholashlar ekspert fikr(mulohaza)larida shakllanadi.

Ko`p muammolarni yechishda mazkur turdag'i *noravshan baholash, model, usul va protseduralardan* foydalanish zarurligi quyidagilar bilan belgilanadi [7, 83]:

- obyekt va hodisalar to`g`risida aniq va to`liq axborotlarni olish imkoniyati yo`qligi;
- murakkab obyekt va hodisalarning aniq, deterministik matematik modelini qurish imkonи yo`qligi yoki murakkabligi;
- ayrim muommalarni yechishda parametr va hodisalar ni aniq baholashlari talab qilinmaydi;
- tadqiq qilinayotgan tizimlarning murakkabligi oshgan sari insonning ular to`g`risida aniq va shu bilan birga to`g`ri baholash (fikr, mulohaza bildirish) qobiliyati pasayadi, murakkablik belgilangan chegaradan oshgandan keyin esa baholashlarning aniqligi va to`g`riligi (ma'noliligi) bir biriga zid bo`lib qoladi.

Noravshan modellar egiluvchan modellar sinfining biri bo`lib quyidagi xususiyatlarga ega:

- insonning odatdagi shaklda ifodalangan bilim va tajribalariga asoslangan bo`lib, ular ananaviy (aniq, qat'iy, deterministik) modellarga nisbatan egiluvchanligi;

- dastlabki axborotlar aniqlikliklariga munosib bo`lgan masala yechimini topishga imkoniyat berilganligi va ularning real olamga ko`proq o`xshashligi;

- soddarоq modellardan hamda soddarоq noravshan amallalardan foydalanish natijasida masala yechimining natijalarini tezroq topishi bilan farqlanadi.

Noravshan yechish usullari quyidagilarga asoslanadi:

- sonli o`zgaruvchan yoki ularga qo`shimcha ravishda noravshan va lingistik o`zgaruvchilardan foydalanish;

- noravshan mulohazalar yordamida o`zgaruvchilar orasidagi sodda munosabatlarni ifodalash;

- noravshan algoritmlar yordamida murakkab munosabatlarni ifodalash.

Noravshan to`plamlarning klassik va aniq to`plamlardan asosiy farqi ularning [mansub bo`lishi - mansub bo`lmasligi] oraliqda mansublik daraja qiymatlarining to`plam tushunchasi bilan (ha, yo`q o`rniga) ish olib borishidan iborat.

Noravshan to`plam tushunchasi. Aytaylik, U -qandaydir obyektlar to`plami (u bilan belgilanadigan elementlar, nuqtalar va $A: U \rightarrow [0; 1]$) bo`lsin. U to`plamda A noravshan (noaniq, xira) to`plam deb tartiblangan juftliliklar majmuasi

$$A\{u, \mu_A(u)\}; u \in U$$

tushuniladi. Bu yerda $A(u)$ -u elementning A ga mansublilagini (tegishlilagini) bildiradi, $A, a\mu_A: U \rightarrow [0,1]$ - U to`plamda M fazoga akslantiruvchi funksiya bo`lib, mansublik fazosi deb aataladi [11, 16, 19, 24].

Noravshn to`plamostilarining to`plami va uning xossalari [37, 60, 80]. U to`plamostilarining to`plamini $P(U)$ ko`rinishda belgilaymiz. Masalan, $U = \{u_1, u_2, u_3\}$ elementlar berilgan bo`lsa, u holda $P(U) = \{\emptyset, \{u_1\}, \{u_2\}, \{u_3\}, \{u_1, u_2\}, \{u_2, u_3\}, \{u_1, u_3\}, \{u_1, u_2, u_3\}\}$, yani $P(U)$ to`plam $2^3=8$ elementlardan ($|P(U)| = 8$) iborat bo`ladi. Umumiy holda $U = \{u_1, u_2, \dots, u_n\}$ elementlar berilgan bo`lsa, u holda, yani $P(U)$ to`plam 2^n elementlardan ($|P(U)| = 2^n$) iborat bo`ladi. NoTlarda «NoT ostilarining to`plami» boshqacha yo`l bilan aniqlanadi. M fazo

sifatida $[0; 1]$ intervalda $M=[0, 0.5, 1]$ qiymatlarni olsak, u holda $U = \{x_1, x_2\}$ NoTlarning $P(U)$ to'plamini quyidagicha hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} P(U) = & \{\{(x_1|0), (x_2|0)\}, \{(x_1|0), (x_2|0.5)\}, \{(x_1|0.5), (x_2|0)\}, \\ & \{(x_1|0.5), (x_2|0.5)\}, \{(x_1|0), (x_2|1)\}, \{(x_1|1), (x_2|0)\}, \{(x_1|1), \\ & (x_2|0.5)\}, \{(x_1|0.5), (x_2|1)\}, \{(x_1|1), (x_2|1)\}\}. \end{aligned}$$

Umumiy holda, agar U to'plam $U = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ elementlardan va M fazo $[a; b]$ intervaldagи $M = [y_1, y_2, \dots, y_m]$ qiymatlardan iborat bo'lsa, u holda NoTlarning soni $|P(U)| = m^n$ aniqlanadi.

Mansublik funksiyasi (MF). MF - bu A NoT bilan ifodalaniladigan tushunchaga $u \in U$ elementi mos bo'lishi darajasining sub'ektiv o'lchovi. Bu u holat paydo bo`lgan holda A holatni kuzatish shartli ehtimoli emas, balki A NoT bilan ifodalaniladigan tushunchasi bilan u holatni izohlash mumkinligi (mumkinlik darajasi).

Masalan, "Neksiya" avtomobili ichida xaydovchidan tashqari yana 6 (yoki 7) odam bo`lish ehtimoli aslida 0ga teng. Ammo bu holatning mumkinligi turli vaziyatlarga qarab (xaydovchining o`z avtomobiliga shaxsiy munosabati, passajirlarni olib borish zarurligi, ularni o`rtacha og`irligi va h.k.) 0 dan 1gacha o`zgarishi mumkin.

MFni qurishning ikkita, yani bevosita va bilvosita usullar sinfi mavjud..

Bevosita usullar bir yoki bir nechta ekspertlar tomonidan berilgan baholashlarga asoslanadi. Bu holda MF [83]

$$\mu_A(U) = \frac{n_1}{m} \quad (3.1)$$

formula bo`yicha belgilanadi. Bu yerda n_1 - A NoT ga $u \in U$ elementning mansubligi to`g`risida quyilgan savolga to`g`ri javob bergen ekspertlar soni; n_2 - salbiy javob bergen ekspertlar soni; $m = n_1 + n_2$ - ekspertlarning umumiy soni.

Misol. Berilgan $U = \{1, 2, 3, 4, 5\}$ to'plamda "Ikkidan sal ko`proq" tushunchani formallashitiradigan A NoT ni qurish kerak. Faraz qilaylik, oltita ekspertlar bilan o'tkazilgan so`rov quyidagi natijalarni berdi (3.1-jadval). 3.1-jadvaldagи ma'lumotlarga va (3.1) formulaga asoslanib

$$\mu_A(1) = 0; \mu_A(2) = 0; \mu_A(3) = 1; \mu_A(4) = 0.7; \mu_A(5) = 0.2.$$

hosil qilamiz. Natijada A NoTning MFsi

$$\mu_A(u) = \{<1/3>, <0.7/4>, <0.2/5>\}$$

ko`rinishda belgilanadi.

3.1-jadval.

	<i>U</i>				
<i>m</i>	1	2	3	4	5
<i>n</i> ₁	0	0	6	4	1
<i>n</i> ₂	6	6	0	2	5

Ko`rib chiqilgan usul eng sodda bo`lib *eng past aniqlikga* ega. *Bevosita usullar* qatoriga ekspertlar bilan o`tkazilgan so`rov asosida olinadigan *formula, jadval, sanab chiqish* va h.k. ko`rinishda MFning berilish usullari ham kiradi.

Bilvosita usullar qulayroq bo`lib, ularning orasida *juft-juftli solishtirish usuli* eng ko`p qo`llaniladigan usul hisoblanadi.

Bu usulda so`rov natijasi $M = \{m_{ij}\}$, $i, j = \overline{1, n}$ ko`rinishdagi *matritsa shaklida* beriladi. Bu yerda: n - MFning qiymatlarini solishtiradigan nutqalar soni; m_{ij} elementlar - A Notga $u_i \in U$ elementlarning $u_j \in U$ elementlariga nisbatan mansublik darajasini baholashlarini belgilaydi, yani ular ekspert fikri bo`yicha $\mu_A(u_i)$ qiymati $\mu_A(u_j)$ qiymatidan necha marta katta bo`lganligini ko`rsatadi. Bu holda $m_{ii} = 1$, $m_{ij} = 1/m_{ji}$.

Ekspert ishlata digan tushunchalarni baholash va izohlashlar *Saati shkalasiga muvofiq 9 ballik tizimda* qabul qilingan (3.2-jadval).

3.2-jadval.

Tushunchani ma'nosи	m_{ij}
$\mu(u_i)$ taxminan $\mu(u_j)$ ga teng	1
$\mu(u_i)$ sal $\mu(u_j)$ dan katta	3
$\mu(u_i)$ $\mu(u_j)$ dan katta	5
$\mu(u_i)$ $\mu(u_j)$ dan sezilarli darajada katta	7
$\mu(u_i)$ $\mu(u_j)$ dan ancha katta	9
Sanab o'tilgan baholashlar darajasi bo`yicha oraliqdagi baholashlar	2, 4, 6, 8

3.2-jadvaldagи ma'lumotlardan foydalanib, (u_1, u_2, \dots, u_n) nuqtalardagi MFsi qiymatlari

$$\mu_A(u_i) = \frac{m_{ij}}{\sum_{i=1}^n m_{ij}} \quad (3.2)$$

bo`yicha hisoblab chiqiladi. Bu yerda $i, j \in I = \{1, 2, \dots, n\}$. j ning qiymati ixtiyoriy ravishda tanlab olinadi.

$\mu_A(u_i)$ qiymatlarini topish uchun $M = \|m_{ij}\|$, $i, j = \overline{1, n}$ matritsaning ixtiyoriy ravishda tanlab olingan j -ustunini belgilab, m_{ij} elementlar qiymatlarini j -ustundagi barcha elementlar qiymati jamiga nisbatlarini hisoblab chiqish kerak.

Misol. Faraz qilaylik, ikki nuqta orasidagi masofani tasvirlash uchun β -“Masofa” LO` $T = \{\alpha_1 = "Kichik", \alpha_2 = "Orta", \alpha_3 = "Katta"\}$ term-to`plami bilan qo`llaniladi. Asosiy to`plam $U = \{1, 3, 6, 8\}$ ko`rinishda berilgan. “ $\alpha_1 - Kichik$ ” term $\langle \alpha_1, U, G_1 \rangle$ NO’ yordamida ifodalanadi. “Kichik” termni ifodalaydigan G_1 NoTning $\mu_{G_1}(u)$ MFni qurish kerak.

Ekspertlarni so`rash natijasida quyidagi juft-juftli solishtirish m_{ij} ($i = 1, n; j = 1, m$) matritsasi (3.2-rasm)

$$m_{ij} = \begin{array}{c|cccc} & 1 & 3 & 6 & 8 \\ \hline 1 & \left| \begin{array}{cccc} 1 & 5 & 6 & 7 \end{array} \right| \\ 3 & \left| \begin{array}{cccc} 1/5 & 1 & 4 & 6 \end{array} \right| \\ 6 & \left| \begin{array}{cccc} 1/6 & 1/4 & 1 & 4 \end{array} \right| \\ 8 & \left| \begin{array}{cccc} 1/7 & 1/6 & 1/4 & 1 \end{array} \right| \end{array}$$

3.2-rasm. Solishtirish matritsasi.

hosil qilingan bo`lsin. Bu yerda, masalan, $m_{12} = 5$ element ekspert $\mu_{G_1}(1)$ ni $\mu_{G_1}(3)$ ga nisbatan katta qiymati bilan baholashini, $m_{14} = 7$ element esa - ekspert $\mu_{G_1}(1)$ ni $\mu_{G_1}(8)$ ga nisbatan sezilarli darajada katta qiymati bilan baholashini ko`rsatadi.

M matritsaning birinchi ($j=1$) ustunini belgilab, uning elementlar qiymatlarini $M1 = \{1, 1/5, 1/6, 1/7\}$ ko`rinishda ajratib olamiz. Keyin (3.2) formuladan foydalanib, “Kichik” termni ifodalaydigan G_1 NoTning $\mu_{G_1}(u)$ MF qiymatlarini

$$\mu_{G_1}(1) = \mu_{G_1}(u_1) = \frac{m_{11}}{\sum_{i=1}^4 m_{i1}} = \frac{1}{1,55} = 0,64; \mu_{G_1}(3) = 0,16; \mu_{G_1}(6) = 0,11; \mu_{G_1}(8) = 0,09.$$

topamiz. Shunday qilib G_1 NoT

$$G_1 = \{<0,64/1>, <0,16/3>, <0,11/6>, <0,09/8>\}$$

ifodalanadi.


Agar M fazo faqat ikkita 0 va 1 nuqtalardan iborat bo'lsa, u holda A noaniqmas (aniq) deb ataladi va unung MFsi noaniqmas to'plamning xarakteristik funksiyasi bilan mos tushadi.

Quyida biz M sifatida $[0; 1]$ intervalni qaraymiz, bunda 0 va 1 mos ravishda mansublikning quyi va yuqori darajasini anglatadi. Mansublik to'plamlari sifatida boshqa intervallar ham qaraladi, masalan, MYSIN ETida $[-1; 1]$ interval, qisman tartiblashgan ixtiyoriy to'plamlar $[0; 10]$, $[0; 100]$ intervallarda, xususiy holda panjarali intervallar ham qaraladi. Shunday qilib, U to'plamda berilgan A NoT unung mansublik $\mu_A(u)$ funksiyasining berilishiga ekvivalent bo'ladi va A to'plamning chegaralarining noaniqligiga qaramasdan har bir elementini taqqoslash yo'li bilan 0 va 1 oralig'idagi $\mu_A(u)$ sonni aniqlash mumkin.

Misol. 1) Faraz qilaylik U to`plam $[0,10]$ oraliqdagi natural sonlarga tegishli universal to`plami bo`lsin. Ushbu to`plamda "Taxminan 5" noravshan tushunchaga tegishli A_1 NoTni quyidagi ko`rinishda ifodalanish mumkin:

$$A_1 = \{<0/0>, <0.1/1>, <0.3/2>, <0.5/3>, <0.8/4>, <1/5>, \\ <0.8/6>, <0.5/7>, <0.3/8>, <0.1/9>, <0/10>\}.$$

Bu NoTning MFsi 3.3-rasmida keltirilgan.



3.3-rasm. A_1 NoTning MFsi.


Bu yerda $S_{A_1} = \{1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9\}$, NoT $A_1 = 1(u=5)$; NoT A_1 - normal, unimodal to`plam. O'tish nutqalari: $u=3$ va $u=7$.

Quvvati: $|A_1| = \{0, 1 + 0, 3 + 0, 5 + 0, 8 + 1 + 0, 8 + 0, 5 + 0, 3 + 0, 1\}$

2) Faraz qilaylik, U to'plam [10-80] oraliqdagi 1 mm diskret qadami mumkin bo`lgan mahsulotning qalinligiga tegishli universal to`plami bo`lsin. Unda, masalan, α - "Kichik qalinlik" noravshan tushunchaga tegishli A_2 NoT quyidagi ko`rinishda ifodalanish mumkin:

$$A_2 = \{<1/10>, <0.9/11>, <0.8/12>, <0.7/13>, <0.5/14>, \\ <0.3/15>, <0.1/16>, <0/17>, <0/18>, \dots\}$$

Bu NoTning MFsi 3.4-rasmida keltirilgan. Bu yerda $S_A = \{10, 11, 12, 13, 14, 15, 16\}$, NoT $A_2 = 1(u=10)$.



3.4-rasm. A_2 NoTning MFsi.

3.3. Noravshan mantiq amallari

"Inkor" ("Noravshan inkor"), "Va" ("Noravshan konyunksiya"), "Yoki" ("Noravshan dizyunksiya") amallarining ta'riflarini keltiramiz [11, 16, 19, 24].

1) "Noravshan inkor" (aniq "Inkor" amalining o'xshashi) - bu natijada [0,1] baholashni beradigan [0,1] noravshan baholashning unar inkori amalidir. Bu amal "1dan ayirish" sifatida belgilanadi, yani $T(-x)=1-x$, $N^0(x) \text{inkori}=\bar{x}=1-x$, $\bar{x}=x$, $x \in [0,1]$, bu yerda T - mulohazaning to`g`rilik darajasi.

Bu qo'shimcha NoT tushunchasiga mos keladi. N^0 amali quyidagi talablarga javob beradi:

- $N^0(0)=1$, $N^0(1)=0$ - chegara shartlari;

- $N^{\circ}(N^{\circ}(x))=x$, $\forall x=[0,1]$ - ikkilik inkori;
- $x_1 < x_2 \rightarrow N^{\circ}(x_1) > N^{\circ}(x_2)$ - baholashlarni inversiya qilish (qiymatlarini teskarilariga aylantirish).

$x=0,5$ (“Bilmayman”, “Indifferentlik/Befarqlik”) bo`lganda uning inkori ham $N^{\circ}(x)=0,5$ bo`ladi. Shuning uchun 0,5 - bu noravshan tushunchaning markaziy qiymati. Unga nisbatan x va $N^{\circ}(x)$ tushunchalar simmetrik qiymatlarni qabul qiladi.

Bul algebrasida “Inkor” amali mantiq o`zgaruvchining teskari qiymatini (masalan, “0 - issiq” uchun “1 - sovuq” va aksincha) izohlaydi. N° amali esa, masalan, “Sovuq” uchun “Sovuq emas” tushunchani izohlaydi. Bunda “Sovuq” va “Issiq” tushunchalari orasida “Sovuq emas” tushunchasi ko`p qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

2) *Noravshan* “Va” - uch burchakli t - miqdor - bu $[0,1]$ oraliqda $T:[0,1] \times [0,1] \rightarrow [0,1]$ qiymatlarni qabul qiladigan ikki o`zgaruvchilar funksiyasidir.

T amali quyidagi talablarga javob beradi:

- $xT1=x$, $xT0=0$, $\forall x \in [0,1]$ - cheklanganlik (chevara shartlari);
- $x_1Tx_2 = x_2Tx_1$ - kommutativlik;
- $x_1T(x_2Tx_3) = (x_1T x_2)Tx_3$ - assotsiativlik;
- $x_1 \leq x_2 \rightarrow x_1Tx_3 \leq x_2Tx_3$ - monotonlik.

T - miqdor amaliga xos bo`lgan amal - bu minimum (min) yoki mantiqiy ko`paytirish(konyunksiya) amali

$x_1Tx_2 = \min(x_1, x_2) = x_1 \wedge x_2$, $T(x_1 \wedge x_2) = \min(T(x_1), T(x_2))$, yoki quyidagi noravshan konyunksiyaning muqobil formulalari:

$x_1 \wedge x_2 = x_1 \times x_2 = x_1 x_2$ - algebraik
ko`paytirish,

$x_1 \wedge x_2 = \max\{(x_1 + x_2 - 1), 0\}$ - chegarali
ko`paytirish,

$$x_1 \wedge x_2 = \begin{cases} x_2, \text{ agar } x_1 = 1, \\ x_1, \text{ agar } x_2 = 1, \\ 0, \text{ qolgan hollarda} \end{cases}$$

drastik
(drastic-
hal qiluvchi)
ko`paytirish

3) *Noravshan Yoki*” - uch burchakli S - miqdor - bu $[0,1]$ oraliqda $S:[0,1] \times [0,1] \rightarrow [0,1]$ qiymatlarni qabul qiladigan ikki o`zgaruvchilar funksiyasidir. S uchun chevara shartlari $xS1=1, xS0=x, \forall x \in [0,1]$ ko`rinishda ifodalanadi.

S - miqdor amaliga xos bo`lgan amal - bu maksimum (max) yoki mantiqiy yig`indi (dizyunksiya) amali $x_1 \text{ } S \text{ } x_2 = \max(x_1, x_2) = x_1 \vee x_2$, yoki quyidagi noravshan dizyunksiyaning muqobil formulalari:

$$x_1 \text{ } S \text{ } x_2 = x_1 \oplus x_2 = x_1 + x_2 - x_1 x_2 \text{ - algebraik yig`indi;}$$

$$x_1 \vee x_2 = \min\{(x_1 + x_2), 1\} \text{ - chegarali yig`indi;}$$

$$x_1 \vee x_2 = \begin{cases} x_2, & \text{agar } x_1 = 0, \\ x_1, & \text{agar } x_2 = 0, \\ 1, & \text{qolgan hollarda} \end{cases}$$

drastik
(drastic)
yig`indi

Algebraik yig`indi va ko`paytirish amallar uchun:

- distributivlik - $x_1 \oplus (x_2 \times x_3) \neq (x_1 \oplus x_2) \times (x_1 \oplus x_3)$; $x_1 \times (x_2 \oplus x_3) \neq (x_1 \times x_2) \oplus (x_1 \times x_3)$;

- idempotentlik - $x_1 \oplus x_1 \neq x_1$; $x_1 \times x_1 \neq x_1$;

- singdirish - $x_1 \oplus (x_1 \times x_2) \neq x_1$; $x_1 \times (x_1 \oplus x_2) \neq x_1$;
qonunlari bajarilmaydi.

Noravshan mantiqda $x \wedge \bar{x} = \phi$ (yoki $x \wedge (1-x) = \phi$) (uchinchisini inkor qilish), $x \vee N^c(x) = E$ (yoki $x \vee (1-x) = X$) (ayniyatlar), (E, X - universal to`plam, ϕ - bo`sh to`plam) munosabatlar ham bajarilmaydi. Bu yerda $0.5 \geq x \wedge (1-x) \geq 0$; $0.5 \leq x \vee (1-x) \leq 1$ o`zaro nisbatlar yuz beradi.

Noravshan mantiqda, qoida bo`yicha, mantiqiy amallar (algebraik - ayrim hollarda) qo`llaniladi.

3.4. Noravshan to`plamlar ustida oddiy amallar

NoTlar nazariyasida $P(U)$ to`plamlar ustida bajariladigan asosiy amallar quyidagilardan iborat [11, 16, 19, 24].

Yutilish amali. Aytaylik U -mansubliklar to`plami, A va B - U to`plamda berilgan NoTostilari bo`lsin. Agar $\forall u \in U: A(u) \leq B(u)$ bo`lsa, u holda A to`plam B to`plamda saqlanadi (yoki B to`plam A to`plamni o`z ishiga oladi) deb aytildi va $A \subset B$ kabi belgilanadi.

Misol. Aytaylik $U = \{u_1, u_2, u_3, u_4\}, M = [0,1]$ berilgan bo`lsin.

$$A = \{(x_1|0.4), (x_2|0.2), (x_3|0), (x_4|0)\},$$

$$B = \{(x_1|0.7), (x_2|0.4), (x_3|0), (x_4|1)\}.$$

Bu yerda $0.4 < 0.7$, $0.2 < 0.4$, $0 = 0$, $0 < 1$. Demak $A \subset B$ (A to`plam B to`plamda saqlanadi).

Tenglik amali. U to`plamdagagi ikkita A va B NoTostilari shunda va

faqat shundagina teng $A = B$ bo'ladi, agarda $\forall u \in U: \mu_A(u) \leq \mu_B(u)$.

Misol. Aytaylik $U = \{u_1, u_2, u_3, u_4\}, M = [0,1]$ berilgan bo'lsin.

$$A = \{(x_1|0.5), (x_2|0.6), (x_3|1), (x_4|0)\},$$

$$B = \{(x_1|0.7), (x_2|0.8), (x_3|1), (x_4|0)\}.$$

Bu yerda $0.5 < 0.7, 0.6 < 0.8, 1 = 1, 0 = 0$. Demak $A = B$.

To'ldiruvchi amali. U to'plamdagagi ikkita A va B NoTostilarini bir-birini to'ldiradi $B = \sim A$ yoki $\sim A = B$, agarda $\forall u \in U: \mu_B(u) = 1 - \mu_A(u)$, bu $B = \sim A$ yoki $\sim A = B$ kabi belgilanadi.

Misol. Aytaylik, $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6\}, M = [0,1]$.

$$A = \{(x_1|0.25), (x_2|0.73), (x_3|1), (x_4|0), (x_5|0), (x_6|0.08)\}.$$

$$B = \{(x_1|0.75), (x_2|0.27), (x_3|0), (x_4|1), (x_5|1), (x_6|0.92)\}.$$

U holda ko'rinish turibdiki, $\sim A = B$.

Kesishish amali. U to'plamdagagi ikkita A va B NoTostilarining kesishmasi ($A \cap B$) bir vaqtida A va B to'plamlarda mavjud elementlardan eng kichiklaridan iborat NoT sifatida aniqlanadi:

$$\forall u \in U: \mu_{A \cap B}(u) = \min(\mu_A(u), \mu_B(u)).$$

Misol. $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}, M = [0,1]$.

$$A = \{(x_1|0.4)(x_2|0.8)(x_3|0), (x_4|1), (x_5|0.3)\},$$

$$B = \{(x_1|0.6)(x_2|0.6)(x_3|0), (x_4|0), (x_5|0.7)\},$$

$$A \cap B = \{(x_1|0.4)(x_2|0.6)(x_3|0), (x_4|0), (x_5|0.3)\}$$

Birlashtirish amali. U to'plamdagagi ikkita A va B NoTostilarining bitlashmasi ($A \cup B$) bir vaqtida A va B to'plamlarda mavjud elementlardan eng kattalaridan iborat NoT sifatida aniqlanadi:

$$\forall u \in U: \mu_{A \cup B}(u) = \max(\mu_A(u), \mu_B(u)).$$

Misol. $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}, M = [0,1]$.

$$A = \{(x_1|0.4)(x_2|0.8)(x_3|0), (x_4|1), (x_5|0.3)\},$$

$$B = \{(x_1|0.6)(x_2|0.6)(x_3|0), (x_4|0), (x_5|0.7)\},$$

$$A \cup B = \{(x_1|0.6)(x_2|0.8)(x_3|0), (x_4|1), (x_5|0.7)\}$$

Algebraik ko'paytma. U to'plamdagagi ikkita A va B NoTostilarining algebraik ko'paytmasi ($A \times B$) quyidagicha aniqlanadi:

$$\forall u \in U: \mu_{A \times B}(u) = \mu_A(u) \times \mu_B(u).$$

Noravshan to`plamlarning dekart ko`paytmasi. $A_i, i = \overline{1, n}$

NoTostilarining dekart ko`paytmasi - bu

$$A_1 \times A_2 \times \dots \times A_n = \{(<\mu_x(x_1, x_2, \dots, x_n)/(x_1, x_2, \dots, x_n)>)\}$$

to`plami, bu yerda

$$x_i \in X_i; \quad \mu_x(x_1, x_2, \dots, x_n) = \min\{\mu_{A_1}(x_1), \mu_{A_2}(x_2), \dots, \mu_{A_n}(x_n)\}.$$

Misol. $X = \{10, 15, 20, 25\}$ va $Y = \{5, 6, 7\}$ ko`rinishdagi asosiy to`plamlar berilgan. Ushbu to`plamlarda noravshan top'lamostilari

$$A_1 = \{<1/10>, <0.8/15>, <0.5/20>, <0.3/25>\} \text{ va}$$

$$A_2 = \{<1/5>, <0.5/6>, <0.2/7>\}$$

belgilangan. Ular ustida dekart ko`paytmasi amali bajarish natijasida quyidagi natijalar olinadi:

$$\begin{aligned} A_1 \times A_2 = & \{<1/(10,5)>, <0.8/(15,5)>, <0.5/(20,5)>, <0.3/(25,5)>, \\ & <0.5/(10,6)>, <0.5/(15,6)>, <0.5/(20,6)>, <0.3/(25,6)>, \\ & <0.2/(10,7)>, <0.2/(15,7)>, <0.2/(20,7)>, <0.2/(25,7)>\}; \end{aligned}$$

NoTlarning ayirmasi. U to`plamdagisi ikkita A va B NoTostilarining ayirmasi - bu

$$A \setminus B = \{<\mu_{A \setminus B}(x)>/x\}, \quad x \in X,$$

bu yerda $\mu_{A \setminus B}(x) = \mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)}$ ko`rinishdagi to`plam.

Misol. Aytaylik, $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4\}, M = [0,1]$.

$$\begin{aligned} A = & \{(x_1|0.25), (x_2|0.73), (x_3|1), (x_4|0)\}. \\ B = & \{(x_1|0.35), (x_2|0.87), (x_3|0), (x_4|1)\}. \end{aligned}$$

$$\overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x) \quad \text{asosan}$$

$$\overline{B} = \overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x) = \{(x_1|0.65), (x_2|0.13), (x_3|1), (x_4|0)\}$$

$$\text{Endi } A \setminus B = \{<\mu_{A \setminus B}(x)>/x\} = \mu_{A \setminus B}(x) = \mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)} = \min(\mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)})$$

asosan

$$A \setminus B = \{(x_1|0.25), (x_2|0.13), (x_3|1), (x_4|0)\}.$$

NoTlarning simmetrik ayirmasi. U to`plamdagisi ikkita A va B NoTostilarining simmetrik ayirmasi - bu

$$A \oplus B = \{<\mu_{A \oplus B}(x)>/x\}, \quad x \in X,$$

bu yerda $\mu_{A \oplus B}(x) = \mu_{A \setminus B}(x) \vee \mu_{B \setminus A}(x)$ ko`rinishdagi to`plam.

Misol. Aytaylik, $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4\}, M = [0,1]$.

$$\begin{aligned} A = & \{(x_1|0.25), (x_2|0.73), (x_3|1), (x_4|0)\}. \\ B = & \{(x_1|0.35), (x_2|0.87), (x_3|0), (x_4|1)\}. \end{aligned}$$

$$1) \quad \overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x) \quad \text{asosan}$$

$$\overline{B} = \overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x) = \{(x_1|0.65), (x_2|0.13), (x_3|1), (x_4|0)\}$$

$$\text{Endi } A \setminus B = \{<\mu_{A \setminus B}(x)>/x\} = \mu_{A \setminus B}(x) = \mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)} = \min(\mu_A(x), \overline{\mu_B(x)})$$

asosan

$$\mu_{A \setminus B}(x) = A \setminus B = \{(x_1|0.25), (x_2|0.13), (x_3|1), (x_4|0)\}.$$

2) $\overline{\mu_A(x)} = 1 - \mu_A(x)$ asosan

$$\overline{A} = \overline{\mu_A(x)} = 1 - \mu_A(x) = \{(x_1 | 0.75), (x_2 | 0.27), (x_3 | 0), (x_4 | 1)\}.$$

Endi $B \setminus A = \{\langle \mu_{B \setminus A}(x) \rangle / x\} = \mu_{B \setminus A}(x) = \mu_B(x) \wedge \overline{\mu_A(x)} = \min(\mu_B(x), \overline{\mu_A(x)})$

asosan

$$\mu_{B \setminus A}(x) = B \setminus A = \{(x_1 | 0.35), (x_2 | 0.27), (x_3 | 0), (x_4 | 1)\}.$$

3) $\mu_{A \oplus B}(x) = \mu_{A \setminus B}(x) \vee \mu_{B \setminus A}(x)$ va $\mu_A(x) \vee \mu_B(x) = \max(\mu_A(x), \mu_B(x))$

formulalarga asosan

$$\mu_{A \oplus B}(x) = \mu_{A \setminus B}(x) \vee \mu_{B \setminus A}(x) = \{(x_1 | 0.35), (x_2 | 0.27), (x_3 | 1), (x_4 | 1)\}.$$

Algebraik (diz'yunktivli) yig'indi. U to'plamdag'i ikkita A va B

NoTostilarining algebraik (diz'yunktivli) yig'indisi $A \oplus B$ birlashma va kesishma amallari yordamida quyidagicha aniqlanadi:

$$A \oplus B = (A \cap B) = (A \cap B) \cup (A \cap B) = \mu_A(u) + \mu_B(u) - \mu_A(u) \times \mu_B(u).$$

Misol. $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}$,

$$A = \{(x_1 | 0.4), (x_2 | 0.8), (x_3 | 0), (x_4 | 1), (x_5 | 0.3)\},$$

$$B = \{(x_1 | 0.6), (x_2 | 0.6), (x_3 | 0), (x_4 | 0), (x_5 | 0.7)\},$$

$$A \oplus B = \{(x_1 | 0.76), (x_2 | 0.92), (x_3 | 0), (x_4 | 1), (x_5 | 0.79)\}.$$

Topshiriqlar. Quyidagilar berilgan: $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}$,

$$A = \{(x_1 | 0.2), (x_2 | 0.4), (x_3 | 1), (x_4 | 0), (x_5 | 0.6)\},$$

$$B = \{(x_1 | 0.4), (x_2 | 0.2), (x_3 | 0), (x_4 | 1), (x_5 | 0.8)\}.$$

A va B NoTostilari ustida $A \setminus B$, $A \Theta B$, $A \cup B$, $A \cap B$, $\sim A = B$, $\sim B = A$, $A \subset B$, $A = B$, $A \times B$, $A \oplus B$ amallarini bajaring?

To`plamlarni noravshan kiritish (qo`sish) amali. A_1 NoTni A_2

NoTga kiritish darajasi

$$\nu(A_1, A_2) = \bigwedge_{x \in X} (\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x))$$

qiymat bilan belgilanadi. Bu yerda \rightarrow (implikatsiya) amali quyidagi:

- Lukasevich mantiqi bo`yicha $\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x) = 1 \wedge (1 - \mu_{A_1}(x) + \mu_{A_2}(x))$;

- Zade mantiqi bo`yicha

$$\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x) = (1 - \mu_{A_1}(x)) \vee (\mu_{A_1}(x) \wedge \mu_{A_2}(x));$$

- Mamdani mantiqi bo`yicha

$$\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x) = \mu_{A_1}(x) \wedge \mu_{A_2}(x) = \min(\mu_{A_1}(x), \mu_{A_2}(x));$$

qidalar yordamida belgilanadi.

Misol. Asosiy $X = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}$ to'plamda NoTostilari

$$A_1 = \{<0.3/x_2>, <0.6/x_3>, <0.4/x_5>\} \text{ va}$$

$$A_2 = \{<0.8/x_1>, <0.5/x_2>, <0.7/x_3>, <0.6/x_5>\}$$

berilgan bo'lsin. Shu NoTostilarining kiritish va tenglik darajasi qiymatlarini topish talab etiladi.

Lukasevich mantiqidan foydalangan holda quyidagi natijalarni olamiz:

a) kiritish darajasi qiymatlari

$$\begin{aligned} v(A_1, A_2) &= (0 \rightarrow 0.8) \wedge (0.3 \rightarrow 0.5) \wedge (0.6 \rightarrow 0.7) \wedge (0 \rightarrow 0) \wedge (0.4 \rightarrow 0.6) = \\ &= (1 \wedge (1 - 0 + 0.8)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.3 + 0.5)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.6 + 0.7)) \wedge (1 \wedge (1 - 0 + 0)) \wedge \\ &\quad \wedge (1 \wedge (1 - 0.4 + 0.6)) = 1 \wedge 1 \wedge 1 \wedge 1 \wedge 1 = 1; \\ v(A_2, A_1) &= (0.8 \rightarrow 0) \wedge (0.5 \rightarrow 0.3) \wedge (0.7 \rightarrow 0.6) \wedge (0 \rightarrow 0) \wedge (0.6 \rightarrow 0.4) = \\ &= (1 \wedge (1 - 0.8 + 0)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.5 + 0.3)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.7 + 0.6)) \wedge (1 \wedge (1 - 0 + 0)) \wedge \\ &\quad \wedge (1 \wedge (1 - 0.6 + 0.4)) = 0.2 \wedge 0.8 \wedge 0.9 \wedge 1 \wedge 0.8 = 0.2. \end{aligned}$$

NoTlarning tengligi amali. A_1 NoTni A_2 NoTga tenglik darajasi

$$\mu(A_1, A_2) = \bigwedge_{x \in X} (\mu_{A_1}(x) \leftrightarrow \mu_{A_2}(x))$$

qiymat bilan belgilanadi. Bu yerda \leftrightarrow tenglik (ekvivalentlik) amali

$$\mu_{A_1}(x) \leftrightarrow \mu_{A_2}(x) = (\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x)) \wedge (\mu_{A_2}(x) \rightarrow \mu_{A_1}(x))$$

yordamida belgilanadi.

$v(A_1, A_2)$ noravshan kiritish ifodani inobatga olgan holda

$$\mu(A_1, A_2) = v(A_1, A_2) \wedge v(A_2, A_1)$$

hosil qilamiz.

Misol. Yuqoridagi misolda Lukasevich mantiqidan foydalangan holda quyidagi kiritish darajasi va qiymatlari $v(A_1, A_2) = 1$ va $v(A_2, A_1) = 0.2$ aniqlangan edi. Bulardan foydalanib endi tenglik darajasi qiymatini aniqlaymiz : $\mu(A_1, A_2) = v(A_1, A_2) \wedge v(A_2, A_1) = 1 \wedge 0.2 = 0.2$.

Odatda quyidagilar faraz qilinadi:

a) Agar $v(A_1, A_2) \geq 0.5$, u holda A_1 noravshan sifatida A_2 kiritiladi, yani $A_1 \subset_{\approx} A_2$, aks holda A_1 noravshan sifatida A_2 kiritilmaydi (yani $A_1 \not\subseteq A_2$). Shuni ta'kidlash kerakki, v va μ qiymatlar $[0,1]$ oraliqda o'zgaradi.

b) Agar $v(A_1, A_2) \geq 0.5$, u holda A_1 va A_2 noravshan sifatida teng, yani $A_1 \approx A_2$, aks holda noravshan sifatida (agar $v(A_1, A_2) \leq 0.5$) teng emas, yani $A_1 \not\approx A_2$ qabul qilinadi. $\mu(A_1, A_2) = 0.5$ - holatda A_1 va A_2 o'zaro indifferentli, yani $A_1 \approx A_2$ - ham teng, ham teng emas bo'ladi.

Keltirilgan misolda: $A_1 \subset_{\approx} A_2$, $A_2 \not\subset_{\approx} A_1$, $A_1 \not\approx A_2$.

Topshiriq. $\nu(A_1, A_2)$, $\nu(A_2, A_1)$ va $\mu(A_1, A_2)$ qiymatlarni Zade va Mamdani formulalar bo`yicha hisoblang?

NoTlar orasidagi masofa. Matematikada $d(x, y)$ masofa deganda, yani U to'plamda elementlar juftligi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi qiymatga aytildi:

- $$\forall x, y, z \in U:$$
- 1) $d(x, y) \geq 0$ - manfiymaslik;
 - 2) $d(x, y) = d(y, x)$ - simmetriklik;
 - 3) $d(x, z) \leq d(x, y) * d(y, z)$ - tranzitivlik;
 - 4) $d(x, z) = 0$:

Bu yerda $*$ operator Xemming masofasi tushunchasi bilan bog'liq bo'lib haqiqiy masofani bildiradi, agar operator $*$ = + bo'lsa, u holda u odatdag'i yig'indi hisoblanadi.

U to'plamdag'i ikkita A va B NoTostilar orasidagi Xemmimng masofasi

$$d(A, B) = \sum_{i=1}^n |\mu_A(u_i) - \mu_B(u_i)|$$

aniqlanadi. **Misol.**

	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7
A=	1	0	0	1	0	1	1
B=	0	1	0	0	0	1	1

$$d(A, B) = |1 - 0| + |0 - 1| + |0 - 0| + |1 - 0| + |0 - 0| + |1 - 1| + |0 - 1| = 1 + 1 + 0 + 1 + 0 + 0 + 1 = 4.$$

n quvvatga ega bo'lgan chekli U to'plamdag'i ikkita A va B NoTostilar orasidagi Xemmimng masofasi

$$\delta(A, B) = \left(\frac{1}{n}\right) d(A, B)$$

aniqlanadi.

Misol. Yuqoridagi misoldan $\delta(A, B) = d(A, B)/7 = 4/7$.

NoTlar uchun umumlashgan Xemmimng masofasi tushunchasini uchta (A , B , C) $\subset U$ to'plamostilarini qaraymiz, bu yerda U -n quvvatli chekli to'plam.

	u_1	u_2	u_3	...	u_n
A=	a_1	a_2	a_3	...	a_n
B=	b_1	b_2	b_3	...	b_n
C=	c_1	c_2	c_3	...	c_n

Aytaylik, a_i va b_i ($i = \overline{1, n}$) uchun $D(a_i, b_i)$ ($i = \overline{1, n}$), b_i va c_i ($i = \overline{1, n}$) uchun $D(b_i, c_i)$ ($i = \overline{1, n}$) va a_i va c_i ($i = \overline{1, n}$) uchun $D(a_i, c_i)$ ($i = \overline{1, n}$)

$\overline{1, n}$) aniqlangan bo'lsin. U holda ushbu masofalar uchun quyidagi tengsizlik o'rini:

$$\forall i = 1, 2, \dots, n; D(a_i, c_i) \leq D(a_i, b_i) \leq D(b_i, c_i).$$

Buni quyidagicha yozish mumkin:

$$\sum_{i=0}^n D(a_i, c_i) \leq \sum_{i=0}^n D(a_i, b_i) + \sum_{i=0}^n D(b_i, c_i),$$

$$\sqrt{\sum_{i=0}^n D^2(a_i, c_i)} \leq \sqrt{\sum_{i=0}^n D^2(a_i, b_i)} + \sqrt{\sum_{i=0}^n D^2(b_i, c_i)}.$$

Bu ikkita formulalar NoTostilar orasidagi masofaning bahosini beradi: birinchisi -chiziqli, ikkinchisi esa-kvadratikli baholar.

NoTostilari orasidagi masofalarni hisoblashda qo'llaniladigan ma'lum formulalar 3.3-jadvalda keltirilgan [24].

3.3-jadval. Universal U to'plamda NoTostilari uchun masofalarni hisoblash formulalari.

Masofalar turi	UT turi	Masofalarni hisoblash formulalari
Xemming	$ U =n$	$d(A, B) = \sum_{i=0}^n \mu_A(u_i) - \mu_g(u_i) $
Xemming	$U \subseteq R^I$	$d(A, B) = \int_u \mu_A(u) - \mu_g(u) du$
Xemmingga nisbatan	$U \subseteq R^I$	$\delta(A, B) = \frac{1}{ U } \int_u \mu_A(u) - \mu_g(u) du$
Evklid	$ U =n$	$l(A, B) = \sqrt{\sum_{i=0}^n (\mu_A(u_i) - \mu_g(u_i))^2}$
Evklidga nisbatan	$ U =n$	$\varepsilon(A, B) = \frac{1}{\sqrt{n}} \sqrt{\sum_{i=0}^n (\mu_A(u_i) - \mu_g(u_i))^2}$

Xemmingga nisbatan	$ U =n$	$\delta(A, B) = \frac{1}{n} \sum_{i=0}^n (u_i) - \mu_g(u_i) $
Evklid	$U \subseteq R^I$	$l(A, B) = \sqrt{\int_u \mu_A(u) - \mu_g(u)^2 du}$
Evklidga nisbatan	$U \subseteq R^I$	$\varepsilon(A, B) = \frac{1}{\sqrt{ U }} \sqrt{\int_u \mu_A(u) - \mu_g(u)^2 du}$

Masofa tushunchasidan to'plamning *noravshanlik darajasini* o'lchash uchun foydalaniladi. *Noravshanlik o'lchovi*-bu protseduralar, qaror qabul qilish, timsollarni anglash va h.k. larda sifatni baholash parametridir. Masofalarni aniqlashning keltirilgan formulalarini NoTga yaqin bo'lgan odatdagi to'plamostilar uchun qo'llanilishiga oddiy misollar keltiramiz. Xulosa qiladigan bo'lsak, A ravshan to'plam Xemming masofasi bo'yicha NoTga juda yaqin joylashgan bo'ladi (yoki juda kichik normaga ega bo'ladi).

NoTlar uchun noravshanlik darajasi aniqlangan bo'lsa, u holda quyidagi mansublik qoidasi asosida NoTdan ravshan to'plamni hosil qilish mumkin:

$$\mu_A = \begin{cases} 0, & \text{agar } \mu_A(u_i) < 0.5, \\ 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) \geq 0.5. \end{cases}$$

Misol.

Noravshan to'plam	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7	u_8
	0.2	0.8	0.5	0.3	1	0	0.9	0.4
Ravshan to'plam	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7	u_8
	0	1	0	0	1	0	1	0

a-pog'onali to'plamosti. Aytaylik $\alpha \in [0,1]$; A NoTostining α -pog'onali to'plamosti deb- $A_\alpha = \{x | \mu_A(x) \geq \alpha\}$ NoTostiga aytiladi.

Misol. Aytaylik, A NoTosti berilgam bo'lsin.

	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7
A=	0.4	0.2	0	0.5	0.3	0.7	0.9

A NoTostiga α -pog'onali to'plamostini qo'llab $A_{0.3}$ va $A_{0.6}$ ravshan to'plamostilariga ega bo'lamiz:

	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7
$A_{0.3} =$	1	0	0	1	1	1	1
$A_{0.6} =$	0	0	0	0	0	1	1

3.5. Noravshan munosabatlar

Munosabat tushunchasi matematikada va SITlarida: timsollarni anglashda, murakkab tizimlarni loyihalashda, xulosalashlarda, BBni shakllantirish tizimlarida, tahlilda, boshqarishda, modellashtirishda, qaror qabul qilishda va h.k. larda muhim ahamiyatga ega. Bularni NoTlar holi uchun ham umumlashtirish mumkin. Buning uchun qandaydir yangi xossalarni topish kerak bo'ladi. Masalan, “ekvivalent sind” tushunchasini “o’xshaydigan sind” tushunchasiga qat’iy ma’noda emas, balkim ko’pchilik ilovalar uchun umumiylar ma’noga egaligiga qarab almashtirish mumkin. Oldingi tartib va tartib qiyoslash yo’li bilan umumlashtiriladi, o’xshashlik va o’xshashmaslik munosabatlari aniqlanadi va h.k.

Noravshan *implikatsiya* va *kompozitsiya* amallari noaniqlik sharoitlarida qarorlarni qabul qilishda noravshan munosabat qiymatlarni topish va noravshan mantiqiy xulosalarni shakllantirish uchun asosiy bo`lib hisoblanadi [11, 16, 19, 24].

Faraz qilaylik, $E = E_1 x E_2 x \dots E_n x - E_i, i = \overline{1, n}$ universal to`plamlarning dekart ko`paytmasi va $M = [0, 1]$ - qandaydir MFlar to`plami bo`lsin. U holda noravshan juftli munosabat o`zining qiymatlarini M to`plamdan oladigan E to`plamning R *qism to`plami* deb ataladi.

$n = 2$ va $M = [0, 1]$ bo`lganda, masalan $X = E_1$ va $Y = E_2$ to`plamlar o`rtasidagi noravshan munosabat (NM) har bir $(x, y) \in X \times Y$ elementlar juftiga $\mu_R(x, y) \in [0, 1]$ qiymatni muvofiqlashtiradigan $R : (X, Y) = [0, 1]$ funksiya bilan ifodalanadi.

$X \times Y$ to`plamda beriladigan NM $x \in X, y \in Y : xRy$ tavsiflanadi. Bunday munosabat *binar (ikkili) munosabat deb ataladi*. Agar $X = Y$ bo`lsa, u holda $R : X \times X \rightarrow [0, 1]$ X to`plamda berilgan NM deb nomланади.

NMlar *matritsa* yoki *graf* ko`rinishda beriladi. X to`plamdagagi R noravshan binar munosabat - bu $X \times X$ ko`paytmaning $\mu_R : X \times X \rightarrow [0, 1]$ MFsi bilan ifodalanadigan qism to`plamidir. Aniq $(x_i, x_j) \in X \times X$ o`zgaruvchilar jufti uchun $\mu_R(x_i, x_j)$ qiymati $x_i Rx_j$ munosabat to`g`irlilik darajasini belgilaydi.

Kichik va cheklangan X da R NMning M(R) kvadrat matritsa


ko`rinishida berilishi qulay hisoblanadi. Bu matritsaning ustun va satrlari $x \in X$ elementlar bilan belgilanadi, yani satr x_i , ustun x_j bilan, elementlari esa $r_{ij} = \mu_R(x_i, x_j)$ qiymat bilan aniqlanadi.

Misol. $X = \{1, 3, 5, 7, 9\}$ ko`rinishdagi asosiy to`plam berilgan. Bu X to`plamda R - “Ancha katta” munosabatni topish kerak. Ekspert xulosalari bo`yicha bu munosabatning matritsasi 3.5-rasmdagi ko`rinishda bo`ladi.

	1	3	5	7	9
1	0	0	0	0	0
3	0.2	0	0	0	0
5	0.5	0.1	0	0	0
7	0.8	0.4	0	0	0
9	1	0.8	0.5	0	0

3.5-rasm.

Bu munosabat $G = (X, U)$ graf ko`rinishda beriladi. Bu yerda $X = x_1, x_2, \dots, x_n$ - uchlar to`plami, $U = \{\langle \mu_R(x_i, x_j) / (x_i, x_j) \rangle\}$, $\mu_R(x_i, x_j) > 0$, $x_i, x_j \in X$ - yo`naltirilgan (x_i uchdan x_j uchga) noravshan yoylar to`plami. Misolda keltirilgan R -“Ancha katta” munosabatni aks etadigan graf 3.6-rasmda keltirilgan.



3.6 - rasm. R - “ancha katta” munosabatni aks etadigan graf.


Misol. $X = \{x_1, x_2, x_3\}, Y = \{y_1, y_2, y_3, y_4\}$ berilgan to`plamlar va R munosabatning $\mu_R(x_i, y_j)$ MFlari 3.4-jadvaldagidek bo`ladi.

3.4-jadval.

	y_1	y_2	y_3	y_4
x_1	0	0	0.1	0.3
x_2	0	0.8	1	0.7
x_3	1	0.5	0.6	1

Bu jadvalda satr nomlari - X to`plam o`zgaruvchilari bilan, ustunlari esa - Y to`plam o`zgaruvchilari bilan belilangan. Jadvalning elementlarida MFning $m_{ij} = \mu_R(x_i, y_j)$, $m_{ij} \in M = [0,1]$ qiymatlari ko`rsatilgan.

$R = X \times Y$ munosabatning graf ko`rinishdagi ifodasi 3.7-rasmda keltirilgan.



3.7 - rasm. $R = X \times Y$ munosabatning graf ko`rinishdagi ifodasi.

Bu yerda uchlar - $x \in X$, $y \in Y$ to`plamlar elementlari, yoylar esa - X va Y o`rtasidagi NMlarni aks ettiradi. Yoylarning qiymatlari $\mu_R(x_i, y_j)$ tegishli qiymatlarga mos bo`ladi.

$X R Y$ ifoda - bu to`g`rilik darajasining qiymati $\mu_R(x, y)$ ga teng bo`lgan noravshan mantiqiy mulohazadir. Shuning uchun aniq R munosabatni tafsivlash uchun X va Y o`zgaruvchilardan bog`liq bo`lgan aniq noravshan mantiqiy formulani yoki $X \times Y$ to`plamda $[0,1]$ oraliqdagi qiymatlarga ega bo`lgan noravshan predikatni berish kerak. Bu formulalar noravshan mantiqiy amallar (birlashtirish, kesishish, qo`shimcha/noravshan inkor, implikatsiya) kombinatsiyalari yordamida qurilishi mumkin.

Mantiqiy xulosa chiqarishlarni hosil qilishda ko`pincha $R = X \rightarrow Y$ implikatsiya turdagи munosabatdan foydalaniladi. U “Agar ..., u holda” mahsuliy(produktsiya) qoidasini aks ettiradi. Ular quyida keltiriladigan Zade, Lukasevich yoki Mamdani qoidalari bo`yicha belgilanadi [11, 16, 19, 24].

Dastlabki shartlar va yakuniy xulosalar to`plamlari o`rtasidagi bunday NMlar $X \times Y$ ko`paytma ko`rinishda beriladi. Uning qiymati

$$R = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m \left\{ \left(\mu_R(x_i, y_j) / (x_i, y_j) \right) \right\},$$

bo`yicha belgilanadi, bu yerda $\{x_i\} \in X$ - shartlar to`plami, $\{y_j\} \in Y$ - xulosalar to`plami, $\mu_R(x_i, y_j) \in [0,1]$ - (x_i, y_j) elementlarning R NMga nisbatan MFsi, \sum - to`plamlarni birlashtirishni (yig`indisini emas) anglatadi.

Agar $A \in X$ va $B \in Y$ to`plamlar berilgan bo`lsa, u holda $R = A \rightarrow B$ NoT :

$$R = A \times B = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m \left\{ \left(\mu_A(x_i) \wedge \mu_B(y_j) / (x_i, y_j) \right) \right\}$$

yoki Mamdani qoidasi bo`yicha

$$\mu_R(x, y) = \mu_A(x) \wedge \mu_B(y) = \min(\mu_A(x), \mu_B(y))$$

qurilishi mumkin.

Misol. Aytaylik X va Y - 1dan 4gacha natural sonlar bo`lsin, yani $X = Y = \{1, 2, 3, 4\}$. Bu to`plamlarda " A -kichik" va " B -katt'd" NoTlar belgilangan, masalan

$$A = \{\mu_A(x_i) / (x_i)\} = \{(1/1), (0,6/2), (0,1/3), (0/4)\};$$

$$B = \{\mu_B(y_j) / (y_j)\} = \{(0/1), (0,1/2), (0,6/3), (1/4)\}$$

ko`rinishlarda berilgan bo`lsin.

Bu holatda, masalan, "Agar X kichik bo`lsa, u holda Y katta", yani $R = A \rightarrow B$ munosabatni (bu yerda \rightarrow - noravshan implikatsiya) quyidagicha qurish mumkin.

Avval y_j ustun va x_i satrlardan iborat *matritsa* quriladi. Keyin matritsa elementlarining $\mu_R(x_i, y_j)$ qiymatlari o`rnataladi. Bu qiymatlar $\mu_A(x_i)$ ni $\mu_B(y_j)$ ga ko`paytirish (yuqorida keltirilgan $\min(\mu_A(x), \mu_B(y))$ amalidan foydalanib) yo`li bilan hosil qilinadi.

Natijada R munosanat jadvalini 3.5-jadval ko`rinishida hosil qilamiz.

3.5-jadval.

	y_1	y_2	y_3	y_4
x_1	0	0.1	0.6	1
x_2	0	0.1	0.6	0.6
x_3	0	0.1	0.1	0.1
x_4	0	0	0	0

Bu yerda $X = \{x_1, x_2, x_3, x_4\} = \{1, 2, 3, 4\}$; $Y = \{y_1, y_2, y_3, y_4\} = \{1, 2, 3, 4\}$.

Aytaylik $U_1 = \{x\}$ va $U_2 = \{y\}$ odatdagি to`plamlar bo`lsin. U_1 va U_2

to'plamlarning to'g'ri ko'paytmasi $U_1 \times U_2$ tartiblangan juftliliklar (x, y), yani $U_1 \times U_2 = \{(x; y) : x \in U_1; y \in U_2\}$ to'plamidan iborat bo'ladi.

Aytaylik M -MFlar to'plami bo'lsin. U holda $\forall (x, y) \in U_1 \times U_2; R(x, y) \in M$ NoTdan iborat R NoT $U_1 \times U_2$ Utlarda binary munosabat deb ataladi [37, 60, 80].

Misol. Bizga $U_1 = \{x_1, x_2, x_3\}$, $U_2 = \{y_1, y_2, y_3, y_4, y_5\}$, $M = [0, 1]$ bo'lsin. U holda noravshan binar munosabatni sub'yektiv ravishda 3.6-jadval ko'rinishda berish mumkin:

3.6-jadval.

	y_1	y_2	y_3	y_4	y_5
x_1	0	0	0.1	0.3	1
x_2	0	0.8	0	0	1
x_3	0.4	0.4	0.5	0	0.2

Umumlashtirib, noravshan n -juftli munosabatni, yani $P_n = U_1 \times U_2 \times \dots \times U_n$ da NoTni hosil qilamiz.

Endi exstremumni belgilash uchun quyidagi simvollardan foydalanamiz:

\bigvee_x - x element yoki o'zgaruvchiga nisbatan maksimum;

\bigwedge_x - x element yoki o'zgaruvchiga nisbatan minimum;

U holda

$$\mu_l(x) = \bigvee_y \mu(x, y) = \max_y \mu(x, y) \text{ va } \mu_u(x) = \bigwedge_y \mu(x, y) = \min_y \mu(x, y).$$

NMning proyeksiyalari. R ning birinchi proyeksiyasi quyidagi MFsini aniqlaydi [16, 19]:

$$\mu_R^{(1)}(x) = \bigvee_y \mu_R(x, y).$$

R ning ikkinchi proyeksiyasi esa quyidagi MFsini aniqlaydi:

$$\mu_R^{(2)}(x) = \bigwedge_y \mu_R(x, y).$$

Birinchi proyeksiyalarning ikkinchi proyeksiyasini (yoki teskarisini) NMning global proyeksiyasi deb ataymiz va h(R) bilan belgilaymiz:

$$h(R) = \bigvee_x \bigvee_y \mu_R(x, y) = \bigvee_y \bigvee_x \mu_R(x, y)$$

Misol. R matritsani beramiz va NMning birinchi, ikkinchi va global proyeksiyalarini hisoblaymiz (3.8-rasm).

	y_1	y_2	y_3	y_4	1-proyeksiya
x_1	0.3	0.6	0	0.5	0.6
x_2	0.7	0.8	0.4	0.1	0.8
x_3	1	0.5	0.7	0.6	1
x_4	0.8	0.1	0.3	0	0.8
	2-proyeksiya			Global proyeksiya	
	1	0.8	0.7	0.6	1

3.8-rasm. NMning proyeksiyalarini hisoblash.

Ikkita NMning kompozitsiyasi. $X \times Y$ dagi R_1 va $Y \times Z$ dagi R_2 NMlarning kompozitsiya amali $X \times Z$ da NMni aniqlashga imkon beradi.

Max-min kompozitsiya. Aytaylik $R_1 \subset X \times Y$ va $R_2 \subset Y \times Z$ bo'lsin. R_1 va R_2 munosabatlarning "max-min" - kompozitsiyasi $R_1 \circ R_2$ shaklda belgilanadi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi [37, 60, 80]:

$$\mu_{R_1 \circ R_2}(x, z) = \bigvee_y [\mu_{R_1}(x, y) \wedge \mu_{R_2}(y, z)] = \max[\min(\mu_{R_1}(x, y), \mu_{R_2}(y, z))].$$

Bu yerda $x \in X, y \in Y, z \in Z$.

Misol. Aytaylik $\mu_{R_1}(x, y), \mu_{R_2}(y, z)$ MFlari chegaralangan $x \in X, y \in Y, z \in Z$ UTda R_1 va R_2 jadvallar ko'rinishda berilgan bo'lsin. R_1 va R_2 munosabatlarning $R_1 \circ R_2$ "max-min" – kompozitsiyasini aniqlaymiz (3.9-rasm).

R_1		y_1	y_2	y_3	y_4	R_2		z_1	z_2	z_3	z_4
	x_1	0.3	0.5	1	0		y_1	0.9	0.4	0	1
	x_2	0.6	0.7	0	0.2		y_2	0.3	0.5	1	0.4
	x_3	0.8	0	1	0.1		y_3	0.6	1	0	0.3
							y_4	0.4	0	1	0.7

$R_1 \circ R_2$		z_1	z_2	z_3	z_4
	x_1	0.6	1	0.5	0.4
	x_2	0.6	0.5	0.7	0.6
	x_3	0.8	0.4	1	0.8

3.9-rasm.

Max-min

kompozitsiyani hisoblashga misol.

3.9-rasmdagi R_1 va R_2 munosabatlarning matritsalar bilan berilgan qiymatlaridan foydalanib $R_1 \circ R_2$ kompozitsiya quyidagicha hisoblanadi:

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_1)) = \min(0.3, 0.9) = 0.3;$$

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_1)) = \min(0.5, 0.3) = 0.3;$$

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_1)) = \min(1, 0.6) = 0.6;$$

$$\begin{aligned}
& \min(\mu_{R_1}(x_1, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_1)) = \min(0, 0.4) = 0; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.3, 0.3, 0.6, 0) = 0.6. \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_2)) = \min(0.3, 0.4) = 0.3; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_2)) = \min(0.5, 0.5) = 0.5; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_2)) = \min(1, 1) = 1; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_2)) = \min(0, 0) = 0; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.3, 0.5, 1, 0) = 1. \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_3)) = \min(0.3, 0) = 0; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_3)) = \min(0.5, 1) = 0.5; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_3)) = \min(1, 0) = 0; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_3)) = \min(0, 1) = 0; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0, 0.5, 0, 0) = 0.5. \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_4)) = \min(0.3, 1) = 0.3; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_4)) = \min(0.5, 0.4) = 0.4; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_4)) = \min(1, 0.3) = 0.3; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_1, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_4)) = \min(0, 0.7) = 0; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.3, 0.4, 0.3, 0) = 0.4. \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_1)) = \min(0.6, 0.9) = 0.6; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_1)) = \min(0.7, 0.3) = 0.3; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_1)) = \min(0, 0.6) = 0; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_1)) = \min(0.2, 0.4) = 0.2; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.6, 0.3, 0, 0.2) = 0.6. \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_2)) = \min(0.6, 0.4) = 0.4; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_2)) = \min(0.7, 0.5) = 0.5; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_2)) = \min(0, 1) = 0; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_2)) = \min(0.2, 0) = 0; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.4, 0.5, 0, 0) = 0.5. \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_3)) = \min(0.6, 0) = 0; \\
& \quad \min(\mu_{R_1}(x_2, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_3)) = \min(0.7, 1) = 0.7;
\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
& \min(\mu_{R_1}(x_2, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_3)) = \min(0, 0) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_2, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_3)) = \min(0.2, 1) = 0.2; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0, 0.7, 0, 0.2) = 0.7. \\
& \min(\mu_{R_1}(x_2, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_4)) = \min(0.6, 1) = 0.6; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_2, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_4)) = \min(0.7, 0.4) = 0.4; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_2, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_4)) = \min(0, 0.3) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_2, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_4)) = \min(0.2, 0.7) = 0.2; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.6, 0.4, 0, 0.2) = 0.6. \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_1)) = \min(0.8, 0.9) = 0.8; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_1)) = \min(0, 0.3) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_1)) = \min(1, 0.6) = 0.6; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_1)) = \min(0.1, 0.4) = 0.1; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.8, 0, 0.6, 0.1) = 0.8. \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_2)) = \min(0.8, 0.4) = 0.4; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_2)) = \min(0, 0.5) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_2)) = \min(1, 1) = 1; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_2)) = \min(0.1, 0) = 0; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.4, 0, 1, 0) = 0.4. \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_3)) = \min(0.8, 0) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_3)) = \min(0, 1) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_3)) = \min(1, 0) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_3)) = \min(0.1, 1) = 0.1; \\
& \max_{y_i} [\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0, 0, 0, 0.1) = 1. \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_1), \mu_{R_2}(y_1, z_4)) = \min(0.8, 1) = 0.8; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_2), \mu_{R_2}(y_2, z_4)) = \min(0, 0.4) = 0; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_3), \mu_{R_2}(y_3, z_4)) = \min(1, 0.3) = 0.3; \\
& \min(\mu_{R_1}(x_3, y_4), \mu_{R_2}(y_4, z_4)) = \min(0.1, 0.7) = 0.1;
\end{aligned}$$

$$\max_{y_i}[\min(\mu_{R_1}(x_i, y_i), \mu_{R_2}(y_i, z_i))] = \max(0.8, 0, 0.3, 0.1) = 0.8.$$

Natijalar 3.9 rasmdagi $R_1 \circ R_2$ jadvalda keltirilgan.

Noravshan binar munosabatlarning ba’zi bir tiplarini keltiramiz.

- 1) Tranzitivki va refleksivli noravshan binar munosabat- oldindan tartiblangan NM deyiladi.
- 2) Oldindan tartiblangan noravshan antisimmetrikli munosabat-tartiblangan NM deyiladi.
- 3) Tranzitivli, refleksivli va simmetrikli noravshan binar munosabat-o’xshashlik munosabati deyiladi.
- 4) Antirefleksivlik, simmetriklik va (min-max) – tranzitivlik xossalariiga ega bo’lgan noravshan binar munosabat -farqlovchi munosabat deyiladi.

4-§. Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari

Noravshan mantiqiy xulosalash tizimlari ko’psonli NoTlar ilovalarida (ETlar, BBni avtomatik boshqarish tizmlari, timsollarni anglash, murakkab tizimlarni loyihalash, NTlar, qaror qabul qilish tizimlari, tabiiy tilni tushunish va h.k.) muhim ahamiyatga ega.

Bunday tizmlarnining ko’pchiligi noravshan dalillar va xulosalardan iborat «Agar . . . , u holda . . . » ko’rinishdagi mantiqiy qoidaga asoslanadi.

“Modus ponens” asosida noravshan xulosalash. Odatdagi mantiqda “Modus ponens”- $\frac{A, A \rightarrow B}{B}$ asosida xulosalash qoidasi ma’lum [16, 19]:

1-dalil: agar x bu A bo’lsa, u holda y bu B bo’ladi;

2-dalil: x bu A bo’lsa;

Oqibat: y bu B bo’ladi.

Bu yerda x , y -obyektlar nomi, A , B - mos ravishda U va V xulosalash sohalaridagi tushunchalarni bildiradi.

Misol.

1-dalil: agar olma shirin bo’lsa, u holda olma pishgan;

2-dalil: bu olma shirin;

Oqibat: bu olma pishgan.

Ushbu qoidalarni sabablari noravshan tushunchalardan iborat bo’lgan hol uchun quyidagicha yozish mumkin:

1-dalil: agar x bu A bo’lsa, u holda y bu B bo’ladi;

2-dalil: x bu A^I bo’lsa;

Oqibat: y bu B^I bo’ladi.

Misol.

1-dalil: agar olma shirin bo'lsa, u holda olma pishgan;

2-dalil: bu olma juda shirin;

Oqibat: bu olma juda pishgan.

Biz $A^l = A$ и $B^l = B$ bo'lganda odatdagi "Modus ponens" ni va oxirgi misolda esa umumlashgan "Modus ponens" hosil qilamiz.

Qaror qabul qilish (QQQ) tizimlarida boshqaruv qarorlarining xususiyati va qiymatlari R munosabatni chiqarishning *kompozitsiya qoidasi* asosida belgilanadi. Formal ko`rinishda bunday QQQ modeli (X, R, Y) uchligi bilan beriladi. Bu yerda $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$, $Y = \{y_1, y_2, \dots, y_m\}$ - A_i kirishlar va B_j chiqishlar bilan berilgan asosiy to`plamlar, R - "Kirish - chiqish" NMi.

Odatda R munosabat ekspert tomonidan so`z bilan ifodalangan va keyinchalik formallashtirilgan sifatli axborot asosida quriladi. Ekspert axborotlari "Agar A_1 , u holda B_1 , yoki Agar A_2 , u holda B_2 , ..., yoki Agar A_n , u holda B_n " shaklidagi mulohazalar yig`indisi ko`rinishda ifodalanadi. Bu yerda A_i, B_i - tegishli $\mu_{A_i}(x)$, $\mu_{B_i}(y)$, $x \in X$, $y \in Y$ MFlari bilan beriladigan kirish va chiqishga ega bo`lgan NoTlar. $R_i = \langle\langle \text{Agar } A_i, u \text{ holda } B_i \rangle\rangle$ qoidasi $\mu_{R=A_i \rightarrow B_i}(x, y)$ MFsi bilan belgilanadi. Uning qiymati yuqorida keltirilgan formula yordamida topiladi. "Yoki" bog`lamasi R_i qoidalari yig`indisini birlashtiradi va natijada umumlashtirilgan yakuniy R qoidasi

$$R = \bigcup_i R_i = \max_i (\min(\mu_{A_i}(x), \mu_{B_i}(y))) \quad i = \overline{1, n}$$

hosil bo`ladi.

Agar joriy vaqt uchun tizimning kirish holati aniq A' qism to`plam bilan belgilangan va umumiyligi R boshqaruv qarori ma'lum bo'lsa, u holda ushbu R qarorning tizimni kirishiga ta'siri natijasi $B' = A' \circ R$ chiqarishning kompozitsiya qoidasi yordamida belgilanadi. Bu holatda $\mu_{B'}(y)$ qiymatlari yuqorida keltirilgan maksminli amali

$$\begin{aligned} \mu_{B'}(y) &= \bigvee_X (\mu_{A'}(x) \wedge \mu_R(x, y)) = \bigvee_X (\mu_{A'}(x) \wedge (\mu_A(x) \wedge \mu_B(y))) = \\ &= (\bigvee_X (\mu_{A'}(x) \wedge \mu_A(x))) \wedge \mu_B(y) = \mu_{A' \cap A}(x) \wedge \mu_B(y) = \delta \wedge \mu_B(y). \end{aligned}$$

yordamida topiladi.

Bu yerda $\delta = \mu_{A' \cap A}(x)$ - "Agar A , u holda B " qoida(implikatsiya)da "Agar A " va "Agar A' " mulohazaning to`g`rilik darajasini ko`rsatadi. U

foydalanuvchi talablari va qoidalarida beriladigan ma'lumotlar o'rtasidagi muvofiqlik darajasini belgilaydi.

Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish(NMXCH)ning bir qancha algoritmlari mavjud [16,19]. Ular bir-biridan implikatsiya qoidalaridan foydalanishi bilan farq qiladi. Tegishli aniq qoidani ekspert o'zining mezoniga qarab tanlab oladi.

Mamdan bo'yicha noravshan xulosa chiqarish. Faraz qilaylik, quyidagi ikki qoida

$$R_1 : \text{Agar } x \in A_1 \text{ va } u \in B_1, u \text{ holdaz } z \in C_1;$$

$$R_2 : \text{Agar } x \in A_2 \text{ va } u \in B_2, u \text{ holda } z \in C_2$$

berilgan bo'lsin, bu yerda: x, y - kirish o'zgaruvchilar; z - chiqish o'zgaruvchi; $A_1, A_2, B_1, B_2, C_1, C_2$ - kirish va chiqish o'zgaruvchilarning muayyan(aniq) MFlari, yani tegishli MF bilan berilgan noravshan termlari.

Beriladigan x_0, y_0 aniq(ravshan) qiymatlari asosida z_0 ning aniq qiymatini topish kerak.

R_1 va R_2 qoidalar uchun tegishli α_1 va α_2 to'g'rilik darajalari $\alpha_1 = \mu_{A_1}(x_0) \wedge \mu_{B_1}(y_0)$, $\alpha_2 = \mu_{A_2}(x_0) \wedge \mu_{B_2}(y_0)$ ifodalar bilan belgilanadi.

NMXCH algoritmi quyidagi protseduralarning bajarilishidan iborat [16,19]:

1) Aniq (ravshan) x_0, y_0 qiymatlarni fazzifikatsiyalash, yani A_1, A_2, B_1 va B_2 NoTlarning x_0 va y_0 aniq qiymatlari uchun tegishli MF qiymatlariga asoslanib, α_1 va α_2 to'g'rilik darajalarini hisoblash.

2) R_1 va R_2 munosabatlar uchun oraliq - $\mu_{C_1}(z)$ va $\mu_{C_2}(z)$ noravshan chiqarishlarni shakllantirish. Bunda implikatsiya amali sifatida minimum (noravshan konyunksiya) amali

$$\mu_{C_1}(z) = \alpha_1 \wedge \mu_{C_1}(z), \quad \mu_{C_2}(z) = \alpha_2 \wedge \mu_{C_2}(z)$$

qo'llaniladi.

Keyin olingan $\mu_{C_1}(z)$ va $\mu_{C_2}(z)$ NTlar, maksimum (noravshan dizyunksiya) amali yordamida birlashtiriladi va yakuniy $\mu_c(z)$ NMXCh qiymati topiladi:

$$\begin{aligned} \mu_c(z) &= \mu_{C_1}(z) \vee \mu_{C_2}(z) = [\alpha_1 \wedge \mu_{C_1}(z)] \vee [\alpha_2 \wedge \mu_{C_2}(z)] = \\ &= \max[\min(\alpha_1, \mu_{c_1}(z)), \min(\alpha_2, \mu_{c_2}(z))] \end{aligned}$$

3) Noaniq $\mu_c(z)$ qiymatni, kirish o'zgaruvchining aniq x_0, y_0 qiymatlariga munosib bo'lgan, aniq z_0 qiymatga o'zgartiriladi

(defazzifikatsiyalanadi). Buning uchun amalda ikkita, yani sentroidni va maksimum sentroidni topish usullari qo`llaniladi.

Tsentroidni topish usuli uchun

$$Z_{TS} = \frac{\sum_{j=1}^n \mu_c(z_j) z_j}{\sum_{j=1}^n \mu_c(z_j)}$$

foydalilanadi.

Maksimum tsentroidni topish usuli uchun $Z_{MM} = \sum_{j=1}^m \frac{z_j}{m}$ ishlataladi.

Defazzifikatsiyalash uchun boshqa usullar ham mavjud, yani maydon markazi, chap(birinchi) maksimum, o`ng(oxirgi) maksimum va b.q.

Larsen bo`yicha noravshan xulosa chiqarish. Bu yerda algebraik ko`paytma amali ko`rinishdagi noravshan implikatsiya amali qo`llaniladi. Bu holda yechim $\mu_{C_1}(z) = \alpha_1 \cdot \mu_{C_1}(z)$, $\mu_{C_2}(z) = \alpha_2 \cdot \mu_{C_2}(z)$ ko`rinishlarda topiladi. Ularni birlashitirish natijasida yakuniy $\mu_c(z)$ NMXCH qiymati $\mu_c(z) = [\alpha_1 \cdot \mu_{C_1}(z)] \vee [\alpha_2 \cdot \mu_{C_2}(z)]$ aniqlanadi [16,19].

Zade bo`yicha noravshan xulosa chiqarish. Bu holda maksimin amali ko`rinishdagi noravshan implikatsiya amali qo`llaniladi. Yechim quyidagi

$$\begin{aligned}\mu_{C_1}(z) &= (1 - \alpha_1) \vee \mu_{C_1}(z); \quad \mu_{C_2}(z) = (1 - \alpha_2) \vee \mu_{C_2}(z); \\ \mu_c(z) &= [(1 - \alpha_1) \vee \mu_{C_1}(z)] \vee [(1 - \alpha_2) \vee \mu_{C_2}(z)]\end{aligned}$$

ko`rinishlarda topiladi [11,16,19,].

Lukasevich bo`yicha noravshan xulosa chiqarish. Bu holda Lukasevich qoidasi ko`rinishdagi noravshan implikatsiya amali qo`llaniladi. Yechim

$$\mu_c(z) = [1 \wedge (1 - \alpha_1 + \mu_{C_1}(z))] \vee [1 \wedge (1 - \alpha_2 + \mu_{C_2}(z))]$$

ko`rinishda topiladi [16,19].

5-§. Lingvistik o'zgaruvchilar

LO' noravchan o'zgaruvchlarga nisbatan ancha yuqori tartibli hisoblanadi. Bu shu bilan aniqlanadiki, *LO'*ning qiymati noravshan hisoblanadi. *Masalan*, «*sifat*» *LO'*sining qiymadi «*past*», «*ancha past*», «*o'rtacha*», «*yuqoriroq*», «*yuqori*», «*ancha yuqori*» va h.k. bo'lishi mumkin. Keltirilgan har bir qiymat *NO'*ning nomi hisoblanadi.

Demak, *LO'ning qiymati* sonli o'zgaruvchi emas, balki tabiiy tildagi yoki formal tildagi *so'z* yoki *gap* hisoblanadi. LO'ning bu xossasi murakkab, odatdagi tabiiy tilda sonli murakkab tavsiflanuvchi tizimlarni va hodisalarni taxminiy tavsiflashga imkoniyat yaratadi.

LO'ning strukturasini tavsiflash uchun quyidagi *ikkita qoidadan* foydalilanadi [16]:

- *Sintaktikli-* bu o'zgaruvchi qiymatlari nomini hosil qilishni grammatikalar shaklida berish uchun qo'llaniladigan qoida;
- *Semantikli-* bu o'zgaruvchining har qiymatinining ma'nosini hisoblash uchun algoritmik protsedurani aniqlash uchun qo'llaniladigan qoida;

LO' tushunchasi-bu quyidagi ko'rinishdagi *beshlik*:

$$\langle A, T(A), U, V, M \rangle$$

Bu yerda:

A-linvistik o'zgaruvchi nomi;


T(A)-*A* o'zgaruvchilarning term-to'plami, yani *A* o'zgaruvchining lingvistik qiymatlari nomlarining to'plami bo'lib, bu qiymatlarning har biri *U* UTdan olingan NO'ning qiymatlar hisoblanadi;

U-UT bo'lib, LO'ning aniqlanish sohasini (qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlarning intervalini) ifodalaydi;

V-sintaktik qoida bo'lib, bu *A* o'zgaruvchining qiymatlari nomini hosil qilishni grammatikalar shaklida berish uchun qo'llaniladi;

M-semantik qoida bo'lib, *U* UTning *T(A)* NoTostilarining har bir NO'sini moslashtirish uchun qo'llaniladi;

Misol. Aytaylik bizni o'rab turgan havo haroratining qiymati quyidagi tushunchalar bilan aniqlansin: «juda sovuq», «sovuk», «salqin», «sovukmas», «issiq», «juda issiq». Har bir tusuncha-qiyomatga qandaydir harorat mos keladi (3.10-rasm).



3.10-rasm. «Harorat» lingvistik o'zgaruvchisi.

Agar haroratning quyi va yuqori qiymatlarini mos ravishda -40°C va $+40^{\circ}\text{C}$ dan iborat deb olsak, u holda «harorat» LO'ning qiymatlarini formal ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:


*(harorat, juda sovuq, sovuq, salqin, sovuqmas, issiq, juda issiq
[$-40, +40], V, M$).*

Bu yerda V - T term to'plamning elementlarini birma-bir tekshirish protsedurasi;

M - mavjud havo haroratini NO'larga (issiq, sovuq va h.k) mos qo'yuvchi protsedura.

Misol. Masalan "Yosh" (yillara), "Obyektgacha masofa" (m yoki km) shkalalarini qarash mumkin va h.k. Har bir shkala LO'ning belgili qiymati bilan bo'g'liq. "Yosh" shkalasida LO'ning qiymatlari quyidagicha berilishi mumkin: "o'spirin", "ancha yosh", "yigit", "keksa", "qari", "qartaygan". "Masofa" shkalasi esa - "zich", "juda yaqin", "yaqin", "yonma-yon", "uzoq emas", "uzoq", "juda uzoq", "juda uzoq chegarada". Bu ikkita tasvirlashlar o'rtasidagi o'aro bog'liqlik (shkalalardagi nuqtalar to'plami va belgili qiymatlar to'plami) $\mu_x(t)$ MFlari yordamida beriladi, bu yerda x -ingvistik o'zgaruvchining qiymati, t -shkaladagi qiymat. Ko'rinib turibdiki, MFlarning qiymatlarini quyidagi formulalar yordamida normallashtirish mumkin: $\sum_x \mu_x(t) = 1$ yoki $\sum_t \mu_x(t) = 1$.

3.11-rasmda "Yosh" LO'ni tavsivlashga misol keltirilgan. Bu yerda har bir egri chiziq uning bitta simvolli o'zgaruvchisini tavsivlaydi.



3.11-rasm. "Yosh" lingvistik o'zgaruvchining tavsivi

Misol. Aytaylik ishlab chiqariladigan A =“Mahsulot hajmi”ning bahosi NO'lar tushunchalari- «kam», «o'rtachadan past», «o'rtacha», «o'rtachadan yuqori», «ko'p» yordamida belgilansin. Eng ko'p mahsulot

ishlab chiqarish hajmi 20 ming/soat bo'lsin. Bunday bahoni formallashtirish LO' A = «*mahsulotlar hajmi*» yordamida amalga oshirilishi mumkin va u quyidagi naborlar bilan xarakterlanadi:

{Mahsulotlar hajmi, T(A) [0, 20], V, M},

bu yerda $T(A) = \{\text{«kam», «o'rtachadan past», «o'rtacha», «o'rtachadan yuqori», «ko'p»}\}$ - A=“Mahsulot hajmi” LO’ning term-to’plami, $U=[0,20]$ - UT bo’lib, LO’ning aniqlanish sohasini (qabul qilishi mumkin bo’lgan qiymatlarning intervalini) ifodalaydi;

V - T(A) to’plam elementlarini birma-bir tekshirish protsedurasi;

M - mavjud mahsulot hajmini NO’ qiymatlarni (“kam”, “o'rtachadan past” va h.k) mos qo'yuvchi protsedura, bu protsedura exspertli so'rov natijasida amalga oshiriladi.

Ta'kidlaymizki, lingvistik mantiqda noravshan xulosalashlarni qurishning bir nechta variantlari mavjud. Yuqorida qarab chiqilgan “max-min” varianti hamma vaqt ham bizning sezgimiz (intuitsiyamiz) bilan mos tushmaydi.

Noravshn sohada masalaning barcha elementlari noravshan tushunchalar va munosabatlar ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Masalani noravshan tavsiplash quyidagi holatlarda kelib chiqadi.

1) Modellashtirish resurslariga qo'yilgan chegaralar (vaqtli, narxli) mavjud ravshan axborotlarni olishga imkoniyat bermaganda va tizimli analitiklar o'z fikrini bildirishda noravshan so'z shaklida ifodalangan exspert bilimlaridan foydalanishga majbur bo'lganda. Natijada odatdagি masala noravshan sohaga tegishli masalaga aylanadi.

2) Resurslarga nisbatan qo'yilgan mavjud chegaralarda sonli axborotlar formal usullar bilan yechimni topishga imkoniyat bermaganda, LPR o'zining tajribasiga asoslanib noravshan qoidalar majmuasini boshqa LPR ga uzatishga qandaydir yo'l topadi.

Nazorat savollari

1. NoTlar nazariyasi bo'yicha ilmiy ishlar qachon va kim tomonidan boshlangan?
2. NoTlarga asoslanib yaratilgan tizimlarga qanday masalalarni yechish kiradi?
3. L.A.Zade nimani taklif qildi?
4. Masalalarni tavsiplashda noaniqliklar strukturasini keltiring?
5. NO' tushunchasi ushlik ko'rinishda qanday beriladi?
6. Noravshan modellar qanday xususiyatlarga ega?
7. NoTning klassik va aniq to`plamlardan asosiy farqi nomadan iborat?

8. MF nima va MFni qurishning bevosita va bilvosita usullarini keltiring?

9. NoT ostilarining to'plami va uning xossalari tushuntiring?

10. NoTlar ustida bajariladigan mantiqiy va oddiy amallarni keltiring?

11. NoTostilari orasidagi masofani hisoblashning qanday formulalari mavjud?

12. Noravshanlik darajasi va noravshanlik o'lchovi nima?

13. NoTdan ravshan to'plamni qanday hosil qilinadi?

14. α -pog'onali to'plamosti nima?

15. NM nima va NMlar matritsa yoki graf ko`rinishda qanday beriladi?

16. NMning birinchi, ikkinchi va global proyeksiyalari qanday aniqlanadi?

17. NMning max-min kompozitsiya qanday ifoda bilan aniqlanadi?

18. (Max- $*$)-kompozitsiya qanday aniqlanadi?

19. Mamdani, Larsen va Zade bo'yicha noravshan xulosa chiqarish qanday amalga oshiriladi?

20. LO' tushunchasi qanday ko'rinishda beriladi?

21. LO' tushunchasiga misollar keltiring?

Nazorat testlari

1. Noaniqlikning turlarini to'g'ri ko'rsating ?

- a) noma'lumlik, noishonchlik, nobirqiymatlik;
- b) noma'lumlik, nochiziqlik, birqiymatlik;
- c) noma'lumlik, notavakkallik, mantiqlik;
- e) nodaxtlik, notarmoqlik, nobirqiymatlik.

2. Noravshan to'plam tushunchasi to'g'ri ifodalangan javobni ko'rsating?

- a) $A\{u, \mu_A(u)\}; u \in U$;
- b) $A\{u, \mu_A(u)\}; \mu_A(u) \in U$;
- c) $A\{u, \mu_A(u), U\}; A \in U$;
- e) $A\{u, \mu_u(A)\}; u \in U$.

3. Mansublik funksiyasi - bu bilan ifodalaniladigan tushunchagamos bo'lishi darajasining sub'ektiv o'lchovi.

- a) A noravshan to'plam; $u \in U$ elementi;
- b) A noravshan to'plam; U to'plam;
- c) U ravshan to'plam; $u \in U$ elementi;
- e) A ravshan to'plam; $u \in U$ elementi;

4. Mansublik funksiyasini qurishning bevosita usuli ekspertlar tomonidan berilgan qanday baholashga asoslanadi?

$$a) \mu_A(U) = \frac{n_1}{m}; \quad b) \mu_U(A) = \frac{n_1}{m}; \quad c) \mu_A(U) = \frac{2n_1}{m}; \quad e) \mu_U(A) = \frac{n_1+m}{m}.$$

5. A noravshan to'plamda berilgan $u \in U$ elementning mansubligi to`g`risida quyilgan savolga ekspertlardan n_1 tasi to`g`ri va n_2 tasi salbiy javob bergen. Ekspertlarning umumiy soni $m = n_1 + n_2$ bo'lsin. Exspertlar javobi quyidagi jadvalda berilgan.

	U				
m	1	2	3	4	5
n_1	2	1	6	3	4
n_2	4	5	0	3	2

Jadvaldagи ma'lumotlarga va $\mu_A(U) = \frac{n_1}{m}$ formulaga asoslanib $\mu_A(1) = ?; \mu_A(2) = ?; \mu_A(3) = ?; \mu_A(4) = ?; \mu_A(5) = ?$ hosil qiling va A ning mansublik funksiyasini quring?

- a) $\mu_A(U) = \{<0.3/1>, <0.2/2>, <1/3>, <0.5/4>, <0.7/5>\};$
- b) $\mu_A(U) = \{<0.3/1>, <0.3/2>, <1/3>, <0.4/4>, <0.7/5>\};$
- c) $\mu_A(U) = \{<0/1>, <0/2>, <2/3>, <1/4>, <0.2/5>\};$
- e) $\mu_A(U) = \{<0.2/1>, <0.3/2>, <0/3>, <0.5/4>, <1/5>\};$

6. R munosabatning birinchi proyeksiyasini aniqlovchi ifodani to`g`ri ko'rsating?

- a) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigvee_y \mu_R(x, y);$
- b) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigwedge_y \mu_R(x, y);$
- c) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigvee_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$
- e) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigwedge_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$

7. R munosabatning ikkinchi proyeksiyasini aniqlovchi ifodani to`g`ri ko'rsating?

- a) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigwedge_y \mu_R(x, y);$
- b) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigvee_y \mu_R(x, y);$
- c) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigvee_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$
- e) $\mu_R^{(1)}(x) = \bigwedge_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$

8. R munosabatning global proyeksiyasini aniqlovchi ifodani to`g`ri ko'rsating?

- a) $H(R) = \bigvee_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$
- b) $H(R) = \bigvee_y \bigwedge_x \mu_R(x, y);$
- c) $H(R) = \bigwedge_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$
- e) $H(R) = \bigvee_y \mu_R(x, y);$

9. Lingvistik o'zgaruvchi tushunchasining strukturasi to`g`ri keltirilgan javobni ko'rsating?

- a) $\langle A, T(A), U, V, M \rangle;$
- b) $\langle A, T(M), U, V, M \rangle;$
- c) $\langle A, T(V), U, V, M \rangle;$

e) $\langle A, T(U), U, V, M \rangle$.

Masala va topshiriqlar

1. Tibbiyat, iqtisod, boshqarish, sosiologiya, geologiya, qishloq xo'jaligi sohalaridan noravshan to'plamlarga misollar keltiring.

2. "O'rta bo'yli talaba" tushunchasini noravshan to'plam ko'rinishda tasvirlang.

3. Talabaning bo'yi noravshan to'plam ko'rinishda berilgan $P(U) = \{(155|0), (160|0.2), (170|1.0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.3)\}$. Markaziy og'irlik usuli yordamida "O'rta bo'yli talaba" noravshan to'plamini toping.

4. $U = \{u_1, u_2, u_3, u_4\}$, $M = [0,1]$ berilgan bo'lsin. U noravshan to'plamning $P(U)$ ($|P(U)|=15$) to'plamini aniqlang.

5. U – noravshan to'plamda A(erkek) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155, 160, 170, 185, 190, 195\}, \quad M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0.8), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.3)\}$$

$$B = \{(155|0.2), (160|0.3), (170|1.0), (185|0.6), (190|0.5), (195|0.4)\}$$

$A \subset B$ ñku $B \subset A$ ekanligini aniqlang.

6. U – noravshan to'plamda A(erkek) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155, 160, 170, 185, 190, 195\}, \quad M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0.8), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.3)\}$$

$$B = \{(155|0.3), (160|0.2), (170|1.0), (185|0.6), (190|0.4), (195|0.3)\}$$

$A = B$ ekanligini aniqlang.

7. U – noravshan to'plamda A(erkek) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155, 160, 170, 185, 190, 195\}, \quad M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

$$B = \{(155|0.9), (160|0.8), (170|1), (185|0.5), (190|0.6), (195|0.3)\}$$

$\bar{A} = B$ ñku $\bar{A} = B$ ekanligini aniqlang.

8. U – noravshan to'plamda A(erkek) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155, 160, 170, 185, 190, 195\}, \quad M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

$$B = \{(155|0.9), (160|0.8), (170|1), (185|0.5), (190|0.6), (195|0.3)\}$$

$A \cap B$ aniqlang.

9. U – noravshan to'plamda A(erkek) va B(ayol) – noravshan

to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155|160|170|185|190|195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

$$B = \{(155|0.9), (160|0.8), (170|1), (185|0.5), (190|0.6), (195|0.3)\}$$

aniqlang.

10. U – noravshan to'plamda A(erkak) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155|160|170|185|190|195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

$$B = \{(155|0.9), (160|0.8), (170|1), (185|0.5), (190|0.6), (195|0.3)\}$$

$A \oplus B$ aniqlang.

11. U – noravshan to'plamda A(erkak) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155|160|170|185|190|195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

$$B = \{(155|0.9), (160|0.8), (170|1), (185|0.5), (190|0.6), (195|0.3)\}$$

$A * B$ aniqlang.

12. U – noravshan to'plamda A(erkak) va B(ayol) – noravshan to'plamostilari berilgan bo'lsin.

$$U = \{155|160|170|185|190|195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

$$B = \{(155|0.9), (160|0.8), (170|1), (185|0.5), (190|0.6), (195|0.3)\}$$

A va V orasidagi masofalarni 3.3-jadvalda keltirilgan formulalar yordamida aniqlang.

13. U – noravshan to'plamda A(erkak) to'plamosti berilgan bo'lsin.

$$U = \{155|160|170|185|190|195\}, M = [0,1]$$

$$\cdot A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

Quyidagi

$$\mu_A = \begin{cases} 0, & \text{agar } \mu_A(u_i) < 0.5, \\ 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) > 0.5, \\ 0 yoki 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) = 0.5. \end{cases}$$

qoidadan foydalanib, noravshan A to'plamostini ravshan to'plamostiga keltiring.

14. U – noravshan to'plamda A(erkak) to'plamosti berilgan bo'lsin..

$$U = \{155|160|170|185|190|195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

Quyidagi α -дараҗали ($\alpha = A_{0.3}; \alpha = A_{0.6}$)

$$\mu_A = \begin{cases} 0, & \text{agar } \mu_A(u_i) < \alpha, \\ 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) > \alpha, \\ 0 \text{ yoki } 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) = \alpha. \end{cases}$$

qidadan foydalanib noravshan A to'plamostini ravshan to'plamostiga keltiring.

15. Quyidagi noravshan chin qiymatlar to'plami berilgan:

$$\text{Чин} = (0|0+0|0.2+0.25|0.4+0.5|0.6+0.9|0.8+1|1)$$

$$\text{Анча-мунча чин} = (0|0+0|0.2+0.3|0.5+0.6|0.5+0.93|0.7+1|1)$$

$$\text{Деярли чин} = (0|0+0|0.04+0.4|0.5+0.7|0.6+0.98|0.78+0.9|1)$$

Toping:

1)"Deyarli chin yoki chin" ifodaning noravshan chinligini va hosil qilingan noravshan ifodani "Ancha-muncha chin" noravshan ifoda bilan taqqoslang.

2)"Deyarli chin yoki ancha-muncha chin" ifodaning noravshan chinligini va hosil qilingan noravshan ifodani "Chin" noravshan ifoda bilan taqqoslang.

3)"Chin yoki ancha-muncha chin" ifodaning noravshan chinligini va hosil qilingan noravshan ifodani "Deyarli chin" noravshan ifoda bilan taqqoslang.

16. Quyidagi noravshan chin qiymatlar to'plami berilgan:

$$\text{Чин} = (0|0+0|0.2+0.25|0.4+0.5|0.6+0.9|0.8+1|1)$$

$$\text{Анча-мунча чин} = (0|0+0|0.2+0.3|0.5+0.6|0.5+0.93|0.7+1|1)$$

$$\text{Деярли чин} = (0|0+0|0.04+0.4|0.5+0.7|0.6+0.98|0.78+0.9|1)$$

Toping:

1) "Deyarli chin va chin" ifodaning noravshan chinligini va hosil qilingan noravshan ifodani "Ancha-muncha chin" noravshan ifoda bilan taqqoslang.

2) "Deyarli chin va ancha-muncha chin" ifodaning noravshan chinligini va hosil qilingan noravshan ifodani "Chin" noravshan ifoda bilan taqqoslang.

3) "Chin va ancha-muncha chin" ifodaning noravshan chinligini va hosil qilingan noravshan ifodani "Deyarli chin" noravshan ifoda bilan taqqoslang.

17. U to'plamdagisi ikkita A va B NoT quyidagi jadval ko'rinishhda berilgan.

	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7
A=	1	1	0	0	0	1	0
B=	1	1	0	1	0	1	1

A va B NoT ostilar orasidagi Xemming masofasini va n quvvatga ega bo'lган chekli U to'plamdagи ikkita A va B NoTostilar orasidagi Xemmimng masofasini aniqlang.

18. $R_1:X \times Y$ va $R_2:Y \times Z$ noravshan munosabatlar matrisa ko'rinishda berilgan:

$R_1 :$

Nº	y ₁	y ₂	y ₃	y ₄	y ₅
x ₁	0.1	0.2	1	0.4	0.6
x ₂	0.5	0.7	0	0.1	0.8
x ₃	0.6	0.1	0.3	0	0.9
x ₄	0.4	0.7	0.6	0.3	0
x ₅	0.3	0.5	0.8	0.4	0.6
x ₆	0.6	0.8	0.5	0.7	0.3
x ₇	0.9	1	0.3	0.5	0.7

$R_2 :$

Nº	z ₁	z ₂	z ₃	z ₄	z ₅
y ₁	0.1	0.2	1	0.4	0.6
y ₂	0.5	0.7	0	0.1	0.8
y ₃	0.6	0.1	0.3	0	0.9
y ₄	0.4	0.7	0.6	0.3	0
y ₅	0.3	0.5	0.8	0.4	0.6

“Max-min kompozisiya” amalini qo'llab $R_1:X \times Y$ va $R_2:Y \times Z$ noravshan munosabatlardan $R_1 \circ R_2$ ni toping.

19. Quyidagi noravshan qiymatlar to'plami berilgan:

Nº	y ₁	y ₂	y ₃	y ₄	y ₅
x ₁	0.1	0.2	1	0.4	0.6
x ₂	0.5	0.7	0	0.1	0.8
x ₃	0.6	0.1	0.3	0	0.9
x ₄	0.4	0.7	0.6	0.3	0
x ₅	0.3	0.5	0.8	0.4	0.6
x ₆	0.6	0.8	0.5	0.7	0.3
x ₇	0.9	1	0.3	0.5	0.7

Noravshan munosabatlarning birinchi, ikkinchi va global proyeksiyalarini aniqlang.

20. $X=\{x_1, x_2, x_3\}$, $Y=\{y_1, y_2, y_3, y_4\}$ berilgan to`plamlar va R munosabatning $\mu_R(x_i, y_j)$ mansublik funksiyalari quyidagi jadvaldagidek berilgan bo'lzin.

	y ₁	y ₂	y ₃	y ₄
x_1	0	0	0.2	0.4
x_2	0	0.6	1	0.9
x_3	1	0.4	0.7	1

$R = X \times Y$ munosabatning graf ko`rinishdagi ifodasini keltiring.

21. $X = \{1, 3, 5, 7, 9\}$ ko`rinishdagi asosiy to`plam va ekspert xulosalari bo`yicha bu munosabatning matritsasi quyidagi ko`rinishda berilgan.

	1	3	5	7	9
1	0	0	0	0	0
3	0.3	0	0	0	0
M(R) = 5	0.4	0.2	0	0	0
7	0.6	0.8	0	0	0
9	1	0.6	0.4	0	0

Bu X to`plamda R - “Ancha kichik” munosabatni aks ettiradigan graf ko`rinisgda tasvirlang.

22. U noravshan to`plamda quyidagi noravshan to`plamostilar berilgan:

$$A = \{(A|0), (B|3), (C|0.7), (D|1), (E|0), (F|0.2), (G|0.6)\},$$

$$B = \{(A|0.3), (B|1), (C|0.5), (D|0.8), (E|1), (F|0.5), (G|0.6)\},$$

$$C = \{(A|1), (B|0.5), (C|0.5), (D|0.2), (E|0), (F|0.2), (G|0.9)\}$$

A, B, C noravshan to`plamostilaridan foydalanib S ni aniqlang:

- | | |
|---|--|
| 1) $S = ((A \cap B) \oplus (A \cup C)) \subset (A \setminus C);$ | 2) $S = ((A \cap B) \setminus (A \cup C)) \subset (A \oplus C);$ |
| 3) $S = ((A \oplus B) \cup (A \oplus C)) \setminus (B \cap C);$ | 4) $S = ((C \cap B) \oplus (A \cup C)) \setminus (A \setminus C);$ |
| 5) $S = ((A \setminus B) \oplus (A \cap C)) \setminus (C \cup A);$ | 6) $S = ((C \ominus B) \setminus (A \oplus C)) \setminus (A \cap B);$ |
| 7) $S = ((A \cup B) \oplus (A \setminus C)) \subset (C \setminus B);$ | 8) $S = ((A \Theta B) \cap (B \oplus C)) \Theta (A \cap B);$ |
| 9) $S = ((A \cup B) \oplus (A \setminus C)) \setminus (C \setminus B);$ | 10) $S = ((B \Theta C) \cap (B \cap C)) \Theta (A \cup B);$ |
| 11) $S = ((A \cup B) \cap (A \oplus C)) \setminus (C \cap B);$ | 12) $S = ((A \cap B) \Theta (A \oplus C)) \supset (A \cap B);$ |
| 13) $S = ((A \cup B) \cap (A \cap C)) \subset (C \oplus B);$ | 14) $S = ((A \cap B) \setminus (A \oplus C)) \Theta (B \setminus A);$ |
| 15) $S = ((A \oplus B) \cap (B \setminus C)) \subset (A \cap B);$ | 16) $S = ((A \cap B) \setminus (B \oplus C)) \Theta (B \cap A);$ |
| 17) $S = ((B \setminus A) \cup (B \oplus C)) \cup (A \cap B);$ | 18) $S = ((A \Theta B) \cup (A \oplus C)) \setminus (B \setminus A);$ |
| 19) $S = ((B \setminus A) \oplus (B \oplus C)) \cap (A \cup B);$ | 20) $S = ((A \setminus B) \Theta (C \oplus B)) \supset (A \oplus C);$ |
| 21) $S = ((B \cap A) \oplus (B \setminus C)) \cup (A \cap B);$ | 22) $S = ((A \setminus B) \setminus (A \oplus C)) \supset (B \Theta A);$ |

4-BOB. QIDIRUV YORDAMIDA MUAMMOLARNI ECHISH

1-§. Sun'iy intellekt masalalarini yechishning umumiyl uslublari

Masalani yechish jarayoni qoidaga ko'ra ikki pog'onadan iborat bo'ladi: *masalani tasvirlash* va *yechimni qidiruv*.

Mashina yordamida masalalarni tasvirlash shakllarini qidiruv masalasi qiyin formallashgan ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun masalalarni tasvirlashda qo'llaniladigan ba'zi shakllarni quyidagicha keltirish mumkin [12, 16]:

- 1) Holatlar fazosi(HF)da tasvirlash;
- 2) Masalalarni masalalar ostilariga keltirish yo'li bilan tasvirlash;
- 3) Teoremalar ko'rinishida tasvirlash;
- 4) Kombinatsiyali tasvirlash.

Masalalarning holatini tavsiflashning turli shakllari mavjud. Xususan, masalalarni qatorlar, *vektorlar*, *matritsalar* va *graflar* ko'rinishda tavsiflash mumkin

HFda yechimlarni qidiruv protseduralari boshlang'ich holatni maqsad funksiyaga aylantiruvchi operatorlar ketma-ketligini aniqlashga asoslanadi.

Daraxt deb shunday yo'naltirilgan grafga aytiladiki, bunda uning ildizidan tashqari har bir tuguni faqat bitta yoy kiradi.

Shunday qilib, daraxtda ildizdan tashqari har bir tuguni bitta yoyning oxiri va bitta yoki bir nechta yoyning boshi bo'ladi.

Daraxtda V tugundan V_i tugunlar hosil bo'ladi. Bunda V - bosh tugun, V_i - ichki tugunlar deb nomlanadi. Bosh tugun (ildiz) 0-pog'onali, ildizdan hosil bo'lgan tugunlar 1-pog'onali, 2-pog'onali va h.k. k -pog'onali bo'lishi mumkin.


Masalalar ostilarining o'zaro aloqasi strukturasi ikki tipda bo'lishi mumkin: VA-strukturalar va VA-YOKI-strukturalar. VA-strukturalarda asosiy masalani echishda barcha masalalar ostilarini yechish talab etiladi. VA-YOKI-strukturalarda xususiy masalalar guruhlarga bo'linadi va bu guruhlar bir-biri bilan *YOKI munosabati* yordamida, guruhlar ichidagilar esa bir-biri bilan VA *munosabati* yordamida bog'lanadi.

Bunday holda boshlang'ich masalani yechish uchun, faqat qandaydir bitta guruhga taalluqli barcha masalalar ostilarini yechish yetarli hisoblanadi.




Masalalarini masalalar ostilariga keltirishni tasvirlashni tavsiflash uchun masalalarini reduksiya(tiklash)lash grafi deb nomlanuvchi grafdan foydalilaniladi (4.1-rasm). Bunda grafning tugunlariga masalalar, yoylariga esa masalalarini reduksiyalash operatorlari mos qo'yiladi. Daraxt ildiziga boshlang'ich masala, 1-pog'ona tugunlarga esa boshlang'ich masaladan hosil qilingan masalalar ostilari mos qo'yiladi. 4.1-rasmida A masala yechiladi, agarda B va C masalalar yoki D masala yechilsa. B masala yechiladi, agarda E yoki F masala yechilsa. C- masala yechiladi, agarda G masala yechilsa. D masala yechiladi, agarda H va I masalalar yechilsa.

VA-strukturali tugunlarning bog'lanishini ko'rsatish uchun maxsus egri chiziqdan foydalilaniladi. Agar daraxtda VA-strukturali bog'langan tugunlar bo'lsa, u holda ular uchun qo'shimcha tugunlar kiritiladi va ushbu tugunlar VA-strukturali tugunlarning bosh tugunlariga aylanadi (4.2-rasm).



4.1-rasm. *Masalalarini reduksiyalash daraxti.*



4.2-rasm. *Almashtirilgan reduksiyalash daraxti*

Bundan keyin faqat *almashtirilgan reduksiyalash daraxtlarini* qaraymiz.

Masalalarini masalalar ostilariga keltirishni tasvirlashda boshlang'ich masalani bir nechta masalalar ostilariga bo'lish qaraladi va bo'lingan har bir masala osti yechimi boshlang'ich masalaning yechimini beradi. Har bir masala ostilari oz navbatida yana masala ostilariga bo'linishi mumkin. Masala ostilariga bo'lish jarayoni nazariy jihatdan chegaralanmagan. Amaliy jihatdan masala ostilariga bo'lish jarayoni eng quyi pog'onadagi masala ostilari yordamida yechimni olguncha davom ettiriladi.

2-§. Sun'iy intellekt masalalarini yechishning usullari

2.1. **Masalalarini yechishda qidiruv usullarini sinflash**

Masalalarini qidiruvga keltirishga asoslangan yechish usullari masala yechilayotgan predmet soha hususiyatlariga va masala yechimiga foydalanuvchi tomonidan qo'yilgan talablarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Predmet soha xususiyatlari:

- 1) Yechim izlanayotgan fazo hajmi;
- 2) Sohaning vaqtli va fazoli o'zgarish darajasi (ststistik va dinamik sohalar);
- 3) Sohani tasvirlovchi modelning to'liqligi. Agar model to'liq bo'lmasa, u holda sohani tavsiflashda bir-birini to'ldiruvchi bir nechta modellardan foydalaniladi;
- 4) Yechilayotgan masala haqidagi ma'lumotlarning aniqligi, ya'ni ma'lumotlarning aniqlik (hatolik) va to'liqlik (to'liqmaslik) darajasi.

SITlari masalalarini yechishda qo'llaniladigan mavjud qidiruv usullarni quyidagicha sinflash mumkin [12, 16]:

- 1) *Bir o'lchovli fazoda yechimni qidiruv usullari* – bu usullardan o'lchovi katta bo'lмаган sohalarda, modellar to'liq, ma'lumotlar aniq va to'liq bo'lganda foydalaniladi;
- 2) *Ierarhik fazoda yechimni qidiruv usullari* - bu usullardan o'lchovi katta bo'лган sohalarda yechimlarni qidiruvda foydalaniladi;
- 3) *Ma'lumotlar xatoli* va *to'liqmas* bo'lganda qidiruv usullari;
- 4) *Bir nechta modellar yordamida qidiruv usullari*- bu usullardan sohani tavsiflashda bitta modelning o'zi yetarli bo'lмагanda foydalaniladi.

2.2. Qidiruv yordamida muammoni echish

2.2.1. Holatlar fazosida yechimni qidiruv usullari

HFda yechimni qidiruv usullari odatda quyidagilarga bo'linadi [12, 16]:

- 1) Chuqurligi bo'yicha qidiruv;
- 2) Kengligi bo'yicha qidiruv;
- 3) Evristikli qidiruv.


HFda yechimlarni qidiruv protseduralari boshlang'ich holatni maqsad funksiyaga aylantiruvchi operatorlar ketma-ketligini aniqlashga asoslanadi. Agar operatorlar ketma-ketligi bir nechta va optimallashtirish mezoni berilgan bo'lsa, u holda masala ushbu mezoni qanoqtlantiruvchi optimal operatorlar ketma-ketligini qidiruv masalasiga keltiriladi.

HFda yechimlarni qidiruv usullarini holatlar daraxti(grafi)dan foydalanib tavsivlash qulay hisoblanadi. Holatlar daraxtida yechimlarni qidiruv masalasi daraxt ildizidan maqsadli holatga mos tugungacha bo'лган yo'lni (optimalli, agar optimallik mezoni berilgan bo'lsa) topishga keltiriladi.


Umumiyl holda holatlar daraxtini (S_0, F, G) uchlik ko'rnishda berish mumkin. Bu yerda S_0 – bitta elementdan iborat to'plam, F - operatorlar to'plami, G -maqsadli holatlar to'plami.

Holatlar daraxtini qurish quyidagicha amalga oshiriladi: avvalo daraxt ildiziga(boshlang'ich holat) F dagi operatorlarni qo'llab 1-pog'onali tugunlar quriladi; Keyin, F dagi operatorlardan 1-pog'onali tugunlarga qo'llaniladiganlaridan foydalanib 2-pog'onali tugunlar quriladi va h.k. Ushbu protsedura maqsadli tugunni topguncha davom ettiriladi.

Misol. Yuk tashuvchi robot A punktdan chiqib, (B, C, D) punktlarning har birida faqat bir martadan bo'lib, yana A punktga qaytib kelishi kerak. Punktlar orasidagi masofalar va marshrutlar sxemasi 4.3-rasmida keltirilgan.



4.3-rasm. Marshrutni tanlash masalasi



4.4-rasm. Masalaning holatlar grafi.

Marshrutni tanlash masalasi uchun HFda yechimlarni qidiruv 4.4-rasmda keltirilgan.

Ushbu grafda boshlang'ich tugunga A holat mos keladi. A tugun AB , AC , AD holatlarga mos keluvchi uhta 1-pog'onali ichki tugunlarni hosil qiladi. 1-pog'onali AB , AC , AD ichki tugunlar 2-pog'onali ichki tugunlarni hosil qiladi va h.k.

Grafda tugunlarning ochilish tartibi qidiruv strategiyasi deb ataladi.

2.2.2. Chuqurligi bo'yicha qidiruv strategiyasi

Masalani yechishning ba'zi strategiyalarini qarab chiqamiz [12, 16]. Graflarda hal qiluvchi yo'llarni qurishga yo'naltirilgan bir qator strategiyalar masalani yechishda baholash funksiyasi(BF)ga asoslanadi. BF grafning tugunlarida aniqlanadi va haqiqiy qiymatlarni qabul qiladi. Ixtiyoriy tugun uchun hosil qilingan BF qiymati ushbu tugundan hal qiluvchi yo'lni davom ettirish kerakligi yoki yo'qligini aniqlaydi.

Masalani BFni hisoblash asosida yechish strategiyasi evristik qidiruvning bir ko'rinishi hisoblanadi.

BFni hisoblash asosida masalani yechishning boshqa strategiyalariga chuqurligi bo'yicha qidiruv va kengligi bo'yicha qidiruv kiradi. Chuqurligi bo'yicha qidiruvda ixtiyoriy tugunning baholash funksiyasi qiymati ushbu tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga to'g'ri proportsional bo'ladi. Kengligi bo'yicha qidiruvda bu bog'lanish teskari proportsional bo'ladi.

Tugunlarning chuqurligi deganda tugunlarning pog'onalari tartib raqamiga teng bo'lgan son tushuniladi.

Chuqurligi bo'yicha qidiruv strategiyasini faqat tugunlar $N = \{n_1, n_2, \dots, n_r\}$ ro'yxati va yoylar $L = \{l_1, l_2, \dots, l_s\}$ ro'yxatidan iborat HF berilganda qo'llash maqsadga muvofiq. Bu yerda $l_k = (n_{ik}, n_{jk})$ qirralar bo'lib, n_{ik} tugundan n_{jk} tugunga yo'naltirilgan bo'ladi.

Chuqurligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi quyidagidan iborat: *grafning boslang'ich tuguni yo'lning bo'shanish tuguni sifatida qabul qilinadi. Undan keyin boshlang'ich tugundan chiqadigan bir qancha alternativ tugunlardan boshlang'ich tugundan eng uzoqda (uzunligi bo'yicha) joylashgan tugun tanlanadi. Navbatdagi tugunlararni tanlash, xuddi boshlang'ich tugundagidek, o'zidan oldingi tugunga nisbatan eng uzoqda joylashgan tugunni tanlash bilan davom ettiriladi. Tugunlarni tanlash algoritm bo'yicha maqsadga erishuvchi yo'lni topishgacha davom ettiriladi.*

Chuqurligi bo'yicha birma-bir qidiruv algoritmi. Tugunlarning chuqurligi - tugunlarning pog'onalari tartib raqamiga teng bo'lgan son bilan aniqlahadi. Chuqurligi bo'yicha birma-bir qidiruv algoritmida tugunlar orasidan eng katta chuqurlikga ega bo'lgan tugunlar ochiladi. Bunda bir xil chuqurlikga ega bo'lgan bir nechta tugunlardan bittasi tanlanadi. Bundan tashqari, odatda ba'zi mulohazalarga ko'ra tugunlarning chegaraviy chuqurliklari beriladi. Bu holda tugunlar orasidan, tygunlari chuqurliklari chegaraviy chuqurlikga teng bo'lganlari ochilmaydi.

Shunday qilib, chuqurligi bo'yicha birma-bir qidiruv algoritmida tugunlar orasidan, tygunlari chuqurliklari chegaraviy chuqurlikdan kichik bo'lgan tugunlar ochilmaydi.

Chuqurligi bo'yicha birma-bir qidiruv algoritmini strukturalashgan holda qaraymiz [12, 16]:

- 1) Boshlang'ich tugunni «ochiq» ro'yxatiga joylashtirish;
- 2) Agar «ochiq» ro'yxati bo'sh bo'lsa, u holda 1-qadamga, aks holda 3-qadamga o'tiladi;
- 3) «Ochiq» ro'yxatidan birinich tugunni olish va uni «yopiq» ro'yxatiga o'tkazish va unga nomni berish;
- 4) Agar v tugunning chuqurligi chegaraviy churlikga teng bo'lsa, u holda 2-qadamga o'tish, aks holda 5-qadamga o'tish;
- 5) v tugunni ochish. v tugunning barcha ichki tugunlarini «ochiq» ro'yxatining boshiga joylashtirish va barcha ichki tugunlardan v tugunga keladigan ko'rsatkichlarni qurish; Agar v tugun ichki tugunlarga ega bo'lmasa, u holda 2-qadamga o'tish;
- 6) Agar ushbu tugunlardan birortasi maqsadli yechimni hosil qilsa, u holda chiqishda yechimni hosil qilish, aks holda 2-qadamga o'tish.

Qaralgan algoritmda boshlang'ich tugun sifatida faqat bitta tugun qatnashadi. Agar boshlang'ich tugunlar bir nechta bo'lsa, u holda algoritmnning 1-qadamidagi «ochiq» royxatiga barcha boshlang'ich tugunlar joylashtiriladi.

Misol. Misol sifatida marshrutni tanlash masalasi uchun HFda yechimlarni qidiruvda A, AB, ABC, ABCD, ABCDA optimal marshrutni keltirish mumkin (4.3, 4.4-rasmlar).

Ta'kidlash lozimki, yechimni chuqurligi bo'yicha qidiruvda eng chuqurlikga ega bo'lgan tugunlar bir nechta bo'lsa, u holda ular orasidan eng chapdagisi tanlanadi.

Agar yechimni qidiruv tupikli holatga kelib qolsa, ya'ni joriy tugun maqsadli yechimga olib kelmasa va uning chuqurroq tugunlar bilan aloqasi

bo'lmasa, u holda oldingi tugunga qaytiladi va ushbu tugundan yechimni chuqurligi bo'yicha qidiruv davom ettiriladi.


2.2.3. Kengligi bo'yicha qidiruv strategiyasi

Kengligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi quyidagidan iborat: grafning boshlang'ich tuguni yo'lning bo'shlanish tuguni sifatida qabul qilinadi. Undan keyin boshlang'ich tugundan chiqadigan bir qancha alternativ tugunlardan boshlang'ich tugunga yaqin (uzunligi bo'yicha) joylashgan tugun tanlanadi. Navbatdagi tugunlararni tanlash, xuddi boshlang'ich tugundagidek, o'zidan oldingi tugunga nisbatan eng yaqin joylashgan tugunni tanlash bilan davom ettiriladi. Tugunlarni tanlash algoritm bo'yicha maqsadli yechimga erishuvchi yo'lni topishgacha davom ettiriladi[12, 16].

Ta'kidlash lozimki, yechimni kenglik bo'yicha qidiruvda boshlang'ich tugunga yaqin bo'lган tugunlar bir nechta bo'lsa, u holda ular orasidan eng chapdagisi tanlanadi.

Agar yechimni qidiruv tupikli holatga kelib qolsa, ya'ni joriy tugun maqsadli yechimga olib kelmasa va uning chuqurroq tugunlar bilan aloqasi bo'lmasa, u holda oldingi tugunga qaytiladi va ushbu tugundan yechimni kengligi bo'yicha qidiruv davom ettiriladi.

Misol. Qisqa yo'l haqidagi masala. Qisqa yo'l bilan grafning bir tugunidan boshqa tuguniga qanday borish mumkin? Ishlab chiqarishni boshqarish masalalarida: qisqa yo'l (masalan, eng kam yoqilg'i va vaqt, ancha arzon) bilan A punktdan B punktga qanday borish mumkin? Bu masalani yechish uchun yo'naltirilgan grafning boshlang'ich tugunidan oxirgi tugunigacha bo'lган har bir yoyiga harakat vaqtini ifodalovchi son mos qo'yiladi (4.5-rasm).



4.5-rasm. Qisqa yo'l haqidagi masala uchun boshlang'ich qiymatlar. Boshlang'ich qiymatlarni 4.1-jadval ko'rinishda ham berish mumkin.

4.1-jadval. Qisqa yo'l haqidagi masala uchun boshlang'ich qiymatlar.

Yoyning boshi	Yoyning oxiri	Yo'ldagi vaqt
1	2	7
1	3	1
2	4	4
2	6	1
3	2	5
3	5	2
3	6	3
5	2	2
5	4	5
6	5	3

Talab qilinadi: qanday qisqa yo'l bilan 1-tugundan 4 – tugunga borish mumkin?

Yechimi. Quyidagi belgilashni kiritamiz: $C(T)$ – 1- tugundan T-tugungacha qisqa yo'lning uzunligi. Qaralayotgan masalada 1-tugundan 4-tugungacha bo'lgan $C(4)$ qisqa yo'lni hisoblash talab etiladi.

4.5-rasmda va 4.1-jadvalda keltirilgan boshlang'ich qiymatlarni hisobga olsak, u holda 1-tugundan 3-tugunga uning uzunligi 1 ga teng bo'lgan faqat bitta yo'naltirilgan yoy chiqayapti, shuning uchun $C(3)=1$. Bundan tashqari, ko'rinish turibdiki $C(1)=0$.

4-tugunga uzunligi 4 ga teng bo'lgan 2-tugundan yoki uzunligi 5 ga teng bo'lgan 5-tugundan borish mumkin. Shuning uchun quyidagi munosabat o'rinli

$$C(4) = \min \{C(2) + 4; C(5) + 5\}.$$

Demak, $C(4)$ ni topish uchun avval $C(2)$ va $C(5)$ ni topish talab etiladi.

5-tugunga uzunligi 2 ga teng bo'lgan 3-tugundan yoki uzunligi 3 ga teng bo'lgan 6-tugundan borish mumkin. Shuning uchun quyidagi munosabat o'rinli

$$C(5) = \min \{C(3) + 2; C(6) + 3\}.$$

Bilamizki, $C(3) = 1$. Shuning uchun

$$C(5) = \min \{1+2; C(6) + 3\} = \min \{3 ; C(6) + 3\}. \quad (4.1)$$

6-tugunga uzunligi 3 ga teng bo'lgan 3-tugundan yoki uzunligi 1 ga teng bo'lgan 2-tugundan borish mumkin. Shuning uchun quyidagi munosabat o'rinli

$$C(6) = \min \{ C(3)+3; C(2) + 1 \} = \min \{4 ; C(2) + 1\}. \quad (4.2)$$

2-tugunga uzunligi 7 ga teng bo'lgan 1-tugundan yoki uzunligi 5 ga teng bo'lgan 3-tugundan yoki uzunligi 2 ga teng bo'lgan 5-tugundan borish mumkin. Shuning uchun quyidagi munosabat o'rinni

$$C(2) = \min \{C(1) + 7; C(3) + 5; C(5) + 2\}.$$

Bizga ma'lumki $C(1) = 0$, $C(3) = 1$, $C(5) = 3$. Shuning uchun

$$C(2) = \min \{0 + 7; 1 + 5; 3 + 2\} = 5. \quad (4.3)$$

(4.3) ni hisobga olsak

$$C(6) = \min \{4; C(2) + 1\} = \min \{4; 5 + 1\} = 4. \quad (4.4)$$

(4.4) ni hisobga olsak, (4.1) dan

$$C(5) = \min \{3; C(6) + 3\} = \min \{3; 4 + 3\} = 3.$$

Endi $C(4)$ ni topish mumkin:

$$C(4) = \min \{C(2) + 4; C(5) + 5\} = \min \{5 + 4; 3 + 5\} = 8. \quad (4.5)$$

Shunday qilib, 1-tugundan 4-tugungacha bo'lgan qisqa yo'lning uzunligi 8. (4.5) munosabatdan ma'lumki, 4-tugunga 5-tugundan borish kerak. 5-tugunga 3-tugundan borish kerak. 3-yugunga esa faqat 1-tugundan birish mumkin. Demak, qisqa yo'l:

$$1 \rightarrow 3 \rightarrow 5 \rightarrow 4.$$

4.5-rasmda va 4.1-jadvalda keltirilgan boshlang'ich qiymatlar uchun qisqa yo'lni topish masalasi to'liq yechildi.

2.2.4. Evristikli qidiruv

Chuqurligi va kengligi bo'yicha qidiruv strategiyalari bosh tugundan chiquvchi yo'llar orasidan hal qiluvchi (qisqa, minimal) yo'lni izlab topishda barcha tugunlarni birma-bir tekshirishga asoslanadi [12, 16]. Ko'rinish turibdiki, bizga faqat tugunlar N va yoylar L ro'yxatidan iborat frag berilgan bo'lsa, u holda maqsadli hal qiluvchi y'olni topishda tugunlarni birma-bir tekshirish yordamida erishish mumkin.

Ko'p hollarda maqsadli hal qiluvchi y'olni topishda tugunlar N va yoylar L ro'yxatidan iborat grafda qidiruvni qisqartirish (vaqtini, hisoblash hajmini) maqsadida ba'zi bir qo'shimcha axborotlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shunday qo'shimcha axborotlar *evristikli* deyiladi. *Evristikli axborotlar yordamida qidiruv evristikli qidiruv deyiladi. Masala haqidagi evristik axborotlarni hisobga olib alternative tugunlarni tanlash protsedurasi evristike deyiladi*

Masala haqidagi qo'shimcha (evristikli) axborotlar ba'zi hollarda tugunlardan iborat HFda, ya'ni tugunlar to'plamida baholash funksiyasi $f(n)$ shaklida sonli ifoda ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

HFdagi n -tugundagi baholash funksiyasi $f()$, n – tugunlardan qidiruvni davom ettirishni baholash uchun haqiqiy son $f(n)$ bilan taqqoslanadi. $f(n)$ ning qiymati qanchalik kichchik (ba’zi masalalarda qanchalik katta) bo’lsa, ushbu n -tugundan qidiruvni davom ettirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Shuning uchun ham evrisrtik qidiruvni ba’zi hollarda maqsadli (afzalli) qidiruv deb atashadi.

Evristik qidiruvning g’oyasi quyidagidan iborat: *yo’lning boshlanish tuguni sifatida nomzod tugunlar orasidan afzalroq tugunni tanlash kerak va ushbi tugun grafdag'i hal qiluvchi yo’lning boshlang’ish tuguni sifatida qabul qilinadi. Undan keyin boshlang’ich tugundan boshlanadigan yo’lni davom ettirish uchun boshlang’ich tugundan chiqadigan bir qancha alternativ tugunlardan baholash funksiyasi kichikroq (ba’zi hollarda kattaroq) qiymatga ega bo’lgan tugun tanlanadi. Yo’lni davom ettirish uchun navbatdagi tugunlarni tanlashda bir qancha alternativ tugunlardan baholash funksiyasi kichikroq (ba’zi hollarda kattaroq) qiymatga ega bo’lgan tugunlar tanlanadi. Tugunlarni tanlash algoritm bo’yicha maqsadli yechimga erishuvchi yo’lni topishgacha davom ettiriladi.*

Baholash funksiyasidan foydalanishga asoslangan ko’plab evristik qidiruv usullari mavjud. Bular qatoriga chiziqli programmalashtirishdagi simpleks usuli, A^* algoritmi, sonli tahlildagi ketma-ket yaqinlashish usullari, minimaxli usullar, al’fa-betta algoritm, dinamik programmalash, shoxlar va chegaralar usuli, bo’linish va baholash usulilarini kiritish mumkin.

Evristik qidiruvni tasvirlash uchun namuna sifatida A^* algoritmini keltiramiz.

2.2.5. A^* qidiruv algoritmi

Bu algoritm HFko’rinishida berilgan tugunlar to’plamida evristik axborotlar baholi funksiya shaklida ifodalanganda evristik qidiruvda qo’llaniladi [12, 16]. Aytaylik, yechiladigan masalaning HFni ifodalovchi grafda $N = \{n_1, n_2, \dots, n_r\}$ – tugunlar to’plami, $L = \{l_1, l_2, \dots, l_s\}$ – yoynlar to’plami berilgan bo’lsin. Ushbu grafdag'i ixtiyoriy $L = (n_i, n_j) \in L$ yoy uchun ushbu yoyning bahosini ifodalovchi $c(n_i, n_j)$ son aniqlangan bo’lsin. Dagar bir nechta maqsadli tugunlar mavjud bo’lsa, u holda boshlang’ich tugunni n_0 , maqsadli tugunni esa t yoki t_i bilan belgilaymiz.

Baholash funksiyasi $f()$ ning qiymatini shunday aniqlaymizki, uning n tugunlardagi qiymati $f(n)$ ikkita qiymatlar yig’indisi bahosidan iborat

bo'ladi:

1) boshlang'ich n_0 tugunlardan n tugungacha bo'lgan yo'lning minimal bahosi;

2) n tugunlardan qaysidir maqsadli t yoki t_i tugungacha bo'lgan yo'lning minimal bahosi;

Agar birinchi bahoni $g^*(n)$ va ikkinchi bahoni $h^*(n)$ bilan belgilasak, u holda $f(n)$ baholsh funksiyasi

$$f^*(n) = g^*(n) + h^*(n)$$

bo'ladi.

$g^*(n)$ va $h^*(n)$ fynksiyalarni $c(n_{i_\alpha}, n_{j_\alpha})$ lar yordamida quyidagicha aniqlash mumkin:

$$g^*(n) = \min_{\{l_\alpha\}_{n_0}^n} \sum_{l_\alpha \in \{l_\alpha\}_{n_0}^n} c(n_{i_\alpha}, n_{j_\alpha}) \quad ; \quad h^*(n) = \min_{l_\alpha} \min_{\{l_\alpha\}_{n_0}^n} \sum_{l_\alpha \in \{l_\alpha\}_{n_0}^n} c(n_{i_\alpha}, n_{j_\alpha})$$

Bu yerda formuladagi $g^*(n)$ uchun minimum boshlang'ich n_0 tugundan n tugungacha bo'lgan barcha $\{l_\alpha\}_{n_0}^n$ yo'llar bo'yicha hisoblanadi. Formuladagi $h^*(n)$ uchun tashqi minimum barcha maqsadli t_i tugunlar bo'yicha, ichki minimum esa boshlang'ich n tugundan tugallanadigan maqsadli t_i tugungacha bo'lgan barcha $\{l_\alpha\}_n^{t_i}$ yo'llar bo'yicha hisoblanadi. $\{l_\alpha\}_m^n$ belgilash, boshlang'ich m tugundan n tugallanadigan ixtiyoriy yo'l uchun foydalilaniladi.

Umumiy holda baholash funksiyasini $f(n) = g(n) + h(n)$ aniqlash mumkin, bu yerda $g(n)$ funksiy - $g^*(n)$ fynksiyalarning qandaydir bahosi (yaqinlashish), $h(n)$ funksiy esa - $h^*(n)$ fynksiyalarning qandaydir bahosi (yaqinlashish). $g(n)$ funksiyining bahosi sifatida n_0 tugunlardan n tugungacha bo'lgan $\{l_\alpha\}_{n_0}^n$ yo'llardagi yoylar bahosining yig'imdisi, ya'ni

$$g(n) = \sum_{l_\alpha \in \{l_\alpha\}_{n_0}^n} c(n_{i_\alpha}, n_{j_\alpha}).$$


Barcha maqsadli bo'limgan tugunlar uchun $h(n) \leq h^*(n)$ shartni qanoatlantiruvchi baholash funksiyasi $f(n) = g(n) + h(n)$ A* algoritmi deb ataladi.

Barcha maqsadli bo'limgan tugunlar uchun $h(n) \leq h^*(n)$ shat qatnashmasa baholash funksiyasi $f(n) = g(n) + h(n)$ A algoritmi deb ataladi.

A va A* algoritmlarida $g(n)$ funksiy $g^*(n)$ fynksiyalarning bahosi hisoblanadi. Ikkala algoritmda ham tugunlarni qidiruvni davom ettirish

uchun alternativ tugunlar orasidan $f(n)$ funksiyaning eng kichchik qiymatiga mos keladigan tugun tanlanadi.


Misol. Aitaylik qidiruvning 1-qadamida S_0 tugun ochilgan bo'lsin va undan yo'lning baholash qiymatlari $\hat{g}(V_1) = 3$ va $\hat{g}(V_2) = 7$ ega bo'lган V_1 va V_2 tugunlar chiqqan bo'lsin. 2-qadamda V_1 tugun ochiladi va undan V_3 va yana V_2 tugun chiqadi, bunda V_1 tugundan V_2 tugunga olib boruvchi yolning baholash funksiyasi qiymati qiymatlari $\hat{g}(V_1) = 3$. Ko'rinib turibdiki, S_0 tugundan V_2 tugungacha bo'lgam qisqa yo'lning bahosi $\hat{g}(V_2) = 6$ (4.6-rasm).



4.6-rasm.

Ta'kidlash joizki, $\hat{g}(V) = 7 \geq g(V) = 6$.


Misol. Aitaylik, A, B, S, D, E, F zavodlar va ular orasidagi yo'l masofalari berilgan bo'lsin (4.7-rasm). Biz A zavoddan F zavodga kelishimiz kerak. Zavodlar orasidagi masofa ikki yoqlama, ya'ni harakat ikki tomonga ham yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.



4.7-rasm. Zavodlarga borish yo'lini qidiruv masalasi.

Bizga tugunlar orasidagi masofalar berilganligi uchun ular orasidagi yo'lni qidiruv uchun BFdan foydalanamiz. A zavodga eng yaqin zavod - B (10km), keyin -S(29), D(47), E(71), F(16). Yo'lning umumiyligi - 173 km bo'lib, u optimal 95 km (A-S-E-F) yo'ldan ancha farq qiladi.


Faraz qilaylik, bizga har bir zavoddan F gacha bo'lgan masofalar ma'lum bo'lsin (4.8-rasm).



4.8-rasm. Zavodlarga to'g'ri borish yo'lini qidiruv masalasi.


Optimal marshrut minimal yo'llardan iborat bo'lgani uchun, ulardan qidiruvning oxirida natijalarni baholash uchun emas, balki qidiruvning har bir qadamida foydalanish kerak. Biz to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmasakda, bizda bosib o'tilgan yo'l haqidagi aniq axborot va evristik funksiya mavjud. Ulardan foydalanib, har bir etapda yo'lning umumiyligini baholash mumkin. *Yechimlar bahosini baholshlar yig'indisini minimallashtirish usuli A* algoritm deb ataladi.*

Baholash funksiyasi $f(n)$ har bir qadamda $f(n) = g(n) + h(n)$ hisoblanadi, bu yerda $g(n)$ -n-tugunda erishiladigan bahosi, $h(n)$ - n-tugunda evristik funksiyaning maqsadga erishiladigan bahosi.



4.9-rasm. Zavodlarga borish yo'lini xasisli qidiruv masalasi.


Baholash funksiyasini 4.10-rasmida keltirilgan zavodlarga borish yo'lining oxirgi varianti uchun qaraymiz. Adan chiqadigan punktlarni qaraydigan bo'lsak, u holda baholash funksiyasi quyidagi qiymatlarga ega bo'ladi (4.10-rasm).



4.10-rasm.


Ko'rinib turibdiki, S minimal BFga ega. Shuning uchun navbatdagi punkt sifatida S punkti tanlanadi.

Ikkinchchi qadamda biz uchib o'tilgan 31 km. yo'lga ega bo'lamiz. Shuning uchun S dan navbatdagi punktlargacha baholash funksiyasi qiymatlari 4.11-rasmdagidek bo'ladi.



4.11-rasm.

Navbatdagi marshrut punkti sifatida E tanlanadi (4.12-rasm)




4.12-rasm.

Edan faqat Dgacha yo'l bor, lekin uning baholash funksiyasining qiymati A-D marshruti baholash funksiyasining qiymatiga nisbatan katta. Bundan kelib chiqadiki, bu marshrut (A-S-E -D - ...) optimal yechimni


bermaydi. Shuning uchun S punktining o'rniga boshqa zavodni tanlash kerak.

Baholash funksiyasi qiymatIning o'sishini e'tiborga olsak, u holda S punktidan keyin B tanlanadi. B tanlanadigan bo'lsa baholash funksiyalri bo'yicha punktlar 4.13-rasmdagidek joylashadi:



Bu yerda D и S punktlari uchun ham olingan baholash fuksilarining qiymatlari oldingi marshrutlarda olingan baholash fuksilarining qiymatlaridan yuqori bo'layapti. Shuning uchun marshrutni Ddan boshlash kerak.


Ddan to'g'ri Fga boriladi (4.14-pacm). Maqsadli yechimga erishildi va u optimal yechim hisoblanadi.



4.14-rasm.

Yechimlar daraxti bahosi. Yechimlar daraxtini aniqlashda ikkita baholash qaraladi. Birinchisi yechimlar daraxtida barcha yoyslar baholari yig'indisidan iborat *yig'indi baho* bo'lsa, ikkinchisi esa yechimlar daraxtida ikkita tugun orasidagi maksimal baholardan tashkil topgan yo'llarning *maksimal bahosidan* iborat. Yo'lning bahosi ushbu yo'lni tashkil etuvchi yoyslar baholari yig'indisi bilan aniqlanadi.

Misol. Keltirilgan tushunchalarni 4.17-rasmda keltirilgan daraxtli yechimda tushuntishirish mumkin, bu yerda yoyslarning raqamlar baholarni anglaradi. Bu misolda *yig'indi baho* 23, *maksimal baho* 17ga teng.



4.17-rasm. Reduksiyali grafda yechimlar daraxti.


Minimal bahoga ega bo'lgan echinlar daraxti optimal deyiladi.

Nazorat savollari


1. Masalalarning holatini tavsiflashning qanday shakllari mavjud ?
2. Daraxtda tugunlarning pog'onalari qanday aniqlanadi ?
3. Daraxtda masalalar ostilarining o'zaro aloqasi strukturasi qanday tiplarda bo'lishi mumkin ?
4. SITlari masalalarini yechishda qo'llaniladigan mavjud usullarni qanday sinflarga ajratiladi?
5. Holatlar fazosida yechimni qidiruv usullari odatda qanday tiplarga bo'linadi?
6. Umumiy holda holatlar daraxtini qandy ko'rinishda beriladi?
7. Holatlar daraxtini qurish qanday amalgaga oshiriladi?
8. Baholash funksiysi nima va qanday aniqlanadi?
9. Tugunlarning chuqurligi deganda nima tushuniladi?
10. Chuqurligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi nimadan iborat?
11. Kengligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi nimadan iborat ?
12. Evristik qidiruvning g'oyasi nimadan iborat ?
13. Umumiy holda A* algoritmda baholash funksiyasi qanday ko'rinishda aniqlanadi?

Nazorat testlari

1. Daraxtda masalalar ostilarining o'zaro aloqasi strukturasitiplarda bo'lishi mumkin.
 - a) VA-strukturalar va VA-YOKI-strukturalar;
 - b) VA-strukturalar va VA-U HOLDA-strukturalar;
 - c) VA-strukturalar va U HOLDA-YOKI-strukturalar;
 - e) AGAR -U HOLDA -strukturalar va VA-YOKI-strukturalar.
2. Daraxtda A masala yechiladi, agardamasalalar yechilsa.



- a) B va C yoki D; b) B yoki E; c) B va C yoki G; e) B va C yoki H.
 3. Berilgan daraxtga mos mantiqiy formulani quring?.



- a) $((E \vee F) \rightarrow B) \wedge (G \rightarrow C) \vee ((H \wedge I) \rightarrow D) \rightarrow A;$
 б) $((E \wedge F) \rightarrow B) \wedge (G \rightarrow C) \vee ((H \vee I) \rightarrow D) \rightarrow A;$
 в) $((E \rightarrow F) \rightarrow B) \wedge (G \rightarrow C) \vee ((H \rightarrow I) \rightarrow D) \rightarrow A;$
 г) $((E \vee F) \rightarrow B) \rightarrow (G \rightarrow C) \vee ((H \wedge I) \rightarrow D) \rightarrow A.$

4. SITlari masalalarini yechishda bir o'lchovli fazoda yechimni qidiruv usullaridan foydalilanildi;

- a) o'lchovi katta bo'limgan sohalarda, modellar to'liq, ma'lumotlar aniq va to'liq bo'lganda;
 б) o'lchovi kichchik bo'limgan sohalarda, modellar to'liq, ma'lumotlar aniq va to'liqmas bo'lganda;
 в) o'lchovi katta bo'lgan sohalarda, modellar to'liqmas, ma'lumotlar aniqmas va to'liq bo'lganda;
 г) o'lchovi katta bo'limgan sohalarda, modellar to'liqmas, ma'lumotlar aniq va to'liqmas bo'lganda.

5. SITlari masalalarini yechishda ierarhik fazoda yechimni qidiruv usullaridan foydalilanildi;

- a) o'lchovi katta bo'lgan sohalarda yechimlarni qidiruvda;
 б) o'lchovi kichchik bo'lgan sohalarda yechimlarni qidiruvda;
 в) o'lchovi aniqmas bo'lgan sohalarda yechimlarni qidiruvda;
 г) o'lchovi aniq, lekin yechimi aniqmas sohalarda yechimlarni qidiruvda.

6. Grafda yo'lni chuqurligi bo'yicha qidiruvda ixtiyoriy tugunning

baholash funksiyasi qiymati ushbu bo'ladi.

a) tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga to'g'ri proporsional;

б) tugundan oxirgi tugungacha bo'lgan masofaga to'g'ri proporsional;

в) tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga teskari proporsional;

г) tugundan oxirgi tugungacha bo'lgan masofaga teskari proporsional.

7. Grafda yo'lni kengligi bo'yicha qidiruvda ixtiyoriy tugunning baholash funksiyasi qiymati ushbu bo'ladi.

a) tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga teskari proporsional;

б) tugundan oxirgi tugungacha bo'lgan masofaga to'g'ri proporsional;

в) tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga to'g'ri proporsional;

г) tugundan oxirgi tugungacha bo'lgan masofaga teskari proporsional.

8. Grafda yo'lni kengligi bo'yicha qidiruv strategiyasida yechimni qidiruv tupikli holatga kelib qolsa, u holda qidiruv davom ettiriladi.

а) oldingi tugunga qaytiladi va ushbu tugundan yechimni kengligi bo'yicha;

б) keyingi tugunga o'tiladi va ushbu tugundan yechimni kengligi bo'yicha;

в) oldingi tugunga qaytiladi va ushbu tugundan yechimni chuqurligi bo'yicha;

г) faqat boshlang'ich tugunga qaytiladi va ushbu tugundan yechimni kengligi bo'yicha.

9. A* algoritmda baholash funksiyasi umumiy holda qanday beriladi?

а) $f(n) = g(n) + h(n)$; б) $f(n) = h(n)$; в) $f(n) = g(n)$;

г) $f(n) = g(n) + h(n)+1$.


Masala va topshiriqlar

1. A boshlang'ich tugunli 3 va 5 qatlamlı “va-yoki” tipli daraxtnı quring.


2. “Agar B va C yoki D va K masalalar yechilsa, u holda A va E yoki F va G masalalar yechiladi” mulohazani graf ko'rinishda tasvirlang.

3. $((E \rightarrow F) \rightarrow B) \wedge (G \rightarrow C) \vee ((H \rightarrow I) \vee D) \rightarrow A$ mantiqiy formulani graf ko'rinishda tasvirlang.


4. Quyidagi "va-yoki" graflar uchun mantiqiy formulalarni tuzing:



5. Robot o'z harakatini n punktlarning ixtiyoriy bittasidan boshlab, har birida faqat bir martadan bo'lib, yana boshlang'ich punktiga qaytib kelishi kerak. Quyidagi grafda berilgan $A \rightarrow G, G \rightarrow V, B \rightarrow E, A \rightarrow E$ marshrutlar uchun eng uzun yo'lni toping. Ushbu marshrutlarni daraxt ko'rinishda tasvirlang.




6. Robot o'z harakatini n punktlarning ixtiyoriy bittasidan boshlab, har birida faqat bir martadan bo'lib, yana boshlang'ich punktiga qaytib kelishi kerak. Quyidagi grafda berilgan $A \rightarrow E, A \rightarrow H, B \rightarrow H, V \rightarrow E$ marshrutlar uchun eng qisqa yo'lni toping. Ushbu marshrutlarni daraxt ko'rinishda tasvirlang.



7. Quyida robotning harakati marshruti keltirilgan. Kyeltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, robotning bir tugun(punkt)dan boshqa tugungacha bo'lган eng uzun yo'lни toping:


- 1) 1-tugundan 5 –tugungacha; 2) 2-tugundan 5 -tugungacha.



8. O'zbekiston Respublikasi kartasidan foydalanib, viloyatlarni bog'lovchi transport harakati marshrutini cuqurligi va kengligi bo'yicha qidiruv algoritmlari asosida aniqlang va graf ko'rinishda tasvirlang.

9. O'zbekiston Respublikasi kartasidan foydalanib, viloyatlarini bog'lovchi transport harakati marshrutlari orasidan A* algoritm asosida optimal transport harakati marshrutini toping va graf ko'rinishda tasvirlang.

10. Aytaylik, zavodlar orasidagi masofalar berilgan bo'lzin.



Zavodlar orasidagi masofa biryoqlama, ya'ni harakat bir tomonga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Zavodlar orasidagi masofaning yig'indi qiymati va maksimal qiymatini aniqlang:


- 1) A-K; 2) A-Д; 3) A-Е; 4) A-И; 5) A-Г; 6) A-В.

5-BOB. QAROR QABUL QILISHNING MARKOV JARAYONLARI VA O'YINLAR NAZARIYASI

1-§. Hodisalar oqimi

Hodisalar oqimi - bu turli vaqt momentlarida birin-ketin paydo bo‘ladigan bir jinsli hodisalar ketma-ketligidir. Masalan: telefon stantsiyasidagi qo‘ng‘iroqlar oqimi; kompyuterdagi uzelishlar oqimi; hisoblash markazidagi hisoblashlar uchun talablar oqimi va h.k.

Hodisalar oqimi absissa o‘qidagi Q_1, Q_2, \dots, Q_n nuqtalar yordam ifodalanadi (5.1-rasm).



5.1-rasm. Hodisalar oqimi realizatsiyasi.

Ular orasidagi intervallar bilan birga:

$$T_1 = Q_2 - Q_1; T_2 = Q_3 - Q_2; T_n = Q_{n+1} - Q_n.$$


Hodisalar oqimini ehtimoliy izohlash tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi sifatida

$$Q_i; Q_2 = Q_1 + T_1; Q_3 = Q_1 + T_1 + T_2; \dots;$$

ifodalanishi mumkin.

5.1-rasmida nuqtali qator sifatida hodisalar oqimi emas, balki uning bitta aniq tatbiqi ifodalangan.

Hodisalar oqimi *asoratsiz* deyiladi, agarda ixtiyoriy τ vaqt oralig‘iga tushadigan hodisalar soni kesishmaydigan boshqa oraliqqa tushgan hodisalar soniga bog‘liq bo‘lmasa. Amaliy jihatdan oqimda asoratlar bo‘lmasisligi, oqim hosil qiluvchi hodisalarining u yoki bu vaqt momentlarida paydo bo‘lishi bir-biriga bog‘liqmasligini bildiradi.



5.2-rasm.- Hodisalar oqimi tasodifiy jarayon sifatida.

Hodisalar oqimi *statsionar* deyiladi, agarda uning tasodifiy tavsiflari hisob boshini tanlashga bog'liq bo'lmasa, aniqrog'i biror sondagi hodisalarning biror vaqt oralig'iغا tushishi faqatgina shu oraliq uzunligiga bog'liq bo'lsa va ($0-t$) o'qning qayerida joylashganligiga bog'liq bo'lmasa.

Hodisalar oqimi *ordinar* deyiladi, agarda elementer Δt vaqt oraig'iغا ikki yoki undan ortiq hodisalarning tushish ehtimoli bu oraliqqa bitta hodisaning tushish ehtimoliga nisbatan yetarlicha kichik bo'lsa.

Hodisalarning *ordinar* oqimini t vaqt momentigacha paydo bo'ladigan $X(t)$ hodisalar oqimining tasodifiy jarayoni sifatida qarash mumkin (5.2-rasm).

$X(t)$ tasodifiy jarayon Q_1, Q_2, \dots, Q_n nuqtalarda sakrashsimon bir qiymatga oshadi.

Hodisalar *oqimi oddiy* deyiladi, agarda u statsionar, ordinar va asoratlarsiz bo'lsa. Oddiy oqimdagи ikki qo'shni hodisalar orasidagi T vaqt oralig'i musbat taqsimotga ega:

$$f(t) = \lambda e^{-\lambda t} \quad (t > 0 \text{ bo'lганда}).$$

Bu yerda $\lambda = 1/M[T]$ - T oraliq o'rtacha qiymatiga teskari kattalik.

Asoratlarsiz hodisalarning ordinar oqimi *Puasson oqimi* deyiladi. Oddiy oqim statsionar Puasson oqimining xususiy holi hisoblanadi.

Hodisalar oqimining *intensivligi* λ deb, vaqt birligida kelib tushadigan hodisalarning o'rtacha soniga aytildi. Statsionar oqim uchun $\lambda = \text{const}$; nostatsionar oqim uchun u vaqtga bog'liq bo'ladi, ya/ni $\lambda = \lambda(t)$.


Oqimning *oniy intensivligi* $\lambda(t)$ - $(t, t + \Delta t)$ vaqt oralig'iда sodir bo'ladigan hodisalarning o'rtacha soni $\Delta t > 0$ oraliq uzunligiga nisbatiga aytildi. t_0 momentdan keyin keladigan τ vaqt oralig'iда kelib tushadigan hodisalarning o'rtacha soni teng bo'ladi (5.2-rasmga qarang):

$$a_0(t_0, \tau) = \int_{t_0}^{t_0 + \tau} \lambda(t) dt.$$

Agar hodisalar oqimi statsionar bo'lsa, u holda $a_0(t_0, \tau) = a(\tau) = \lambda \tau$.

Hodisalarning ordinar oqimi *Palma oqimi* (rekurrent oqim yoki chegaralangan asoratlari oqim) deyiladi, agarda hodisalar orasidagi T_1, T_2, \dots vaqt intervallari o'zaro mustaqil ravishda bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlarni ifodalasa. T_1, T_2, \dots taqsimotlarning bir xilligidan Palma oqimi har doim statsionardir. Oddiy oqim Palma oqimi xususiy holi bo'lib, unda hodisalar orasidagi intervallar ko'rsatilgan qonun bo'yicha taqsimlangan, bu yerda λ - oqim intensivligi.

k-tartibli Erlang oqimi deb, shunday oqimga aytildiki, bunda oddiy oqimdan *k*-nuqta (hodisa) saqlanib, boshqa oraliq nuqtalar tashlab yuboriladi. 5.3-rasmida oddiy oqimdan 4-tartibli Erlang oqimini olish ko'rsatilgan.



5.3-rasm.

k-tartibli Erlang oqimida ikki qo'shni hodisa orasidagi vaqt intervali λ parametr bilan ko'rgazmali taqsimotga ega k ta T_1, T_2, \dots, T_k mustaqil tasodifiy miqdorlar yig'indisini ifodalaydi:

$$T = \sum_{i=1}^k T_i.$$

T tasodifiy miqdor taqsimot qonuni *k-tartibli Erlang qonunu* deyiladi va

$$f_k(t) = \frac{\lambda(\lambda t)^{k-1}}{(k-1)!} e^{-\lambda t} \quad (t > 0 \text{ bo'lganda}).$$

zichlikka ega.

T tasodifiy miqdorning matematik kutilma, dispersiya va o'rtacha kvadratik chetlashishi mos ravishda

$$m_t = k/\lambda; D_t = k/\lambda^2; \sigma_t = \sqrt{k}/.$$

aniqlanadi.

T tasodifiy miqdorning

$$U_t = \sigma_t / m_t = 1/\sqrt{k}$$

hisoblanadi.

Erlang oqimi tartibi ortishi bilan hodisalar orasidagi tasodifiylik darajasi nolga intiladi.

Agar oddiy oqimni siyraklashtirish bilan birga $[0-t]$ o'qi masshtabini (k ga bo'lish orqali) o'zgartirsak, intensivligi k ga bog'liq bo'limgan normallangan *k*-tartibli Erlang oqimi paydo bo'ladi.

Normallangan *k*-tartibli Erlang oqimidagi tasodifiy miqdorning sonli tavsiflari quyidagilarga teng:

$$M|\bar{T}| = 1/\lambda; D|\bar{T}| = 1/k\lambda^2; \bar{\sigma}_t = 1/\lambda\sqrt{k}; u_t = 1/\sqrt{k}.$$

k ortishi bilan normallangan Erlang oqimi chegaralanmagan holda hodisalar orasidagi $I = 1/\lambda$ o'zgarmas intervalllik regulyar oqimga intiladi.

2-§. Markov modeli va Markov tasodifiy jarayonlari

2.1. Markov modeli

Markov zanjirlarining asosiy tushunchalarini 1907 yilda A.A. Markov kiritgan. Shu vaqtan boshlab bu nazariyani ko‘plab matematiklar rivojlantirdi. Oxirgi vaqtarda Markov zanjirlari biologik va sotsiologik tadqiqotlarda keng qo‘llanila boshladi. Inson faoliyatining ko‘plab sohalarida biz kutish holatlariga duch kelamiz. Bunday holatlar bilet sotuvchi kassalarda, aeroportlarda samolyotlarning uchishi yoki qo‘nishiga ruxsat olishni xizmatchilar tomonidan kutish, telefon stantsiyalarida abonentlar tomonidan liniyalarning bo‘sashini kutish, ta’mirlash sexlarida stanoklarning va jihozlarning ta’mirlanishini kutish, materiallarni transportga ortish yoki tushirishda transportning bo‘sashini kutish va h.k. misollarni keltirish mumkin. Keltirilgan barcha misollarda biz ommaviylik va xizmat ko‘rsatish holatlariga duch kelamiz. Bunday holatlarni o‘rganish bilan ommaviy xizmat ko‘rsatish nazariyasi shug‘ullanadi. Ommaviy xizmat ko‘rsatish nazariyasida xizmat ko‘rsatiladigan ob’ektlarni talablar deb atashadi. Umumiy holda talab deganda qandaydir ehtiyojni qondirish tushuniladi, masalan, abonent bilan gaplashish, samolyotni qo‘ndirish, biletni sotish, omborxonadan xomashyolarni olish.

2.2. Markov tasodifiy jarayonlari


Asosiy faktorlardan biri - bu hodisalarning tasodifiylik faktori hisoblanadi. Bunda tasodifiylik faktori statistik turg‘unlik xossasiga ega bo‘lishi kerak. Tasodifiylik faktorining statistik turg‘unligi-bu tasodifiy hodisalarning statistik qonunlarga bo‘ysinshi hisoblanadi. Tasodifiylik faktorining statistik turg‘unligi sharti tasodifiy jarayonlar nazariyasining samarali matematik usullaridan, xususiy holda Markov jarayonlari nazariyasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Markov tasodifiy jarayonlari rus matematigi A.A. Markov tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu nazariya diffuziyali tasodifiy jarayonlar, ishonchlilik nazariyasi, ommaviy xizmat ko‘rsatish nazariyalarining rivojlanishi uchun baza bo‘lib xizmat qildi. Hozirgi vaqtda Markov tasodifiy jarayonlari va uning ilovalari mexanika, fizika, ximiya va boshqa sohalarda keng miyosda qo‘llanilmoqda.

Markov tasodifiy jarayonlari tasodifiy jarayonlarning xususiy holi hisoblanadi. O‘z navbatida tasodifiy jarayonlar tasodifiy funksiyalarga

asoslanadi. Tasodifiy funksiya deb - argumentlarning ixtiyoriy qiymatlarida tasodifiy qiymat qabul qiluvchi funksiyaga aytildi. Boshqacha aytganda, tasodifiy funksiyaning ko‘rinishi har bir sinovda oldindan noma’lum bo‘ladi. Bunga misollar sifatida: elektr zanjiridagi kuchlanishning tebranishi, yo‘l qismida chegaralangan tezlikda harakatlanayotgan avtomobil harakat tezligi, aniq sohada detal sirtining notekisligi va h.k.larni keltirish mumkin. Qoidaga ko‘ra, agarda tasodifiy funksiyaning argumenti vaqt hisoblansa, u holda jarayon tasodifiy bo‘ladi.

Agar holatni S_i va bog‘liqlikni $S_i(t)$ bilan belgilasak, u holda bunday bog‘liqlik tasodifiy funksiya bo‘ladi.

Tasodifiy jarayon *Markov jarayoni* deyiladi, agarda u quyidagi xossalarga ega bo‘lsa: ixtiyoriy t_0 vaqt momenti uchun tizimning keyingi ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) uning hozirgi holatiga bog‘liq ($t = t_0$) bo‘lib, tizimning bunday holatga qanday kelganligiga bog‘liq bo‘lmasa. Bu yerda faqat S_1, S_2, \dots, S_n uzlukli (diskretli) holatli Markov jarayonlarini qarab chiqamiz. Bunday jarayonlarni holatlar grafi orqali ko‘rsatish qulayroq (5.4-rasm), bu yerda to‘rtburchaklar (yoki doirachalar bo‘lishi mumkin) S_1, S_2, \dots, S_n tizim holatlari, strelkalar bir holatdan boshqa holatga mumkin bo‘lgan o‘tishlar (grafda faqat bevosita o‘tishlar belgilanib, boshqa holatlardan bilvosita o‘tishlar ko‘rsatilmaydi).



5.4-rasm. Tasodifiy jarayon holatlar grafi.

Ba’zan holatlar grafida nafaqat mumkin bo‘lgan o‘tishlar, balki oldingi holatlardagi kutilishlar ham ifodalanadi. Bu shu holatga qaytib keluvchi strelka (“sirtmoq”) shaklida tasvirlanadi, lekin ko‘rsatilmasligi ham mumkin. Holatlar soni chekli yoki cheksiz bo‘lishi mumkin.

Uzlukli vaqtli va uzlukli holatli Markov tasodifiy jarayoni *Markov zanjiri* deyiladi. Bunday jarayon uchun S tizim o‘z holatini o‘zgartiradigan t_1, t_2, \dots momentlarni jarayonning ketma-ket qadamlari sifatida qarash qulay bo‘lib, jarayon bog‘liq bo‘lgan argument sifatida t vaqtini emas, balki qadam raqami $1, 2, \dots, k$ olinadi.


Tasodifiy jarayon bu holda quyidagi holatlar ketma-ketligi bilan tavsiflanadi;

$$S(0), S(1), S(2), \dots, S(k),$$

bu yerda $S(0)$ - tizim boshlang‘ich holati (birinchi qadamdan oldin); $S(1)$ - birinchi qadamdan keyingi tizim holati; $S(k)$ - k -qadamdan keyingi tizim holati.

S_i ($i=1,2,\dots$) hodisa tasodifiy hisoblanadi, shuning uchun holatlar ketma-ketligini tasodifiy hodisalar ketma-ketligi sifatida qarash mumkin. Boshlang‘ich $S(0)$ holat oldindan berilgan yoki tasodifiy bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi hodisalar ketma-ketligi Markov jarayonlarini tashkil etadi.

n ta mumkin bo‘lgan S_1, S_2, \dots, S_n holatlari jarayonni qaraymiz. Agar $X(t)$ orqali t momentdagi S tizim holati raqamini belgilasak, u holda jarayon qiymatlari $1, 2, \dots, n$ ga teng butun sonli tasodifiy funksiya $X(t) > 0$ orqali ifodalanadi. Bu funksiya berilgan t_1, t_2, \dots vaqt momentlarida bir butun qiymatdan boshqa butun qiymatga sakrashni amalga oshiradi va chapdan uzluksizdir.



5.5-rasm. Tasodifiy jarayon grafigi.

$X(t)$ tasodifiy funksiya bir o‘lchovli taqsimot qonunini qaraymiz. $P_i(k)$ orqali k qadamdan keyin [va $(k+1)$ qadamgacha] S tizim S_i ($i=1,2,\dots,n$) holatda bo‘lish ehtimolini belgilaymiz. $P_i(k)$ ehtimolni Markov zanjiri holatlari ehtimoli deyiladi. Ixtiyoriy k uchun $\sum_{i=1}^n P_i(k) = 1$.

Jarayon boshida holatlar ehtimollari $P_1(0), P_2(0), \dots, P_i(0), \dots, P_n(0)$ taqsimlanadi. Bu esa Markov jarayonlari ehtimollarini *boshlang‘ich taqsimlash* deyiladi. Xususan, agar S tizim boshlang‘ich holati $S(0)$ aniq ma’lum bo‘lsa, masalan $S(0) = S_i$, u holda boshlang‘ich ehtimol $P_i(0) = 1$, qolgan barchasi nolga teng bo‘ladi.

k -qadamda S_i holatdan S_j holatga o‘tish ehtimoli ($k-1$) qadamdan keyin S_i holatda bo‘lganligi va k -qadamda S_j holatga o‘tishining shartli ehtimolidir. Bunday ehtimollar o‘tish ehtimollari deb nomlanadi.

Markov zanjiri *bir jinsli* deyiladi, agar o‘tish ehtimollari qadam raqamiga bog‘liq bo‘lmasdani, faqat qaysi holatdan qaysiga holatga o‘tishiga bog‘liq bo‘lsa:

$$P\{S(k)=S_j | S(k-1)=S_i\} = P_{ij}$$

P_{ij} bir jinsli Markov zanjiri o'tish ehtimollari $n \times n$ o'lchovli kvadrat matritsani tashkil qiladi:

$$\|P_{ij}\| = \begin{vmatrix} P_{11} & P_{12} & \dots & P_{1j} & \dots & P_{1n} \\ P_{21} & P_{22} & \dots & P_{2j} & \dots & P_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ P_{i1} & P_{i2} & \dots & P_{ij} & \dots & P_{in} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ P_{n1} & P_{n2} & \dots & P_{nj} & \dots & P_{nn} \end{vmatrix}. \quad (5.1)$$

Agar $\sum_{j=1}^n P_{ij}(k) = 1 (i=1, \dots, n)$ bo'lsa, u holda P_{ij} matritsa *stoxastik* deyiladi.

P_{ij} - ehtimol tizimning S_j holati keying qadamda ham qolishi ehtimolidir.

Agar bir jinsli Markov zanjiri uchun ehtimollarning boshlang'ich taqsimoti va o'tish ehtimollari matritsasi berilgan bo'lsa, u holda tizim holatlari ehtimollari $P_i(k) (i=1, \dots, n)$ recurrent

$$P_i(k) = \sum_{j=1}^n P_j(k-1) P_{ij} \quad (i=1, 2, \dots, n)$$

formula orqali aniqlanadi.

Bir jinslimas Markov zanjiri uchun matritsa va formulada o'tish ehtimollari k - qadam raqamiga bog'liq bo'ladi.

Bir jinsli Markov zanjiri uchun barcha holatlar o'rini va chekli, y'ani $P_i = \sum_{j=1}^n P_j P_{ji}$ va $\sum_{j=1}^n P_j = 1$ bo'lsa, u holda tenglamalar tizimi orqali aniqlanadigan $\lim_{u \rightarrow \infty} P_i(u) = P_i$ mavjud. Matritsa ixtiyoriy satridagi o'tish ehtimollari yig'indisi birga teng. Formula bo'yicha hisoblashlarda barcha S_j holatlarni hisobga olish shart emas, balki faqat o'tish ehtimollari noldan farqli bo'lganlarini olish kerak.

Tasodifiy jarayonlar S_i holatning va t argumentning ko'rinishiga qarab sinflashtiriladi. Shundan kelib chiqib, tasodifiy jarayonlar uzlukli holatlari yoki vaqtli, uzluksiz holtli yoki vaqtli bo'lishi mumkin. Masalan, ixtiyoriy tanlab olingan mahsulot uzlukli holatlari (S_1 -yaroqli, S_2 -yaroqsiz) va uzlukli vaqtli (t_1, t_1 -tekshirish vaqtleri) tasodifiy jarayonga qarashli bo'ladi. Shuningdek, ixtiyoriy mashinaning rad etish holatini uzlukli holatlari va uzluksiz vaqtli tasodifiy jarayon sifatida qarash mumkin. Termometrni qandaydir aniq vaqtdan keyin tekshirishlarni uzluksiz holatlari va uzlukli vaqtli tasodifiy jarayon sifatida qarash mumkin.

Yuqorida sinflashtirishga oid ko'rsatilgan misollaridan tashqari tasodifiy jarayonlarning yana bir muhim xususiyati mavjud. Bu xususiyat tasodifiy jarayonlar o'rtasidagi ehtimolli aloqalarni tavsiflaydi.

Agarda tasodifiy jarayonda tizimning har bir navbatdagi holatga o'tish ehtimolligi faqat oldingi holatga $P_{i(i+1)} = f(S_i)$ bog'liq bo'lsa, u holda bunday jarayon *Markovning oddiy zanjiri* deb ataladi.

Agarda tasodifiy jarayonda tizimning har bir navbatdagi holatga o'tish ehtimolligi faqat oldingi holatga bog'liq bo'lmasdan, balkim undan oldingi holatlarga ham $P_{i(i+1)} = f(S_i, S_{i-1}, S_{i-2}, \dots)$ bog'liq bo'lsa, u holda bunday jarayon *Markovning mutakkab zanjiri* deb ataladi.

Uzlukli holatli va vaqtli tasodifiy jarayonlar tasodifiy ketma-ketlik deyiladi.

Agar tasodifiy ketma-ketlik Markovli xususiyatga ega bo'lsa, u holda u Markov zanjiri deyiladi. Boshqa tomondan, agar tasodifiy jarayonda holat uzlukli, vaqt uzlusiz va natijaviylik xususiyati saqlansa, u holda bunday tasodifiy jarayon uzlusiz vaqtli Markov jarayoni deb ataladi.

Markov zanjiri berilgan deb hisoblanadi, agarda ikkita shart berilgan bo'lsa:

1. O'tish ehtimollarining barchasini ifodalovchi (5.1) o'tish matritsa mavjud bo'lsa. Matritsaning elementlari jarayonning bir qadamida i -holatdan j -holatga o'tish ehtimolligini bildiradi.

2. Tizimning boshlang'ich holatini tavsiflovchi boshlang'ich ehtimollar vektori

$$P(0) = \langle P_{01}, P_{02}, \dots, P_{0n} \rangle. \quad (5.2)$$

(5.2) ko'rinishdagi matritsa *stoxastikli* deyiladi.

Markov zanjirlarini matrirsa ko'rinishdan tashqari yo'naltirilgan graf ko'rinishda ham tasvirlash mumkin. Bunda grafning tugunlari S_i holatni, yoylari esa-o'tish ehtimollarini bildiradi.

Markov zanjirlari tizimining holati tizimlar munosabatini hisobga olib quyidagicha sinflashtiriladi:

a) muhim holat-bunda S_i holatdan S_j holatga va S_j holatdan S_i holatga o'tishlar mavjud bo'lsa;

б) muhim bo'lмаган holat - bunda S_i holatdan S_j holatga o'tishlar mavjud va S_j holatdan S_i holatga o'tishlar mavjud bo'lmasa.

Aytaylik qandaydir S tizim (texnik qurilma, texnik qurilmalar to'plami, texnologik tizim - stanok, maydon, sex, tashkilot, ishlab chiqarish korxonasi va b.q) berilgan bo'lsin. S tizimda tasodifiy jarayon ketadi,

agarda u oldindan noma'lum tasodifiy holda o'zining holatini vaqt o'tishi bilan o'zgartirsa (bir holatdan boshqa holatga o'tadi).

Misollar: 1. S tizim - texnologik tizim (stanoklar uchastkasi). Stanoklar vaqtiga bilan ishdan chiqadi va ta'mirlanadi. Bu tizimda kechayotgan jarayon tasodifiy hisoblanadi.

2. S tizim - samolyot. Samolyot aniq marshrut bilan belgilangan balandlikda uchadi. Ta'sir etuvchi faktorlar: ob-havo sharoiti, shaxsiy tarkib hatolari va h.k., natija - «chayqalish», uchish jadvalining buzilishi va h.k.

Tasodifiy jarayon Markov jarayoni deyiladi, agarda u quyidagi xossalarga ega bo'lsa: ixtiyoriy t_0 vaqt momenti uchun tizimning keying ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) uning joriy holatiga bog'liq ($t = t_0$) bo'lib, tizimning bunday holatga qanday kelganligiga bog'liq bo'lmasa.

Aytaylik joriy t_0 vaqt momentida tizim S_0 holatda bo'lsin. Biz joriy t_0 va $t < t_0$ (jarayonning oldingi holatlari) vaqt momentlarida tizimning S_0 holatining xarakteristikalarini bilamiz. Biz bu jarayon kelajakda, y'ni $t > t_0$ bo'lganda qanday kechishini oldindan ayta olamizmi? Buni aniqlikda aytolmaymiz, lekin kelajakdag'i jarayonni qandaydir ehtimollik bilan aniqlash mumkin. Masalan, qandaydir τ vaqtidan keyin S tizim S_1 holatga o'tadi yoki S_0 holatda qoladi va h.k.

Misol. S tizim - havo jangida qatnashuvchi samolyotlar guruh bo'lsin. Aytaylik x -«qizil» samoyotlar soni, y -«ko'k» samoyotlar soni. t_0 vaqtida saqlangan (urib tushirilmagan) samolyotlar soni mos ravishda - x_0 , y_0 . Bizni qiziqtirayotgan masala-bu ($t_0 + \tau$) vaqtida yutuq - «qizil» samoyotlar tarafida bo'lishi. Bu ehtimol t_0 vaqt momentigacha urib tushirilgan samolyotlarning qachon va qanday ketma-ketlikda yo'q qilinganligi emas, balkim t_0 vaqtida tizim qanday holatda bo'lganligidan bog'liq bo'ladi.


Jarayon *uzlukli* holatli jarayon deyiladi, agarda uning mumkin bo'lgan S_1, S_2, S_3, \dots holatlarini oldindan aniqlash mumkin bo'lsa va tizimning bir holatdan boshqa holatga o'tishida amaliy jihatdan juda tez "sakrash" ro'y bersa.

Jarayon *uzluksiz* holatli jarayon deyiladi, agarda uning mumkin bo'lgan S_1, S_2, S_3, \dots holatlarida bir holatdan boshqa holatga o'tish oldindan qayd qilinmagan, aniqlanmagan, tasodifiy va ixtiyoriy holatda sodir etiladigan bo'lsa.

Misol. S texnologik tizim ikkita stanokdan iborat bo'lib, ulardan ixtiyoriy bittasi tasodifiy vaqt momentida buzilishi mumkin. Bu holda tizimda quyidagi holatlar bo'lishi mumkin:

S_0 - ikki stanok ham soz; S_1 - bиринчи stanok ta'mirlanadi, ikkinchisi soz; S_2 - ikkinchi stanok ta'mirlanadi, birinchisi soz; S_3 - ikki stanok ham ta'mirlanadi.


Agar S tizimda tasodifiy momentda u yoki bu stanok buzilsa yoki stanokni ta'mirlash tugatilsa, u holda bu tizimda bir holatdan boshqa holatga o'tishlar juda tez amalga oshiriladi. Bu jarayonni o'tish grafi yordamida tasvirlaymiz. Grafning tigunlariga tizimning holatlarini va yoqlariga esa-tizimning bir holatdan boshqa holatga o'tishlarini mos qo'yamiz. U holda misolda qaralgan tasodifiy jarayonlar graf ko'rinishida 5.6-rasmdagidek tasvirlanadi.



5.6-rasm. Tizimning holatlar grafi.


5.6-rasmda S_0 holatdan S_3 holatga o'tish ko'tsatilmagan, sababi stanoklar bir-birida bog'liq bo'lмаган holda buzilish mumkin.

Uzlukli vaqtli Markov jarayoni. Bu holda i - va j - holatlarning bir-biri bilan bo'glanishlarini (i - holatdan j - holatga o'tish) ifodalovchi Markov jarayoni modeli 5.7-rasmda ko'rsatilgan.




5.7-rasm.

Har bir o'tish P_{ij} o'tish ehtimoli bilan xarakterlanadi. Bir holatdan boshqa holatlarga o'tish ehtimollari yig'indisi 1 ga teng bo'lishi kerak (5.8-rasm).




5.8-rasm. Bir holatdan boshqa holatlarga o'tishning Markovli grafi.

Har bir holatdan boshqa holatlarga o'tish ehtimollari yig'indisi 1 ga teng bo'lishi kerak (5.9-rasm).



5.9-rasm. Har bir holatdan boshqa holatlarga o'tishning Markovli grafi.

Uzluksiz vaqtli Markov tasodifiy jarayonlari. Uzluksiz vaqtli Markov jarayoni modelida holatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aloqalarini (i -holatdan j -holatga o'tishlar) graf yordamida tasvirlash mumkin (5.10-rasm).



5.10-rasm. Uzluksiz vaqtli Markov jarayoni grafi.

5.10-rasmda har bir o'tish λ_{ij} o'tish ehtimollari zichligi bilan xarakterlanadi. Ta'rifga asosan:

$$\lambda_{ij} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{P_{ij}(\Delta t)}{\Delta t}$$

Bu holda zichlik vaqt bo'yicha ehtimolli taqsimot kabi tushuniladi. Tasodifiy vaqt momentlarida i -holatdan j -holatga o'tishda λ_{ij} o'tishning intensivligini aniqlaydi. Jarayon uzluksiz, ya'ni vaqt bo'yicha taqsimlanganda intensivlik o'tishlarga (bu yerda intensivlik o'tishlar vaqt bo'yicha ehtimolli taqsimot tushunchasi bilan mos tushadi) o'tiladi.

Oqimlar yordamida hodisalarning yuzaga kelish λ_{ij} intensivligi ma'lum bo'lganda, oqimda ikki hodisa o'rtaсидаги tasodifi intervalni hosil qilish mumkin:

$$\tau_{ij} = -\frac{1}{\lambda_{ij}} \ln(R),$$


bu yerda τ_{ij} -i- va j-holatlarda tizimlarni topish o'rtaсидаги vaqtli interval.

Tizim $\lambda_{ij}, \lambda_{i(j+1)}, \lambda_{i(j+2)}, \dots$, o'tishlar bilan bog'liq holda ixtiyoriy i -holatdan $j, j+1, j+2, \dots$, holatlarning biriga o'tishi mumkin. Bu holda tizim j -holatga τ_{ij} orqali, $(j + 2)$ -holatga $\tau_{i(j+2)}$ orqali o'tadi va h.k. Tizim i -holatdan keltirilgan barcha holatlar orasidan bittasiga otishni tanlaydi, qachonki u holat qolganlarga nisbatan oldin kelsa. Shuning uchun $\tau_{ij}, \tau_{i(j+1)}, \tau_{i(j+2)}, \dots$, ketma-ketlikdan minimalini tanlash kerak va qaysi holatda o'tish sodir bo'lishini ko'rsatuvchi j-indeksni aniqlash kerak bo'ladi.

2.3. Yashirin Markov modeli

Bu model noma'lum parametrli Markov jarayonlariga o'xshash bo'lган jaroyonlarning ishlashini taqlid (imitatsiya) qiluvchi va kuzatuv asosida noma'lum parametrлarni o'ylab topish masalasini qo'yuvchi statistik model hisoblanadi. Bundan hosil qilingan parametrлarni tahlil qilishda, masalan, timsollarni aniqlashda foydalanish mumkin.

Oddiy Markov modelida holatlar kuzatuvchiga ko'rindi, shuning uchun ham ehtimolli o'tishlar yakkayu-yagona parametr hisoblanadi. Yashirin Markov modelida biz joriy holatga ta'sir ko'rsatadigan o'zgaruvchilarnigina kuzatishimiz mumkin (5.11-rasm).




5.11-rasm. Yashirin Markov modelida o'tishlar diagrammasi.

Bu yerda x -yashirin holat, y -kuzatilayotgan natijalar, a -ehtimolli o'tishlar, b -natija ehtimolligi.

Mumkin bo'lgan barcha chiqish qiymatlari orasida har bir holat ehtimolli taqsimotga ega bo'ladi.

Yashirin Markov modelining umumiyligi strukturasi diagramma ko'rinishda 5.12-rasmida keltirilgan. Bunda ovallar (yassi chiziqlar)-tasodifiy qiymatli o'zgaruvchilarni tasvirlaydi, $x(t)$ tasodifiy o'zgaruvchi- t vaqt momentida yashirin o'zgaruvchi qiymatini va $y(t)$ tasodifiy o'zgaruvchi- t vaqt momentida kuzatilayotgan o'zgaruvchi qiymatini ifodalaydi. Strelkalar diagrammadagi shartli bog'lilikni bildiradi.



5.12-rasm. Yashirin Markov modelining strukturasi.

Model strukturasidan ko'rinishib turibdiki, t vaqt momentidagi $x(t)$ o'zgaruvchining qiymati faqat $(t - 1)$ vaqt momentidagi $x(t - 1)$ o'zgaruvchining qiymatidan bog'liq bo'ladi. Bu Maqkov xossasi deb ataladi. Shuningdek, kuztilayotgan $y(t)$ o'zgaruvchining qiymati faqat yashirin o'zgaruvchi $x(t)$ qiymatidan bog'liq bo'ladi.

Misol. Yashirin Markov modeliga misol keltiramiz. Zarrux Baxmalda va Davron Samarqandda yashaydi. Ular har kuni kechqurun telefon orqali kunduz kuni qanday ish bilan shug'ullanganligi to'g'risida gaplashishadi. Davron har kuni uchta ishni amalga oshirishi mumkin: istirohat bog'ida sayr qilish, bozorga borish yoki uyni yig'ishtirish. Uning ushbu ishlardan qaysi birini tanlashi uchun qaror qabul qilishi faqat ob-havoga asoslanadi. Zarrux Samarqandda ob-havoning holati to'grisidagi ma'lumotni bilmaydi, lekin Davronning qabul qilgan qarorlariga asoslanib, u Samarqandda ob-havo holati qanday bo'lganligini oldindan sezishga harakat qiladi.

Ob-havoni holati Markov zanjiri ko'rinishida tasvirlanishi mumkin bo'lib, u ikki holatda: quyoshli yoki yomg'irli bo'ladi. Zarrux Samarqanddagi ob-havo holatini ko'ra olmaydi, shuning uchun ushbu holat Zarruxga nisbatan yashiringan holat bo'ladi. Har kuni Davron uchta mumkin bo'lgan qarorlardan bittasini qabul qiladi: sayr, savdo yoki yig'ishtirish. Zarrux Davronning qabul qilgan qarorlarini bilishi mumkin, shuning uchun bu jarayon kuzatiladigan jarayon bo'ladi. Zarrux Davronning

qabul qilgan qarorlarini kuzatish orqali Samarqandda ob-havoning holati qanday bo’lganligini oldindan sezishi mumkin. Bu yerda biz yashirin Markov modelini hosil qilamiz.

Yashirin Markov modellari asosan nutqni, yozuvni, harakatni tanishda, kriptotahlilda, mashinali tarjimada va bioinformatikada qo’llaniladi.

3-§. Monte-Karlo usuli


3.1. Monte-Karlo usuli yordamida statistik modellshtirish

Monte-Karlo usuli-ko’p sonli stoxastik (tasodifiy) jarayonlarni amalga oshirishga asoslangan sonli usullar guruhining umumiyl nomidir. U shunday tashkillashtiriladiki, uning ehtimollik harakteristikalar, yechiladigan masalaning analog kattaliklari bilan mos keladi. Fizika, matematika, iqtisodiyot, optimallash, boshqarish nazariyasi va boshqa sohalarda masalalarni hal qilish uchun ishlatiladi.

Bu usul yordamida statistik modellshtirish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Har bir sinovda tasodifiy qiymatlarni EHM da taqlid qiluvchi, korrelyatsiyli va ehtimolning taqsimot qonuni bilan berilgan psedotasodifiy ketma-ketliklarni EHMda modellashtirish.
2. Hosil qilingan sonli ketma-ketliklarni imitatsiyali matematik modellarda foydalanish.
3. Modellashtirish natijalarini statistik qayta ishslash.

Monte-Karlo usulining ma’nosini oddiy misolda ko’rsatamiz. Aytaylik tizimning ishonchlilagini baholash talab etilsin (5.13-rasm).



5.13-rasm.

Tizim o'zining funksiyasini bajaradi, agarda $\langle 1,2,5,7 \rangle$; $\langle 1,3,5,7 \rangle$; $\langle 1,4,6,7 \rangle$ bloklar zanjiri ishlasa. Qaysidir bloklar zanjiri to'xtab qolishi ham mumkin. Har bir blok to'xtamasdan ishlaydigan τ_i vaqt bilan xarakterlanadi. Aytaylik $P_i(\tau_i)$ ehtimolning taqsimot zichliklari berlgan bo'lin. Butun tizimning ishonclilgi qanday bo'ladi?

Tasodifiy miqdorni qaraymiz:

$$\gamma = \min \{ \tau_1, \max [\min (\tau_4, \tau_6), \min [\max (\tau_2, \tau_3), \tau_7]] \}, \quad (5.3)$$

bu yerda γ -tizmning to'xtamasdan ishlash vaqt. Bitta tajribada $P_i(\tau_i)$ ga mos holda barcha τ_i lar qiymatlari qatnashadi. (5.3) ifodada hosil qilingan τ_i lar bo'yicha γ ni hisoblaymiz. Bitta tajriba bitta γ ning qiymatini (bitta tanlangan qiymat) beradi. M ta tajriba o'tkazib statistik tanlovni hosil qilamiz. Tizimning ishonchlilik bahosi sifatida P ehtimol bilan γ tizimning to'xtamasdan ishlash vaqtlarining o'rta arifmetigini olamiz. Zaruriyat bo'lganda γ tasodifiy miqdor qiymatini ehtimolning taqsimot qonuniga mos gistogrammalar ko'rinishida qurish mumkin.

Demak, haqiqiy tizimlar sinovi matematik modellar sinoviga almashtiridi. Har bir sinov hisoblashlar bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun imitatsionli modellashtirishni EHMda matematik modelli sonli tajriba deb atashadi (model tadqiqot obyekti sifatida qatnashadi).

Mote-Karlo usulidan ommaviy xizmat ko'rsatish, o'yinlar nazariyasini va matematik iqtisodiyot, xalaqitlar bo'lganda ma'lumotlarni uzatish va boshqa masalalarni yechishda foydalanish mumkin.

3.1.1. Statistik modellashtirishning umumiyyatli sxemasi

Faraz qilaylik, bizdan qandaydir noma'lum m miqdorni qiymatni hisoblash talab qilinsin va buni biz shunday ξ tasodifiy qiymat sifatitida qarab, uning matematik kutilishi $M\xi = m$ orqali amalga oshiramiz. Bu holda ushbu tasodifiy qiymatning dispersiyasi $D\xi = b$. Qaqlayotgan ξ tasodifiy miqdor taqsimotiga taqsimotlari mos tushadigan bir-biridan bog'liq bo'lмаган N ta tasodifiy $\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_N$ miqdorlarni qaraymiz. Ehtimollar nazariyasining markaziy limit teoremasiga asosan yig'indilar taqsimoti

$$PN = \xi_1 + \xi_2 + \dots + \xi_N$$

o'rtacha $\mu = Nm$ va $\sigma^2 = Nb^2$ dispersiyaga taxminan normal bo'ladi. U holda m va σ lar qanday bo'lishidan qat'iy nazar "Uchta sigma qoidasi" ga ko'ra

$$P\{\mu - 3\sigma < P_N < \mu + 3\sigma\} = 0,997,$$

y'ni

$$P\left\{m - \frac{3b}{\sqrt{N}} < \frac{P_N}{N} < m + \frac{3b}{\sqrt{N}}\right\} \approx 0,997,$$

Oxirgi munosabatni quyidagi ko'rnishda yozish mumkin:

$$P\left\{\frac{1}{N} \sum_{I=1}^N \xi_I - m < \frac{3b}{\sqrt{N}}\right\} \approx 0,997.$$

Hosil qilingan formula Mote-Karlo usuli bo'yicha hisobni va ushbu usulning yaqinlashish bahosini beradi.

Mote-Karlo usulining mohiyati qandaydir qaror qabul qilish momentida statistikalar asosida natijalarni aniqlashdan iborat. Shuning uchun Mote-Karlo usulidan foydalanib olinadigan natijalarning ishonchliligi tasodifiy sonlarning generatsiyasini sifati bilan aniqlanadi.

EHMDa tasodifiy sonlarni olish uchun ba'zi amallarni bir necha bor takrolanishiga asoslangan generatsiy uslubiyotidan foydalaniladi. Shunday olingan ketma-ketlik ko'proq psevdotasodifiy sonlar nomiga mos keladi, chunki ketma-ketlikni generatsiya qilish davriy hisoblanadi va qandaydir momentdan boshlab sonlar takrorlana boshlaydi.

Masalan, C^{++} da sonlarni generatsiya qilishda ko'proq quyidagi algoritmdan foydalanadi:

1.Dasturning boshida X butun o'zgaruvchiga qandaydir X_0 ning qiymati ta'minlanadi.

2.Keyin tasodifiy sonlar $X = (aX) \bmod m$ qoida bo'yicha generatsiya qilinadi. Masalan, $a=4871$ va $m=2^{31}-1$ deb qabul qilish mumkin.

3.1.2. Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimini modellashtirish

N ta xizmat ko'rsatiluvchi liniya(kanal yoki punkt)lardan iborat ommaviy xizmat ko'rsatish tizimini qaraymiz. Tizimga tasodifiy vaqt momentlarida byurtmalar kelib tushadi. Har bir byurtma №1-liniyaga kelib tushadi. Agar T_k byurtmaning kelib tushish vaqt momentida ushbu liniya bo'sh bo'lsa, u holda byurtmaga t_b vaqtida (liniyaning band vaqt) xizmat ko'rsatiladi. Agar liniya band bo'lsa, u holda byurtma tezda №2-liniyaga uzatiladi va h.k. Agar joriy vaqtida barcha liniyalar band bo'lsa, u holda tizim rad javobini beradi. Ushbu tizimning xarakteristikalarini aniqlash masalasi tabiiy hisoblanadi va ular ushbu tizimning samaradorligini baholashga imkoniyat yaratadi, y'ani xizmat ko'rsatishda kutishning o'rtacha vaqt, tizimning to'xtab turish vaqtli ulushi, navbatning o'rtacha uzunligi va h.k. Bunday holatlari tizimlar uchun hisobni amalga oshirishning yagona usuli Monte-Karlo usuli hisoblanadi. Bir birlik vaqtida xizmat k'orsatish tizimiga

kelib tushadigan byurtmalarning o'rtacha soni byurtmalar kelib tushishining *intensivligi* deb ataladi va

$$\lambda = 1/T$$

aniqlanadi. Bu yerda T - navbatdagi tushadigan byurtmalar orasidagi intervallarning o'rtacha qiymati. Ushbu sohadagi ko'plab tadqiqotlar ko'rsatdiki, juda ko'pchilik haqiqiy jarayonlar uchun byurtmalar oqimi Puasson taqsimoti bilan yetarlicha yaxshi tavsiflanadi. Bu holda ehtimolning taqsimot fuksiyasi

$$P = 1 - \exp(-\lambda t), \quad 0 \leq t < \infty$$

bo'ladi. Uning taqsimot zichligi funksiyasi

$$P(t) = \lambda \exp(-\lambda t)$$

aniqlanadi.

Tizimga navbatdagi byurtmaning kelish vaqtini va xizmat ko'rsatish vaqtini hisoblash uchun

$$\int_0^\tau P(t) dt = \gamma \quad (5.4)$$

integral tenglamani yechish talab etiladi. Bu yerda τ - izlanayotgan vaqt momenti, $P(t)$ - ehtimolning zichlik funksiyasi, γ - $[0, 1]$ kesmada tekis taqsimlangan tasodifiy miqdor. Agar taqsimot Puassonli bo'lsa, u holda (5.4) integral analitik hisoblanadi va τ miqdor

$$\tau = -(1/\lambda) \ln(\gamma) \quad (5.5)$$

aniqlanadi, bunda tasodifiy miqdor γ tekis taqsimlangan bo'ladi.

Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimi algoritmi. Bu algoritm quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Liniyalarning bo'sh qolgan momentlarini EHMning yacheysiga yozish uchun har bir liniya EHMning yacheysiga mos qo'yiladi. Aytaylik, dastlabki hisobning $t = T_1$ vaqt momentida barcha liniyalar bo'sh bo'lsin. Oxirgi hisob vaqt sifatida $T = T_{oxir}$ ni qabul qilamiz.

2. Birinchi byurtma №1-liniya orqali keladi va shu vaqtda xizmat ko'rsatiladi, chunki liniya bo'sh bo'ladi. Ushbu liniya τ_1 vaqt davomida band bo'ladi. Shuning uchun t ning qiymatini yangi $t_1 \leftarrow T_1 + \tau_1$ ga almashtiramiz va bajarilgan byurtmalar sanagichiga 1 ni qo'shamiz. Undan keyin navbatdagi byurtmani qarashga o'tamiz. Buning uchun $[0, 1]$ kesmada tekis taqsimlangan γ ning qiymatini generatsiy qilamiz va (5.2) formula yordamida navbatdagi $\tau = \tau_2$ qiymatni hisoblaymiz.

3. Ikkinchi byurtmaning kelish vaqt momenti $t_2 = T_1 + \tau_2$ ni hisoblaymiz.

4. $t_2 = T_1 + \tau_2$ vaqt momentida №1-liniyaning bo'sh ekanligini tekshiramiz, ya'ni $t_1 \leq t_2$ shartning bajarilganligini tekshiramiz.

5. Agar $t_1 \leq t_2$ shart bajarilsa, u holda №1-liniya bo'sh bo'ladi va u ikkinchi byurtmaga xizmat ko'rsatishga kirishadi. t_1 ni $(t_2 + t_3)$ ga almashtiramiz va bajarilgan byurtmalar sanagichiga 1 ni qo'shamiz. Undan keyin navbatdagi byurtmani qarashga o'tamiz.

6. Agar №1-liniya band bo'lsa, u holda №2-liniyaganing bandligini tekshiramiz va h.k. Agar qandaydir vaqt momentida barcha liniyalar band bo'lsa, u holda bandliklar sanagichiga 1 qo'shamiz. Har bir t_k hisoblashdan keyin tajribaning tugash sharti $t_k > T_{oxir}$ ni tekshiramiz. Agar ushbu shart bajarilsa, u holda tajriba tugallangan hisoblanadi. Shunday tajriba N marta takrorlanadi va barcha tajribalar natijalarning o'rtachasi olinadi.

Xuddu shunday tarzda murakkabroq masalalarni ham qarash mumkin. Masalan, t_3 miqdor tasodifiy bo'lishi mumkin yoki har xil liniyalar uchun har xil bo'lishi mumkin. Bu esa qurilmalar quvvatini va/yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimning malakasini farqida o'zining aksini ko'rsatadi.

Bunga o'xshash hisoblar liniyalarni ko'paytirish to'g'risidagi savollarga, xizmat ko'rsatuvchi xodimning malakasini oshirish va h.k larni masalalarni yechishda foydali bo'lishi mumkin.

3.2. Monte-Karlo usuli yordamida imitatsion modellashtirish

Imitatsion modellashtirishning maqsadi tekshirilayotgan tizimning elementlari orasidagi muhim o'zaro bog'lanishlarni tekshirish natijalari asosida uni qayta shakllantirishdan iborat. Imitatsion modellarning tadqiqoti natijalari, odatda, imitatsiya qilinayotgan tizimning funksional harakteristikalari qiymatlarining baholanishini anglatadi. Masalan, har qanday ommaviy xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatini imitatsion modellashtirishda mijozga xizmat ko'rsatishning o'rtacha davomiyligi, navbatning o'rtacha uzunligi, xizmat ko'rsatuvchi tizimning bo'sh turish vaqtini va shu kabi muhim ko'rsatkichlar amaliy qiziqish uyg'otadi.

Imitatsion modellashtirishga xuddi statistik tajriba sifatida qarash kerak bo'ladi. An'anaviy matematik modellardan farqli ravishda, imitatsion modellar shunday kuzatishlardan iboratki, bunda tajribadan kelib chiqadigan xatolar albatta mavjud bo'ladi.

Imitatsion modellashtirish, tajriba sifatida oddiy laboratoriya tajribasidan shunisi bilan farqlanadiki, uni to'lik EHMda amalga oshirish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, murakkab tizimlarni chuqurroq o'rganishda imitatsion modellashtirish ("klassik" ma'nodagi matematik

modellashtirishdan farqli holda) ko'proq imkoniyatga ega. Biroq bu modellarni yaratish ko'p vaqt va resurslarni talab qiladi. Ayniqsa, bu modellashtirilayotgan tizimni optimallashtirish masalalarida namoyon bo'ladi.

Imitatsion modellashtirishdan ikki xil turdag'i masalalarni yechishda foydalaniladi.

1. Matematika, fizika, ximiya kabi fanlar sohalaridagi nazariy masalalarda, shu jumladan quyidagilarda:

a) jismlarning hajmini hisoblashda; b) teskari matrisani hisoblashda; v) differensial tenglamalarni yechishda; g) chiziqli tenglamalar tizimlarini yechishda; d) zarralar harakati trayektoriyalarini hosil qilishda.

2. Inson amaliy faoliyatida vujudga keladigan tashkiliy boshqaruv masalalarida, jumladan:

a) ishlab chiqarish – texnologik jarayonlarning imitatsion modellashtirish masalalari (masalan, zahiralarni boshqarish sohasida, ommaviy xizmat ko'rsatish tizimini loyihalashda va shu kabilar);

b) iqtisodiy harakterdagi tizimlarni imitatsion modellashtirish masalalari(rejalashtirish jarayonida, iqtisodiy prognoz);

v) sotsial va sotsial-psihologik masalalar (masalan, aholining migratsiyasi masalasi, guruhlardagi o'zgarishlar muammolari);

g) biotibbiy tizimlarni imitatsion modellashtirish masalalari (masalan, qon aylanishi tizimi, miya faoliyati).

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni yechishda zamonaviy imitatsion modellashtirish asosi bo'lgan *Monte – Karlo usulidan* foydalanish mumkin.

Monte – Karlo usulining asosiy g'oyasi izlanayotgan baholarni olishda tanlanmalardan foydalanishdan iborat. Tanlanmalarni olish jarayoni shuni talab qiladiki, bunda yechilayotgan masala shu tanlanmalarni amalga oshirishga imkon beruvchi ehtimollar taqsimoti asosida ifodalanishi lozim.

Imitatsion modellashtirish, Monte-Karlo usuli kabi tizim ishi natijalarini baholash tanlanmalaridan foydalanishga asoslangan. Monte-Karlo usuli bilan bog'liq holda paydo bo'lgan ko'pgina g'oyalar imitatsion modellashtirishda bevosita qo'llaniladi.

Murakkab tizimlarni imitatsion modellashtirish yutuqlari keyingi yillarda hisoblash mashinalarini takomillashtirish sohasidagi erishilgan yutuqlar bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy tez ishlovchi EHMLarsiz omilkorona imitatsion yondoshuvni tasavvur qilish qiyin. Shuni ta'kidlash lozimki, imitatsion modellashtirishda hisoblash qiyin bo'lmasada, ularni bajarish ko'p vaqt talab qiladi.

3.2.1. Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimini imitatsion modellashtirish

Imitatsion modellashtirish usulining mohiyati shundan iboratki, tizimni va tashqi muhit ta'sirlarini mantiq-analitik (matematik) modelini yaratishdan iborat bo'lib, tizimni ishlash jarayonini imitatsiya qilishdan iboratdir, ya'ni tashki ta'sirlar ostidagi tizim holatini vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlashdan iborat. Natijada chiqish parametrlarini bir qancha qiymatlarini aniqlash bilan tizimni asosiy ehtimollik harakteristikalarini aniqlashdan iborat. Bu ta'rif asosan stoxastik tizimlar uchun mos keladi. Deterministik tizimlar uchun chiqish harakteristikalarini qiymatlarini to'plamini olish shart emas. Strukturali prinsipli boshqarishdagi tizim modeli elementlarning majmuasi modeli va ularning funksional o'zaro bog'lanishi ko'rinishida ifodalanadi. Element modeli (agregat, xizmat ko'rsatish pribori) bu-birinchi galda qurilmani kirish ta'sirlariga (talablarga) bo'lган harakat qoidalari (algoritmlari) majmuasi va elementlar holatlarini o'zgarish qoidasidir. Hisoblash tizimlarini tizim sathida modellashtirish jarayonida element u yoki bu detallashtirish sathida funksional qurilmani aks ettiradi.

Imitatsion modellashtirish - bu tadqiq etish usuli bo'lib, tahlil etilayotgan dinamik tizim imitator bilan almashtiriladi va u bilan o'rganilayotgan tizim haqida axborot olish uchun tajribalar o'tkaziladi.

Stoxastik tizimlarni imitatsion modellashtirish usulining mohiyati tasodifiy miqdorlarni hisoblash usuli bilan tadqiq etiladi. Bu usul statik sinash usuli yoki *Monte-Karlo usuli* deyiladi.

Monte-Karlo usulining mohiyati quyidagicha: tasodifiy miqdorni *u* taqsimlanish funksiyasini aniqlash talab etilsin. Faraz qilaylik, qidirilayotgan *u*

$$y = y(\alpha, \beta, \gamma, \dots, \varpi)$$

ifodalanishi mumkin. Bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \dots, \varpi$ - ma'lum taqsimlanish funksiyasiga ega bo'lган tasodifiy kattaliklar bo'lsin. Bu masalani yechish uchun quyidagi algoritmlardan foydalaniladi:

- 1) Har bir kattalik bo'yicha $\alpha, \beta, \gamma, \dots, \varpi$ tasodifiy miqdorlarni aniq qiymatlari $\alpha, \beta, \gamma, \dots, \varpi$ topiladi;
- 2) Topilgan miqdorlar bo'yicha u_i ni xususiy qiymati yuqoridagi bog'lanish bilan topiladi.
- 3) Oldingi amallar N marta takrorланади va natijada tasodifiy miqdor U topiladi.


4) U miqdorini N ta qiymatiga asosan uning empirik taqsimlanish funksiyasi topiladi.

Δt prinsipi bo'yicha modellashtirish algoritmi. Modellashtiruvchi algoritmnini umumlashgan sxemasi model vaqtini (Δt prinsipi bo'yicha) o'zgarmas orttirma prinsipi bo'yicha amalga oshiradi.

Oldingi algoritm singari, avval dastur inisializatsiya qilinadi, xususan, $z_i(t_0)$, $i = 1, \dots, n$ larning qiymatlari kiritiladi. Bu miqdorlarning qiymatlari n o'lchamli fazoda tizimni holatlarini harakterlaydi. Model vaqt $t = t_0 = 0$ deb belgilanadi. Tizimni ishlash jarayoni imitatsiya qiluvchi asosiy amallar siklda bajariladi. Tizimni ishlash jarayoni holatlarini $Z_i(t)$ ketma-ket o'zgarishi bo'yicha kuzatib boriladi. Buning uchun model vaqtiga biror bir ortirma Δt beriladi. So'ngra holatlarning joriy vektori bo'yicha yangi holat $z_i(t + \Delta t)$ aniqlanadi. Model vaqt berilgan modellashtirish vaqtidan kichik bo'lguncha sikl davom ettiriladi.

Imitatsiya vaqtida talab qilingan tizim harakteristikalari o'lchanadi, belgilanadi va qayta ishlanadi. Agar $t \geq T_m$ bo'lsa, u holda o'lchash natijalarini qayta ishlash tugallanadi va modellashtirish natijalari chiqariladi.

Hodisalarni qo'llanilishini imitatsion modellashtirishda ko'rib chiqamiz. Har bir imitatsion modelni ishlatish uchun bir vaqtini tanlash kerak. Tabiatan mavjud bo'lgan modellashtirish tizimi bir paytda, ya'ni bir daqiqa, soatda, sutkada, oyda bo'lish mumkin. Endi oddiy imitatsion modelni ishlashini ko'rsatamiz. Tizimning ishini T vaqt momentida modellashtirish kerak. 0 vaqt momentida ish boshlanadi va kelib chiqqan hodisalar vaqt shkalasida ko'rsatilgan (5.14-rasm). Har bir hodisa vaqt shkalasida nuqta bilan belgilangan (•) va raqamlangan (1, 2, 3, 4, 5, 6) iborat. Bir hodisadan boshqasiga o'tish uzlukli vaqtarda amalga oshiriladi.



Misol. Tizimni modellashtishni ommaviy xizmat ko'rstish masalasi uchun qarab chiqamiz. Bunda tizimga kelib tushgan talablar oqimi Puasson taqsimoti bilan etarlicha yaxshi tavsiflanadi, ya'ni 1 soatda 3 ta mijozga xizmat ko'rsatiladi, xizmat ko'rsatish vaqt $0 \leq \tau \leq 0.5$ oraliqda 0.2 soatga teng va $0.5 \leq \tau \leq 1$ oraliqda 0.6 soatga teng. Mijozlarga xizmat ko'rsatish ketma-ket, ya'ni birinchi kelgan byurtmaga, birinchi bo'lib xizmat

ko'rsatiladi va h.k. Xizmat ko'rsatish vaqtini kutib turish uzunligiga va kelib tushayotgan mijozlar soniga bog'liq bo'ladi. Faraz qilaylik boshlang'ich momentda mijozlarni modellashtirish mavjud emas.

Tizimga mijozlar tomonidan 1 soat mobaynida byurtmalar oqimining kirib kelish o'rtacha intensivligi $\lambda = 3$ bo'lsin. Taqsimot Puassonli bo'lgani uchun τ miqdor

$$P = -(1/\lambda) \ln \tau = -(1/3) \ln \tau$$

aniqlanadi.

Xizmat ko'rsatish vaqtini 0.2 yoki 0.6 soatga teng bo'lishi mumkin. U holda xizmat ko'rsatish vaqtini τ miqdor oralig'ida

$$q = \begin{cases} 0.2 \text{ s agar } 0 \leq \tau \leq 0.5, \\ 0.6 \text{ s agar } 0.5 \leq \tau \leq 1. \end{cases}$$

ifodalanadi.

Yuqorida ko'rsatilgandek, bitta liniyada 2 ta holat uchun xizmat ko'rsatiladi, ya'ni mijozlarni kelishlari va ularninig ketishlari (xizmat ko'rsatish tugatiladi).

Tizim bo'sh bo'lgan holatda navbatdagi mijozga xizmat ko'rsatishga so'rov $P_1 = -(1/3) \ln 0.058962 = 0.95$ s dan keyin keladi. Shunday qilib, model $t=0$ dan $t=0.94$ ga o'tadi. $t=0.94$ momentda xizmat ko'rsatishga bo'lgan talab kelishiga bog'liq hodisa sodir bo'ladi, shuning uchun navbatdagi talab kelish vaqtini

$$t = 0.94 + [-(1/3) \ln 0.673284] = 1.07$$

hisoblanadi.


Endi, $t \in [0; 0.94]$ da tizim to'xtab turganligi uchun $t=0.94$ momentda kelib tushgan mijozga xizmat ko'rsatish boshlanadi. Unga xizmat qilish uchun berilgan vaqt $\tau = 0.479909$, $q = 0.2$ bo'ladi. Xizmat ko'rsatish vaqtining tugashi $t = 0.94 + 0.2 = 1.14$ hisoblanadi.

Bu momentda tizim ishchi (ya'ni harakatda) deb e'lon qilinadi, to'xtab turish vaqtini esa

$$\text{To'xtab turish vaqtini} = 0 + 0.94 = 0.94$$

aniqlanadi.

$t=1.14$ momentgacha sodir bo'lgan hodisalar 5.15-rasmida ko'rsatilgan.



5.15-rasm. Xizmat ko'rsatishga kelishning tugashi.

Navbatdagi hodisa $t=1.07$ momentda talabning kelishi bilan bog'liq. Tizim ishni davom ettiradi va talablar navbatga qo'yiladi va navbatlarning uzunligi $Q=0+1=1$ ($t=1.07$ momentda rostlab chiqiladi).

Navbatdagi talab vaqtning

$$t=1.07 + [-(1/3) \ln 0.948578] = 1.09$$

momentida qo'yiladi.

Keyingi hodisa $t=1.09$ momentda xizmat ko'rsatishga qo'yiladigan talabdan iborat bo'ladi. Tizim xali ham ishchi holatda turganligi sababli, navbatlarning uzunligi $Q=1+1=2$ ($t=1.09$ momentda rostlanishi zarur).

Keyingi talab esa

$$t=1.09 + (-1/3) \ln 0.61396 = 1.25$$

momentda qo'yiladi. $t=1.14$ momentda sodir bo'ladigan navbatdagi hodisa, xizmat ko'rsatish tugaganini bildiradi. Navbat bo'sh bo'limganligi sababli, navbat bo'yicha mijozga xizmat ko'rsatish boshlanadi.

Navbat uzunligi $Q=2-1=1$ ($t=1.14$ momentda o'lchanadi).

Kutish vaqtining yig'indisi

$$W=0+(1.14-1.07)=0.07s$$

aniqlanadi.

$\tau=0.93412$: dan foydalanib, mijozga xizmat ko'rsatish vaqtin tugashi $t=1.14+0.6=1.74$ hosil qilinadi. Shu yo'sinda davom etib, shunga o'xshash modellardan foydalanish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin. Bu jarayon soni T interval modellashtirilguncha davom ettiriladi. Shundan so'ng modellashtirish jarayonidan kelib chiqib, har xil amallarni bajaradigan harakteristkalarni aniqlash mumkin. Masalan, tizimning to'xtaib turish vaqtini ulushi

$$\left(\begin{array}{c} \text{Tizimning to'xtab} \\ \text{turish vaqtiuslushi, \% } \end{array} \right) = \frac{\text{to'xtab turish vaqtini yig'indisi}}{T - ni \text{ modellashtirish davri}} \times 100,$$

va mijozlarga xizmat ko'rsatishning o'rtacha vaqtini

$$\left(\begin{array}{c} \text{Mijozgaxizmat ko'rsatishning} \\ \text{o'rtachavaqtini} \end{array} \right) = \frac{\text{kutish vaqtini yig'indisi } W}{\text{keladigan mijozlarsoni}}.$$

aniqlanadi.

Dasturiy ta'minot. Interfeys oynada o'rtacha intensivlik, kuzatish vaqtini, xizmat ko'rsatish davomiyligi kabi parametrlarning qiymatlari kiritiladi va ular asosida xizmat ko'rsatishga talab vaqtini, xizmat ko'rsatish boshlanish vaqtini, xizmat ko'rsatish tugash vaqtini, tizimning to'xtab turish vaqtini, mijozning kutish vaqtini, navbatning uzunligi kabi prametrler hisoblanadi (5.16-rasm).

Nº	R	P	M	T	T*	W	Q
1	0,353150273837685	0,346953869237618	0,346953869237618	0,346953869237618	0,546953869237618	0	0
2	0,276862867305457	0,775031522323817	0,228077653086199	0,775031522323817	0,975031522323817	0	0
3	0,0759880938921068	1,63409105908466	0,659059536760843	1,63409105908466	1,83409105908466	0	0
4	0,159239967893455	2,24653871990922	0,41244766082456	2,24653871990922	2,44653871990922	0	0
5	0,187700314534689	2,80417493979595	0,35763621988673	2,80417493979595	3,00417493979595	0	0
6	0,511368251643781	3,02773003956657	0,0235550997706201	3,02773003956657	3,62773003956657	0	0
7	0,888345604244781	3,06719484547889	0	3,62773003956657	4,22773003956657	0,56053519408768	1
8	0,075453904026865	3,92860596277048	0	4,22773003956657	4,42773003956657	0,29912407679609	1
9	0,317269102817992	4,31127428291452	0	4,42773003956657	4,62773003956657	0,11645575665205	1
10	0,283543666956734	4,73140399611764	0,10367395655107	4,73140399611764	4,93140399611764	0	0
11	0,280059740543393	5,15565477594669	0,22425077982905	5,15565477594669	5,35565477594669	0	0
12	0,234108317286758	5,6396452347264	0,28399045877971	5,6396452347264	5,8396452347264	0	0
13	0,840452019050928	5,69758370604658	0	5,8396452347264	6,4396452347264	0,14206152867982	1
14	0,196473439315554	6,23999304794209	0	6,4396452347264	6,6396452347264	0,19965218678431	1
15	0,567089240330779	6,42907258037037	0	6,6396452347264	7,2396452347264	0,21057265435603	2
16	0,467682446105258	6,68239449614903	0	7,2396452347264	7,4396452347264	0,55725073857737	1
17	0,93307299070669	6,70548511245773	0	7,4396452347264	8,0396452347264	0,73416012226867	2

5.16-rasm. Dastur yordamida olingan natijalar.

4-§. O'yinlar nazariyasi

4.1. Asosiy tushunchalar va ta'riflar

Amaliyotda ko'pincha boshqarish qarorlarini noaniqlik sharoitida qabul qilishga to'g'ri keladi. Bunda noaniqlik qabul qilingan qarorning natijasiga ta'sir qiluvchi raqibning ongli hatti-harakati tufayli yoki boshqa faktorlar tufayli bo'lishi mumkin. Bir tomon qabul qilayotgan qarorlarning samaradorligi boshqa tomonning hatti-harakatlariga bog'liq bo'lган vaziyatlar konfliktli (nizoli, ixtilofli) vaziyatlar deb ataladi. Konflikt tomonlar o'rtasida albatta antagonistik ziddiyat bo'lishini taqozo qilmaydi, lekin hamisha ma'lum bir tarzda tafovut bilan bog'lik bo'ladi.

Konfliktli vaziyatlarni matematik tomondan tahlil qiluvchi, uning matematik modelini tuzuvchi va tomonlarning ratsional harakat qilish yo'llarini o'rganuvchi fan sohasiga *o'yinlar nazariyasi* deyiladi. O'yinlar nazariyasining paydo bo'lishi Dj. Fon Neyman va O. Morgenshternlarning 1944 yilda chop etilgan "O'yinlar nazariyasi va iqtisodiy muomala" nomli monografiyasi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda o'yinlar nazariyasi gurkirab rivojlanmoqda. Uning antagonistik, noantagonistik (kooperativ), chekli, cheksiz, pozitsiyali,

differensial o'yinlar va boshqa bir qator yo'nalishlari mavjud. Keyingi paytlarda muhim ahamiyat kasb etayotgan *differensial o'yinlar* bir boshqariladigan obyektning boshqa boshqariladigan obyektni ta'qib qilishini ular harakatlari dinamikasini hisobga olgan holda o'rganadi. Bunda obyektlar harakati differensial tenglamalar yordamida tavsiflanadi.

O'yin haqiqiy konfliktli vaziyatning matematik modeli bo'lib, u ma'lum qoidalar bo'yicha tahlil qilinadi. Umumiyl holda o'yin qoidalari yurishlar ketma-ketligini, har bir tomonning qarshi tomon harakatlari haqidagi ma'lumoti hajmini va o'yin natijasini (yechimini) belgilaydi. Qoida, shuningdek, tanlashlarning mumkin bo'lgan ma'lum ketma-ketligi amalga oshirilib, ortiq yurishlar qilish mumkin bo'lmay qolganda o'yining tugashini ham belgilaydi.

Ishtirokchilarning soniga qarab o'yinlar *juft* va *ko'p tomonli* bo'ladilar. Juft o'yinda ishtirokchilar soni ikkiga teng, ko'p tomonli o'yinda esa ularning soni ikkitadan ortiq bo'ladi. Ko'p tomonli o'yin ishtirokchilari koalitsiyalar (ittifoqlar) tashkil qilishlari mumkin (bu holda o'yin koalition o'yin deb ataladi). Agar ko'p tomonli o'yin ishtirokchilari doimiy koalitsiyaga birlashsalar, u juft o'yinga aylanadi.

O'yinda ishtirok etuvchi tomonlar o'yinchilar deb ataladilar. Sport o'yinida o'yinchilar - bu alohida sportchilar yoki komandalar bo'lishi mumkin; harbiy o'yinda - urushuvchi tomonlar; xalq xo'jaligida - korxonalar, firmalar. Ba'zan o'yinchi rolini tabiat ham bajaradi, chunki u qabul qilinishi kerak bo'lgan qarorning shart-sharoitini shakllantiradi.

O'yinchining strategiyasi deb - uning har bir shaxsiy yurishda o'yin jarayonida yuz bergan vaziyatdan kelib chiqib tadbir variantini tanlash yo'lini belgilovchi qoidalar majmuiga aytildi.

Agar o'yinchilarning strategiyalari soni chekli bo'lsa, o'yin chekli, agar o'yinchilardan hech bo'lmasanda bittasining strategiyalari soni cheksiz bo'lsa - cheksiz deyiladi. O'yinchining strategiyasi unga maksimal yutuq yoki minimal qiymatli yutqazish bersa, bunday strategiya *optimal strategiya* deyiladi.

Yurishlar shaxsiy va tasodifiy bo'ladi. Agar o'yinchi o'zining tadbiralarining mumkin bo'lgan variantlaridan birini ongli ravishda tanlasa (masalan, shaxmat va shashka o'yinlaridagi har qanday yurish), bunday yurishga shaxsiy yurish deyiladi. Agar tanlashni o'yinchi emas, balkim biror tasodifiy tanlash mexanizmi (masalan, o'yin soqqasini yoki tangani tashlash) bajarsa, u holda o'yin tasodifiy deyiladi.

O'yinlarni ta'riflashning ikki usuli mavjud: *pozitsion* va *normal*. *Pozitsion usul* o'yining yopiq shakli bilan bog'liq bo'lib, qoidalar ketma-

ketligining grafiga (o'yin daraxtiga) keltiriladi. *Normal usul* o'yinchilar strategiyalari to'plami va to'lov funksiyasini oshkora ko'rsatishdan iborat. O'yinda to'lov funksiyasi o'yinchilar tanlagan strategiyaning har bir to'plami uchun har bir tomonning yutug'ini aniqlaydi. Agar juft o'yinda bir o'yinchining yutug'i ikkinchisining yutqazig'iga teng bo'lsa, bunday o'yin *nol yig'indili o'yin* deb ataladi.

Agar nol yig'indili o'yinda ikki o'yinchi qatnashsa, o'yin *antagonistik o'yin* xisoblanadi.

4.2. Matritsaviy o'yin. Alfa-betta parchalanish

Ikkita A va B o'yinchilar qatnashgan antagonistik o'yinni qaraymiz. O'yinchilar qarama-qarshi maqsadni ko'zlaydi. Biri qandaydir yutuqqa ega bo'lsa, ikkinchisi shu miqdorda yutqazadi. Demak A o'yinchining yutug'i B o'yinchi yutug'ining teskari ishora bilan olinganiga teng bo'lgani uchun biz bu o'yinda A o'yinchining yutugini tahlil qilsak yetarli.

A o'yinchi (biz uni I o'yinchi deymiz) m ta A_1, A_2, \dots, A_m strategiyalariga, B o'yinchi (biz uni II o'yinchi deymiz) n ta B_1, B_2, \dots, B_n strategiyalarga ega bo'lsin.

Bunday o'yinga mxn o'lchamli o'yin (ba'zan qisqacha mxn -o'yin) deyiladi.

I o'yinchi o'zining mumkin bo'lgan A_i ($i=1,2,\dots,m$) strategiyalaridan birini, II o'yinchi esa, I o'yinchining tanlash natijasidan bexabar holda, B_j strategiyani ($j=1,2,\dots,n$) tanlagan bo'lsin. Strategiyalarni tanlash natijasida I o'yinchining yutug'i $W_1(A_i, B_j)$ va II o'yinchining yutug'i $W_2(A_i, B_j)$ bo'lsa, ular $W_1(A_i, B_j) + W_2(A_i, B_j) = 0$ munosabatni qanoatlantiradi. Agar $W(A_i, B_j) = W_1(A_i, B_j)$ deb olsak, $W_2(A_i, B_j) = -W(A_i, B_j)$ bo'ladi. $W(A_i, B_j) = a_{ij}$ deb belgilaylik. Bu qiymatlarni satrlari I o'yinchining strategiyalariga, ustunlari esa II o'yinchining strategiyalariga mos keladigan jadval (5.1-jadval) ko'rinishida yozamiz.

5.1-jadval

	B_1	B_2	...	B_n
A_1	a_{11}	a_{12}	...	a_{1n}
A_2	a_{21}	a_{22}	...	a_{2n}
...
A_m	a_{m1}	a_{m2}	...	a_{mn}

Bunday jadval *to'lovlar matritsasi* deb ataladi.

To'lovlar matritsasining har bir musbat a_{ij} elementi mos strategiyalar qo'llanilganda I o'yinchining yutug'i (yoki II o'yinchining yutqazig'i) miqdorini bildiradi. Matritsaning har bir manfiy a_{ij} elementi esa mos strategiyalar qo'llanilganda I o'yinchining yutqazig'i (yoki II o'yinchining yutug'i) miqdorini bildiradi. Ikkala o'yinchining ham maqsadi - o'z yutug'ini maksimallashtirishdan (yoki o'z yutqazig'ini minimallashtirishdan) iborat.

Misol. O'yinda I va II o'yinchilar ishtirok qiladilar. O'yinchilardan har biri boshqasidan bexabar holda 1, 2 yoki 3 ta barmog'ini ko'rsatishi mumkin. Agar I va II o'yinchilar ko'rsatgan barmoqlar soni o'rtasidagi ayirma musbat bo'lsa, I o'yinchi shu sonlar ayirmasiga qadar ochko yutadi va aksincha, agar ayirma manfiy bo'lsa, II o'yinchi shuncha yutadi. Agar sonlar o'rtasidagi ayirma nol bo'lsa, o'yin durang bilan tugaydi.

O'yinda har bir o'yinchining uchtadan shaxsiy yurishi bor. I o'yinchi strategiyalari: A_1 - 1 ta barmoqni ko'rsatish, A_2 - 2 ta barmoqni ko'rsatish, A_3 - 3 ta barmoqni ko'rsatish. II o'yinchining (ya'ni, I o'yinchi raqibining) strategiyalari esa, V_1 - 1 ta, V_2 - 2 ta, V_3 - 3 ta barmoqni ko'rsatishdan iborat. O'yinchilarning ular tegishli strategiyalarni qo'llaganlardagi yutuqlarini to'lov matritsasi (5.2-jadval) ko'rinishida yozib qo'yamiz.

5.2-jadval

	B_1	B_2	B_3
A_1	0	-1	-2
A_2	1	0	-1
A_3	2	1	0

Bu matritsa elementlari qanday hosil qilinganligini ko'ramiz. Agar I o'yinchi A_1 strategiyasini, II o'yinchi B_3 strategiyasini qo'llasa, u vaqtida I o'yinchi ikki ochko yutqazadi. Bu yutqazish to'lov matritsasida birinchi satr va uchinchi ustunlar kesishishidagi (1;3) katakka yozilgan ($a_{13}=-2$). Agar I o'yinchi A_2 strategiyasini, raqib esa V_1 strategiyani qo'llasa, u holda I o'yinchi bir ochko yutadi. To'lov matritsasida bu yutuq (2;1) katakka musbat ishora bilan yozib qo'yilgan ($a_{21}=1$). Jadvalning boshqa elementlari ham shu tariqa hosil qilingan.

To'lov matritsasi 5.1-jadvalda keltirilgan $m \times n$ -o'yinni qaraymiz. Masala A_1, A_2, \dots, A_m strategiyalar orasidan I o'yinchining eng yaxshi strategiyasini, B_1, B_2, \dots, B_n strategiyalardan esa II o'yinchining eng yaxshi strategiyasini topishdan iborat. Bu masalani yechishda o'yinda ishtirok etuvchi raqiblar bir xil aql-idrokka ega va ulardan har biri o'z maqsadiga erishish uchun hamma chora-tadbirlarni ko'radi deb hisoblaymiz. Bu tamoyildan foydalanib I o'yinchining eng yaxshi strategiyasini topamiz.

Buning uchun uning hamma strategiyalarini ketma-ket tahlil qilamiz. I o'yinchi o'zining A_i strategiyasini tanlaganda, biz unga II o'yinchi o'zining I o'yinchi yutug'ini minimallashtiruvchi V_j strategiyasi bilan javob beradi deb hisoblashimiz kerak. Shunga ko'ra to'lov matritsasining har bir satridagi a_{ij} sonlardan minimalini topamiz va uni $\alpha_i (i = \overline{1, m})$, bilan belgilab, to'lov matritsasining yonida qo'shimcha ustunga yozib qo'yamiz:

$$\alpha_i = \min_{j=1,n} a_{ij}, i = 1, 2, \dots, m. \quad (5.6)$$

α_i sonlarni bilgan I o'yinchi o'zining strategiyalaridan shundayini tanlaydiki, bu unga eng katta yutuq bersin. Bu maksimal yutuqni α deb belgilaymiz, ya'ni $\alpha = \max_{i=1,m} \alpha_i$. Shunday qilib, (5.4) ni hisobga olsak,

$$\alpha = \max_{i=1,m} \min_{j=1,n} a_{ij} \quad (5.7)$$

hosil bo'ladi.

α soni I o'yinchining kafolatli yutug'i bo'lib, o'yinning quyi bahosi (maksimini) deb ataladi. O'yinning quyi bahosi α ni ta'minlovchi strategiya *maksimin strategiya* deb ataladi. Agar I o'yinchi o'zining maksimin strategiyasiga amal qilsa, II o'yinchi qanday yo'l tutishidan qa'tiy nazar, unga α dan kam bo'limgan yutuq ta'minlanadi.

II o'yinchi o'z yutqazig'ini kamaytirishga, ya'ni I o'yinchi yutug'ini minimumga aylantirishga harakat qiladi. Shu sababli o'zining eng yaxshi strategiyasini tanlab olish uchun u to'lov matritsasi ustunlarining har biridagi maksimal sonni topishi va bu qiymatlar orasidan eng kichigini tanlab olishi kerak.

Har bir ustundagi maksimal elementni β_j deb belgilaymiz va bu elementlarni 5.3-jadvalning qo'shimcha satriga yozib qo'yamiz.

5.3-jadval

	B_1	B_2	...	B_n	α_i
A_1	a_{11}	a_{12}	...	a_{1n}	α_1
A_2	a_{21}	a_{22}	...	a_{2n}	α_2
...
A_m	a_{m1}	a_{m2}	...	a_{mn}	α_m
β_j	β_1	β_2	...	β_n	

β_j lar orasidan eng kichik qiymatlisini β deb belgilaymiz. β - o'yinning yuqori bahosi (minimaksi) bo'lib, u

$$\beta = \min_{j=1,n} \max_{i=1,m} a_{ij} \quad (5.8)$$

bo'yicha topiladi.

II o'yinchiga β "yutuqni" ta'minlaydigan strategiya uning *minimaks strategiyasi* deb ataladi. Agar II o'yinchi o'zining minimaks strategiyasiga amal qilsa, har qanday holda ham uning yutqazig'i β dan oshmaydi.

O'yinning quyi va yuqori baholari uchun

$$\max_{1 \leq i \leq m} \min_{1 \leq j \leq n} a_{ij} \leq \min_{1 \leq j \leq n} \max_{1 \leq i \leq m} a_{ij} \quad (5.9)$$

tengsizlikning hamisha o'rinali, ya'ni $\alpha \leq \beta$ ekanligini ko'rsatish mumkin.

Haqiqatan ham, faraz qilaylikki $\alpha = a_{i_1 j_1}$ va $\beta = a_{i_2 j_2}$ bo'lsin. U vaqtida, α va β larning aniqlanishiga ko'ra, $\alpha = a_{i_1 j_1} \leq a_{i_1 j_2} \leq a_{i_2 j_2} = \beta$.

4.3. O'yinning egar nuqtasi. Sof strategiyalar

Quyi va yuqori baholari o'zaro teng, ya'ni $\alpha = \beta$ bo'lgan o'yinlar mavjud. Bunday o'yinlar *egar nuqtali o'yinlar* deb ataladi. Egar nuqtali o'yilarda yuqori va quyi baholarining umumiy qiymati o'yining *sof bahosi*, bu qiymatga erishishni ta'minlovchi A_i^* va B_j^* strategiyalar esa *optimal strategiyalar* deyiladi.

Optimal strategiyalarning (A_i^*, B_j^*) jufti matritsaviy o'yinning *egar nuqtasi* (*muvozanat vaziyati*) deb ataladi. To'lovlar matritsasida shu egar nuqtaga mos $a_{i^* j^*} = \gamma$ element bir vaqtning o'zida i -satrda minimal, j -ustunda maksimaldir.

O'yinda optimal strategiyalar va sof baho shu o'yinning yechimi hisoblanadi. Optimal strategiyalar muhim xususiyatga egadir. Ular o'yinda shunday "muvozanat holatini bildiradiki, har bir o'yinchi o'zining optimal strategiyasidan chetga chiqishdan manfaatdor emas, chunki u bundan foyda qilmaydi. Egar nuqtali o'yinda raqiblar bir xil aql-idrokli deb hisoblansa, o'yinning sof bahosi γ ni I o'yinchi oshira olmaydi, II o'yinchi esa kamaytira olmaydi.

Agar o'yin egar nuqtaga ega bo'lsa, u sof strategiyalarda yechiladi deyiladi. Sof strategiyalar deganda o'yinchi tomonidan, tasodifiy tanlash mexanizmini ishlatmasdan, ongli ravishda tanlangan strategiya tushuniladi. O'yin bir necha egar nuqtalarga ega bo'lishi ham mumkin.

Misol. To'lov matritsasi 5.2-jadvalda keltirilgan o'yinning yechimini topamiz. Shu jadvalga mos α_i va β_j larning qiymatlarini topib, ular yordamida 5.4-jadvalni hosil qilamiz.

5.4- jadval

	B_1	B_2	B_3	α_i
A_1	0	-1	-2	-2
A_2	1	0	-1	-1
A_3	2	1	0	0
β_j	2	1	0	

O'yining quyi bahosi

$$\alpha = \max_i \alpha_i = \max(-2; -1; 0) = 0, \quad \alpha = \alpha_3.$$

O'yining yuqori bahosi

$$\beta = \min_j \beta_j = \min(2; 1; 0) = 0, \quad \beta = \beta_3.$$

$\alpha = \beta$ bo'lgani uchun o'yin egar nuqtaga ega. O'yining sof bahosi $\gamma = 0$. Optimal strategiyalar: I o'yinchining A_3 strategiyasi va II o'yinchining B_3 strategiyasi. Egar nuqta esa (A_3, B_3) bo'ladi.

Misol. To'lov matritsasi 5.5-jadvalda keltirilgan o'yining yechimi topilsin. α_i va β_j larning qiymatlarini topamiz va ularni 5.5-jadvalga kiritamiz.

5.5- jadval

	B_1	B_2	B_3	B_4	α_i
A_1	6	5	8	5	5
A_2	7	3	2	3	2
A_3	6	5	7	5	5
β_j	7	5	8	5	

O'yining quyi va yuqori baholarini topamiz:

$$\alpha = \max_i \alpha_i = \max(5, 2, 5) = 5, \quad \alpha = \alpha_1 = \alpha_3 = 5$$

$$\beta = \min_j \beta_j = \min(7; 5; 8) = 5, \quad \beta = \beta_2 = \beta_4 = 5.$$

α va β ning qiymatlaridan ko'rinish turibdiki, o'yinda optimal strategiyalarning A_1B_2 , A_1B_4 , A_3B_2 , A_3B_4 juftlariga mos to'rtta egar nuqta mavjud. O'yining sof bahosi $\gamma = 5$.

4.4. Matritsaviy o'yinni soddalashtirish

Agar o'yining to'lovlar matritsasi egar nuqtaga ega bo'lmasa, optimal aralash strategiyalarni va o'yin bahosini topish masalasi matritsa o'lchamlari kattalashgan sari murakkablashadi.

To'lov matritsasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, takrorlanuvchi va

befoydaligi ayon bo'lgan strategiyalardan voz kechish yordamida o'yin o'lchamini kichraytirish va natijada, uni yechishni bir muncha osonlashtirish mumkin.

To'lovlar matritsasi $H = (a_{ij})$, $i \in M = \{1, 2, \dots, m\}$, $j \in N = \{1, 2, \dots, n\}$, bo'lgan $m \times n$ -o'lchamli o'yin berilgan bo'lsin. O'yinining bahosini γ_N deb, I va II o'yinchisi sof strategiyalarini A_i B_j , aralash strategiyalarini esa $p = (p_1, \dots, p_m)$, $q = (q_1, \dots, q_n)$ deb belgilaymiz.

1. Agar $H = (a_{ij})$ matritsaning biror i' satrining (j' ustunining) hamma elementlari boshqa bir i'' satri (j'' ustuni) mos elementlariga teng bo'lsa, ya'ni $a_{i'j} = a_{i''j}$, $j = 1, 2, \dots, n$, ($a_{ij} = a_{ij''}$, $i = 1, 2, \dots, m$) bo'lsa, $A_{i'} \neq A_{i''}$ ($B_{j'} \neq B_{j''}$) strategiyalar takrorlanuvchi yoki ekvivalent strategiyalar deb ataladi.

2. Agar $H = (a_{ij})$ matritsa biror i' satrining (j' ustunining) barcha elementlari boshqa bir i'' satr (j'' ustuni) elementlaridan katta bo'lmasa (kichik bo'lmasa), ya'ni $(a_{i'j} \leq a_{i''j}, j = 1, 2, \dots, n)$ ($a_{ij} \geq a_{ij''}, i = 1, 2, \dots, m$) bo'lsa, $A_{i'}(B_{j'})$ strategiya befoya strategiya deb ataladi.

Berilgan $m \times n$ -o'lchamli $H = (a_{ij})$ matritsaning i' -satrini (j' -ustunini) o'chirgandan keyin hosil bo'lgan $(m-1) \times n$ ($m \times (n-1)$)-o'lchamli matritsani $H_{i'}(H^{j'})$ bilan belgilaymiz.

Quyidagi teorema o'rinnlidir.

Teorema. Faraz qilaylikki, I (II) o'yinchining $i' \in M$ ($j' \in N$) strategiyasi befoya biror $i'' \in M$ ($j'' \in N$) strategiyaga ekvivalent bo'lsin. U holda:

- 1) $\gamma_H = \gamma_{H_{i'}} (\gamma_H = \gamma_{H^{j'}})$;
- 2) II (I) o'yinchining $\Gamma_{H_{i'}} (\Gamma_{H^{j'}})$ o'yindagi $q^* (p^*)$ optimal strategiyasi Γ_H o'yinda ham optimal bo'ladi;
- 3) agar $p_{(i')}^* = (p_i^*, \dots, p_{i'-1}^*, p_{i'+1}^*, \dots, p_m^*)$ I o'yinchining $(q_{(j')}^* = (q_i^*, \dots, q_{j'-1}^*, q_{j'+1}^*, \dots, q_n^*))$ II o'yinchining $\Gamma_{H_{i'}} (\Gamma_{H^{j'}})$ o'yindagi optimal strategiyasi bo'lsa, $p^* = (p_i^*, \dots, p_{i'-1}^*, 0, p_{i'+1}^*, \dots, p_m^*)$ ($q^* = (q_i^*, \dots, q_{j'-1}^*, 0, q_{j'+1}^*, \dots, q_n^*)$) I o'yinchining (II o'yinchining) G_H o'yindagi optimal strategiyasi bo'ladi.

Bu teoremadan foydalangan holda matritsaviy o'yin o'lchamini kichraytirish quyidagicha bajariladi.

Agar to'lovlar matritsasining biror i -satri (j -ustuni) shu matritsa qolgan satrlari (ustunlari) qavariq kombinatsiyasidan katta (kichik) bo'lmasa, o'yinni yechish uchun shu satrni (ustunni) o'chirish mumkin.

Bunda I (II) o'yinchining r^* (q^*) optimal strategiyasida $p_i^*=0$ ($q_j^*=0$) deb olinadi.

Misol. To'lovlar matritsasi 5.6-jadvalda berilgan o'yin soddalashtirilsin va yechimi topilsin.

5.6-jadval

	V_1	V_2	V_3	V_4	V_5
A_1	8	6	4	5	1
A_2	5	4	3	2	3
A_3	6	7	6	3	5
A_4	3	3	2	1	2

Jadvaldan ko'rindiki, $\alpha = \max_{i,j} a_{ij} = 3$, $\beta = \min_{j,i} a_{ij} = 5$,

$\alpha < \beta$, ya'ni o'yin egar nuqtaga ega emas. A_2 va A_3 satr elementlarini solishtirib, A_2 satr elementlari A_3 satrning mos elementlaridan kichik ekanligini aniqlaymiz. Demak, A_2 strategiya I o'yinchi uchun shubhasiz befoydadir va uni hisobdan chiqarish mumkin.

Shunga o'xshash A_3 va A_4 satrlarning elementlarini solishtirib, A_4 strategiyani hisobdan chiqaramiz. Natijada qaralayotgan o'yin 5.7-jadval ko'rinishiga keladi.

5.7-jadval

	V_1	V_2	V_3	V_4	V_5
A_1	8	6	4	5	1
A_3	6	7	6	3	5

Bu jadvaldan ko'rindiki, II o'yinchining B_1 , B_2 va B_3 strategiyalari B_5 ga nisbatan shubhasiz befoydadir, ya'ni B_1 , B_2 , B_3 ustun elementlari B_5 ustuning mos elementlaridan katta. Bu strategiyalarni hisobdan chiqarib 5.8-jadval bilan aniqlangan 2x2-o'yinga kelamiz. Endi bu o'yinda takrorlanuvchi va befoyda strategiyalar yo'q.

5.8-jadval

	V_4	V_5
A_1	5	1
A_3	3	5

Hosil bo'lgan o'yinni yechamiz. Quyidagi keltirilgan

$$p_1 = \frac{a_{22} - a_{21}}{a_{11} + a_{22} - a_{12} - a_{21}}; \quad p_2 = \frac{a_{11} - a_{12}}{a_{11} + a_{22} - a_{12} - a_{21}};$$

$$q_1 = \frac{a_{22} - a_{12}}{a_{11} + a_{22} - a_{12} - a_{21}}; \quad q_2 = \frac{a_{11} - a_{21}}{a_{11} + a_{22} - a_{12} - a_{21}};$$

formulalarga ko'ra

$$p_1^* = \frac{5-3}{5+5-1-3} = \frac{2}{6} = \frac{1}{3}; \quad p_3^* = \frac{5-1}{5+5-1-3} = \frac{4}{6} = \frac{2}{3};$$

$$q_4^* = \frac{5-1}{5+5-1-3} = \frac{4}{6} = \frac{2}{3}; \quad q_5^* = \frac{5-3}{5+5-1-3} = \frac{2}{6} = \frac{1}{3};$$

bo'ladi.

Demak, 1-teoremaga asosan $p^* = \left(\frac{1}{3}, 0, \frac{2}{3}, 0\right)$, $q^* = \left(0, 0, 0, \frac{2}{3}, \frac{1}{3}\right)$

strategiyalar o'yinchilarning optimal strategiyalaridir. O'yin bahosi esa

$$\gamma = \frac{a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}}{a_{11} + a_{22} - a_{12} - a_{21}} \text{ ko'ra } \gamma = \frac{5 \cdot 5 - 1 \cdot 3}{5+5-1-3} = \frac{22}{6} = \frac{11}{3} = 3\frac{2}{3}$$

bo'ladi.

Misol. To'lovlar matritsasi

$$H = \begin{pmatrix} 2 & 1 & 1 & 0 \\ 2 & 3 & 1 & 3 \\ 3 & 1 & 2 & 0 \\ 0 & 3 & 0 & 6 \end{pmatrix}$$

bo'lgan o'yinni yechish talab qilinadi.

Bu o'yin to'lovlar matritsasidagi a_1 satr elementlari a_3 satr mos elementlaridan katta emas. Shuning uchun a_1 satrni o'chiramiz va $H_1 = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 & 3 \\ 3 & 1 & 2 & 0 \\ 0 & 3 & 0 & 6 \end{pmatrix}$ matritsani hosil qilamiz. Bu matritsada a^1 ustun elementlari a^3 ustun elementlaridan kichik emas. Shuning uchun a^1 ustunni o'chirib $H_1^I = \begin{pmatrix} 3 & 1 & 3 \\ 1 & 2 & 0 \\ 3 & 0 & 6 \end{pmatrix}$ matritsani hosil qilamiz. Endi bu matritsada

shubhasiz befoyda strategiyalarga mos keluvchi satr yoki ustunlar yo'q. Ammo H_1^I matritsaning a^1 ustuni qolgan a^2 , a^3 ustunlarining qavariq kombinasiyasidan kichik emas, ya'ni $a^1 \geq \frac{1}{2}a^2 + \frac{1}{2}a^3$, chunki

$$3 > 1 \cdot \frac{1}{2} + 3 \cdot \frac{1}{2}; \quad 1 = 2 \cdot \frac{1}{2} + 0 \cdot \frac{1}{2}; \quad 3 = 0 \cdot \frac{1}{2} + 6 \cdot \frac{1}{2}.$$

Demak, H_1^I matritsadan birinchi ustunni o'chirish mumkin (bu ustun dastlabki N matritsaning 2-ustuniga mos keladi). Natijada $H_1^{I2} = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 2 & 0 \\ 0 & 6 \end{pmatrix}$ matritsaga ega bo'lamiz. Bu matritsada birinchi satr qolgan satrlarning qavariq kombinatsiyasidan iborat, ya'ni $a_1 = \frac{1}{2}a_2 + \frac{1}{2}a_3$, chunki

$1=2 \cdot \frac{1}{2} + 0 \cdot \frac{1}{2}; \quad 3=0 \cdot \frac{1}{2} + 6 \cdot \frac{1}{2}$. Shuning uchun H_1^{I2} matritsadan birinchi satrni o'chiramiz (bu satr dastlabki N matritsaning 2-satrga mos keladi). Nihoyat, $H_{I2}^{I2} = \begin{pmatrix} 2 & 0 \\ 0 & 6 \end{pmatrix}$ to'lov matritsasiga kelamiz. Bu matritsa N matritsadan 1-2-satr va 1-2-ustunlarni o'chirishdan hosil qilingan. To'lovlar matritsasi H_{I2}^{I2} bo'lgan o'yinni yechamiz: $p_3^* = \frac{6}{8} = \frac{3}{4}$, $p_4^* = \frac{1}{4}$, $q_3^* = \frac{6}{8} = \frac{3}{4}$, $q_4^* = \frac{1}{4}$, $\gamma_{H_{I2}^{I2}} = \frac{12}{8} = \frac{3}{2}$.

Shunday qilib, I o'yinchining optimal strategiyasi $p^* = \left(0, 0, \frac{3}{4}, \frac{1}{4}\right)$, II o'yinchining optimal strategiyasi $q^* = \left(0, 0, \frac{3}{4}, \frac{1}{4}\right)$, o'yin bahosi $\gamma_H = \gamma_{H_{I2}^{I2}} = \frac{3}{2}$ bo'ladi.

5-§. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish

5.1. Noaniqlik sharoitida optimal strategiyani tanlash mezonlari

Qaror qabul qilish (QQQ) maqsaddan kelib chiqqan holda eng qulay strategiyani aniqlaydi va uni masalani echish jarayonida amalga oshiradi. QQQ masalani echish natijasini *QQQning mezonlaridan* biri orqali aniqlaydi.

QQQ mezoni – QQQ ning tanlagan baholash funksiyasi bo'lib, unga ko'ra qarorning maqbul yoki optimal variantini tanlash qoidasi aniqlanadi.

Bir qiymatli va imkoniyati boricha qulay qaror variantiga kelish uchun baholovchi(maqsad) kiritish kerak bo'ladi. Bunda QQQning har bir (A_i) strategiyasiga shu qarorning barcha oqibatlarini xarakterlaydigan qandaydir W_i natija mos qo'yiladi. QQQ natijalari massividan QQQ uning tutadigan harakat yo'lini eng qulay tarzda asoslaydigan W elementni tanlaydi.

Ma'lumotlar to'liq bo'lmasagan sharoitda har bir qaror shu qaror qabul qilinadigan vaziyatlarning sonli xarakteristikalarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Ko'pgina hollarda QQQda quyidagi mezonlar ishlataladi: Sevidj mezoni, Gurvits mezoni, Xodja-Leman mezoni, Germeyer mezoni, minimaksli mezoni, Bayes-Laplas mezoni, ko'paytmalar mezoni, Bayes-Laplas tashkil etuvchi mezoni.

Bu mezonlarni navbat bilan alohida ishlatish mumkin. Ammo bir necha variantlar bo'yicha hisoblashlar bajarilgandan so'ng qandaydir oxirgi natijali qarorga kelish lozim.

Bayes-Laplas mezoni (*yutuqning maksimal matematik kutilishi mezoni*). Yutuqning maksimal matematik kutilishi mezoni QQQga atrof muhit holatlarining ehtimollari ma'lum bo'lgan sharoitda ishlatiladi. Bu mezon bo'yicha ish ko'rilmaga to'lovlar matrisasi shunday ustun bilan to'ldiriladiki, uning har bir elementi QQQning tanlagan strategiyasiga to'g'ri keladigan yutuqning matematik kutilishini ifodalaydi:

$$W_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} p_j, \quad (5.10)$$

bu yerda p_j – tabiyat j -holatining ehtimoli.

Ushbu mezon bo'yicha optimal strategiya QQQning shunday strategiyasi hisoblanadiki unda yutuqning matematik kutilishi maksimaldir:

$$W = \max_{i=1,m} \sum_{j=1}^n a_{ij} p_j. \quad (5.11)$$

Yutuqning maksimal matematik kutilishi mezonini qo'llash quyidagi vaziyatlarda maqsadga muvofiqdir:

1. QQQga atrof muhitning hamma holatlari ehtimollari ma'lum bo'lsa;
2. QQQda QQQga mag'lubiyat xavfining minimaliashtirilishi o'rtacha yutuqning maksimallashtirilishiga qaraganda muhimroq factor hisoblansa.

Atrof muhitning ehtimollari haqida zarur ma'lumotiga ega bo'lish kerakligi qaralayotgan mezonning qo'llanish sohasini chegaralaydi.

Laplasing yetarlicha asoslanmaganlik mezoni. Bu mezon QQQ masalasida atrof muhit holatining ehtimolii haqida ma'lumot to'liq bo'limganda ishlatiladi. Atrof muhit holatlarining ehtimollari teng deb hisoblanadi va QQQning har bir strategiyasi bo'yicha to'lov matrisasida yutug'ning mos o'rtacha qiymati aniqlanadi:

$$W_i = \frac{\sum_{j=1}^n a_{ij}}{n}. \quad (5.12)$$

Ushbu mezon bo'yicha optimal deb QQQning shunday strategiyasi tanlanadiki, unga o'rtacha yutuq miqdori maksimali bo'lsin, ya'ni

$$W = \max_{i=1,m} \frac{\sum_{j=1}^n a_{ij}}{n}. \quad (5.13)$$

Bu mezonning qo'llanishi quyidagi vaziyatlarda mumkin bo'ladi:

1. QQQ atrof muhit holatlarining ehtimollari haqida umuman ma'lumotga ega emas, yoki bunday ma'lumot to'liq emas;
2. Atrof muhit holatlarining ehtimollarining qiymatlari bir-biriga yaqin;
3. QQQda QQQga mag'lubiyat xavfining minimaliashtirilishi o'rtacha yutuqning maksimallashtirilishiga qaraganda muhimroq factor hisoblanadi.

Valdning maksimin mezon. *Maksimin mezon* (MM- mezon) bo'yicha qarorni tanlash qoidasini qiyidagicha interpritasiya qilish mumkin:

To'lov matrisasiga yana bitta ustun qo'shiladi. Bu ustunning har bir elementi QQQning mos strategiyasidagi minimal yutug'inining qiymatiga teng:

$$W_i = \min_{j=1,n} a_{ij}.$$

Bu mezon bo'yicha optimal deb QQQning shunday strategiyasi tanlanadiki, unda yutugqning minimal qiymati maksimal bo'lsin:

$$W = \max_{i=1,n} W_i = \max_{i=1,n} \min_{j=1,m} a_{ij}. \quad (5.14)$$

Shu tarzda tanlangan strategiya xatarni to'liq yo'qqa chiqaradi. Bu shuni bildiradiki, qaror qabul qiluvchi u mo'ljallayotgan vaziyatga qaraganda noqulayroq vaziyat bilan to'qnash kelishi mumkin emas. Bu xususiyat MM-mezon fundamental mezonlardan biri deb hisoblash imkonini beradi.

MM-mezonni qaror qabul qilinyotgan vaziyat quyidagicha bo'lgan hollarda qo'llash mumkin:

1. Atrof muhitning paydo bo'ladigan holati haqida hech narsa ma'lum emas;
2. Qaror faqat bir martta amalga oshiriladi;
3. Har qanday hatarni chetlashtitish kerak.

Sevidjning minimaks xatar mezon. $a_{\max j} - j$ – ustunning maksimal elementi bo'lsin. ($a_{\max j} - a_{ij}$) miqdorni QQQning qo'shimcha yutuq'i sifatida tushunish mumkin. Shunga ko'ra xavfning minimaks mezzoni bo'yicha qulay strategiya tanlanadi.

Bu mezon bo'yicha optimal strategiyani aniqlash uchun to'lov matrisa asosida taxlikalar matrisasi hisoblanaladi. Bu matrisaning har bir (r_{ij}) elementi quyidagi formula asosida topiladi:

$$r_{ij} = a_{\max j} - a_{ij} \quad (5.15)$$

Taxlikalar matrisasi QQQning har bir strategiyasi bo'yicha r_{ij} elementlarning maksimal qiymatlarini saqlovchi ustun bilan to'ldiriladi: $R_i = \max_{j=1,n} r_{ij}$.

Bu mezon bo'yicha optimal strategiya sifatida R_i ga minimal qiymat beruchi strategiya tanlanadi:

$$W = \min_{i=1,m} R_i = \min_{i=1,m} \max_{j=1,n} r_{ij}. \quad (5.16)$$

Sevidj mezonining qo'llanish vaziyatlari MM-mezoninig qo'llanish vaziyatlariga o'xshash, ammo bunda taxlika faktorining yutuq miqdoriga ta'sir darajasini hisobga olish muhimroq hisoblanadi.

Gurvinsning pessimizm-optimizm mezoni. Qaror rabul qilish amaliyotida QQQ faqat o'ta pessimizim bilan bog'liq yoki maksimal havfni hisobga oluvch mezonlar bilan ish ko'ravermaydi. Muayyan o'rtacha pozisiyani egallahga harakat qiluvchi QQQ pessimizim koeffisienti deb ataluvchi qandaydir baholovchi koeffisientni kirgizishi mumkun. Bu koeffisientnng qiymati $[0,1]$ intervalda yotadi va ua o'ta optimistik va o'ta pessimistik nuqtai nazarlar oralig'idagi vaziyatni aks ettiradi. Bu koeffisient QQQ natijalarini statistik taddiq etish yoki o'xshash vaziyatlarda QQQda orttirilgan shaxsiy tajriba asosida aniqlanadi.

To'lov matrisasi koeffisientlari quyidagi formula yordamida hisoblanadigan ustun bilan to'ldiriladi:

$$W_i = C \min_{j=1,n} a_{ij} + (1-C) \max_{j=1,n} a_{ij}, \quad (5.17)$$

bu yerda C – pessimizm koeffisienti.

Bu mezon bo'yicha optimal strategiya sifatida W_i ga maksimal qiymat beruvchi strategiya hisoblanadi:

$$W = \max W_i.$$

$S=1$ bo'lganda Gurvits mezonidan MM- mezon hosil bo'ladi. $S = 0$ bo'lganda esa u eng qulay vaziyat «hosil» bo'lishiga ko'z tikkan “ashaddiy o'yinchi” mezoniga aylanadi.

Gurvits mezoni quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Atrof muhit ahvoli haqida ma'lumot mavjud emas yoki bunday ma'lumot ishonchsiz;
2. Atrof muhitning har qanday holati paydobo'lishi bilan hisoblashish kerak;
3. Faqat kichik sondagi qarorlar amalga oshiriladi;
4. Qandaydir havfga yo'qoyiladi.

5.2. Noaniqlik sharoitida tajribani o'tkazish masalasini yechish algoritmi

Agar tajriba o'tkazilmasa, I o'yinchining o'rtacha yutugi

$$\bar{\alpha} = \max_i \left\{ \sum_{j=1}^n a_{ij} Q_j \right\}$$

yordamida topiladi. Endi tajriba o'tkazilgan va shu tajriba natijasiga ko'ra operatsiyaning qanday tabiat holatida amalga oshirilishi aniqlangan bo'lzin. Agar bu holat T_1 bo'lsa, I o'yinchining maksimal yutugi $\beta_1 = \max_i a_{i1}$, agarda T_2 bo'lsa, uning maksimal yutug'i $\beta_2 = \max_i a_{i2}$ va h.k., T_n bo'lsa, — $\beta_n = \max_i a_{in}$ bo'ladi. Lekin aslida tabiatning haqiqatan yuz beradigan holati noma'lum hamda tajriba o'tkazilishining maqsadga muvofiqligini aniqlash talab etilmoqda. Shu sababli I o'yinchining qutilayotgan maksimal yutuqlari o'rtacha qiymatini topamiz:

$$\beta = \sum_{j=1}^n \beta_j Q_j .$$

Agar

$$C < \sum_{j=1}^n \beta_j Q_j - \max_i \left\{ \sum_{j=1}^n a_{ij} Q_j \right\}$$

shart bajarilsa, tajribani o'tkazish kerak bo'ladi. Bu yerdan

$$C < \min_i \left\{ \sum_{j=1}^n Q_j (\beta_j - a_{ij}) \right\}$$

kelib chiqadi.

Tavakkalliklar ta'rifini e'tiborga olsak

$$(\beta_j - a_{ij} = r_{ij}) \quad C < \min_i \left\{ \sum_{j=1}^n Q_j r_{ij} \right\}$$

munosabatni hosil qilamiz. Bu munosabat tajriba o'tkazish maqsadga muvofiqlik mezonini ifodalaydi.

Shunday qilib, agar tajriba uchun ketadigan xarajatlar o'rtacha tavakkalning minimal qiymatidan kichik bo'lsa, uni o'tkazish kerak.

Aks holda tajriba o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Misol. Tabiat bilan o'yining yutuqlar matrisasi 5.9-jadvalda keltirilgan.

5.9-jadval

	T_1	T_2	T_3	T_4
A_1	3	0	2	6
A_2	2	1	0	4
A_3	0	3	1	5

Tabiatning T_1 , T_2 , T_3 va T_4 holatlari ro'y berishi ehtimollari ma'lum hamda mos ravishda quyidagicha bo'lsin: $Q_1=0,2$, $Q_2=0,1$, $Q_3=0,2$ va $Q_4=0,5$. Tajriba uchun ketadigan xarajatlar $S=1,5$ pul birligi ekanligi ma'lum deb hisoblaymiz. Tabiat holatlaridan qaysi biri ro'y berishini aniqlab olish uchun tajriba o'tkazish maqsadga muvofiqligini aniqlash talab qilinadi.

Shu maqsadda o'rtacha yutuqlarni hisoblaymiz:

$$\alpha_1 = \sum_{j=1}^4 a_{1j} Q_j = 4, \quad \alpha_2 = \sum_{j=1}^4 a_{2j} Q_j = 2,5, \quad \alpha_3 = \sum_{j=1}^4 a_{3j} Q_j = 3.$$

Demak, maksimal o'rtacha yutuq quyidagicha bo'ladi:

$$\bar{\alpha} = \max_i \left\{ \sum_{j=1}^n a_{ij} Q_j \right\} = \max\{4; 2,5; 3\} = 4.$$

Qaralayotgan o'yinda I o'yinchining kutilayotgan maksimal yutuqlari o'rtacha qiymatini topamiz:

$$\bar{\beta} = \sum_{j=1}^4 \beta_j Q_j = 3 \cdot 0,2 + 3 \cdot 0,1 + 2 \cdot 0,2 + 6 \cdot 0,5 = 4,3.$$

$C = 1,5 > \bar{\beta} - \bar{\alpha} = 4,3 - 4 = 0,3$ bo'lgani uchun tajriba o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Endi tajribani o'tkazish masalasini hal etishdagi boshqa vaziyatni qarab chiqamiz. Bu vaziyat tabiat bilan o'yinning real amaliy masalalarida ko'p uchraydi.

Faraz qilaylik tajribani o'tkazish tabiatning biror T_j holatini aniqlash imkonini bermaydi, balki u faqatgina s ta o'zaro kesishmaydigan B_1, B_2, \dots, B_s hodisalarga olib keladi. Bizga $T_j (j=1, \dots, n)$ shartlar bajarilganda B_k ($k=1, \dots, s$) hodisalarning ro'y berish ehtimollari ma'lum deb hisoblaymiz. Bu ehtimollarni $P(B_k/T_j) (k=1, \dots, s; j=1, \dots, n)$ bilan belgilaymiz.

Faraz qilaylik, tajriba o'tkazilgan va B_k natija olingan bo'lsin. Bu holda ehtimollar nazariyasidan ma'lum bo'lgan Beyes formulasiga binoan tajriba natijasida $B_k (k=1, \dots, s)$ natija olingan degan shartda T_j holatning ro'y berish ehtimoli Q_{jk} quyidagicha topiladi:

$$Q_{jk} = \frac{Q_j P(B_k / T_j)}{\sum_{i=1}^n P(B_k / T_i)}, j=1, \dots, n; k=1, \dots, s.$$

Bu formula o'ng tomonidagi kasrning maxraji B_k ($k=1, \dots, s$) hodisalarning to'la ehtimolidan iborat, ya'ni

$$P(B_k) = \sum_{j=1}^n Q_j P(B_k / T_j).$$

Tajriba o'tkazilganda olingan har bir B_k ($k=1, \dots, s$) natija uchun $\bar{\alpha}_i^{(k)}$ o'rtacha yutuqlarni

$$\bar{\alpha}_i^{(k)} = \sum_{j=1}^n a_{ij} Q_{jk} \quad (i=1, \dots, m; k=1, \dots, s)$$

bo'yicha topamiz.

Agar tajribaning B_k natijasi ma'lum bo'lsa, I o'yinchining maksimal o'rtacha yutugi $\bar{\alpha}^{(k)} = \max \bar{\alpha}_i^{(k)}$ ($k=1, \dots, s$) bo'lar edi. Lekin, bizga faqat tajriba natijasida paydo bo'ladigan B_k ($k=1, \dots, s$) hodisalarning $P(B_k)$ to'la ehtimollari ma'lum. Shu ma'lumot asosida tajriba o'tkazilish natijasida olish mumkin bo'lgan yutuqning o'rtacha qiymatini topamiz:

$$\bar{\alpha}^* = \sum_{k=1}^s \bar{\alpha}^{(k)} P(B_k).$$

Shunday qilib, qaralayotgan holda tajribani rejalashtirish mezoni quyidagicha: agar $C < \bar{\alpha}^* - \max_i \sum_{j=1}^n a_{ij} Q_j$ shart bajarilsa, tajriba o'tkazish mumkin, aks holda tajriba o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Misol. Yuqoridagi misolda qaralgan o'yinda tabiat holatlarining ro'y berishini aniqlashtirish maqsadida tajriba o'tkazilishi natijasida B_1, B_2, B_3 hodisalarning sodir bo'lishlari ma'lum va ularning ehtimollari 5.10-jadvalda berilgan bo'lsin. Tajriba xarajatlari avvalgidek deb hisoblab, uni o'tkazish maqsadga muvofiq yoki emasligini aniqlaymiz.

5.10-jadval

	T_1	T_2	T_3	T_4
B_1	0.2	0.8	0.5	0.4
B_2	0.3	0.2	0.1	0.4
B_3	0.5	0	0.4	0.2

Faraz qilaylik, tajriba natijasida B_1 hodisa vujudga kelsin. U vaqtida Beyes formulasiga kura $Q_{j1}, j=1, \dots, 4$, ehtimollar quyidagicha topiladi (5.11-jadval):

$$Q_{11} = \frac{0,2 \cdot 0,2}{0,2 \cdot 0,2 + 0,1 \cdot 0,8 + 0,2 \cdot 0,5 + 0,5 \cdot 0,4} \approx 0,095;$$

$$Q_{21} = \frac{0,08}{0,42} \approx 0,19; Q_{31} = \frac{0,1}{0,42} \approx 0,24; Q_{41} = \frac{0,2}{0,42} \approx 0,476.$$

Agar B_2 hodisa vujudga kelsa:

$$Q_{12} = \frac{0,2 \cdot 0,3}{0,2 \cdot 0,3 + 0,1 \cdot 0,2 + 0,2 \cdot 0,1 + 0,5 \cdot 0,4} = \frac{0,06}{0,3} = 0,2;$$

$$Q_{22} = \frac{0,02}{0,3} \approx 0,067; Q_{32} = \frac{0,02}{0,3} \approx 0,067; Q_{42} = \frac{0,2}{0,3} = 0,666.$$

B_3 hodisa yuz berganda esa:

$$Q_{13} = \frac{0,2 \cdot 0,5}{0,2 \cdot 0,5 + 0,1 \cdot 0 + 0,2 \cdot 0,4 + 0,5 \cdot 0,2} \approx 0,36;$$

$$Q_{23} = \frac{0,1 \cdot 0}{0,28} = 0; Q_{33} = \frac{0,08}{0,28} \approx 0,28; Q_{43} = \frac{0,1}{0,28} \approx 0,36.$$

5.11- jadval

	T_1	T_2	T_3	T_4
V_1	0,095	0,19	0,24	0,476
V_2	0,2	0,067	0,067	0,666
V_3	0,36	0	0,28	0,36

Har bir B_k lar uchun $\bar{\alpha}_i^{(k)}$ o'rtacha yutuqlarni hisoblaymiz:

$$\bar{\alpha}_1^{(1)} = 3 \cdot 0,095 + 0 \cdot 0,19 + 2 \cdot 0,24 + 6 \cdot 0,476 = 3,62;$$

$$\bar{\alpha}_1^{(2)} = 3 \cdot 0,2 + 0 \cdot 0,067 + 2 \cdot 0,067 + 6 \cdot 0,666 = 4,73;$$

$$\bar{\alpha}_1^{(3)} = 3 \cdot 0,36 + 0 \cdot 0 + 2 \cdot 0,28 + 6 \cdot 0,36 = 3,8.$$

va h.k. Natijada 5.12- jadvalga ega bo'lamiz:

5.12- jadval

	$\bar{\alpha}_i^{(1)}$	$\bar{\alpha}_i^{(2)}$	$\bar{\alpha}_i^{(3)}$
A_1	3,62	4,73	3,8
A_2	2,28	3,131	2,16
A_3	3,19	3,598	2,08

Agar tajriba natijasida B_1 hodisa yuzaga kelsa, o'rtacha yutuq $\bar{\alpha}^{(1)} = \max(3,62; 2,28; 3,19) = 3,62$ bo'ladi. Agar B_2 yoki B_3 hodisalar vujudga kelsa, o'rtacha yutuq, mos ravishda, $\bar{\alpha}^{(2)} = 4,73$, $\bar{\alpha}^{(3)} = 3,8$ bo'ladi.

Shuning uchun I o'yinchi A_1 strategiyani tajriba natijalari qanday bo'lishidan qat'iy nazar optimal strategiya sifatida tanlaydi.

Yuqoridagi hisoblashlarda $R(B_1)=0,42$; $R(B_2)=0,3$; $R(B_3)=0,28$ ekanligi aniqlandi. Shuni hisobga olib, tajriba o'tkazilish natijasida olish mumkin bo'lgan yutuqning o'rtacha qiymatini topamiz:


$$\bar{\alpha}^* = 3,62 \cdot 0,42 + 4,73 \cdot 0,3 + 3,8 \cdot 0,28 = 4,003.$$

Yuqoridagi misolni yechish jarayonida topilgan natijadan foydalanib quyidagiga ega bo'lamic:

$$\bar{\alpha}^* - \max_i \sum_{j=1}^4 a_{ij} Q_j = 4,003 - 4 = 0,003.$$

Demak, $s=1,5 > \bar{\alpha}^* - \max_i \sum_{j=1}^4 a_{ij} Q_j = 0,003$ bo'lgani uchun tajriba o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Dasturiy ta'minoti. Interfeys oynada boshlang'ich qiymatlar kiritiladi va dastur yordamida tajriba o'tkazish maqsadga muvofiqligi yoki muvofiqmasligi aniqlanadi (5.18-rasm).



5.18-rasm. Dastur yordamida olingan natijalar.

Nazorat savollari

1. Hodisalar oqimi nima va ularning qanday tiplari mavjud?
2. Markov tasodifiy jarayoni va modelining mohiyatini tushuntiring?
3. Yashirin Markov modelining mohoyatini tushuntiring?
4. Monte-Karlo usulining mohiyatini tushuntiring?
5. Monte-Karlo usulining qo'llanilishiga misollar keltiring?
6. O'yinchining strategiyasi qanday qoidalar majmuiga aytildi?
7. Matritsaviy o'yin va Alfa-betta parchalanishning mohiyatini tushuntiring?
8. O'yining egar nuqtasi qanday aniqlanadi?
9. Matritsaviy o'yin qanday soddalashtiriladi?
10. Noaniqlik sharoitida optimal strategiyani tanlashning qanday mezonlarini bilasiz?
11. Noaniqlik sharoitida tajribani o'tkazish masalasini yechish algoritmini tushuntiring?

Test savollari

1. Hodisalar oqimi – bu..... hodisalar ketma-ketligidir;
 - a) turli vaqt momentlarida birin-ketin paydo bo'ladigan bir jinsli;
 - b) turli vaqt momentlarida birin-ketin paydo bo'ladigan ikki jinsli;
 - c) bir xil vaqt momentlarida birin-ketin paydo bo'ladigan bir jinsli;
 - d) bir xil vaqt momentlarida birin-ketin paydo bo'ladigan ikki jinsli.
2. Agarda tasodifiy jarayonda tizimning har bir navbatdagi holatga o'tish ehtimolligi faqat oldingi holatga bog'liq bo'lsa, u holda bunday jarayon deyiladi.
 - a) Markovning oddiy zanjiri; b) Markovning murakkab zanjiri;
 - c) Eriarxik jarayon; d) Eng oddiy jarayon.
3. O'yinchining strategiyasi deb – ... yo'lini belgilovchi qoidalar majmuiga aytildi.
 - a) har bir shaxsiy yurishda o'yin jarayonida yuz bergen vaziyatdan kelib chiqib tadbir variantini tanlash;
 - b) har bir o'yin jarayonida yuz bergen variantini tanlash;
 - c) har bir shaxsiy yurishda o'yin jarayonida yuz bergen vaziyatdan kelib chiqib;
 - d) har bir o'yin jarayonida yakunida yuz bergen variantini tanlash.
4. Agar juft o'yinda bir o'yinchining yutug'i ikkinchisining yutqazig'iga teng bo'lsa, bunday o'yindeb ataladi.
 - a) nol yig'indili o'yin; b) teng yig'indili o'yin; c) juft o'yin;
 - d) antagonistik o'yin.

5. Jarayoni Markov jarayoni deyiladi, agarda tizimning bunday holatga qanday kelganligiga bog‘liq bo‘lmasa.

a) ixtiyoriy t_0 vaqt momenti uchun tizimning keyingi ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) uning hozirgi holatiga bog‘liq ($t = t_0$) bo‘lib;

b) ixtiyoriy t_n vaqt momenti uchun tizimning hozirgi holatiga bog‘liq ($t = t_0$) bo‘lib;

c) ixtiyoriy t vaqt momenti uchun tizimning keyingi ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) uning dastlabki holatiga bog‘liq ($t = t_m$) bo‘lib;

d) ixtiyoriy t_0 vaqt momenti uchun tizimning keyingi ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) bo‘lib.

6. Markovning murakkab zanjirining matematik ifodasini aniqlang?

a) $P_{i(i+1)} = f(S_i, S_{i-1}, S_{i-2}, \dots)$; b) $P_{i(i+1)} = f(S_i)$;

c) $P(0) = \langle P_{01}, P_{02}, \dots, P_{0n} \rangle$; d) $P_i(k) = \sum_{j=1}^n P_j(k-1)P_{ij}$.

7. Yashirin Markov modeli uchun Markov xossasini aniqlang?

a) t vaqt momentidagi $x(t)$ o’zgaruvchining qiymati faqat ($t-1$) vaqt momentidagi $x(t-1)$ o’zgaruvchining qiymatidan bog‘liq bo’ladi;

b) ixtiyoriy t_0 vaqt momenti uchun tizimning keyingi ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) uning joriy holatiga bog‘liq bo’lmaydi;

c) ixtiyoriy t_0 vaqt momenti uchun tizimning keyingi ixtiyoriy holatlari ehtimoli ($t > t_0$) uning ($t = t_0$) momentida yakunlanadi;

d) t vaqt momentidagi $x(t)$ o’zgaruvchining qiymati $x(t - 1)$ o’zgaruvchining qiymatiga teng.

8. Monte-Karло usuli bu -

a) ko’p sonli stoxastik (tasodifiy) jarayonlarni amalga oshirishga asoslangan sonli usullar guruhining umumiy nomidir;

b) ko’p sonli oddiy (tasodifiy) jarayonlarni amalga oshirishga asoslangan usuldir;

c) sonli usullar yordamida stoxastik (tasodifiy) jarayonlarni amalga oshirishga asoslangan usul;

d) sonli usullar yordamida oddiy (tasodifiy) jarayonlarni amalga oshirishga asoslangan usullar guruhining umumiy nomidir.

9. Qaror qabul qilish (QQQ) mezoni bu –

a) QQQ ning tanlagan baholash funksiyasi bo‘lib, unga ko’ra qarorning maqbul yoki optimal variantini tanlash qoidasidir;

b) umumiy baholash funksiyasi bo‘lib, unga ko’ra qarorning to’g’ri yoki noto’g’ri variantini aniqlaydi;

c) QQQ ning eng optimal funksiyasi bo'lib, unga ko'ra qarorning optimal variantini tanlash imkoniyatiga keladi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

10. β parchalanish bo'yicha o'yining yuqori bahosi (minimaksi) qanday ifoda bo'yicha topiladi.

a) $\beta = \min_{j=1,n} \max_{i=1,m} a_{ij}$; b) $\beta = \min_{j=1,n} \max_{i=1,m} a_{ji}$; c) $\beta = \max_{1 \leq i \leq m} \min_{1 \leq j \leq n} a_{ij}$;

d) Bunday ifoda mavjud emas.

Masala va topshiriqlar

1. S tizim avtomashina bo'lib, beshta mumkin holatlardan bittasida bo'lishi mumkin: S_1 – soz, ishlayapti; S_2 – nosoz, ko'rikdan o'tishni kutayapti; S_3 – ko'rikdan o'tayapti; S_4 – ta'mirlanayapti; S_5 – ta'mirlashdan chiqdi. Ushbu tizimning holatlarini o'tish grafi ko'rinishda tasvirlang?

2. S texnik qurilma ikkita I va II liniyalardan iborat bo'lib, ulardan ixtiyoriy bittasi tasodifiy vaqt momentida ishlamasligi mumkin. Bu holda tizimda quyidagi holatlar bo'lishi mumkin: S_{11} – ikki liniya ham ishlayapti; S_{21} – birinchi liniya ishlayapti, ikkinchi liniya ishlayapti; S_{31} – ikkinchi liniya ishlayapti, birinchi liniya ishlayapti; S_{41} – ikki liniya ham ishlayapti. Jaroyan davomida liniyalar ta'mirlanmaydi deb faraz qilib, S tizimning holatlarini o'tish grafi ko'rinishda tasvirlang?

3. S texnik qurilma ikkita I va II liniyalardan iborat bo'lib, ulardan ixtiyoriy bittasi tasodifiy vaqt momentida ishlayay (nosoz) qolishi mumkin. S da har bir liniya tuzatilguncha nosozlikni tugatish uchun ko'rikdan o'tishi kerak bo'ladi. Bu holda S da I va II liniyalar birgalikda qaralsa va har bir liniya: ishlayapti, ko'rikdan o'tayapti, tuzatilayapti holatlaridan iborat bo'lsa, u holda S tizimda mumkin bo'lgan barcha holarlarni aniqlang va ularga mos o'tish grafini hosil qiling?

4. Aytaylik, tomonlari birga teng bo'lgan kvadratning ichiga chizilgan tekis figura berlgan bo'lsin. Monte-Karlo usulidan foydalanib kvadratning ichiga chizilgan tekis figuraning yuzasini toping?

5. To'lov matritsasi quyidagi jadvalda keltirilgan o'yining egar nuqtasini toping?

	B_1	B_2	B_3	B_4	α_i
A_1	5	5	4	5	4
A_2	8	6	2	3	2
A_3	4	5	4	5	4
β_j	8	6	4	5	

6. O'yinda muvozavat vaziyat (egar nuqta) bor yoki yuqligini tekshiring, bor bo'lsa egar nuqtani va maksimin, minimaks strategiyalarni toping.

$$\begin{aligned}
 1) H &= \begin{pmatrix} 4 & 3 & 5 & 6 \\ 2 & 1 & 7 & 8 \\ 1 & 6 & 7 & 9 \end{pmatrix}; \quad 2) H = \begin{pmatrix} 3 & 2 & 5 & 6 \\ 1 & 0 & 6 & 7 \\ 5 & 1 & 5 & 4 \end{pmatrix}; \quad 3) H = \begin{pmatrix} 4 & 1 & 5 & 9 \\ 0 & 1 & 6 & 5 \\ 3 & 2 & 4 & 3 \end{pmatrix}; \quad 4) H = \begin{pmatrix} 5 & 1 & 4 & 8 \\ 4 & 2 & 5 & 3 \\ 5 & 4 & 3 & 7 \end{pmatrix}; \\
 5) H &= \begin{pmatrix} 5 & 0 & 3 & 7 \\ 3 & 1 & 4 & 2 \\ 3 & 2 & 4 & 5 \end{pmatrix}; \quad 6) H = \begin{pmatrix} 4 & 2 & 5 & 3 \\ 3 & 1 & 1 & 4 \\ 5 & 0 & 4 & 3 \end{pmatrix}; \quad 7) H = \begin{pmatrix} 6 & 1 & 3 & 2 \\ 8 & 2 & 5 & 4 \\ 7 & 3 & 6 & 7 \end{pmatrix}; \quad 8) H = \begin{pmatrix} 5 & 0 & 2 & 3 \\ 6 & 1 & 5 & 6 \\ 7 & 3 & 7 & 9 \end{pmatrix}; \\
 9) H &= \begin{pmatrix} 0 & 1 & 2 & 4 \\ 1 & 2 & 0 & 6 \\ 1 & 3 & 2 & 1 \end{pmatrix}; \quad 10) H = \begin{pmatrix} 5 & 1 & 6 & 2 \\ 1 & 2 & 3 & 4 \\ 8 & 3 & 4 & 7 \end{pmatrix}; \quad 11) H = \begin{pmatrix} 0 & 5 & 2 & 4 \\ 3 & 2 & 5 & 6 \\ 6 & 4 & 7 & 8 \end{pmatrix}; \quad 12) H = \begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & 5 \\ 0 & 5 & 0 & 6 \\ 4 & 8 & 3 & 1 \end{pmatrix}; \\
 13) H &= \begin{pmatrix} 4 & 3 & 6 \\ 1 & 5 & 2 \\ 4 & 2 & 1 \\ 3 & 0 & 2 \end{pmatrix}; \quad 14) H = \begin{pmatrix} 2 & 0 & 6 \\ 4 & 5 & 1 \\ 2 & 3 & 0 \\ 1 & 2 & 4 \end{pmatrix}; \quad 15) H = \begin{pmatrix} 4 & 3 & 6 \\ 1 & 5 & 2 \\ 4 & 2 & 1 \\ 3 & 0 & 2 \end{pmatrix}; \quad 16) H = \begin{pmatrix} 1 & 7 & 6 & 0 \\ 3 & 2 & 2 & 1 \\ 8 & 3 & 4 & 0 \end{pmatrix};
 \end{aligned}$$

7. Quyidagi mxn o'yinni soddalashtirib, 2×2 o'yinga keltiring va uni aralash strategiyalarda yeching.

$$\begin{aligned}
 1) H &= \begin{pmatrix} 2 & 1 & -1 & 0 \\ 3 & 2 & -1 & 1 \\ 0 & -1 & 3 & 4 \end{pmatrix}; \quad 2) H = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 3 & 2 & 3 \\ -1 & 1 & 2 \\ 0 & 2 & 2 \end{pmatrix}; \quad 3) H = \begin{pmatrix} -1 & 2 & 0 \\ 3 & 1 & 4 \\ 2 & -2 & 3 \\ -2 & 2 & -2 \end{pmatrix}; \quad 4) H = \begin{pmatrix} -1 & 4 & 5 \\ 3 & -2 & 1 \\ 1 & -3 & 0 \\ -2 & 2 & 2 \end{pmatrix}; \\
 5) H &= \begin{pmatrix} 2 & 1 & 2 \\ 3 & 2 & 1 \\ 1 & 1 & 1 \\ 1 & -2 & 2 \end{pmatrix}; \quad 6) H = \begin{pmatrix} -1 & 2 & 0 \\ 3 & 1 & 4 \\ 2 & -2 & 3 \\ -2 & 2 & -2 \end{pmatrix}; \quad 7) H = \begin{pmatrix} -2 & -4 & 4 & 5 \\ 2 & 1 & -1 & 1 \\ 1 & 0 & 2 & 2 \end{pmatrix}; \quad 8) H = \begin{pmatrix} 2 & -1 & 0 \\ 3 & 1 & 4 \\ 2 & -2 & 3 \\ 0 & -1 & 2 \end{pmatrix}; \\
 9) H &= \begin{pmatrix} 1 & -1 & 2 & 0 \\ -2 & 1 & 0 & 2 \\ 0 & -2 & 1 & 1 \end{pmatrix}; \quad 10) H = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 2 \\ 4 & 3 & 1 \\ 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & -1 \end{pmatrix}; \quad 11) H = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 2 & 1 \\ 1 & 3 & 0 & 4 \\ -2 & 1 & 1 & 2 \end{pmatrix}; \quad 12) H = \begin{pmatrix} -4 & 3 & 1 \\ 2 & -1 & 3 \\ -5 & 1 & 0 \end{pmatrix}; \\
 13) H &= \begin{pmatrix} -2 & 2 & 2 \\ -1 & -2 & 0 \\ -2 & -3 & -1 \\ -3 & 1 & 0 \end{pmatrix}; \quad 14) H = \begin{pmatrix} -2 & -3 & 1 \\ -3 & 1 & 0 \\ -4 & 0 & -1 \\ -3 & -4 & 0 \end{pmatrix}; \quad 15) H = \begin{pmatrix} -2 & -3 & 1 \\ -3 & 1 & 0 \\ -4 & 0 & -1 \\ -3 & -4 & 0 \end{pmatrix};
 \end{aligned}$$


8. Quyidagi $2 \times m$ o'yinni yeching.

$$\begin{array}{llll} 1) H = \begin{pmatrix} 3 & 1 & 3 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix}; & 2) H = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 2 \\ 2 & 1 & -1 \end{pmatrix}; & 3) H = \begin{pmatrix} 2 & 1 & 2 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix}; & 4) H = \begin{pmatrix} 1 & 3 & -1 & 2 \\ -1 & 1 & 1 & 5 \end{pmatrix}; \\ 5) H = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 & -2 \\ 3 & -2 & 2 & 1 \end{pmatrix}; & 6) H = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 2 & 3 \\ 2 & 3 & 1 & -3 \end{pmatrix}; & 7) H = \begin{pmatrix} 3 & 1 & 3 & -2 \\ -1 & 1 & 0 & 1 \end{pmatrix}; & 8) H = \begin{pmatrix} 2 & -1 & 1 \\ 1 & 4 & 3 \end{pmatrix}; \\ 9) H = \begin{pmatrix} -1 & 1 & 2 & 3 \\ 1 & 3 & -1 & 2 \end{pmatrix}; & 10) H = \begin{pmatrix} 2 & -1 & 1 \\ -1 & 2 & 1 \end{pmatrix}; & 11) H = \begin{pmatrix} 2 & 2 & -1 \\ 4 & -2 & 2 \end{pmatrix}; & 12) H = \begin{pmatrix} 0 & 1 & -2 & -2 \\ -1 & -1 & 1 & 1 \end{pmatrix}; \end{array}$$

6-BOB. MASHINALI O'QITISH VA MA'LUMOTLARNING INTELLEKTUAL TAHLILI

1-§. Bayes ehtimolligi

Evristik qoidalar - ekspert tomonidan shakllantirilgan qoidalardir. Ko`plab evristik qoidalardan asosida faqatgina ekspert hisoblay oladigan, yani ekspert o`z muammoli sohasidagi farazlarni asoslay oladigan ma'lum hodisalarni yuzaga kelish ehtimolligi yotadi. Haqiqatda esa bu qandaydir farazlarni qilish imkoniyatini beradigan statistik ma'lumotlar mavjudligini anglatadi. Bemorni kuzatish asosida vrach tomonidan qo`yiladigan tashxis bunga misol bo`lishi mumkin. Ko`p hollarda vrach tajribasi bemorning kasalligini yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Albatta vrach xato qilishi ehtimoli mavjud, shuning uchun odatda boshqa tashxislar ham qaraladi.



$$P(H|DX) = \frac{P(H|X) \times P(D|HX)}{P(D|X)}$$

Bayes biror hodisa avval boshqa bir hodisa sodir etilganligi uchun ro`y berishiga bog`liq tasdiqqa asoslanuvchi ehtimollik uslubiyatini ishlab chiqdi. ETlarda Bayes nazariyasiga tayanuvchi statistik yechimlar keng qo`llaniladi.

Tashxislovchi ETlar inson faoliyatining turli (tibbiyot, texnika, iqtisodiyot va boshqa) sohalarida keng qo`llaniladi. Asosan ularda predmet sohasi haqidagi bilimlarning mahsuliy modeli ishlatiladi. Biroq, agar statistik ma'lumotlarning “Tushunchalar va ular orasidagi bog`liqliklar” haqidagi qoidalariiga asosan qo`llash imkoniyati mavjud bo`lsa, u holda u yoki bu belgi(belgi)lari mavjudligini tekshirish natijalarining posterior ehtimollarini hisoblash uchun mashhur Bayes teoremasini qo`llash juda ham maqsadga muvofiq bo`ladi.

Ehtimollikka quyidagicha ta'rif berish mumkin [12, 16].

$$P = \frac{\text{natijasi hodisagakeluvchi tajribalar soni}}{\text{tajribalaning umumiysi}}, \quad 0 \leq P \leq 1.$$

Bayes ehtimolligi. Bayes shartli ehtimollik nazariyasini yaratish bilan shug`ullangan. Shartli ehtimollik tajribalarning ma'lum bo`lgan natijalarini hisobga oladi.

Shartli ehtimollik - bu qandaydir B hodisaning sodir etilganligi aniq bo`lganda biror A hodisaning ro`y berish ehtimolidir. Shartli ehtimollik $P(A/B)$ kabi belgilanadi.

Bayesli yondashuvda bilimlar bazasining har bir faktining ishonchlik darajasi noldan bиргача qiymat qabul qiluvchi ehtimollik bilan baholanadi. Dastlabki faktlarning ehtimoli statistik sinovlar usuli yoki exspertlar so'roviga ko'ra aniqlanadi.

B dalil (fakt) va A gipotezaning birgalikdagi sodir etilish $P(A,B)$ ehtimoli - A gipotazalarni shartsiz $P(A)$ ehtimolini A gipoteza kuzatilganda B dalil(fakt)ning sodir etilganligining shartli ehtimoliga ko'paytmasiga teng bo'ladi [33, 60]:

$$P(A,B) = P(A)P(B/A)$$

Bayes qoidasiga asosan xulosalash ehtimoli B hodisa (dalil) sodir etilganda, A hodisa(gipotaza)larning $P(A/B)$ aposteriorli shartli ehtimolini hisoblashni aniqlaydi [12, 16]:

$$P(A/B) = \frac{P(A, B)}{P(B)},$$

bu yerda $P(B)$ - B dalil(fakt)ning shartsiz (apriorli) ehtimoli; $P(A, B)$ - B dalil va A gipotezaning birgalikdagi sodir etilish ehtimoli.

Misol. 1100 raqamlar birikmasidan tasodifiy ravishda yoki 1, yoki 0 tanlansin. Shartli ehtimollik tenglamasini qo'llagan holda, 2 ta urinishda avval 0 raqmi, keyin esa 1 raqami kelishi ehtimolini hisoblash mumkin

$$P(0va 1) = P(1/0) \times P(0).$$

0 raqmini tanlash ehtimoli $P(0) = 2/4$, chunki birikmada to`rttadan ikkitasi 0 raqmi. 0 va 1 raqmlarini tanlash ehtimoli $P(0va 1) = 2/3$,

$$P(0va 1) = \frac{2}{3} \times \frac{2}{4} = \frac{1}{3}$$

Bayes formulasi. Aytaylik $B_1, B_2, B_3, \dots, B_n$ gipotezalarning birortasi sodir etilganligi natijasida A hodisa sodir etilgan bo'lsin. U yoki bu hodisaning sodir etilishning ehtimoli qanday aniqlanadi?

Agar A hodisa sodir etilgan deb hisoblaak, u holda ushbu gipotezaning ehtimoli Bayes formulasi yordamida quyidagicha aniqlanadi [17, 20]:

$$P(A/B_1) = \frac{P(A)P(B_1/A)}{P(B_1)}, \quad -B_1 \text{ gipoteza sodir etilganda } A \text{ hodisaning}$$

sodir etilish ehtimoli;

$$P(A/B_2) = \frac{P(A)P(B_2/A)}{P(B_2)}, \quad -B_2 \text{ gipoteza sodir etilganda } A \text{ hodisaning sodir}$$

etilish ehtimoli;

$P(A/B_n) = \frac{P(A)P(B_n/A)}{P(B_n)}$, - B_n gipoteza sodir etilganda A hodisaning sodir etilish ehtimoli.

Bu yerda $P(B_1), P(B_2), P(B_3), \dots, P(B_n)$ - apriorli (sinovgacha baholangan) ehtimol; $P(B_1/A), P(B_2/A), P(B_3/A), \dots, P(B_n/A)$ - bu A hodisaning sodir etilganligini hisobga olgan holda hisoblanadigan gipotezalarning aposteriorli (sinovdan keyin baholangan) ehtimollari.

Umumiy holda $P(A, B)$ aposteriorli ehtimolni hisoblaydigan *Bayes formulasini* quyidagi shaklda taqdim etish mumkin

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)}, \quad (6.1)$$

bu yerda $P(A)$ - A gipotezaning apriorli ehtimoli; $P(A/B)$ - B hodisa sodir etilganda A gipotezaning sodir etilish ehtimoli (aposteriorli ehtimoli); $P(B/A)$ - A gipotezaning sodir etilganligi chin bo'lganda B hodisaning sodir etilish ehtimoli; $P(B)$ - B hodisani sodir etilishining to'liq ehtimoli.

Bayes formulasining mazmuni: B hodisa sodir etilganda A gipotezani sodir etilishining ehtimoli-bu A gipotezaning apriorli $P(A)$ ehtimolini A gipotezani sodir etilganligi chin bo'lganda B hodisaning sodir etilish $P(B/A)$ ehtimoliga $P(A)P(B/A)$ ko'paytmasini B hodisaning sodir etilsh $P(B)$ ehtimoliga bo'linmasiga teng.

Bayes formulasining «Fizik manosi» va terminologiyasi. Bayes formulasasi «sabab va oqibat o'rnini almashtirish» ni ifodalashga imkonoyat yaratadi: yani oldindan ma'lum bo'lgan dalil asosida hodisaning sodir etilganligidan shunday ehtimol hisoblanadiki, ushbu ehtimol sabab bilan bo'g'liq bo'ladi.

Ushbu holatda «sabab» harakatini aks ettiruvchi hodisalar-gipoteza(faraz)lar deb ataladi, yani ular bor narsadan sodir etilishi kutilayotgan hodisalar hisoblanadi. Gipotezalar haqiqiyligining shartsiz ehtimoli-apriorli ehtimol deyiladi. Hodisalarning sodir etilganlik dalilining shartsiz ehtimoli-aposteriorli ehtimol deyiladi.

(6.1) formulaning amaliy qo'llanilishini oddi misolda tushuntiramiz. Aytaylik, A qandaydir kasallik, B esa uning belgisi (belgii) bo'lsin. U holda A kasllikning aprior ehtimoli $P(A) = N_A/N$ formula bilan aniqlanishi mumkin, bu yerda N_A - qandaydir xududda A kasallikga ega bo'lgan odamlar soni; N-xududdagi barcha odamlar soni. Xuddi yuqoridagidek, $P(B)$ ehtimol ham $P(B) = N_B/N$ kabi aniqlanadi, bu eda N_B -B belgi kuzatilayotgan

odamlar soni, N-barcha odamlar soni. Odatda $P(A)$ va $P(B)$ ehtimolliklarning qiymatlari ekspertlar tomonidan tushuntiriladi.

$P(B/A)$ ehtimollik A kasallikga ega bo'lgan bemorda B belgining mavjudligiga mos keladi. Uning qiymati ham exspertlarning so'rov usuli yordamida aniqlanadi.

Misol. Ob-havoni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni qaraymiz.

Aytaylik, yomg'ir yog'ish ehtimoli 30% ga teng. Odatdag'i kunda bulutlarning paydo bo'lish ehtimoli ham ma'lum bo'lib, u 50% tashkil etadi. Shuningdek, yomg'ir yog'ish ehtimoli 100% bo'lganda bulutlarning paydo bo'lish ehtimoli ham 100% ni tashkil etadi, chunki agar yomg'ir yog'sa, u holda har qanday holatda ham osmonda bulut bo'ladi.

Demak, bizda quyidagi axborotlar mavjud:

$P(A) = \text{yomg'r yog'ish ehtimoli} = 30\%$; $P(B) = \text{bulut bo'lish ehtimoli} = 50\%$; $P(B/A) = \text{yomg'ir yoqqanda bulut bo'lish ehtimoli} = 100\%$.

Agar osmonni bulut qoplasa, uholda yomg'ir yog'ish ehtimolini topamiz. Navbatdagi kun ertalab osmonni bulut qopladi. Bu holda yomg'ir yog'ish ehtimoli quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)} = \frac{30\% \cdot 100\%}{50\%} = \frac{300\%}{50\%} = 60\%.$$

Demak, yomg'ir yog'ishni bashoratlash ehtimoli 60% ni tashkil etadi.

Misol. Sportda yaxshi natijalarga erishishni Bayesli tahlilda qaraymiz.

Masalan, bizni Paxtakor ishtirokidagi o'yin qiziqtiradi va biz o'ylaymizki ushbu o'yinda Paxtakorning g'alaba qilish imkoniyatlari aytрайт bo'yicha 50% ni tashkil etadi. Shuningdek, bizga ma'lumki, Paxtakor ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda yomg'ir yog'ish ehtimoli 10% ni, Paxtakor ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda Paxtakor yutganda yomg'ir yog'ish ehtimoli 11% ni tashkil etgan.

Shunday qilib:

$P(A) = \text{Paxtakor g'alabasining apriorli ehtimoli} = 50\%$;

$P(B) = \text{Paxtakor o'yinida yomg'ir yog'ishning ehtimoli} = 10\%$;

$P(B/A) = \text{Paxtakor yutganda yomg'ir yog'ish ehtimoli} 11\%$.

Demak, Paxtakor ishtirokidagi navbatdagi o'yinda yomg'ir yog'ganda Paxtakorning g'alaba qilish ehtimolini quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)} = \frac{50\% \cdot 11\%}{10\%} = \frac{550\%}{10\%} = 55\%.$$

Bayesning kengaytirilgan formulasi. Ko'p hollarda hodisalar fazosi ($\{A_i\}$) $P(A_i)$ va $P(B/A_i)$ terminlarda aniqlanadi. Xuddi shu holatda

masalalarda va statistik ilovalarda ehtimollari yig'indisi 1(bir)ga teng bo'lgan bir nechta birgalikdamas gipotezalardan bo'g'liq hodisalarning to'liq ehtimoli $P(B)$ quyidagicha hisoblanadi:

$$P(B) = \sum_{i=1}^n P(A_i)P(B/A_i),$$

bu yerda yig'indi ostidagi ehtimolliklar oldindan ma'lum yoki tajribali baholash yordamida olinadi.

Agar $P(A_1), P(A_2), \dots, P(A_n)$ apriorli ehtimolliklar bilan berilgan bog'liq bo'lмаган A_1, A_2, \dots, A_n gipotazalarning to'liq guruhi qaralayotgan bo'lsa, u holda B dalil asosida har bir A_i gipotezaning aposteriorli ehtimoli quyidagi formula yordamida aniqlanadi [20, 33, 60]:

$$P(A_i/B) = \frac{P(A_i)P(B/A_i)}{P(B)} = \frac{P(A_i)P(B/A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B/A_i)}. \quad (6.2)$$

(6.2) formula B_1, B_2, \dots, B_m dalillar uchun ham o'rinli bo'ladi:

$$P(A_i/B_j) = \frac{P(A_i)P(B_j/A_i)}{P(B_j)} = \frac{P(A_i)P(B_j/A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B_j/A_i)} \quad (6.3)$$

Bu formula Bayes gipotezasining teoremasi deb ataladi.

Xususiy holda (6.3) formulani

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(A)P(B/A) + P(1-A)P(B/(1A))};$$

Misol. Tibbiy tashxis qo'yishda bemorda temperaturaning oshganligi kuzatilganligi uchun uning angina bilan kasallanganligining ehtimolini hisoblash talab etiladi. Agar bemor angina bilan kasallangan bo'lmasa, u holda u "anginamas", masalan sog'lom bo'ladi. (6.3) ning xususiy holdagi formulasidan foydalanib, ushbu masala uchun quyidagini hosil qilamiz:

$$P(\text{Angina}/\text{Harorat}) =$$

$$P(\text{Ангина}) \times P(\text{Harorat}/\text{Ангина})$$

$$= \frac{P(\text{Ангина}) \times P(\text{Harorat}/\text{Ангина}) + P(\text{Ангинамас}) \times P(\text{Harorat}/\text{Ангинамас})}{P(\text{Ангина}) \times P(\text{Harorat}/\text{Ангина}) + P(\text{Ангинамас}) \times P(\text{Harorat}/\text{Ангинамас})}$$

$P(\text{Angina})$ va $P(\text{Harorat}/\text{Angina})$ aprior ehtimolliklar ushbu joydan tibbiy statistik tahlil natijasida olingan bo'lishi mumkin. Agar poliklininkadagi yozuvlar asosida 10000 bemordan ushbu davrda 7000 tasi angina bilan kasallangan bo'lsa, u holda apriorli ehtimollik $P(\text{Angina}) = N_B/N = 7000/10000 = 0.7$. Tibbiy adabiyotlarni o'rGANISH xulosasiga ko'ra $P(\text{Harorat}/\text{Angina}) = 0.8$ o'rnatish mumkin.

Endi

$$P(\text{Anginamas}) = 1 - P(\text{Angina}) = 1 - 0.7 = 0.3;$$

$P(\text{Harorat}/\text{Anginamas})=1- P(\text{Harorat}/\text{Angina})=1-0.8=0.2$
 aniqlanadi. Ba'zi hollarda $P(\text{Harorat}/\text{Anginamas})$ qiymat exspertlar tomonidan ham aniqlanishi mumkin.

Demak

$$F(\text{Angina}/\text{Harorat}) = \frac{0.7 \times 0.8}{0.7 \times 0.8 + 0.3 \times 0.2} = \frac{0.56}{0.62} \approx 0.90$$

2-§. Bayesli to'rlar

Bayesli to'r(BT) – bu yo'naltirilgan to'r bo'lib, ushbu to'rning har bir tuguni sonli ehtimoliy axborotlar bilan belgilanadi. Bunday to'rlarning to'liq tasnifi quyida keltirilgan [4,16].

1. To'rning tugunlari tasodifiy (diskretli yoki uzlucksiz) o'zgaruvchilarning to'plami hisoblanadi.
2. Tugunlar yo'naltirilgan yoylar yoki strelkali yoylar bilan birlashtiriladi. Agar yoydagi strelka X tugundan Y tugunga yo'naltirilgan bo'lsa, u holda X tugun Y tugun uchun boshlang'ich tugun deb ataladi.
3. Har bir X_i tugun boshlang'ich tugunlarning uhbu tuganga ta'sirini sonly baholaydigan shartli ehtimollar taqsimoti $P(X_i / \text{Parents } \{X_i\})$ bilan xarakterlanadi.
4. Yo'naltirilgan yoylardan iborat graf sikllarga ega bo'lmaydi.

Barcha talabalarga yaqin bo'lgan sodda **misolni** ko'rib chiqaylik [17]. Imtihonni (Pass) topshirish uchun unga tayyorgarlik ko'rish kerak (Study) yoki shpargalkadan (Cheat) foydalanish kerak. Shunday qilib, 3 mantiqiy o'zgaruvchilari mavjud. Imtihonni muvaffaqiyatli topshirish ehtimolini aniqlash talab etiladi.

Agar oddiy hodisalarning ehtimollari oldindan ma'lum bo'lgan hollarda $2 \times 2 \times 2$ –o'lchovli jadval shaklida tavsivlangan (6.1-jadval) to'liq birgalikdagi taqsimot asosida ehtimolli xulosalash usulidan foydalanish mumkin.

6.1-jadval.

	Study		-Study	
	Cheat	-Cheat	Cheat	-Cheat
Pass	0.15	0.4	0.04	0.06
-Pass	0.01	0.04	0.05	0.25

Barcha ehtimollar yig'indisi bunga teng. Har bir katakchada oddiy hodisaning roy berish ehtimoli berilgan. Bu ehtimol natijaviy bo'lib, o'zida barcha faktorlarni saqlaydi. *Masalan, imtihonni muvaffaqiyatli topshirish*

ehtimoli 0.4 imtihonga tayyorgarlik ehtimoli va talabaning shpargalkadan foydalanmaganlik ehtimolini hisobga oladi.

Murakkab hodisalarning ehtimollari jadvalning mos qatorlari yoki ustunlarining yig'indilarini hisoblash orqali aniqlanadi.

Imtihonga tayyorgarlik ehtimoli jadvalning chap katachalarining yig'indisiga teng bo'lib, quyidagi hodisalarga mos keladi: 1) o'qidi, shpargalkadan foydalanmadni va topshirdi; 2) o'qidi, shpargalkadan foydalandi va topshirdi; 3) o'qidi, shpargalkadan foydalandi va topshirmadi; 4) o'qidi, shpargalkadan foydalanmadni va topshirmadi):

$$P(\text{Study}) = 0.15 + 0.4 + 0.01 + 0.04 = 0.6. \quad (6.4)$$

Shpargalkadan foydalanganlik ehtimoli jadvaldagi birinchi va uchinchi ustunlar yig'indisiga teng:

$$P(\text{Cheat}) = 0.15 + 0.01 + 0.04 + 0.05 = 0.25. \quad (6.5)$$

Imtihonni topshirish ehtimoli jadvalning birinchi qatordagi kataklarning yig'indisiga teng, yani: 1) o'qidi, shpargalkadan foydalandi va topshirdi; 2) o'qidi, shpargalkadan foydalanmadni va topshirdi; 3) o'qimadi, shpargalkadan foydalandi va topshirmadi; 4) o'qimadi, shpargalkadan foydalanmadni va topshirdi:

$$P(\text{Pass}) = 0.15 + 0.4 + 0.04 + 0.06 = 0.65. \quad (6.6)$$

Odatda, alohida o'zgaruvchilarning ham chinligini baholash mumkin.

Masalan, (6.4) da $P(\text{Study}) = 0.6$ (40% holatlarda imtihonga tayyorgarlik ko'rishdan ko'ra boshqa mihim ishlar mavjud), (6.5) da $P(\text{Cheat}) = 0.25$ (shpargalkadan foydalanish imkoniyati to'rtdan birga teng).

Bu ehtimollar apriorli yoki shartsiz ehtimollar deb ataladi. Ular boshqa ma'lumotlar bo'limganda o'zida mulohazalarni chinligining ishonchlik darajasini nomoyon qiladi.

Birinchi qarshda (6.4) va (6.5) formulalardan imtihon topshirish ehtimolini topish osondek tuyuladi

$$P(\text{Study}) + P(\text{Cheat}) = 0.6 + 0.25 = 0.85. \quad (6.7)$$

Haqiatda esa bu masala murakkab masala hisoblanadi. *Study* va *Cheat* hodisalari bir vaqta sodir etilishi mumkin. **Masalan**, 1) materialni o'rganib olgan bo'lishi mumkin va shu bilan birgalikda ehtiyojkorlik nuqtai nazaridan spargalkadan ham foydalanishi mumkin; 2) Materialning hammasini o'rganib olgan bo'lsada, imtihon topshira olmasligi mumkin (o'qituvchi har bir so'zdan ayb topishi mumkin); 3) Imtihonni tayyorgarlik ko'rmasdan va shpargalkasiz topshirish mumkin (omadi kelishi mumkin).


Birgalikda sodir etiladigan hodisalar ehtimolini topish uchun shartli ehtimolga ega bo'lish zarur. **Masalan**, $P(\text{Pass}/\text{Study})$ —to'liq tayyorlanish

sharti bilan imtihonni topshirish ehtimoli. Umumiy holda A hodisaning sodir etilish ehtimoli

$$P(A) = \sum_{i=1}^n P(A/B_i)P(B_i),$$

bu yerda $P(B_i)$ - B_i hodisalarning apriorli ehtimollari, $P(A/B_i)$ - B_i hodisalar chin bo'lgan shartda A hodisaning shartli ehtimoli. Shartli ehtimol bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni bog'laydi. Agar biz *to'rtinchi o'zgaruvchi-quyoshli ob-havoni* ham kirtsak, u holda $P(A/Sunny)$ tipdagi shartli ehtimollikni ham berishimiz kerak. Haqiqiy vaziyatda biz buning hisobiga masalaning *o'lchovi kattalashib ketishi muammosi bilan to'qnash kelamiz*.

Bunday muammolarni yechish uchun BTlardan foydalanamiz. BTlar o'zgaruvchilarning bir-biri bilan bo'g'liqligini o'rnatadi va to'liq birgalikdagi taqsimotni hisoblashni qisqartiradi. 6.1-rasmda yuqorida qaralgan misol uchun BT keltirilgan.



6.1-rasm.Bayesli to'r

Ta'kidlaymizki, bizning modelimizda *Study* va *Cheat* o'zgaruvchilar bog'liqmas o'zgaruvchilar hisoblanadi. *Boshqa model ham bo'lisi mumkin, masalan, imtihonda shpargalkadan foydalanish imtihonga tayyorgarlikning bo'limganligi bilan bo'g'liq bo'lshi mumkin. Bu masala keyinroq qaraladi.*

To'rning har bir tuguniga tasodifiy o'zgaruvchi mos keladi. Tugunlar yo'naltirilgan yoylar bilan birlashtiriladi. Agar strelka A dan B ga yo'naltirilgan bo'lsa, u holda A tugun B tugun uchun boshlanish tugun deyiladi. Har bir X_i tugun $P(X_i / \text{Parents } (X_i))$ shartli ehtimollar taqsimoti bilan xarakterlanadi. $P(X_i / \text{Parents } (X_i))$ shartli ehtimollar taqsimoti boshlang'ich tugunning qolgan tugunlarga ta'sirini sonli baholaydi. Biz qarayotgan misolda quyidagi shartli ehtimollar ma'lum deb qaraladi: 1) *tayyorgarlik va ehtiyojkorlik nuqtai nazaridan shpargalkadan foydalanish yordamida imtihon topshirish ehtimoli - 1.0 (bir)ga teng;* 2) *tayyorgarlik va shpargalkadan foydalanmasdan imtihon topshirish ehtimoli - 0,889 ga teng;* 3) *shpargalkadan foydalanish sharti bilan tayyorgarliksiz imtihon*

topshirish ehtimoli - 0,4 ga teng; 4) *tayyorgarliksiz va shpargalkasiz imtihon topshirish ehtimoli* - 0,2 ga teng (*omadi kelishi mumkin*).

Bayes to’rlaridan foydalanishning *asosiy yutug’i shundan iboratki*, bunda har qanday holat ehtimoli barcha tugunlarga emas, balki faqat bir-biriga yaqin tugunlarga bog’liq:

$$P(X_i / X_{i-1}, X_{i-2}, \dots, X_1) = P(X_i / \text{Parents}(X_i)).$$


Qaralgan misolda *Study* tuguni quyidagi bog’langan hodisalar uchun oxirgi natija bo’lishi mumkin: talaba darsga qatnashdi, konspekti bor, kompyuterga ruxsati bor, u vaqtga ega va h.k. Ushbu hodisalar natijasida biz imtihonga tayyorgarlik faktiga ega bo’lamiz. *Cheat* – shpargalkadan foydalanish hodisasi ham bir qator hodisalardan iborat bo’lishi mumkin: vaqtning, texnik vositaning, spargalkadan yashirin holatda foydalanish uchun buyum mavjudligi. Umuman olganda to’liq birgalikdagi taqsimotni hisoblash uchun barcha hodisalarning shartli ehtimollarini bilish kerak. Bizga esa imtihon topshiroish uchun $P(\text{Study})$ va $P(\text{Cheat})$ ehtimollarni bilish yetarli hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan qoida *zanjirli qoida* deb ataladi. Ushbu qoida asosida strelka yo’nalishi bo’yicha ketma-ket siljib, hodislarning ehtimollarini hisoblash yetarli hisoblanadi. Ushbu misolda biz imtihon topshirish ehtimolini hisoblashimiz mumkin:

$$\begin{aligned} P(\text{Pass}) &= P(\text{Pass} / \text{Study}, \text{Cheat}) \times P(\text{Study}) \times P(\text{Cheat}) + \\ &+ P(\text{Pass} / \text{Study}, \neg\text{Cheat}) \times P(\text{Study}) \times P(\neg\text{Cheat}) + \\ &+ P(\text{Pass} / \neg\text{Study}, \text{Cheat}) \times P(\neg\text{Study}) \times P(\text{Cheat}) + \\ &+ P(\text{Pass} / \neg\text{Study}, \neg\text{Cheat}) \times P(\neg\text{Study}) \times P(\neg\text{Cheat}) = \\ &= 1.0 \times 0.6 \times 0.25 + 0.889 \times 0.6 \times 0.75 + 0.4 \times 0.4 \times 0.25 + 0.2 \times \\ &\quad \times 0.4 \times 0.75 = 0.65 \end{aligned}$$

Bu misolda Bayes to’rlaridan *foydalanishning yutug’i* hisoblashlar murakkabligi uchun unchalik sezilmaydi, chunki BTlar zanjiri unchalik uzun emas.

Ikkinci faktor – bu *Study* va *Cheat* o’zgaruvchilarning bog’liqmasligi. Tajribali talabalar ehtimollarning ba’zi haqiqatga o’xshamaydigan tomonlarini sezishi mumkin: imtihonga shpargalka yordamida tayyorgarlik ko’rish sharti ularning imtihon paytida ushlanish va imtihondan haydar chiqarilish riskini qoshadi. Mantiqni quyidagicha o’zgartiramiz. Talaba faqat shundagina shpargalkadan foydalanishga harakat qiladi, agarda u imtihonga tayyorgarlik ko’rmagan bo’lsa. Bu holda BT 6.2-rasmdagidek o’zgaradi.



6.2-rasm. Bayesli to'r.

Imtihonga tayyorgarlik bo'lganda shpargalkadan foydalanishning shartli ehtimoli - 0 (nol) va tayyorgarlik bo'limganda shpargalkadan foydalanishning shartli ehtimoli – 0.75 ga teng.

Ehtimol

$$P(\text{Pass} / \text{Study}, \text{Cheat}) = 0.$$

$P(\text{Cheat})$ va $P(\neg\text{Cheat})$ hisoblaymiz:

$$P(\text{Cheat}) = P(\text{Cheat} / \neg\text{Study}) \times P(\neg\text{Study}) = 0.75 \times (1-0.6) = 0.3$$

$$P(\neg\text{Cheat}) = 1 - P(\text{Cheat}) = 0.7$$

Endi zanjirli qoidadan foydalanib imtihonni muvaffaqiyatli topshirish ehtimolini hisoblaymiz:

$$P(\text{Pass}) = P(\text{Pass}/\text{Study}, \neg\text{Cheat}) \times P(\text{Study}) \times P(\neg\text{Cheat}) + P(\text{Pass} / \neg\text{Study}, \text{Cheat}) \times P(\neg\text{Study}) \times P(\text{Cheat}) + P(\text{Pass}/\neg\text{Study}, \neg\text{Cheat}) \times P(\neg\text{Study}) \times P(\neg\text{Cheat}) = 0.889 \times 0.6 \times 0.7 + 0.7 \times 0.4 \times 0.3 + 0.2 \times 0.4 \times 0.7 = 0.513.$$

BTlar *teskari masalani yechishga* ham imkoniyat yaratadi. Masalan, talabaning imtihonni muvaffaqiyatli topshirganligi ma'lum. Talab qilinadi, talabaning imtihonga tayyorlanganlik ehtimolini aniqlash. Buning uchun Bayesning (6.1) qoidasidan foydalaniladi..

Bizning misolimizda intihonni muvaffaqiyatli topshirganlik ehtimoli $P(\text{Pass}) = 0.513$; Imtihonga tayyorgarlik ko'rib topshirish ehtimoli $P(\text{Pass} / \text{Study}, \neg\text{Cheat}) = 0.889$; Imtihonni tayyorgarlik ko'rib va shpargalkasiz topshirish ehtimoli $P(\text{Study}, \neg\text{Cheat}) = 0.6 \times 0.7 = 0.42$.

U holda

$$P(\text{Study}, \neg\text{Cheat} / \text{Pass}) = P(\text{Pass} / \text{Study}, \neg\text{Cheat}) \times P(\text{Study}, \neg\text{Cheat}) / P(\text{Pass}) = 0.889 \times 0.6 \times 0.7 / 0.513 = 0.727.$$

Endi shpargalka yordamida imtihon topshirish ehtimolini topamiz:


$$P(\neg\text{Study}, \text{Cheat} / \text{Pass}) = P(\text{Pass} / \neg\text{Study}, \text{Cheat}) \times P(\neg\text{Study}, \text{Cheat}) / P(\text{Pass}) = 0.7 \times 0.4 \times 0.3 / 0.513 = 0.164.$$

Va nihoyat, omadi kelganligi uchun imtihonni topshirish ehtimolini topamiz:

$$P(\neg\text{Study}, \neg\text{Cheat} / \text{Pass}) = P(\text{Pass} / \neg\text{Study}, \neg\text{Cheat}) \times P(\neg\text{Study}, \neg\text{Cheat}) / P(\text{Pass}) = 0.2 \times 0.4 \times 0.7 / 0.513 = 0.109.$$


Shunday qilib, BTlar murakkab masalalarning dekompozitsiyasini ta'minlaydi va shartli ehtimollar to'plamini berish zarurligidan xolos qiladi.

Misol. Shaxar atrofida yashovchi Zarrux o'zining uyiga qulfning buzib ochilganligini bilish uchun yangi himoyalovchi signalizatsiyani o'rnatdi. Ushbu signalizatsiya qulfning buzib ochilganligini aniq bilishi bilan birgalikda ba'zi hollarda kuchli bo'lмаган yer qimirlashini ham sezadi. Zarruxning ikkita Fariza va Davron qo'shnilarini bo'lib, ular xavotirli signal bo'lganda Zarruxga telefonidan qo'ngiroq qilishga va'da bergan. Fariza xavotirli signalni eshitsa hamma vaqt Zarruxga qo'ng'iroq qiladi, lekin ba'zi hollarda qo'ng'iroq qilishda adashadi va ushbu holatda ham Zarruxga qo'ng'iroq qiladi. Davron musiqani baland ovozda eshitishni yoqtiradi va shuning uchun ba'zi hollarda xavotirli signalni sezmay qoladi. Zarrux qo'shnilarini Fariza va Davrondan qaysi biri qo'g'iroq qildi yoki qo'ng'iroq qilmaganligi haqidagi faktlarga ega bo'lsa, u holda qulfning buzilganligi ehtimolini baholash talab etiladi (6.3-rasm).



6.3-rasm.. Bayesli to'r.

Misol. Daraxtsimon diagammada chastotali misol namoyish etilgan (6.4-rasm.). Bu yerda R , C , L va \bar{L} (L chiziqcha) hodisalar. Qavsdagi protsentlar hisoblanadi.




6.4-rasm. Daraxtsimon Bayesli to'r.

Misol. Quyidagi boshlang'ich farazlar asosida keltirilgan misolni qaraymiz:

$$P(A, B, C, D, E, F, G) = P(A)P(B)P(C/A)P(D/A, B)P(E/B) \\ P(F/C)P(G/D, E).$$

Ushbu ifodaning BTni quyidagi sxema yordamida tasvirlaymiz (6.5-rasm). Bu rasmda to'rning tugunlarida o'zgaruvchilarning qiymatlari ko'rsatilgan, strelkalar yordamida ushbu tugun qiymati yana qaysi tugunlardagi o'zgaruvchilarga ta'sir etishi ko'rsatilgan. BTlar parametrлари qiymatlarni ehtimolli taqsimlash parametrлари deb ataladi. Taqsimlash qonunidan foydalanib tugunlarning vaznli koeffitsiyentlarini aniqlash mumkin.



6.5-rasm. A, B, C, D, E, F, G o'zgaruvchilarning birlashgan taqsimotini tasvirlovchi BT.

Ishonchli Bayes to'rларining turlari. Ishonchli Bayes to'rларидан (Bayesian Belief Network) merosli noaniqliklar bilan xarakterlanadigan

sohalarda foydalaniladi. Bu noaniqliklar quyidagi sabalarga ko'ra vujudga keladi [4,16]:

- 1) predmet sohani to'liq tushunmaslik;
- 2) bilimlarning to'liqmasligi;
- 3) masala tasodifiy xarakterga ega bo'lganda.

Shunday qilib, ishonchli Bayes to'rlari qandaydir ma'noda noaniqliklardan iborat holatlarni modellashtirish uchun qo'llaniladi.

BTlarning qo'llanilishi. BTlarning qo'llanilish sohalariga ehtimolliklar bilan ishlaydigan ekspert tizimlar kiradi. Shuningdek, quyidagi sohalarda ham keng qo'llaniladi [16]:

- Tibbiyat (Path Finder, MUNIN, Painulim, SWAN);
- Kosmos va armiya (Vista);
- Kompyuterlar va tizimli DT (Office tizimi), printerlar ishlashi, boshqa ma'lumotlar beradigan va wizard-tizimostilari muammolari;
- Tasvirlarni ishlash va video (ikki o'lchovli dinamik axborotlardan uch o'lchovli sahnalarni tiklash, videosignallardan yuqori tiniqlikdagi statistik tasvirlarni sintez qilish);
- Mablag' va iqtisod.

3-§. Ma'lumotlarning intellektual tahlili


3.1. Data Mining – ma'lumotlarning intellektual tahlili

Data Mining (DM) ma'lumotlarni intellektual tahlil qiluvchi texnologiya hisoblanib, amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. DM odatda ikki xil ma'noni bildiradi, ya'ni katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi (MB)dan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish hamda katta hajmdagi ishlov berilmagan materialni mazmunan tadqiq qilish demakdir. DM ma'lumotlarni intellektual tahlili, qonuniyatlarini topish muhiti, bilimlarni kengaytirish, shablonlarni tahlil qilish, MBdan bilimlarni axborot tarkibini aniqlash va h.k. kabi ma'nolarni anglatadi.

DM tushunchasi 1978-yillarda vujudga kela boshladi va 1990-yillarning birinchi yarim yillarida zamonaviy talqinda yuqori ommaboplukka erishildi. DM baza ustida amaliy statistika, obyektlarni klaster, SI, MB nazariyasi va boshqa shunday fanlar singari vujudga kelgan va rivojlanib borayotgan multitadqiqot muhitdir (6.6-rasm).

DM-ma'lumotlardan yashirin qonuniyatlarini (axborotlar shablonlarini) aniqlab qaror qabul qilishga asoslangan jarayondir.

Bu texnologiyaning mohiyati va maqsadi katta hajmdagi ma'lumotlardan ma'lum bo'limgan obyektiv va amaliy foydali qonuniyatlarni aniqlash uchun mo'ljallangan.



6.6-rasm. *DM multitadqiqot muhitining tuzilishi.*

Ma'lum bo'lmaslik – topilgan qonuniyat axborotini qayta ishlashning standart usullari yoki ekspert yo'llari bilan aniqlanmaydi.

Obyektiv – aniqlangan qonuniyatlar haqiqatga to'liq mos keladi va ekspertli mulohazalardan farqi uning hamma vaqt subyektiv bo'lmaslididadir.

Amaliy foydali – amaliy qo'llanilish qonuniyatları topilganda tahlil qilinayotgan ma'lumotlar aniq qiymatlarga ega bo'ladi.

Bilimlar – tavsiflanadigan manbaalar, fan sohalari, muammolar va h.k. haqida ba'zi bir xulosalarini beradigan ma'lumotlar yig'indisidir.

Bilimlardan foydalanish aniq afzalliklarga erishish uchun topilgan bilimlarning amaliy qo'llanilishi tushuniladi.

Ma'lumotlar to'plami va ularning atributlari. Keng ma'noda ma'lumot tushunchasi faktlar, matnlar, chizmalar, rasmlar, ovozlar, analogli yoki raqamli video tasvirlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotni o'lchovlar, tajribalar, arifmetik va mantiqiy amallarni bajarish jarayonida olinishi mumkin.

Ma'lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash qulay bo'lishi uchun ularni ma'lum bir obyektlar majmuasi shaklida tasvirlash kerak.

Obyektni atributlar to'plami deb ta'riflash mumkin. Obyekt yozuv, hodisa, misol, jadvalning qatori va h.k. bo'lishi mumkin va ular ma'lum bir o'zgaruvchilar orqali namoyon etiladi.

Atribut obyektning xususiyatini ifodalovchi ma'lumot yoki ma'lumotlar majmuasidir.

O'zgaruvchi – bir obyekt xususiyatlariga ko'ra boshqa bir obyektni

hosil qiluvchi tushunchadir.

Ma'lumotlar tahlili davomida juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish qimmatli jarayonlarni, ko'p vaqt sarflanishini talab etishini hamda inson faktorlari hisobga olinsa ushbu jarayonda muqarrar xatoliklar yuz berishi mumkin.

Ma'lumotlarning barcha to'plamlarining ba'zi bir qismlari to'liq qarab chiqilib, ya'ni *tanlanmalar* asosida ulardan qiziqarli axborotlar olinib xulosa hosil qilinadi.

O'lchovlar-aniqlangan qoidaga muvofiq o'rganilayotgan obyektlar xususiyatlarining miqdoriy ko'rsatkichidir.

Ma'lumotlarni tayyorlanish jarayoni obyekt bilan emas uning xususiyatlari bilan o'lchanadi.

Shkala-DMning ko'p uskunalari boshqa manbalardan ma'lumotlarni import qilishi davomida har bir o'zgaruvchi uchun shkalalar turini tanlashi va kiruvchi hamda chiquvchi (belgili, sonli, diskretli va uzluksiz) o'zgaruvchilar uchun ma'lumotlar turini tanlash ko'rsatkichidir. O'lchovlarning besh turdag'i shkalalari mavjud: nominal, tartibli, oraliqli, nisbiy va dixotomik.

Nominal shkala (nominal scale) – faqat kategoriyalardan tuziladigan shkaladir, uning ma'lumotlari tartiblanmasligi mumkin va bu shkalalar ustida hech qanday arifmetik harakatlarni o'tkazib bo'lmasligi mumkin.

Bu *shkala* nomlanishlar, kategoriylar, obyektlarning sinflarga ajratilishi va tartiblanishi yoki ba'zi belgilar bo'yicha kuzatishlar uchun qo'yilgan nomlardan tuziladi.

Unga misol: ranglar, kasblar, yashash joyi, oilaviy ahvoli va shukabilar.

Bu shkalalar uchun faqat tenglik (=) va teng emas (\neq) operatsiyalari qo'llaniladi.

Tartiblangan shkala (ordinal scale) – obyektni nisbiy holatini belgilash uchun xizmat qiladigan obyektlardan o'zlashtiriladigan sonlar shkalasidir, lekin ular orasidagi farq kattaliklari mavjud emas.

Shkala o'lchovlarga o'zgaruvchilar qiymatlarini safga tizish (ranjirovat) imkoniyatini beradi. Tartibli shkaladagi o'lchovlar faqat keladigan kattaliklarning tartiblanganligi haqidagi axborotlardan tuziladi, lekin «bir kattalik boshqasidan qanchalik katta» yoki «u qanchalik boshqasidan kichik» deb mulohaza yuritishga yo'l qo'ymaydi.

Tartiblangan shkalaga misol: guruhning musobaqada olgan o'rni (1-, 2-, 3-), talabaning qobiliyatlik reytingidagi tartib raqami (1-, 15- va h.k.)

keltirilgan bo'lsin. Bu bilan bir talabaning boshqasidan qanchalik qobiliyatligini aniqlab bo'lmaydi, uning faqat reytingdagi raqamigina ma'lum xolos.

Bu shkalalar uchun faqat tenglik (=), teng emas (\neq), katta ($>$), kichik ($<$) operatsiyalari ishlatish mumkin.

Oraliqli shkala (interval scale) – bu shkala ikki kattlik orasidagi farqni topishga ruxsat beradi, nominal va tartibli shkalalarning xususiyatlariga ega bo'ladi, hamda belgilarning miqdoriy o'zgarishlarini aniqlashga ruxsat beradi.

Nominal va tartibli shkalalar diskret, oraliqli shkala esa uzluksiz bo'ladi. U belgining aniq o'lchovlarini amalga oshirishga ruxsat beradi va qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish arifmetik operatsiyalari bajariladi.

Bu shkala uchun faqat tenglik (=), teng emas (\neq), katta ($>$), kichik ($<$), qo'shish (+), ayirish (-) operatsiyalaridan foydalaniladi.

Nisbiy shkala (ratio scale) – aniqlangan sanoq boshida va shkalalar qiymatlari orasidagi munosabatlarda mavjud bo'lgan shkaladir.

Ma'lumotlar to'plamining turlari va ularni saqlash formatlari. Eng ko'p uchraydigan ma'lumotlar bu yozuvlardan tashkil topgan ma'lumotlardir (record data). Bunday ma'lumotlar to'plamiga jadvalli ma'lumotlar, matrisali ma'lumotlar, hujjatli ma'lumotlar, tranzaksiyali yoki operatsiyali ma'lumolarni kiritamiz.

Jadvalli ma'lumotlar – fiksirlangan atributlar to'plamidan tuzilgan yozuvlardan iborat bo'lgan ma'lumotlardir.

Tranzaksiyali ma'lumotlar – har bir yozuv qiymatlari to'plami bilan tranzaksiya bo'lib keladigan ma'lumotlarning alohida turini anglatadi. Tranzaksiyali ma'lumotlar bazasiga - magazinda xaridorlarning qilgan savdolaridan tuzilgan ro'yxatni misol qilib olishimiz mumkin.

Grafikli ma'lumotlarga misol sifatida WWW-ma'lumotlari, molekulalar strukturasi, grafalar, kartalar va shu kabilarni keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtida ma'lumotlarning asosiy xususiyatlaridan biri – bu ularning juda ko'p o'zgarishi natijalarida qaytadan tuzilishidir. Ma'lumotlar bilan ishlashning to'rtta jihat mavjud: ma'lumotni aniqlash, hisoblash, manipulyasiya qilish va qayta ishlash (yig'ish, uzatish va h.k.)

Manipulyasiya qilingan ma'lumotlar orqali «fayl» tipidagi ma'lumotlar strukturasidan foydalaniladi. Fayllar har xil formatga ega bo'lishi mumkin.


Aytib o'tilganidek, DMning aksariyat instrumentlari turli xil

manbalardan ma'lumotlarni import qilishga ruxsat beradi hamda natija sifatida olingan ma'lumotlarni turli xil formatga eksport qiladi.

Tajribalar uchun ma'lumotlarni qandaydir yagona formatda saqlash qulay bo'ladi. DMning ba'zi instrumentlaridagi protseduralar ma'lumotlarning importi/eksporti deb ataladi. Boshqalari esa turli ma'lumotlar manbalarini tog'ridan-tog'ri ochish imkonini beradi va DM natijalarini ko'rsatilgan formatlardan biriga saqlaydi.

Ma'lumotlarni saqlash formatlari eng keng tarqalgani 6.7-rasmda tasvirlangan. So'roqlar sonining eng ko'pi 23% bo'lib, ular ma'lumotlar bazasi formatida saqlanadigan ma'lumotlarni tashkil etgan. Text, CSV formatlari - 18%, 14% li so'roqlarni Text, space or tab separated i SAS formatlarida saqlanadigan ma'lumotlar; 9% Excel formatida, SPSS da - 8%, S-Plus/R da - 4%, Weka ARFF da- 6% va Data Mining instrumentlarining boshqa formatlarida - 2% ni tashkil etgan. So'roqlar natijasida ko'rinish turganidek, DM uchun eng ko'p saqlangan ma'lumotlar formati bu ma'lumotlar bazasini ko'rsatadi.

[KDnuggets](#) : [Polls](#) : Data Storage Formats (June 2005)



6.7-rasm. Ma'lumotlarni saqlash bo'yicha eng ko'p tarqalgan formatlar.

Metama'lumotlar. Metama'lumotlar – bu ma'lumotlar haqidagi ma'lumotlardir. Uning tarkibiga kataloglar, ma'lumotnomalar, reyestrlarni kiritishimiz mumkin.

Metama'lumotlar – ma'lumotlar tarkibidagi xabarlarni tashkil etadi: tuzilishi, kelib chiqishi, joylashishi, sifati, tasvirlanishi, formatlari va

shakllari, murojaat etish mumkinligi shartlari, olinishi va foydalanilishi va boshqalar.

Ma'lumotlarni saqlanish joyida qo'llaniladigan metama'lumotlar uning o'rnatilishi va foydalanilishi uchun zaruriy axboratlardan tuziladi. Ular biznes-

metama'lumotlar va tezkor metama'lumotlarga bo'linadi.

Biznes-metama'lumotlar—biznes-terminlari va ta'riflari, ma'lumotlarning belgilari va saqlanish xizmatida to'lov qoidalaridan tashkil etiladi.

Tezkor metama'lumotlar – ma'lumotlarni saqlanishi vaqtida yiilgan axborotlardir:

- Ma'lumotlarning ko'chirilishi va o'zgartirilishini;
- Ma'lumotlardan foydalanish haq-huquqi (faollashtirish, arxivlangan va o'chirilgan)
- Monitoring ma'lumotlari - statistika foydalanadigan; xatoliklar haqidagi xabar va boshqalar

Data Mining uslublari va bosqichlari. DMning asosiy xossasi bu – keng matematik instrumentlarni (avvalgi statistik tahlildan hozirgi yangi kibernetik uslublargacha bo'lgan) birgalikda olib borish va AT sohasidagi yutuqlarga erishish. DM texnologiyasida qat'iy formallahgan uslublar va uslublarning formallahmagan tahlillari birlashadi.

DM ning uslublari va algoritmlariga quyidagilar aloqador bo'ladi: sun'iy NTlari, qaror yoki yechimlar daraxti, simvolli qoidalar, qo'shniga yaqinlashish va k ta yaqin qo'shni uslublari, tayanch vektorlar uslubi, bayes tarmoqlari, chiziqli regressiya, korrelyasion-regression tahlil, klaster tahlilida iyerarxik uslublar, klaster tahlilida iyerarxik bo'lмаган uslublar, shu bilan birga k-o'rtacha va k-mediana algoritmlari, assosiyativ qoidalarni qidirish uslublari, shu bilan birga Aprior algoritmi, chegaralangan birma-bir tekshirish (perebor) uslubi, evolyusion dasturlash va genetik algoritmlar, ma'lumotlarni vizuallashtirishning har xil turdag'i uslublari va boshqa uslublar to'plamlari.

DM texnologiyalarida ishlataladigan aksariyat analitik uslublar - bu aniq bo'lgan matematik algoritmlar va uslublardir. Ularning qo'llanilishidagi yangiliklar ularga texnikaviy va dasturiy muhitlarning shartli ravishda paydo bo'ladigan imkoniyatlari u yoki bu aniq muammolarni yechishda foydalanadigan imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Ta'kidlab o'tish kerakki, DMning aksariyat uslublari SI nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan.

3.2. Klasterlash

Masalaning qo'yilishi. Masalaning qo'yilishi standart shaklda [2], ya'ni S_1, S_1, \dots, S_m obyektlar to'plamidan iborat T_{nm} tanlov (n – obyektlardagi belgilar soni, m – obyektlar soni) berilgan bo'lsin. T_{nm} tanlovdagi j – obyektni $S_j = a_{j1}, a_{j2}, \dots, a_{jm}$ ($j = 1, m$) obyektlardagi belgilar alfavitini berish mumkin.

T_{nm} tanlovdagi S_1, S_1, \dots, S_m larning belgilar alfaviti binar, uzukliksiz sonlar, kesmadagi nuqtalar va nominal (sifatli ko'rsatkichlar) belgilardan iborat bo'lishi mumkin.

T_{nm} tanlovdagi S_1, S_1, \dots, S_m larni o'qituvchisiz va o'zini-o'zi o'rganish jarayonida sinflarga ajratishdan, y'ani T_{nm} dan T_{nm} tanlovni hosil qilishdan iborat, bu yerda 1- hosil qilinisi kerak bo'lgan klasterlar soni. Obyektlarni sinflarga ajratishda optimal yechimga ega bo'lish uchun sinflarga ajratuvchi R funksiya minimal $I(R) = \min$ qiymatga ega bo'lishi kerak.

S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini sinflashda ikkita hol bo'lishi mumkin. Birinchisi S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini oldindan ma'lum bo'lgan sinflarga bo'lish bo'lsa, ikkinchisi S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini sinflashda sinflar soni l ma'lum bo'lmaydi. Ikkinci holda hosil qilinadigan sinflar soni l ma'lum bo'maganda S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plami avtomatik ravishda sinflarga yoki guruhlarga ajratiladi, bunda sinflar yoki guruhlar soni l obyektlar to'plami S_1, S_1, \dots, S_m ni sinflash jarayonida hosil bo'ladi.

Sinflash sifatining mezoni quyidagi talablarning bajarilishini taqoza etadi [2,22]:

a) bir guruhda joylashgan obyektlar bir-biriga masofasi bo'yicha yaqin joylashgan bo'lishi kerak, ya'ni bir guruhda joylashgan obyektlar orasidagi masofa turli guruhlarda joylashgan obyektlar orasidagi masofaga nisbatan kichchik bo'lishi zarur;

b) turli guruhlarda joylashgan obyektlar bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lishi, ya'ni turli guruhlarda joylashgan obyektlar orasidagi masofa bir guruhda joylashgan obyektlar orasidagi masofadan katta bo'lishi zarur.

Obyektlarning aprior alfavitini hosil qilish. Obyektlarni sinflash tizimlarini yaratishda eng asosiy masalalardan biri – bu obyektlarning

belgilarini aniqlashdan iborat. Obyektlarning bu belgilaridan ularni sinflarga ajratishda foydalilaniladi. Belgilarning quyidagi turlari mavjud:

1. Determinalli belgilar – bu obyektlarning shunday xarakteristikalari bo'lib, ular aniq va doimiy sonli qiymatlarga ega bo'ladi.

2. Ehtimolli belgilar – bu obyektlar xarakteristikalari tavakkalli (ehtimolli) xarakterga bo'ladi. Bunday belgilar ko'proq tabiat va texnikada uchraydi. Bu belgilar bir vaqtida bir nechta sinfda uchraydigan obyektlarda uchrashi mumkin.

3. Mantiqiy belgilar – obyektlarda uchraydigan xarakteristikalarining mavjudligi (rost) yoki mavjud emasligi (yolon) bilan aniqlanadi.

4. Strukturali belgilar simvol ko'rinishida yoki tasvir ko'rinishida berilgan obyektlarda uchraydi.

Obyektlar to'plamini sinflashning umumiyyatini sxemasini 6.8-rasmdagidek keltirish mumkin [2,3].

Obyektlarni sinflash usullari. S_1, S_2, \dots, S_m lar to'plamini avtomatik sinflash masalasini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1)masalaning qo'yilishiga qarab – deterministik va stoxastik yoki ehtimolli masalalar;

2)masalani yechish yo'liga qarab – iyerarxik va iyerarxik emas;

3)sinflar soni haqidagi boshlanich ma'lumotning aniqligi yoki aniqmasligi;

4)hal qiluvchi funksiya R yaqinlik o'lchoviga asoslanganmi yoki yo'q.


Deterministik masalaning qo'yilishida $R(S_i) = K_j$ sinflash talab etiladi.

Bu holda S_i obyektni K_j sinfga talluqli ekanligini aniqlovchi $R(S_i)$ funksiyani topish talab etiladi. Agar $R(S_i)$ funksiya masofalarni hisoblashga asoslansa, u holda

$$d(S_i, S_j) = \begin{cases} 1, & \text{agar } |a_{ik} - a_{jk}| \leq \varepsilon_k \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (6.8)$$

$$d(S_i, S_j) = \begin{cases} 1, & \text{agar } a_{ik} = a_{jk} \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

foydalilaniladi. (6.8) formulaga asosan, T_{nm} chekli tanlovdagagi obyektlar orasidagi masofa berilgan ε_k qiymat (porog)dan kichik yoki teng bo'lsa, bitta sinfga, aks holda turli sinflarga qarashli bo'ladi.



6.8-rasm. *Sinflash algoritmlarining umumiy sxemasi.*

Agar masala stoxastik yoki ehtimolli ko'rinishda qo'yilsa, u holda hal qiluvchi funksiya sifatida $R(S): X \rightarrow (P(K_1/S), \dots, P(K_m/S))$ topish talab etiladi. Bu yerda K_j – sinflar; $P(K_j/S)$ – S obyektning K_j sinfga qarashliligining ehtimollik darajasi.

O'xshashlik o'lchoviga asoslangan usullar asosan topologik fazoda ba'zi o'xshashlik o'lchovini berishga asoslanadi. Bu holda ixtiyoriy S_i va S_j obyektlar orasidagi o'xshashlik o'lchovi sifatida qandaydir a_{ij} son qaraladi. Umumiyligi holda o'xshashlik o'lchovi $a_{ij} \geq 0$, $a_{ij} = a_{ji}$, $a_{ii} \geq a_{ij}$ shartlarni qanoatlantirishi kerak: Amaliyotda asosan uch turdag'i o'xshashlik o'lchovidan foydalaniladi [2, 3, 22]:

- 1) O'xshashlik koeffisiyenti;
- 2) Bog'qlik koeffisiyenti;

3) Metrik fazoda masofa ko'rsatkichi;

O'xshashlik koeffisiyentini hisoblashga asoslangan usullar asosan binar belgilar bilan berilgan obyektlarni sinflarga ajratishda qo'llaniladi.

Bog'liqlik koeffisiyenti sifatida quyidagini keltirish mumkin:

$$r_{ij} = \sum_{\alpha, \beta=1} \rho_{\alpha\beta} (1 - |S_{\alpha i} - S_{\alpha j}|)(1 - |S_{\beta i} - S_{\beta j}|)(1 - 2|S_{\alpha i} - S_{\beta j}|),$$

bu yerda $\rho_{\alpha\beta}$ – α va β belgilar orasidagi bog'qlik koeffisiyenti, $S_{\alpha i} - S_i$ obyektdagi α – belgining qiymati. Bu koeffisiyent α va β belgilar binar va sonli qiymatlar qabul qilganda ishlatalishi ham mumkin.

Metrik fazoda masofa ko'rsatkichida S_i va S_j obyektlar orasida o'xshashlik ular orasidagi masofaga asoslanadi. Bu holda eng asosiy masala S_i va S_j obyektlar orasidagi masofani qanday hisoblashga bog'q. Masofani hisoblashda yuqorida keltirilgan shartlarga qo'shimcha ravishda quyidagi uchburchak qoidasi ham bajarilishi kerak:

$$S_i, S_j, S_k \Rightarrow \bar{d}(S_i, S_j) \leq \bar{d}(S_i, S_k) + \bar{d}(S_k, S_j)$$

Obyektlar to'plamidan klasterlarni tanlash. Obyektlar to'plamini klasterlar yordamida sinflashtirishda S_1, S_2, \dots, S_m lar to'plamini shunday K_1, K_2, \dots, K_l larga bo'lish kerakki, bu bo'lish imkoniyat darajasida samarali bo'lsin. Masalani bunday formallashtirish S_1, S_2, \dots, S_m lar to'plamini K_1, K_2, \dots, K_l larga bo'lishda ajratuvchi funksiyani hosil qilishga olib keladi. Demak obyektlar to'plami T_{nm} tanlov ko'rinishda berilganda, T_{nm} dan T_{nml} tanlovnı hosil qilish uchun shunday ajratuvchi funksiyani topish kerakki, bu bu funksiya obyektlarni sinflarga yetarli darajada sifatli va ishonchlilik bilan ajratsin.

T_{nm} dan T_{nml} ni hosil qilishda ajratuvchi funksiyaning yetarli darajada sifatli va ishonchli bo'lishligi T_{nm} dan tanlanadigan klasterlarga bevosita bog'liq (6.9-rasm).

T_{nm} tanlovdan klasterlarni tanlash turli usullarda amalgalashiriladi:

1) klaster sifatida T_{nm} dagi obyektlar to'plamidan o'rtacha obyekt olinadi (6.9, a-rasm);


2) klaster sifatida T_{nm} dagi obyektlar to'plamidan ixtiyoriy k ta obyektlar olinadi (6.9, b-rasm);

3) klaster sifatida T_{nm} dagi obyektlar to'plamidan normal taqsimot asosida tanlanadi(6.9, v-rasm);

4) klaster sifatida T_{nm} dagi obyektlar to'plamida bir-biridan eng uzoqda joylashgan obyektlar olinadi (6.9,g-rasm);

5) klaster sifatida T_{nm} dagi obyektlar to'plamida to'ri chiziqqa eng yaqin obyekt olinadi (6.9, d-rasm);

6) klaster sifatida T_{nm} dagi obyektlar to'plamida tengsizliklar asosida aniqlanadi, ya'ni N_1 klaster $x < 5$; N_2 klaster $x > 5$; $y > 4$; N_3 klaster esa $x > 5$; $y < 4$ tengsizliklar bilan aniqlanadi (6.10, e-rasm).



Umumiy holda T_{nm} dagi obyektlar to'plamini sinflash quyidagicha amalga oshiriladi: qandaydir usullar (evristik, tavakkal) bilan k ta boshlanich klasterlar topiladi. Undan keyin tanlangan klasterlar asosida sinflashtiriladi. Hosil bo'lган klasterlarda yana yangi klasterlar topiladi va ushbu klasterlar asosida obyektlar yana sinflashtiriladi va oldingi klasterlar bilan solishtiriladi. Agar solishtirish natijasida klasterlar o'zgarmasa, u holda sinflashtirish jarayoni tugallangan hisoblanadi, aks holda yana yangi klasterlar topiladi va ularga nisbatan sinflashtirish jarayoni davom etadi .

3.3. Klasterlar yordamida sinflash algoritmlari

Obyektlar to'plamini bir-biridan eng uzoqda joylashgan ikkita klaster obyekt orqali sinflash algoritmi. Bu algoritm S_1, S_1, \dots, S_m obyektlar to'plami va ulardagи $a_{j1}, a_{j2}, \dots, a_{jn}, j=1, m$ belgilar alfaviti berilganda hamda S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini K_1, K_2, \dots, K_l sinflarga ajratishda klasterlar soni l oldindan ma'lum bo'lganda S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini bir-biridan eng uzoqda joylashgan obyektlar orqali klasterlashga asoslangan [2].

Ushbu algoritm quidagi qadamlardan iborat:

1. Klasterlar sifatida bir-biridan eng uzoqda joylashgan ikkita obyektlar aniqlanadi. Bu holda obyektlar to'plamidagi barcha obyektlar orasidagi masofalar $d(S, S_i) = \sum_{k=1}^m |\alpha_{ik} - \alpha_{jk}|$ yordamida aniqlanadi.

Natijada d_{ij} ($i=1, n; j=1, n$) masofalar matrisasi hosil bo'ladi

$$d_{ij} = \begin{pmatrix} d_{11} & d_{12} & \dots & \dots & d_{1n} \\ d_{21} & d_{22} & \dots & \dots & d_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ d_{n1} & d_{n2} & \dots & \dots & d_{nn} \end{pmatrix}, i=1, n; j=1, n.$$

2. d_{ij} matrisasidan eng katta masofa $d_{\max}(S_i, S_j) = \max_{i,j} d_{ij}$ topiladi. $d_{\max}(S_i, S_j)$ qiymatga mos keluvchi S_i va S_j obyektlar klasterlar sifatida tanlanadi.

3. Klasterlar $Z_1 = S_i$ va $Z_2 = S_j$ belgilanadi.

4. Z_1 va Z_2 klasterlar orasidagi masofaning yarmi $\bar{d}_{12} = \frac{1}{2} d_{12}(Z_1, Z_2)$ topiladi.

5. Obyektlarni K_1 va K_2 sinflarga ajratish qoidasi

$$F(S_i) = \begin{cases} S_i \in K_1 & agar d_{ij} \leq \bar{d}_{12} \\ S_i \in K_2 & boshqahollarda \end{cases}$$

Ushbu algoritmnинг dasturiy ta'minot(DT)i [2] 6.10-rasmda keltirilgan:

6.10 –rasm. Obyektlarni ikkita sinfga ajratish natijasi.

Obyektlar to‘plamini qisman presedentli prinsip asosida sinflash algoritmi [2,3]. Bu algoritm S_1, S_1, \dots, S_m obyektlar to‘plami va ulardagи $a_{j1}, a_{j2}, \dots, a_{jn}, j = 1, m$ belgilar alfaviti berilganda hamda S_1, S_1, \dots, S_m lar to‘plamini nechta K_1, K_2, \dots, K_l sinflarga ajratishda klasterlar soni l oldindan ma’lum bo‘lganda S_1, S_1, \dots, S_m lar to‘plamini qisman presedentli prinsip asosida Z klaster obyektlarga nisbatan o‘xshash obyektlarni topishga asoslangan. Ushbu algoritm $S = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ to‘plamdan olingan z klaster obyektlar bilan ushbu to‘plamdagи obyektlarni kema-ket taqqoslash natijasida o‘xshashlarini bitta sinfga birlashtiradi.

Algoritmi quyidagi qadamlardan iborat:

1. Obyektlar soni m , belgilar soni n va hosil qilinishi mumkin bo‘lgan sinflar soni l oldindan(hosil qilinishi mumkin bo‘lgan sinflar soni oldindan ma’lum bo‘ladi) kiritiladi.
2. S_1, S_1, \dots, S_m lar haqidagi ma’lumotlar T_{nm} ko‘rinishda dasturga kiritiladi.
3. T_{nm} dagi obyektlarning belgilar shkalasiga mos d_1, d_2, \dots, d_k taqqoslash qoidalari tanlanadi:

$$d(Z, S_j) = \begin{cases} 1, & \text{agar } |z_k - \alpha_{kj}| \leq \varepsilon_k, \\ 0, & \text{aksholda} \end{cases}$$

$$d(Z, S_j) = \begin{cases} 1, & \text{agar } z_k = \alpha_{kj}, k = 1, n \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

$$d(Z, S_j) = \bigwedge_{\alpha=1}^{\eta} (z_\alpha = \alpha_{\alpha j}) \vee (z_\alpha > \alpha_{\alpha j}) \vee (z_\alpha < \alpha_{\alpha j})$$

4. T_{nm} dagi S_1, S_2, \dots, S_m lardan ixtiyoriy S_i obyekt klaster obyekt sifatida tayinlanadi, ya'ni $Z = \forall S_i$.

5. T_{nm} dagi $\{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ lar to'plamda obyektlarning t -tartibli joylashishi aniqlanadi, ya'ni

$$S_1^t, S_2^t, \dots, S_m^t \quad (6.9)$$

6. T_{nm} tanlovda n o'lchovga ega bo'lgan boshlanich boshqaruvchi vektori $\tilde{b}^0 = \underbrace{1, 1, \dots, 1}_n$ tanlanadi.

7. T_{nm} tanlovdan (6.9) formula ko'rinishda tartiblangan obyektlardan birinchi tartibdagи S_1^t ($j=1$) obyekt olinadi va \tilde{b}_1 boshqaruvchi vektorining qiymati $b_{1\alpha} = d_\alpha(Z, S_1^t)$, $\alpha = \overline{1, k'}$ hisoblanadi. Natijada $\tilde{b} = b_1, b_2, \dots, b_{k'}$ boshqaruvchi vektoriga ega bo'lgan Z klasterga o'xshash to'plam $D^t(Z, S_1^t)$ hosil bo'ladi.

8. Hosil qilingan \tilde{b}_1 boshqaruvchi vektorning qiymati oldingi qadamda berilgan \tilde{b}^0 boshlanich boshqaruvchi vektorning qiymati bilan taqqoslanadi. Agar \tilde{b}^1 boshqaruvchi vektorda $\exists b_j = 1$, ya'ni $\tilde{b}^1 = 0, 1, \dots, 0, 0$ bo'lsa, u holda keyingi qadamga ushbu $\tilde{b}^1 = 0, 1, \dots, 0, 0$ boshqaruvchi vektor bilan o'tiladi. Agar $\forall b_j = 0$, ya'ni $\tilde{b}^1 = 0, 0, \dots, 0, 0$, bo'lsa, u holda keyingi qadamga $\tilde{b}^1 = \tilde{b}^0$ boshqaruvchi vektor bilan o'tiladi.

9. $j = j+1$. Agar $j \leq m$ bo'lsa, u holda 10-qadamga, aks holda 11-qadamga o'tadi.

10. T_{nm} tanlovdan (8.9) formula ko'rinishda tartiblangan obyektlardan $(j+1)$ tartibdagи S_{j+1}^t obyekt olinadi va \tilde{b}^{j+1} boshqaruvchi vektorining $b_{j+1} = d_\alpha(Z, S_{j+1}^t)$, $\alpha = \overline{1, k'}$ qiymati hisoblanadi. Natijada $\tilde{b} = b_1, b_2, \dots, b_{k'}$

boshqaruvchi vektoriga ega bo'lgan Z klasterga o'xshash to'plam $D^1(Z, S_{j+1}^t)$ hosil bo'ladi.

11. Z klaster obyekt orqali boshqa klasterni hosil qilish uchun 5 - qadamda $S_1^t, S_2^t, \dots, S_m^t$ obyektlarning joylashish tartibi o'zgartiriladi va algoritm 6 – qadamga o'tadi. Obyektlarning joylashish tartiblari sonini P deb olsak, u holda ushbu protsedura $t \leq P$ shart bajarilguncha davom ettiriladi. Agarda $t > P$ bo'lsa, u holda 12- qadamga o'tiladi.

12. $i = i + 1$. Agar $i \leq m$ bo'lsa, u holda u holda 13-qadamga, aks holda 14- qadamga o'tadi.

13. T_{nm} tanlovdagi S_1, S_2, \dots, S_m obyektlardan navbatdagi S_{i+1} obyekt Z klaster obyekt sifatida tayinlanadi, ya'ni $Z = \forall S_{i+1}$ va 5-qadamga o'tiladi.

14. T_{nm} tanlovdagi S_1, S_2, \dots, S_m obyektlar to'plamda m ta Z_1, Z_2, \dots, Z_m klaster obyektlar orqali sinflar hosil bo'ladi va har bir sinf o'zining Z klaster obyektiga va unga o'xshash obyektlar to'plamiga ega bo'ladi. Ushbu obyektlar to'plami alohida sinflarni tashkil qiladi.

15. Hosil bo'lgan sinflar ro'yxatini oynaga chiqarish.

Ushbu algoritmning DTi [2,3] 6.11-rasmida keltirilgan.



Tayanch obyektlar asosida hosil qilingan belgilar va sinflar

$x9^x13^x14^x23^x27 \vee x9^x13^x16^x23^x29 \vee x15^x19^x23^x24 \vee$ $x1^x5^x28 \vee x11^x14^x15^x25^x30$ $D(S16) = x4^x8^x12^x14^x23 \vee x1^x5^x8^x23^x26^x29 \vee$ $x9^x14^x19^x27 \vee x9^x11^x18^x27 \vee x9^x13^x14^x23^x27 \vee$ $x4^x9^x13^x23 \vee x7^x9^x13^x30 \vee x9^x11^x13^x14^x23 \vee$ $x9^x11^x13^x14^x19 \vee x9^x21^x29 \vee x8^x12^x23^x30 \vee$ $x1^x6^x14 \vee x4^x4^x8^x14^x23 \vee x2^x4^x10^x14^x23 \vee$ $D(S17) = x8^x9^x12^x14^x23^x26 \vee x14^x16^x23^x25^x26 \vee$ $x6^x11^x15^x17 \vee x13^x21^x27^x29 \vee x15^x25^x26^x27 \vee$ $x5^x10^x23 \vee x4^x12^x14^x20^x23 \vee x2^x3^x8^x12^x23 \vee$ $x1^x7^x14^x18^x25$ $D(S18) = x1^x20 \vee x3^x6^x23 \vee x8^x12^x22^x23^x28 \vee$ $x4^x8^x10^x28^x29 \vee x3^x20^x23 \vee x9^x20^x23 \vee x1^x5^x28 \vee$ $x8^x12^x23^x30 \vee x2^x3^x8^x12^x23 \vee x3^x6^x10^x21^x26$ $D(S19) = x10^x14^x16^x17^x19^x28 \vee x6^x14^x18^x19^x25 \vee$ $x1^x7^x14^x22^x25 \vee x4^x7^x10^x14^x19^x20^x25^x28^x30 \vee$ $x4^x7^x9^x10^x12^x23 \vee x4^x9^x11^x24 \vee x3^x9^x24 \vee$ $x3^x5^x15^x18^x25 \vee x2^x5^x15^x18^x29 \vee x11^x13^x14^x19 \vee$ $x11^x14^x15^x25^x30 \vee x1^x7^x14^x18^x25 \vee$ $x10^x14^x17^x22^x28^x29$ $D(S20) = x13^x14^x19^x23^x29 \vee x1^x7^x8^x14^x17^x23^x25 \vee$ $x7^x10^x11^x16^x17 \vee x9^x14^x18^x19^x25 \vee x3^x5^x23 \vee$ $x18^x23^x24 \vee x9^x13^x16^x23^x29 \vee x9^x11^x13^x14^x23 \vee$ $x2^x3^x8^x12^x23 \vee x3^x6^x10^x21^x26 \vee x8^x10^x14^x23^x24^x29$	<p>Tayanch S1 obyektlar asosida sinflarni hosil qilamiz $K(1) = \{S1 S3 S4 S6 S9 S15\}$ $K(2) = \{S1 S4 S5 S8 S13 S19\}$ $K(3) = \{S1 S6 S7\}$ $K(4) = \{S1 S7 S8 S9 S13 S14\}$ $K(5) = \{S1 S3 S8 S9 S10 S11 S13\}$ $K(6) = \{S1 S4 S10 S11 S13 S20\}$ $K(7) = \{S1 S3 S9 S12 S13 S14\}$ $K(8) = \{S1 S2 S9 S15 S16\}$ $K(9) = \{S1 S4 S16 S17 S20\}$ $K(10) = \{S1 S4 S10 S17 S18\}$ $K(11) = \{S1 S18 S19 S20\}$ $K(12) = \{S1 S3 S9 S19 S20\}$ $K(13) = \{S1 S2 S13 S20\}$ $K(14) = \{S1 S2 S3 S9 S12 S15\}$</p> <p>Tayanch S2 obyektlar asosida sinflarni hosil qilamiz $K(1) = \{S2 S3 S7 S9 S11 S14 S18\}$ $K(2) = \{S2 S4 S5 S8\}$ $K(3) = \{S2 S7 S8 S13 S14\}$ $K(4) = \{S2 S8 S10 S13 S16\}$ $K(5) = \{S1 S2 S9 S10 S11 S18\}$ $K(6) = \{S2 S6 S13 S14 S15\}$</p>
--	--

Hisoblashga sarflangan vaqt: 00:00:38

Hisoblash

Log

Chiqish

6.11 –rasm. Barcha klasterlar yordamida sinflash natijasi.

Obyektlar to'plamini klasterlarni ixtiyoriy tanlash asosida sinflash algoritmi [2, 22]. Bu algoritm S_1, S_1, \dots, S_m obyektlar to'plamini nechta sinflarga ajratishda sinflar soni l oldindan ma'lum bo'limganda S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini K_1, K_2, \dots, K_l sinflarga ajratishda va ushbu jarayonda avtomatik ravishda sinflar soni l ni hosil qilishda klasterlarni ixtiyoriy tanlashga asoslanadi.

S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamidan N_1 klaster ixtiyoriy tanlanadi, ya'ni $Z_1 = S_1$. Undan keyin Z_1, Z_1, \dots, Z_k klasterlar tanlanadi. Klasterlar soni m nechta bo'lishi oldindan ma'lum emas. Bu holda klasterlar soni m obyektlarni sinflashtirish jarayonida aniqlanadi va topilgan klasterlarga mos K_1, K_2, \dots, K_l lar hosil bo'ladi. Ushbu algoritm quyidagi qadamlardan iborat:

1. Boshlanich $S = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ obyektlar to'plamidan birinchi klaster sifatida ixtiyoriy S_j tanlanadi, masalan $Z_1 = S_j$.

2. Z_1 klaster bilan barcha obyektlar orasidagi $d_{1j}(Z_1, S_j), j = \overline{1, n}$ masofalar aniqlanadi. Natijada $d_{1j}, j = \overline{1, n}$ masofalar matrisasi hosil bo'ladi $d_{1j} = (d_{11} d_{12} \dots d_{1n}), j = \overline{1, n}$.

3. $d_{1j} = (d_{11} d_{12} \dots d_{1n}), j = \overline{1, n}$ masofalar matrisasidan $d_{\max}(Z_1, S_j) = \underbrace{\max}_j(d_{11} d_{12} \dots d_{1n}), j = \overline{1, n}$ topiladi.

4. Ikkinchi klaster sifatida $d_{\max}(Z_1, S_j)$ qiymatga mos keluvchi S_j obyekt tanlanadi, ya'ni $Z_2 = S_j$.

5. Z_2 klaster bilan barcha obyektlar orasidagi $d_{2j}(Z_2, S_j), j = \overline{1, n}$ masofalar (8.2-8.8) formulalar orqali aniqlanadi. Natijada $d_{2j}, j = \overline{1, n}$ masofalar matrisasi $d_{2j} = (d_{21} d_{22} \dots d_{2n}), j = \overline{1, n}$ hosil bo'ladi.

6. $d_{1j} = (d_{11} d_{12} \dots d_{1n}), j = \overline{1, n}$ masofalar matrisasidan eng kichik masofa $d_{1\min}(Z_1, S_j) = \underbrace{\min}_j(d_{11} d_{12} \dots d_{1n}), j = \overline{1, n}$ topiladi.

7. $d_{2j}(Z_2, S_j) = (d_{21} d_{22} \dots d_{2n}), j = \overline{1, n}$ masofalar matrisasidan eng kichik masofa $d_{2\min}(Z_2, S_j) = \underbrace{\min}_j(d_{21} d_{22} \dots d_{2n}), j = \overline{1, n}$ topiladi.

8. Z_1 va Z_2 klasterlar orqali topilgan $d_{1\min}(Z_1, S_j)$ va $d_{2\min}(Z_2, S_j)$ masofalardan eng kattasi $d_{\max} = \underbrace{\max}_t(d_{1\min}(Z_1, S_j), d_{2\min}(Z_2, S_j), t = \overline{1, 2})$ tanlanadi.

9. Z_1 va Z_2 klasterlar orasidagi masofaning yarmi $d_{12} = \frac{1}{2}d(Z_1, Z_2)$ topiladi.

10. Agar $d_{\max} \geq d_{12}$ bo'lsa, u holda yangi klaster sifatida d_{\max} qiymatga mos keluvchi Z_3 obyekt tanlanadi va $Z_3 = d_{\max}$ klaster sifatida belgilanadi va 2-3- qadamlar bajariladi.

Agar klasterlar soni o'zgarmasdan qolsa, algoritm o'z ishini to'xtatadi. Topilgan bo'sag'a (porog) deb nomlanuvchi d_{12} , ya'ni klasterlar orasidagi masofaning yarmi obyektlarni Z_1, Z_2, \dots, Z_k klasterlar orqali K_1, K_2, \dots, K_k sinflarga ajratadi. Shuningdek klasterlar soni ham aniqlanadi.

Ushbu algoritmning DTi [2] 6.12–rasmda keltirilgan.

Natija oynasi																								
Natijani ko'rsatish maydoni																								
1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass	1-klass
0	22	40	0	1	48	40	3	0	37	40	0	1	37	40	2	0	76	38	2	1	75			
20	38	1	0	41	37	0	1	68	40	0	0	23	40	2	1	68	39	3	0	70	39			
2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass	2-klass
1	82	40	0	1	11	38	0	0	35	39	1	1	87	37	3	1	73	39	3	1	27			
1	20	38	1	0	41	37	0	1	68	40	0	0	23	40	2	1	68	39	3	0	70			
0	15	37	2	0	14	41	1	1	25	41	3	0	52	41	4	1	98	37	0	0	86			
1	3	39	2	1	64	38	1	0	4	40	0	1	35	40	1	0	24	38	0	1	51			
1	93	38	4	0	31	37	0	0	51	37	0	0	17	40	0	1	50	40	0	0	0			
0	67	39	1	1	51	37	3	0	3	37	2	1	13	38	4	0	80	41	0	1	80			
0	83	41	3	0	30	38	2	0	10	39	4	0	43	39	3	0	45	40	2	1	82			
0	23	41	3	0	4	40	4	0	91	41	2	1	57	37	1	0	6	40	3	1	21			
1	16	38	4	1	47	38	4	0	93	39	3	0	93	41	2	1	79	39	4	1	22			
0	17	41	2	0	7	38	4	0	68	40	1	1	31	41	4	0	61	40	3	0	1			
1	12	39	3	0	43	41	0	0	56	40	3	1	39	41	3	1	95	40	2	1	85			
0	15	38	1	1	90	37	0	1	11	37	3	1	59	39	0	0	79	38	0	1	26			

6.12 –rasm. Klasterlarni ixtiyoriy tanlash yordamida sinflash natijasi.

Obyektlar to'plamini klasterlar asosida sinflash algoritmi [2,22].

Bu algoritm S_1, S_1, \dots, S_m obyektlar to'plamini nechta sinflarga ajratishda sinflar soni l oldindan ma'lum bo'lmaganda S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini

K_1, K_2, \dots, K_l sinflarga ajratishda va ushbu jarayonda avtomatik ravishda sinflar soni l ni hosil qilishda klasterlarni tanlashga asoslanadi. Algoritm boshqa algoritmlardan boshlanich shartlari va klasterlar soni bilan farq qiladi. Algoritmda $S = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ obyektlar to'plamidan klasterlar tanlanadi. Algoritm quyidagi qadamlardan iborat:

1. Obyektlar to'plami $S = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ dan k ta $k < \nu$ sinflar K_1, K_2, \dots, K_k ixtiyoriy tanlanadi.

2. Har bir $K_i, i = \overline{1, k}$ sinflardan birinchi $Z_1(1), Z_2(1), \dots, Z_k(1)$ obyektlari klaster sifatida tanlanadi.

3. Har bir klaster $Z_i(1), i = \overline{1, k}$ o'zining sohasiga (obyektlar to'plamiga) ega bo'ladi. Bu sohalar k klasterlar bilan boshqa obyektlar orasidagi kichik masofani hisoblash asosida aniqlanadi. r - qadamda S_p obyekt $Z_i(r)$ klaster bilan bog'liq bo'ladi, agarda quyidagi tengsizlik bajarilsa:

$$\|S_p - Z_i(r)\| < \|S_p - Z_j(r)\|, \forall i \neq j.$$

Bu holda $S_p \in Z_i(r)$ bo'ladi. Shunday qilib, r - qadamda $Z_i(r)$ klaster sohani hosil qiladi.

4. Yangi klaster $Z_i(r+1)$ orqali yangi soha aniqlanadi. Uning qiymatlari sifatida shunday S obyekt qabul qilinadi, u o'rta kvadratik cheklanishning kichik qiymatini qanoatlantiradi:

$$d_i = \min_{S_p \in Z_i(2)} \sum \|S_p - Z_i(r+1)\|^2, i = \overline{1, k}$$

Haqiqatdan ham, qachonki Z_i sohadan olingan S obyektning qiymati obyektlarning o'rta arifmetik qiymatlariga teng bo'lsa, d_i minimal qiymatga erishadi.

5. Yangi klaster sifatida

$$Z_i(r+1) = \frac{1}{Card Z_i} \sum_{S_p \in Z_i} S_p, i = \overline{1, k}$$

olinadi.

Ko'rinish turibdiki, yangi klaster sifatida olinadigan obyektning qiymati K o'rtacha qiymatni topishga asoslanadi. Qachonki $Z_i(r+1)$ markazlarning holati oldingi $Z_i(r)$ markazlarga nisbatan o'zgarmasa, algoritm o'z ishini to'xtatadi. Aks holda, yangi markazlar asosida yangi sohalar yaratiladi, ya'ni algoritm yana 3-qadamdan boshlanadi.

Ushbu algoritmning DTi [2] 6.13 –rasmda keltirilgan.

6.13 –rasm.Klasterlar sonini oldindan belgilash asosida sinflash natijasi.

Obyektlar to'plamini klasterlarni ketma - ket hosil qilish asosida sinflash[2, 22]. Bu algoritm S_1, S_1, \dots, S_m obyektlar to'plamini nechta sinflarga ajratishda sinflar soni l oldindan ma'lum bo'limganda S_1, S_1, \dots, S_m lar to'plamini K_1, K_2, \dots, K_l sinflarga ajratishda va ushbu jarayonda avtomatik ravishda sinflar soni l ni hosil qilishda klasterlarni ketma - ket hosil qilishga asoslanadi. Algoritm yordamida klasterlar soni obyektlarni o'rganish jarayonida ketma - ket hosil qilinadi va obyektlar topilgan klasterlar asosida sinflashtiriladi.

Algoritm quyidagi qadamlardan iborat:


1. $S = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ obyektlar to'plamidan klasterlar ixtiyoriy ravishda tanlanadi, ya'ni Z_1, Z_2, \dots, Z_k .
2. Har bir guruhni ikkiga bo'lamiz, agarda guruhdagi obyektlar orasidagi masofa δ_1 porogdan katta bo'lsa.
3. Har bir sohada yangi "o'rtacha" obyektlar topiladi.
4. Har bir juftlik o'rtacha obyektlar orasida masofa hisoblanadi.
5. O'rtacha obyektlar orasidagi masofa δ_1 porogdan kichik o'lsa,

yangi sohalar birlashtiriladi.

6. Algoritm yana takrorlanadi.

Bu algoritmnning oldingilardan farqi shundaki, bunda barcha obyektlar orasidagi masofani hisoblashga ehtiyoj yo'q. Operator δ_1 va δ_2 poroglarning qiymatini ixtiyoriy ravishda aniqlashi mumkin. Shuning uchun bu algoritm yordamida katta massiv bilan berilgan ma'lumotlarni qayta ishslash mumkin.


Ushbu algoritmnning DTi [2] 6.14 –rasmda keltirilgan.



6.14 – rasm. Klasterlarni ketma-ket tanlash asosida sinflash natijasi.

MATLAB tizimida sinflash dasturini yaratish. MATLAB – matritsaviy laboratoriya – hozirgi vaqtga kelib hisoblash matematikasi, axborotni qayta ishslash, elektr asboblarni loyihalashtirish, iqtisod va amaliy fanning boshqa bir qator bo'limlariga talluqli o'ndan ortiq hususiy ilovalar

bilan to'ldirilgan ilmiy-texnik hisoblashlar uchun eng rivojlangan dasturlash tizimidir (6.15-rasm). Shu sababli bu kodni MATLABda modellashtirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.



The screenshot shows the MATLAB Editor window titled "Editor - C:\RC.m". The menu bar includes File, Edit, Text, Cell, Tools, Debug, Desktop, Window, and Help. The toolbar contains various icons for file operations like Open, Save, and Print. The code in the editor is:

```
1 - X=[11 0; 12 0; 8 0;12 0;12 0; 8 1; 14 0; 8 1; 11 1; 7 0
2 - Y = pdist(X); % ob'yektlar orasidagi juft masifalarni a:
3 - Z = linkage(Y); % linkage(Y) funksiyasi yordamida "ya:
4 - algoritmi asosida klaster daraxtini hosil qilish
5 - cophenet(Z,Y); % sifat tavsifiga ko'ra klasterlar darax
6 - T = cluster(Z,3) % klaster raqamini ko'rsatuvchi T vekt:
7 -
8 -
9 -
10-
11-
```

The status bar at the bottom shows "script" and "Ln 1 Col 1 OVR".

6.15-rasm. *MATLAB tizimining dastur yozish (tahrirlash) oyansi.*

MATLAB – interpretator kabi ishlovchi hamda turli xil hisoblashlarni bajarish, ma'lumotlar tarkibini berish va axborotni grafik ko'rinishda tasvirlash uchun xizmat qiladigan katta hajmli qo'llanmalar (buyruqlar) to'plamini o'z ichiga oluvchi yuqori darajali dasturlash tizimidir. Ushbu buyruqlar tizimning har xil direktoriyalarida joylashgan mavzuli guruhlarga bo'lingan. Endilikda tizimda 800 ga yaqin buyruq bo'lib ulardan yarmidan ko'pi boshlovchi foydalanuvchi uchun tushunarlidir. Bundan tashqari MATLAB – algoritmlarni tekshirish va taqribiy hisoblashlar o'tkazishdagi mehnat harajatlarini jadal suratda qisqartirish imkonini beradi. MATLAB da katta hisoblashlar o'tkazish imkoniyati foydalanuvchi yo'l qo'ya oladigan vaqt darajalariga qarab aniqlanadi. Tizim sonli usullarni o'zlashtirish va qo'llash uchun juda qulay.

MATLAB tizimida Statistics Toolbox paketi mavjud, unda klasterli tahlil funksiyalari quyidagi jadvalda keltirilgan (6.2-jadval).

6.2-jadval. MATLAB tizimi Statistics Toolbox paketining klasterlash funksiyalari.

Funksiya nomi	Vazifasi
Ccluster	Klasterlarni alohida klasterlarning iyerarxik daraxt ko'rinishda ajratish. (<i>Linkage</i> funksiyasida chiqish ma'lumotlarni guruhlash)
Clusterdata	Boshlanich ma'lumotlar matritsasini klasterlarga guruhlash.
Cophenet	Boshlanich ma'lumotlarni klasterlarga ajratish sifati koeffitsiyentini (bu koeffitsiyent korrelyatsiyani koeffitsiyentiga o'xshatish mumkin, ya'ni qiymati qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, klasterlash shunchalik aniq ajratilgan bo'ladi) hisoblash.
Dendrogram	Klasterlarning dendogrammasi
Inconsistent	Klasterlarning iyerarxik daraxtida har bir bog'liqligini mos tushmaslik koeffitsiyentlarini hisoblash. Klasterlarni ajratish sifatini baholashda ham qo'llanilishi mumkin.
Kmeans	Ichki guruqlar o'rtachalariga asoslangan klasterlash.
linkage	Binarli klasterlarning iyerarxik daraxtini shakllantirish.
Pdist	Boshlanich ma'lumotlar to'plamidagi obyektlar (vektorlar) o'rta sidagi juft masofalarni hisoblash.
Silhouette	Klasterlarning siluetlari (konturlari) grafigi.
Squareform	Pdist funksiyasi chiqishlaridagi ma'lumotlari vektorini simmetrik kvadrat matritsaga almashtirish

Bu funksiyalar orqali MATLABda klasterlash usullaridan uchtasining dasturini tuzamiz.

1. *Iyerarxik* usulda klasterlash. 861 ta satr 2 ta ustunli X matritsaga ma'lumotlarni beramiz, ya'ni har biri 2 elementli 861 ta vektor.

```
X=[11 0; 12 0; 8 0; 12 0; 12 0; 8 1; 14 0; 8 1; 11 1; 7 0; 12 1; ....];
Y = pdist(X); % ob'yektlar orasidagi juft masofalarni aniqlash;
Z = linkage(Y); % linkage(Y) funksiyasi yordamida "yaqin qo'shni"
algoritmi asosida klaster daraxtini hosil qilish;
cophenet(Z,Y); % sifat tavsifiga ko'ra klasterlar daraxtiga ajratish.
T = cluster(Z,3); % klaster raqamini ko'rsatuvchi T vektorni hosil
qilish.
```

2. *K-means* algoritmi amaliy tadbiqi.

```
data=load('maktab_data.dat'); % ma'lumot fayldan yuklandi  
[center,U,obj_fcn]=fcm(data,3); % klaster markazini aniqlash  
maxU=max(U); % massiv elementlarini indekslash  
index1=find(U(1,:)==maxU);  
index2=find(U(2,:)==maxU);  
index3=find(U(3,:)==maxU);
```

3. Koxonen neyroto'r usuli amaliy tadqiqi

```
net = newc([0 1;01; 01; 01; 01; 01; 01; 01; 01; 01];3, 0.1); %  
3 pog'ona  
w0 = net.IW{1};  
b0 = net.b{1};  
c0 = exp(1)./b0;  
tic, net.train Param.epochs = 50; % 50 tsikl hosil qilinadi  
[net,TR] = train(net,P); toc;  
w = net.IW{1};  
bn = net.b{1};  
cn = exp(1)./bn;  
Y=sim(net,P);  
disp(Y)
```

Bu usullar orqali olingan natijalar deyarli bir xil ko'rinishda hosil qilindi.

Nazorat savollari

1. Evristik qoidalar nima?
2. Ehtimollikning ta'rifini bering?
3. B dalil va A gipotezaning birgalikdagi sodir etilish ehtimolini izohlang?
4. Bayes qoidasiga asosan xulosalash ehtimoli qanday aniqlanadi?
5. Ob-havoni bashoratlash, sportda yaxshi natijalarga erishish, tibbiy tashxis masalasini yechishda Bayesli tahlildan qanday foydalaniladi?
6. Ishonchli Bayes to'rlarining qanday turlari mavjud?
7. Klaster deganda nimani tushunasiz va ular qanday tanlanadi?
8. Obyektlarni klasterlar yordamida sinflashtirishni o'rgatishning asosiy masalasi qanday?
9. Obyektlarni sinflashning umummiy sxemasini tushuntiring.
10. Obyektlarni sinflashtirishning asosiy muammosi nimadan iborat?

11. Obyektlar qanday belgilar alfaviti bilan tavsiflanadi?
12. Sinflashning qanday usul va algoritmlari mavjud?
13. MATLAB–matritsaviy laboratoriya paketida klasterlash modulini tushuntiring.

Nazorat testlari

1. Qandaydir B hodisaning sodir etilganligi aniq bo`lganda biror A hodisaning ro`y berish ehtimoli-bu ehtimollikdir.

- a) shartli ; b) apriorli; c) aposteriorli; e) shartsiz.

2. 223333 raqamlar birikmasidan tasodifiy ravishda yoki 3, yoki 2 tanlansin. Shartli ehtimollik tenglamasini qo`llagan holda 2 raqmi, keyin esa 3 raqami kelishi ehtimolini hisoblang?

- a) 1/6; b) 1/4; c) 1/3; e) 2/3.

3. Umumiy holda $P(A,B)$ aposteriorli ehtimolni hisoblaydigan Bayes formulasini to`g`ri ko`rsating?

$$a) P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)}; \quad b) P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(A)}$$

$$c) P(A/B) = \frac{P(A)P(B)P(A/B)}{P(B)}; \quad e) P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(A)P(B)}$$

4. Hodisalarning toliq ehtimolini aniqlovchi ifodani to`g`ri ko`rsating?

$$a) P(B) = \sum_{i=1}^n P(A_i)P(B/A_i); \quad b) P(B) = \sum_{i=1}^n P(B_i)P(B/A_i);$$

$$c) P(B) = \sum_{i=1}^n P(A_i)P(B); \quad e) P(B) = \sum_{i=1}^n P(B_i)P(B/A_i).$$

5. Agar A_1, A_2, \dots, A_n gipotazalarning apriorli ehtimolliklari berilgan bo`lsa, u holda B_1, B_2, \dots, B_m dalillar asosida har bir A_i gipotezaning aposteriorli ehtimolini aniqlaydigan ifodani to`g`ri ko`rsating?

$$a) P(A_i / B_j) = \frac{P(A_i)P(B_j / A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B_j / A_i)}; \quad b) P(A_i / B_j) = \frac{P(A_i)P(B_j / A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(A_i / B_j)};$$

$$c) P(A_i / B_j) = \frac{P(A_i)P(A_i / B_j)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B_j / A_i)}; \quad e) P(A_i / B_j) = \frac{P(A_i)P(B_j / A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B_j)}$$


6. Bemorga tibbiy tashxis qo`yishda sizga quyidagi ma'lumotlar berilgan. Oxirgi 10 yil davomida poliklinikaga murojaat qilgan 20000 nafar bemordan 16000 nafari gripp bilan kasallanganligi ekspert(shifokor)lar tomonidan aniqlangan bo`lsin. Quyidagi $A = "Gripp"$ va $\bar{A} = "Gripmas"$

belgilashlarni kiritib, $P(A)$ va $P(\bar{A})$ ehtimollarni aniqlang. Shuningdek, $B=$ "Harorat" belgilashni kiritib, tibbiy adabiyotlarni o'rganish xulosasiga ko'ra $A=$ "Gripp" bilan kasallangan bemorlarda $B=$ "harorat"ning oshish $P(B/A)=0.9$ ehtimoli o'rnatilganligini e'tiborga olib, $P(B/\bar{A})$ ni aniqlang.

Aniqlangan $P(A) = ?$, $P(\bar{A}) = ?$, $P(B/\bar{A})=?$ asosida Bayes formulasidan foydalanib $P(A/B)$ ehtimolni hisoblang?

- a) 0.97; b) 0.95; c) 0.98; e) 0.90.

7. Bayesli to'r to'g'ri ifodalangan sxemani k'o'rsating?



8. O'qituvchisiz o'rganishda soni oldindan berilgan va obyektlarning qaysi sinfga qarashliligi oldindan berilmagan bo'ladi.

- a) obyektlar, belgilar; b) belgilar, qoidalar; c) obyektlar, qoidalar;
- e) qoidalar, masofalar.

9. «Maxmin» algoritmining maqsadi - klaster obyektlarni topish va bu obyektlar yordamida sinflarni avtomatik hosil qilish.

- a) erkin tanlovdan N ta; b) etalon tanlovdan; c) etalon tanlovdan 2 ta;
- e) erkin tanlovdan 2 ta.

10. «K o'rtacha» algoritmi "Maksmin" algoritmidan qanday farq qiladi?

- a) boshlang'ich shartlari va klasterlar soni bilan;
- b) chegaraviy shartlari va masofalar soni bilan;
- c) asosiy shartlari va obyektlar soni bilan;
- e) bevosita shartlari va sinflar soni bilan.

11. «IZODATA» algoritmida soni obyektlarni o'rganish jarayonida ketma-ket hosil qilinadi va topilgan klasterlar asosida klasterlashtiriladi.

- a) klasterlar; obyektlar;
- b) boshlang'ich shartlar; obyektlar;
- c) belgilar; obyektlar;
- e) chegaraviy shartlar; obyektlar.

Masala va topshiriqlar

1. Kasallikni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni keltiring. Aytaylik, bemorning rentgen tekshirishlari natijasida unda sil kasalligi borligi ehtimoli 0,8 ga teng, sog' odamni bemor sifatida belgilash ehtimoli 0,03 ga teng. Sil kasalligiga uchraganlar sonining barcha aholiga nisbatan ulushi 0,002 ga teng. Rentgen natijasiga ko'ra bemor deb topilgan odamning sog' bo'lish ehtimolini toping.

2. Kasallikni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni keltiring. Aytaylik, odamda harorat oshish ehtimoli 40% ga teng. Odatdag'i kunda odamda grippning paydo bo'lish ehtimoli ham ma'lum bo'lib, u 50% tashkil etadi. Shuningdek, harorat oshish ehtimoli 100% bo'lganda grippning paydo bo'lish ehtimoli ham 100% ni tashkil etadi, chunki agar harorat oshsa, u holda har qanday holatda ham odamda gripp bo'ladi. Agar odam gripp bo'lsa, u holda harorat oshish ehtimolini toping.

3. Kasallikni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni keltiring. Tibbiy tashxis qo'yishda bemorda haroratning oshganligi kuzatilganligi uchun uning angina bilan kasallanganligining ehtimolini hisoblash talab etiladi. Agar bemor angina bilan kasallangan bo'lmasa, u holda u "anginamas", masalan sog'lom bo'ladi. Agar poliklininkadagi yozuvlar asosida 20000 bemordan ushbu davrda 15000 tasi angina bilan kasallangan va tibbiy adabiyotlarni o'rganish xulosasiga ko'ra $P(\text{Harorat/Angina})=0.8$ o'rnatish mumkin bo'lsa, u holda bemorda haroratning oshganligi kuzatilganligi uchun uning angina bilan kasallanganligining ehtimolini Bayes formulasi yordamida aniqlang.

4. Sportda yaxshi natijalarga erishishni Bayesli tahlilini keltiring. Aytaylik, futbol o'yinida nasaf komandasining g'alaba qilish imkoniyatlari

reyting bo'yicha 70% ni tashkil etadi. Shuningdek, bizga ma'lumki, Nasaf ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda futbol ishqibozlari kelish ehtimoli 30% ni, Nasaf ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda Nasaf yutganda futbol ishqibozlari kelish ehtimoli 90% ni tashkil etgan. Nasaf ishtirokidagi navbatdagi o'yinda ishqibozlar kelganda Nasafning g'alaba qilish ehtimolini toping.

5. Aytaylik, rentgen tekshirish natijalariga asosan bemorning tuberkulez kasalligi bilan xastalanganlik ehtimoli 0,7 va sog'lom odamning ushbu kasallik bilan xastalanganlik ehtimoli 0,03 aniqlangan bo'lsin. Poliklininkadagi yozuvlar asosida 20000 bemordan ushbu davrda 15 tasi tuberkulez bilan kasallangan bo'lsin. Tekshirish natijasida kasal deb hisoblangan odamlarning sog' chiqishining shartli ehtimolini toping.

6. $P(A, B, C, D) = P(A)P(B)P(C \setminus A)P(D \setminus A, B)$ boshlang'ich tahminlarga asosan Bayes to'rini hosil qiling.

7. $P(A, B, C, D) = P(A)P(B)P(D \setminus A)P(C \setminus A, B)P(D \setminus A, B)$. boshlang'ich tahminlarga asosan Bayes to'rini hosil qiling.

8. $P(A, B, C, D, E, F) = P(A)P(B)P(D \setminus A)P(C \setminus A, B)P(E \setminus A, B)P(F \setminus E)$. boshlang'ich tahminlarga asosan Bayes to'rini hosil qiling.

9. $P(A, B, C, D, E, F, G) = P(A)P(B)P(C \setminus A, B)P(D \setminus B)P(E \setminus B)P(G \setminus C)P(F \setminus D, E)$. boshlang'ich tahminlarga asosan Bayes to'rini hosil qiling.

10. T_{mn} tanlov berilgan bo'lsin. Bu yerda m obyektlar soni, n belgilar soni.

Belgilar Obyektlar	1	2	3	4	5
1	0.95	0.80	0.90	0.70	1.00
2	0.54	0.68	0.47	0.75	0.80
3	0.80	0.40	0.90	0.30	0.50
4	0.65	0.90	0.80	0.60	0.70
5	0.81	0.51	0.91	0.71	1.00
6	0.42	0.56	0.14	0.70	1.00
7	1.00	0.56	0.78	0.67	0.34
8	0.60	0.81	1.00	0.74	0.88
9	0.64	0.51	0.77	0.25	1.00
10	0.50	0.63	1.00	0.24	0.76
11	0.51	1.00	0.25	0.77	0.64
12	1.00	0.57	0.769	0.65	0.54
13	0.61	0.86	1.00	0.78	0.98

14	0.66	0.54	0.79	0.245	1.00
15	0.53	0.66	1.00	0.29	0.46
16	0.54	1.00	0.25	0.72	0.94

«Maxmin», «Izodata» va «K o'rtacha» algoritmlardan foydalanib, ushu tanlovda berilgan obyektlarni turli masofalardan foydalanib avtomatik ravishda sinflarga ajratuvchi dastur tuzing.

Shartli belgilashlar:

Algoritmlarni belgilash: M - «Maxmin» algoritmi, I - «Izodata» algoritmi, K - «K o'rtacha» algoritmi.

Masofalarni hisoblash formulalari:

$$1) E - \text{Evklid masofasi} - \bar{d}_1(\vec{X}_i, \vec{X}_j) = \left\{ \sum_{k=1}^n |x_{ik} - x_{jk}|^2 \right\}^{1/2};$$

$$2) M - \text{Manxetten masofasi} - \bar{d}_2(\vec{X}_i, \vec{X}_j) = \sum_{k=1}^n |x_{ik} - x_{jk}|;$$

$$3) Ch - \text{Chebishev masofasi} - \bar{d}_3(\vec{X}_i, \vec{X}_j) = \max_k |x_{ik} - x_{jk}|;$$

$$4) K - \text{Kamberra masofasi} - \bar{d}_4(\vec{X}_i, \vec{X}_j) = \sum_{k=1}^n \frac{|x_{ik} - x_{jk}|}{|x_{ik} + x_{jk}|}.$$

Topshiriq variantlari

Nº	Obyektlar soni	Algoritm	Masofa
1	$m=1..8$	M	E
2	$m=1..8$	I	M
3	$m=1..8$	K	Ch
4	$m=1..8$	M	K
5	$m=1..8$	I	E
6	$m=1..8$	K	M
7	$m=1..8$	M	Ch
8	$m=1..8$	I	K
9	$m=1..8$	K	E
10	$m=1..8$	M	M
11	$m=1..8$	I	Ch
12	$m=1..8$	K	K
13	$m=9..16$	M	E

14	$m=9..16$	I	M
15	$m=9..16$	K	Ch
16	$m=9..16$	M	K
17	$m=9..16$	I	E
18	$m=9..16$	K	M
19	$m=9..16$	M	Ch
20	$m=9..16$	I	K
21	$m=9..16$	K	E
22	$m=9..16$	M	M
23	$m=9..16$	I	Ch
24	$m=9..16$	K	K

7-BOB. NEYRONLI TO'RLAR

1-§. Neyronli to'rlar sohasidagi tadqiqotlar tarixi

Neyronli tarmoq(NT) larning o'rgatish qobiliyati bo'yicha birinchi tadqiqotlar *Makkolok* va *U. Pitts* tomonidan olib borilgan. Ular tomonidan 1943 yilda "Nerv faoliyatiga talluqli g'oyalarning mantiqiy mulohazalari" ilmiy ishlari yaratilgan bo'lib, unda neyron modeli qurilgan va sun'iy NT(SNT)lari qurishning asosiy qonun-qoidalari shakllantirilgan [7,16].



1962 yilda amerikalik neyrofiziolog *Френк Rozenblatt* tomonidan yaratilgan "*Perseptron*" NT modeli neyrokibernetikaning rivojlanishida kuchli ta'sir ko'rsatdi[7,16].

1970 yillarda ko'plab qiziqarli ishlanmalar taklif qilindi, masalan, tasvirlarning burilishi va mashtabining o'zgarishidan qat'iy nazar, murakkab obyektlarni anglab olish qobiliyatiga ega bo'lgan "*Kognitron*" yaratildi [7,16].

1982 yilda amerikalik biofizik *Дж. Хопфилд* tomonidan *Xopfield* NTlari taklif qilindi [7,16]. Ushbu yillar davomida ko'plab samarali algoritmlar yaratildi, masalan, tasodifiy duch keluvchi oqimlar, ikkiyo'nalishli assotsiativli xotira va h.k.

Kiyev Kibernetika institutida 1970-yillardan boshlab stoxastikli NTlar ustida ilmiy-tadqiqotlar olib borildi.

1986 yilda Dj. Hinton va uning jamoasi tomonidan "Neyronli to'rlar modellari va ularni o'rganish algoritmlari" nomli maqolasining chop etilishi sun'iy NT sohasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi [7,16].

Hozirgi vaqtida Rossiyada neyrotexnologiyalar sohasida uchta kuchli ilmiy muktab shakllangan [1].


1. Rossiya fanlar akademiyasi qoshida A.I.Galushkin raxbarligidagi neyrokompyuter(NK)lar markazi. "Neyrokompyuterlar va ularning qo'llanilishi" nomli 28 tomlik kitoblarining chop etilshi hamda Umumrossiya ilmiy konferensianing davriy rvishda o'tkazilishi uning keng miqyosda tanilishiga olib keldi.

2. Moskva davlat universitetida A.V.Chechkin raxbarligidagi neyrotexnologiyalar ilmiy muktabi. NKda bionik yo'nalshga talluqli "Insonning sensorli va tilli neyromodellarini yaratish" yo'nalishiada olingan natijalari doirasida keng miqyosda tanilishiga olib keldi.

3. Krasnoyarsk davlat universitetida A.N.Gorban raxbarligidagi neyrotexnologiyalar ilmiy maktabi [7]. Ushbu maktab olimlari NTlarni o'rganishning o'ziga xos yangi algoritmlarini rivojlantirayapti va neyrokompyuting bo'yicha xalqaro konferensiyalarini o'tkazayapti.

Inson miyasi 10^{10} - 10^{11} neyronlardan iborat. Ular orasida mavjud bo'lgan aloqalar 10^{22} gacha etishi mumkin. Shuning uchun NTlarni tasvirlash va modellashtirish imkoniyatlari juda katta.

Neyrokibernetika sohasidagi ilmiy va amaliy ishlar strukturasi 7.1-rasmda keltiilgan [1].



7.1-rasm. Neyrokibernetika sohasidagi ilmiy va amaliy ishlar strukturasi.

Ajratilgan yo'nalishlardan birinchisi sun'iy neyronlardan NTlarni qurish va qo'llash bilan bog'liq. Ularni dasturiy ifodalash uchun *neyropaket*(NP)lar, fizik ifodalash uchun esa - *neyrokompyuter* (NK)lar yaratiladi.

Neyropaket deb -NKlar muhitini emulyatsiyalaydigan dasturlar tizimi tushuniladi.

NPlarni sinflash [1] ishda taklif qilingan bo'lib, unga asosan sakkizta asosiy sinflarga ajratilgan:

1. Boshqa NPlarni yaratish uchun NPlar (NPlarni qurish uchun asboblar).

2. Universal NPlar. Universallik deganda-turli strukturali va turli o'rjanuvchi algoritmlar bilan SNTlarni modellashtirish imkoniyatlari tushuniladi

3. Murakkab funksionalli va maxsuslashtirilgan vositalar uchun neyronlardan foydalanuvchi maxsuslashtirilgan NP: tasvirlarni ishlash, obyektlarni anglash, qo'lyozma va bosma simvollarni anglash, nutqlarni anglash, dinamikli tizimlarni boshqarish, moliyaviy tahlil va b.q.

4. Neyronli ETlar.

5. SNTni genetik o'rGANISH paketlari;

6. SNTdan foydalanuvchi noravshaan mantiqiy paketlar;

7. Offisdan foydalanuvchi integrallashgan paketlar.

Birinchi sinfli NPlarga misollar:


- OWL (yaratuvchi -Hyper Logic Sof.);
- Neuro Windows (yaratuvchi -Ward Systems Group);
- NNet+ (yaratuvchi -Neuro Metric Vision System);
- Neural Network Toolbox for Matlab (yaratuvchi -Math Works);
- NeuroOffice (yaratuvchi -ЗАО «Альфа Систем»).

2-§. Neyronli to'rlarning asosiy tushunchalari va elementlari

Asosiy tushunchalar. Neyron bosh miyaning tarkibiy birligi bo'lib, ularni o'zaro harakati axborotni qayta ishlash jarayonida elektr signallarni uzatish va ketma-ket, parallel, kuchaytirish-kamaytirish, nochiziqli qayta o'zgartirish, jamlash kabi qayta o'zgartirishlar yo'li bilan bajariladi. Sun'iy neyron modeli biologik neyronning funksional xususiyat va xossalarni aks etadi (7.2-rasm).

Neyron – elektr faollilikka ega bo'lgan va organizmni operativ boshqaradigan tirik organizmlar nerv hujayralarining alohida turi hisoblanadi. Neyron tarkibi: soma (tan), dendritlar - kirish axborotlarni va

akson - chiqish axborotlarni uzatadigan o'simtalardan iborat bo'ladi. Har bir neyron faqat bir akson va bir necha dendritlardan iborat. Neyronning chiqish signali (qo'zg'alishi, impulsi) boshqa neyronga nerv birikish (*sinaps*)lar orqali keladi. Bu holatda qo'zg'alish signallari kuchaytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Shuning uchun neyron tanasi kirishiga ikki turdag'i - qo'zg'alishli va tormozlanishli signallar keladi. Neyron tanasi - bu signallarni algebraik jamlab, shu jamlangan signal ustida nochiziqli qayta o'zgartirish amalini bajaradi. Jamlangan signal qiymati qandaydir chegarali qiymatidan oshgan holatda neyron qo'zg'aladi va chiqish signalni boshqa neyronlarga yuboradi.



7.2-rasm. Biologik neyron.

NTli hisoblashlarning matematik asosi - har qanday ko'p o'zgaruvchilardan bog'liq bo'lgan nochiziqli funksiyani oldindan belgilangan aniqligi bilan chiziqli amal va ketma-ket ulangan bir o'zgaruvchidan bog'liq bo'lgan nochiziqli funksiyalar yordamida approksimatsiyalash (ifodalash) qoidasi bo'ladi.

NTli hisoblashlarning *asosiy xususiyatlari*: a) *konneksiyonistlik* - axborotni va qayta ishlash algoritmlarni eslash sifatida neyronlar orasidagi o'lchangan bog'lanishlardan foydalanish; b) *o'rnatish* - masalalarni berilgan sinfiga NTlarni sozlash jarayonida "dasturlash" funksiyani bajarish.

Mazkur xususiyatlar NTlarni universallik, ommaviy parallellik va golografiklik (tuzilmaning qisman buzilishida ishlash jarayonini saqlash)

xossalar bilan ta'minlaydi.

NTli hisoblashlarning afzalligi quydagи holatlarda ko'rinadi:

- masalalarni matematik usullar yordamida formallashtirish mumkin bo'limganda;
- mavjud formallashtiriladigan masalani yechish uchun matematik apparati mavjud bo'limganda;
- formallashtiriladigan masalani yechishning matematik apparati juda katta resurs(vaqt, texnika, energiya va boshqa)larni talab qilganda.

NTlar - ma'lumotlar oqimini tahlil qilib, undagi qonuniyatlarini o'r ganib, o'z ishini takomillashtirish xususiyatiga ega bo'lgan algoritmlar to'plamining umumiy nomlanishi.

NT deb atalmish ushbu texnologiya shaxslarning bosh miyasi kabi tuzilgan bo'lib, murakkab masalalarni yechishda qo'llaniladi:

- murakkab tizimlar holatini tasniflash;
- og'zaki nutqni tushunib olish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish;
- moliyaviy oqimlarni boshqarish;
- katta hajmdagi axborot oqimlardan iborat bo'lgan ilmiy, bashoratlash masalalarni yechish va boshqalar.

1990 - yillarda California Scientific SoftWare firmasi tomonidan ishlab chiqilgan NTli Brain Maker dasturi, harbiylarni buyurtmasiga binoan ishlab chiqilgan bo'lib, biznes masalalarini yechishga mo'ljallangan va keng qo'llanib kelinmoqda.

NTli texnologiya quyidagi ikki xususiyatdan iborat:

- ta'lim olish xususiyati, ya'ni aniq misollar orqali bilimini ko'paytirish;
- yangi vaziyatlarni tushunib olish yoki bashoratlash xususiyati, ya'ni bu yerda yechimi juda yuqori aniqlikda beriladi.

NT texnologiyasini qo'llash quyidagi bosqichlarga binoan bajariladi:

1-bosqich. Muammoni aniq ta'riflash. Bu yerda biz olishimiz zarur bo'lgan natijani aniq tasavvur qilishimiz shart. Masalan, obligatsilardan olinadigan foydani grafigi: investitsion loyihani maqbulli ko'rsatkichi.

2-bosqich. Boshlang'ich ma'lumotlarni aniqlash va tayyorlash. Bu yerda jarayonni tasvirlovchi zaruriy aniq va to'liq ma'lumotlarni to'plash ko'zda tutiladi. Shu bois ushbu bosqichda o'r ganiladigan muammo sohasi bo'yicha mutaxassis jalb qilinishi shart.


3-bosqich. Tizimga ma'lumotlarni kiritish, testdan o'tkazish. Ushbu

bosqichdan asosiy maqsad -asosiy vaziyatlarni tashkillashtirish va ma'lumotlarni ushbu vaziyatlar bo'yicha taqsimlash.

Neyronli to'rlarning elementlari. Neyroinformatikada algoritmlar va qurilmalarni tavsiflash uchun maxsus "sxemotexnikalar" shakllantirilgan bo'lib, ulardagi elementar qurilmalar: summatorlar, sinapslar, neyronlar va boshqalar masalalarni yechish uchun to'rlarda birlashgan bo'ladi.

Neyroinformatikada foydalaniladigan haqiqiy sxemotexnikalar NTlarni tasvirlashning o'ziga xos tilini va ularni muxokama qilishni o'zida namoyon etadi.


Neyrotizimlarning eng muhim elementlaridan biri-bu *adaptivli (moslashuvchan) summator* hisoblanadi. Adaptivli summator x kirish signalini vektorini α parametrlar vektoriga skalyar ko'paytmasini hisoblaydi. Sxemada uni 7.3-rasmda ko'rsatilgandek belgilaymiz. Uni adaptiv deb atashimizning boisi-unda α parametrlarga moslashuvchi bektorning mavjudligidir. Ko'pchilik masalalarda chiqish signallarining chiziqli birjinslimas funksiyalariga ega bo'lish foydali hisoblanadi. Uni hisoblashni ham 0-li kirishda doimiy bitta signaldan olinadigan $(n+1)$ kirishdan iborat adaptivli summator yordamida tasvirlash mumkin (7.4-rasm).




7.3.-rasm. *Adaptivli summator.* 7.4-rasm. *Birjinslimas adaptivli summator.*

Signalni chiziqsiz o'zgartirkich 7.5-rasmida tasvirlangan. U skalyarli x kirish signalini oladi va uni $\varphi(x)$ fumksiyaga aylantiradi.


Shoxlash nuqtasi bitta signalni bir nechta manzillarga tarqatish uchun hizmat qiladi (7.6-rasm). U skalyarli x kirish signalni oladi va uni o'zining barcha chiqishlariga uzatdi. Standartli formal neyron kirish summatori, chiziqsiz o'zgartirkich va chiqishdagi shoxlash nuqtalaridan iborat bo'ladi (7.7-rasm).




7.5-rasm. *Signalni chiziqlimas o'zgartirkich.*



7.6-rasm. *Shoxlash nuqtasi.*



7.7-rasm. Formal neyron.



7.8-rasm. Neyronga misol.

Misol. Ko'pchilik NTLarda foydalaniladigan neyronlar 7.8-rasmida keltirilgan struktura ko'rinishida bo'ladi.

7.8-rasmida quyidagi belgilashlardan foydalanilgan:

x - neyronning kirish signallar vektori;

α - neyronning sinaptikli vaznlari vektori;

Σ - neyronning kirish sigallari summatori;

$p = (\alpha, x)$ - kiruvchi summatorning chiquvchi signali;

σ - funksional o'zgartkich;


y - neyronning chiquvchi signali.

Chiziqli aloqa-sinaps-summatordan alohida uchramaydi, lekin ba'zi bir fikrlashlarda bu elementni aloxida ajratish qulay hisoblanadi (7.9-rasm). Agar sinapsning kirish signalini x , sinaptikli vaznni esa α yordamida belgilasak, u holda sinapsning chiquvchi signali αx ga teng bo'ladi.

Aloqalarni faqat kirish signallari summatoriga emas, balki shoxlash nuqtasiga ham ulash foydalali bo'lishi mumkin. Natijada adaptivli summatorga ikkiyoqlama va "chiqishli yulduz" deb nomlanuvchi elementni hosil qilamiz. Uning chiqish aloqalari signalni o'zining vazniga ko'paytirishdan hosil bo'ladi.

Demak, NTLarni hosil qildigan asosiy elementlarga tavsif berildi.

To'rlarning to'gri aloqali ishlashi. To'rlarning masalani yechish jarayonida bajaradigan ishini bundan keyin *to'gri aloqali ishlash* deb ataymiz (7.10 -rasm).




7.10-rasm. To'gri yuklanmaydigan tarmoqlarning ishlashi.


NTLarni hatoliklarning teskari tarqalishli neyronli to'ri usuli bilan o'rganishda teskari aloqali ishlashni bajarishni amalga oshira bilish kerak. Bundan keyin ananaviy ravishda o'rgatish mumkin emas deb hisoblangan, lekin shakllantiriladigan (masalan, Xopfld to'rlari) NTLarni ham

o'rgatishga imkoniyat yaratadigan *teskari aloqali ishlash* jarayoni ko'rsatiladi.

Teskari aloqali ishlash deb to'rlarning shunday ishlash jarayoni tushuniladiki, bunda ikkitaraflama to'rlarning kirishiga qandaydir signallar beriladi va ular ikkitaraflama to'rlarning aloqalari bo'yicha keyingilarga tarqaladi (7.11, a, b-rasmlar).



a) A.N.Gorbanning usuli bo'yicha to'g'ri yuklangan va teskari aloqali ishlaydigan tarmoqlar.



b) Unifikatsiyalastirilgan(bir shaklga keltirilgan) usul bo'yicha tarmoqlarning to'g'ri va teskari aloqali ishlashi.

7.11-rasm. To'rlarning ishlash sxemasi.


Teskari aloqali ishlashda signallarning o'rgatuvchi parametrlarga ikkitaraflama bo'lgan element orqali o'tishida ushbu element parametrlariga kiritiladigan tuzatishlar hisoblanadi. Agar uzlusiz elementli to'rlarga ikkitaraflama to'rlarning kirishiga chiqish signallaridan bog'liq qandaydir ixtiyoriy F funksiyaning hosilasi berilsa, u holda to'r yordamida hisoblanadigan tuzatmalar to'rlar parametrlari bo'yicha o'rgatuvchi F funksiyaning gradiyentli elementlari bo'lishi kerak.

3-§. Neyronli to'rlar arxitekturasi

Endi NTLarni qanday qilib qurish masalasini qaraymiz. NTLarni qurish uchun bir qancha standart arxitekturalardan foydalaniladi va ulardan ortiqchasini olib tashlash yoki ularga qo'shish yo'li bilan ko'plab foydalaniladigan to'rlar quriladi.

NTlar to'plamida ikkita bazaviy arxitekturalarni ajratish mumkin: *qatlamlari va tolabog'langan to'rlar*.

Qatlamlari to'rlar. Bu holda neyronlar bir nechta qatlamlarda joylashdi (7.12-rasm). Birinchi qatlamdagagi neyronlar kirish signallarini qabul qiladi, ularni almashtiradi va shoxlash nuqtalari yordamida ikkinchi qatlam neyronlariga uzatadi.



7.12-rasm. *Qatlamlari to'r.*

To'labog'langan to'rlar. Har bir neyron o'zi bilan birlgilikda chiquvchi signallarini qolgan neyronlarga uzatadi. *To'rlarning chiquvchi signallari*-barcha signallar yoki to'rlarning bir nechta taktlarining ishlashi natijasida hosil bo'lgan ba'zi bir chiquvchi signallardan iborat bo'lishi mumkin. Bunda barcha kirish signallari barcha neyronlarga uzatiladi.

Qatlamlari va to'labog'langan to'rlarning elementlari turlicha

ajratilishi mumkin. Bunda kirishda adaptivli birjinslimas chiziqli summatoridan iborat neyronni standartli tanlash uslubi mavjud (7.8-rasm).

To'labo'g'langan to'rlar uchun neyronning kirish summatori ikkiga tarqaladi: *birinchisi*-to'rlearning kirish signallarining chiziqli funksiyasini hisoblaydi, *ikkinchisi* esa-oldingi qadamda olingan boshqa neyronlarning chiquvchi signallarining chiziqli funksiyasini hisoblaydi.

Summatorning chiquvchi signalini almashtiruvchi φ- chiziqlimas ozgartkichning neyronlarni faollashtiruvchi funksiyasi (xarakteristikali funksiyasi) to'rlearning barcha neyronlari uchun bir xil bo'lisi mumkin (7.8-rasmga qarang). Bu holda to'r *birjinsli* (*gomogenli*) deyiladi. Agarda φ-chiziqlimas o'zgartkich qiymatlari neyrondan neyronga o'tganda o'zgaradigan yana bitta yoki bir nechta parametrlardan bog'liq bo'lsa, u holda bunday to'r *birjinslimas* (*гомогенли*) to'r deb ataladi.

Agar to'labog'langan to'r berilgan k taktlar soni bo'yicha javobni olguncha ishlasa, u holda uni *k-qatlamli* to'rlearning xususiy holi sifatida tasvirlash mumkin. Bu holda to'labog'langan to'rda barcha qatlamlar bir xil bo'ladi va ularning har biri to'labog'langan to'rning taktiga mos keladi.

To'labog'langan va qatlamli to'rlar o'rtasidagi muhim farq mavjud boladi, qachonki taktlar sonining ishlashi oldindan chegaralanmagan bo'lsa. *Qatlamli* to'rda taktlar sonining ishlashi oldindan chegaralangan, *to'labog'langan* to'rda esa - chegaralanmagan bo'ladi. Shuning uchun *qatlamli* to'r to'labog'langan to'rning xususiy xoli hisoblanadi.

4-§. Neyronli to'rлarni obyektlarni anglab olishga о'rgatishning umumiyligi sxemasi va uslubiy jihatlari

NTlarni obyektlarni anglab olishga о'rgatishning umumiyligi sxemasi. NTlarni obyekt(misol)larni anglab olishga о'rganish uchun obyektlardan iborat *o'rgatuvch tanlov zarur bo'ladi*. Har bir obyekt kiruvchi parametrlar tasvirlanadi va oldindan ma'lun bo'lgan javoblar bilan beriladi. Masalan, tibbiy tashxislash masalasida kiruvchi parametrlar sifatida bemorning tibbiy xususiyatlaridan foydalanilsa, oldindan ma'lum bo'lgan javob sifatida unga qoyiladigan diagnoz hisoblanadi.

NTlarni obyektlarni anglab olishga о'rgatishning umumiyligi sxemasini qaraymiz.

1. O'rgatuvchi tanlovdan joriy (boshida birinchi) obyekt olinadi va uning kiruvchi parametrlari o'rgatuvchi NTlarning kiruvchi sinapslariga uzatiladi. Odatta obyektning har bir kiruvchi parametri unga mos kiruvch sinapsga uzatiladi.

2. NT berilgan sondagi taktlarning bajarilishini amalga oshiradi va kiruvchi signallarning vektori neyronlar o'rtasidagi bog'lanishlar bo'yicha tarqaladi (to'g'ri ishlash).

3. Neyronlar yordamida hosil qilingan chiquvchi signallar deb ataluvchi signallar o'lchanadi.

4. Hosil qilingan signallarni izohlash amalga oshiriladi va to'r yordamida obyektda mavjud bo'lган javobning talab etilayotgan javob bilan farqli tomonlarini xarakterlaydigan baho hisoblanadi. Bu baho mos funksiyalar baholari yordamida hisoblanadi. Baho qancha kichik bo'lsa, u holda to'r yordamida olingen javob talab qilingan javobga shuncha yaqin bo'ladi. Agar baho nolga teng bo'lsa, u holda oldindan ma'lum bo'lган javobga erishildi deb hisoblanadi.

5. Agar obyekt bahosi nolga teng bo'lsa, u holda hech qanday ish amalga oshirilmaydi. Aks holda baholar asosida aloqalar matritsasining har bir sinaptikli vazni uchun tuzatish koeffitsiyentlari hisoblanadi, undan keyin esa sinaptikl vaznlarni moslashtirish amalga oshiriladi (teskari ishlash amalga oshiriladi). To'rlarning vaznlarini bunday to'g'rakash esa-to'rlarni obyektni anglashga o'rgatish deb ataladi.

6. Navbatdagi obyekt olinadi va yoridagi qadamlardagi amallar takrorlanadi. O'rgatuvchu tanloving birinchi obyektidan oxirgi obyektigacha barcha obyektlarni tekshirish to'rni obyektlarni anglashga o'rgatishning bitta sikli deb ataladi.

Siklning bajarilishida har bir obyekt o'zining bahosiga ega bo'ladi. Bundan tashqari o'rgatuvchi tanlovdagi barcha obyektlar to'plamining yig'indi bahosi hisoblanadi. Agarda siklning bir nechta qadamidan keyin obyektlar to'plamining yig'indi bahosi nolga teng bo'lsa, u holda to'r yordamida o'rgatish jarayoni to'xtaydi, aks holda sikllar takrorlanadi.

To'liq o'rgatishga erishish uchun o'rgatish sikllarining soni ko'plab faktorlarga bog'liq bo'ladi. Bu faktorlarga o'rgatuvchi tanloving hajmi, kiruvchi parametrlarning soni, obyektning ko'rinishi, NTlar turi va parametrlari hamda to'rlar nomlanganda ushbu to'rlarda vaznlarning tavakkal joylashishi kiradi.

NTlarni obyektlarni angashga o'rgatishning uslubiy jihatlari. Ba'zi hollarda shunday *holatlar uchraydiki*, bunda to'r obyektni angashga o'rgata olmaydi. Bu shunday holatda ro'y beradiki, qachonki o'rgatishning qandaydir pog'onasida o'rgatuvchi parametrlar va natijalar o'rtasidagi qonuniylikni bundan keyin izlash imkoniyatlari mumkin bo'lmay qoladi. Masalan, oddiy holatda to'rga bir hil parametrlarga ega bo'lган turli sinflarga tegishli ikkta obyekt yoki turli javov qiymatiga ega bo'lган ikkita

obyekt berilishi mumkin. Korinib turibdiki, bu holda *ikkita obyekt fazoning bitta nuqtasiga tushadi*, shuning uchun ularni bir-biridan ajratish mumkin bo'lmaydi va o'rgatish jarayoni to'xtaydi. NTlarni boshqaruvchi dastur o'rgatish jarayonining to'xtaganligi haqida signal beradi va bundan keyin o'rgatish jarayoni mumkin emasligini ko'rsatadi. Bu holatda NTlarni obyektlarni anglab olishga o'rgatuvchi mutaxassisning vazifasi bunday holatlarning oldini olishdan iborat, ya'ni bunday holat ro'y bermasligi uchun u masalani *qat'iy qo'yishi* va o'rgatuvchi tanlovnini *sinchkovlik* bilan nazorat qilishi talab etiladi.

NTlarni obyektlarni anglab olishga o'rgatishda yana bir muhim jihatni e'tiborga olish zarur. *O'rgatish yutug'i umuman ko'p hollarda to'rlardagi neyronlar soniga yoki aniqrog'i to'rlar soniga bog'liq*. Chunonchi, tamoqlardagi "tajriba" to'rlarning vaznli koeffitsiyentlarida saqlanadi. *Nazariy jihatdan neyronlar va to'rlar sonini cheksiz ko'paytirish natijasida hammavaqt berilgan o'rgatuvchi tanlovda NTlarni to'liq o'rgatishga erishish mumkin*. Bu holda eng muhim masala o'rgatuvchi NTlarning nafaqat o'rgatuvchi tanlovdagini obyektlarni, balkim o'rgatuvchi tanlovga kirmagan yangi obyektlarni ham yaxshi anglab olishi eng muhim masala hisoblanadi.

5-§. Neyronli to'rlar yordamida yechiladigan asosiy masalalar

Quyida keltiriladigan predmet sohalarining har birida NTlar uchun masalaning qo'yilishini aniqlashtirish mumkin. Hozirgi kunda bunday masalalarni yechishning muvaffaqiyatli amaliy tadbiqiy sohalarini birmabar qarab chiqamiz.

Iqtisodiyot va biznesda: vaqtga doir qatorlar (valyuta kurslari, kursi, tovar narxi, savdo hajmi, ...), avtomatlashtirilgan savdo (valyuta, aksiyalari yoki tovar birjasida savdo), kreditning qaytmaslik xavflarini baholash, bankrotlikni va ko'chmas mulkni baholash, reytingni baholash, tovar va pul oqimlarini optimallashtirish, chek va hujjatlarni o'qish va anglab olish, plastik kartochkalar bo'yicha tranzaksiyalar xavfsizligi.

Tibbiyotda: bemorga tashxis qo'yish, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash, bemorning holatini monitoringlash, davolash samaradorligini tahlil qilish, tibbiy asboblar shovqin(xatolik)lari ko'rsatkichlarini tozalash.

Aviatsiyada: o'qitilgan avtopilotlar, radar signallarini anglash, kuchli zarar ko'rgan samolyotni adaptiv boshqaruvi, uchuvchisiz uchish apparatlari - dronlarni boshqarish.

Aloqada: video axborot siqishni, tezkor kodlash-dekodlash, to'r va paketli marshrutlash loyihalarni optimallashtirish.

Internetda: axborotni assotsiativ qidirish, internetda elektron kotiblar va muxtor agentlar, spamlarni filtrlash va to'sib qo'yish, yangiliklar lentasidan xabarlarni avtomatik bo'limlarga ajratish, elektron tijorat uchun avto manzilli reklamalar va marketing.

Ishlab-chiqarishni avtomatashtirishda: ishlab-chiqarish jarayonlarining holatini optimallashtirish, mahsulot sifatini nazorat qilish, ko'p o'lchovli dispatcherli ma'lumotlarni monitoringlash va vizuallashtirish, favqulodda vaziyatlar haqida xabar berish.

Robototexnikada: robot oldindagi ko'rish maydonini, obyektlarni va to'siqlarni anglashi, harakat yo'lini qurish; manipulyatorni nazorat qilish, muvozanatni saqlash.

Siyosiy va ijtimoiy texnologiyalarda: saylov natijalarini taxmin qilish; so'rovnomalarni tahlil qilish, reytinglar dinamikasini bashoratlash, muhim omillarni aniqlash, saylovchilarning klasterlarini aniqlash, aholini ijtimoiy dinamikasini o'rganish va tasvirlash.

Xavfsizlik va qo'siqlash tizimlarida: shaxs yuzini anglash, barmoq izidan, ovozidan, imzosi va yuzidan shaxsini identifikatsiyalash, avtomashina davlat nomer belgisini anglash, aerokosmik tasvirlarni tahlil qilish, kompyuter to'rlarida axborot oqimini monitoringi va hujumlarni aniqlab berish, soxtalikni aniqlash, videodatchik va turli sensorlardan tushayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish.

Axborotni kiritish va qayta ishlashda: qo'lyozma matnlarni anglash, skanerlangan pochta, to'lov, moliyaviy va buxgalteriya hujjatlarini anglash.

Geologik o'r ganish(razvedka)da: seysmik ma'lumotlarni tahlil qilish, foydali qazilmalarni qidirishning assotsiativ uslublari, qazilma boylik manbalarini baholash.

NTlarning qo'llanilishining ushbu sohalari ko'pligi bezizga emas [7,15,16,19]. Haqiqatan ham NTlar - ma'lumotlarga ishlov berish va tahlil qilishning turli xil masalalarini yechish uchun kuchli va moslashuvchan vositalar majmuidir. Ya'ni:

1) **Sinflash.** Bunday masalalarda obyektning belgilar vektori $X_n = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ beriladi. Bular asosida har bir obyektni o'zaro kesishmaydigan C_1, C_2, \dots, C_m ($C_i \cap C_j = \emptyset, i \neq j, i, j = \overline{1, m}$) sinflardan biriga, ya'ni C_i sinfga kiritish kerak. Masalan, uchadigan obyektlarning belgilari qanotlar, dvigatel, patlar va h.k. bo'lishi mumkin. Bunday obyektlarning sinflari: Samolyot, Qush, Raketa va h.k. kabilar bo'lishi mumkin.

Belgilarning majmuisi kirish vektorini, sinflar majmuisi esa - chiqish vektorini tashkil qiladi.

Mazkur masalani yechish uchun n ta kirish va m ta chiqish neyronlardan iborat bo'lgan perseptron turdag'i NT quriladi. Aniq belgilar vektori kirishga berilganda NTning chiqish qatlamida eng yuqori darajadagi faol neyron tanlanadi. Bu neyron beriladigan belgilarga muvofiq bo'lgan sinfni belgilaydi. Masala to'g'ri yechilishi uchun NTni o'rgatish kerak. O'rgatish jarayonida tadqiq qilinayotgan obyektlarning o'zgaruvchan bog'lanishli koeffitsiyentlarining qiymatlari belgilar va sinflarning aniq qiymatlariga munosib etib moslanadi.

2) Klasterlash. Bu masalalarda belgilar majmuisi asosida obyektlar alohida klaster(sinf)larga ajratiladi. Bitta sinfga kiradigan obyektlar belgilar majmuisi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lishi kerak. Turli sinflarga kiradigan obyektlar esa belgilar majmuisi bo'yicha bir-biridan uzoq bo'lishi kerak. Bunday masalani yechish uchun dastlabki belgilar majmuasida qatnashadigan belgilar soniga teng bo'lgan kirish va sinflar soniga teng bo'lgan chiqish neyronlardan iborat bo'lgan NT quriladi. Bunday NTning vaznli koeffitsiyent qiymatlari o'rgatish jarayonda topiladi.

3) Approksimatsiyalash. Bunday masalada izlangan $F(x)$ funksiyaga to'g'ri keladigan va $d[F(x), F^*(x)] < \varepsilon$ qanoatlantiradigan approksimatsiyalovchi $F^*(x)$ funksiyasi tanlab olinadi. Bu yerda ε - funksiyalar o'rtasidagi masofa uchun berilgan kichik qiymat (porog).

Umumiy holda $F(x)$ funksiyaning ko'rinishi noma'lum bo'ladi. U $x_1 \rightarrow y_1, x_2 \rightarrow y_2, \dots, x_n \rightarrow y_n$ turdag'i "kirish - chiqish" qiymatlar juftligi bilan beriladi. Bu yerda x_i - kirish o'zgaruvchilar qiymatlari, y_i esa chiqishdagi funksiyalar qiymatlari. An'anaviy matematik usullardan foydalanib, avval kerakli approksimatsiyalash modeli ($F^*(x)$ funksiyaning ko'rinishi) tanlab olinadi. Keyin tanlab olingan mezonlar bo'yicha $F^*(x)$ funksiyaning koeffitsiyentlari topiladi.

NTlar universal approksimatorlar bo'lib, approksimatsiyalovchi $F^*(x)$ funksiyani tanlab olishni talab qilmaydi. Bu yerda NTni o'rgatish uchun faqat qayd qilingan $\{x_i \rightarrow y_i\}$ juftlar qaraladi.

Bu masala obyektlarni identifikatsiyalashda, ularning aniq matematik modellarini qurish murakkab bo'lgan holatlarda keng qo'llaniladi.

4) Avtoassotsiatsiya. Bu masala assotsiativ xotira modellarini qurish masalasi bilan bog'liq. Assotsiativ xotirali neyron modelida neyron guruhlar orqali tegishli obyektlarning ba'zi qismlarini xotiraga olinishi ta'minlanadi.


Bunday NTning kirishiga obyektning qismi berilganda uning chiqishida butun obyektni tavsiflaydigan neyronlarning barchasi faollashtiriladi.

Shuni qayd qilish kerakki, bir qatlamlı NTlar faqat sodda masalalarni yechish qobiliyatiga ega. Murakkab masalalarni yechish uchun turli tipdag'i ko'p qatlamlı NTlar ishlataladi.

6-§. Neyron to'rlarni o'rgatish usullari

O'rgatish jarayonida NT ning bog'lanishli vazn koeffitsiyenti, chegara va tuzilma kabi qiymatlari to'g'rilanadi. Shu holatda mazkur parametrlarning boshlang'ich qiymatlari odatda tasodifiy ravishda beriladi.

NTning o'rgatish usullari tasnifi 7.13-rasmida keltirilgan ko'rinishda ifodalanadi.



7.13-rasm. NTning o'rgatish usullari tasnifi.

Tasnifning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri-bu tashqi muhit bilan o'zaro aloqaning mavjudligi. O'rgatish jarayonida tashqi muhitdan

keladigan axborotning miqdori va sifati(semanticasi, ma'nosi)ga ko'ra supervizorli (supervised learning), nosupervizorli (unsupervised learning) va tasdiqlash (reinforcement learning)ni o'rgatadigan usul (algoritm)larga ajratiladi.

Supervizorli usulda oldindan barcha o'rgatish juftlaridan iborat bo'lgan o'rgatish to'plami shakllanadi. O'rgatish jufti X kirish va unga muvofiq bo'lgan Y chiqish vektorlar qiymatlari bilan ifodalanadi. Bu holatda har bir x_i kirish vektorining i - komponentasi i - kirish neyronga keladigan signalga muvofiq bo'ladi. Shunga o'xshash har bir y_j chiqish vektoring j - komponentasi j -chiqish neyronda paydo bo'ladigan signalga muvofiq bo'ladi.

O'rgatish jarayonida chiqish vektorlarining qiymati berilgan kirish vektorlarining qiymatlariga muvofiq oldindan berilgan chiqish qiymatlarining og'ishlarini hisobga olib topiladi. Bu og'ishlarning qiymatiga muvofiq NTning parametrlari mazkur og'ishlar qiymatlarini minimum(berilgan)ga keltirish bilan to'g'irlanadi. Supervizorli o'rgatish algoritmlarining orasida eng keng tarqalgani xatoliklarni (to'lqinlarni) teskari tarqatish algoritmi (error backpropagation) hisoblanadi.

Supervizorsiz usullarda o'rgatish to'plami faqat kirish vektorlari majmaisini o'z ichiga oladi. Bu holatda qo'llaniladigan raqobatli o'rgatish algoritmi (competitive learning) klasterlash masalalarini yechish uchun NTning parametrlarini to'g'rileydi. O'rgatish jarayonida tegishli klasterga kiradigan kirish komponenta(neuron)lari va bu klasterni tavsiflaydigan chiqish neyronlari orasidagi bog'lanishli vaznlarning qiymatlari maksimal darajada ko'paytiriladi. Shuningdek, chiqish neyronining faol bo'lмаган kirish neyronlari bilan bog'lanishli vaznlar qiymatlari kamaytiriladi.

Tasdiqlash bilan o'rgatish usullari yuqorida keltirilgan ikkita usulning o'rtasida turadi. Bu usulning asosiy tamoyili tashqi muhitdan (o'qituvchidan) keladigan "Tasdiqlash-rad qilish" yoki "Rag'batlantirish-jazolash" (reward/penalty) signalining mavjudligi bo'ladi. Bunday o'rgatish jarayonida navbatdagi kirish vektori berilganda NTning harakati qoniqarli bo'lsa, u holda tasdiqlash («+1») signal, aks holda - rad qilish («0» yoki «-1») signal orqali bajariladi. Bu holatda to'rda tasdiqlash signallarini olish tezligini oshirishni ta'minlash maqsadida vazn koeffitsiyentining qiymatlarini tegishli ravishda o'zgartiradi. Bu vazn koeffitsiyentining qiymati maqbul darajasiga yetmaguncha o'rgatish jarayoni davom etadi.

Tuzilmali o'rgatish usullari endi rivojlana boshladi. Ular murakkab masalalarini yechish uchun mo'ljallangan NTni qurishga imkoniyat beradi.

Kirishlarga quyiladigan talablar bo'yicha o'xshashliklarga va yagona buyruqqa asoslangan o'rgatish usullariga ajratiladi. Bu holatda tadqiq qilinadigan obyektlarni tavsiflaydigan etalon to'plam shakllanadi. Berilgan etalonga muvofiq NT parametrlari shunday qilib tanlanadiki, kirish belgilarining tegishli qiymatlarida faqat mazkur belgilarga ega bo'lgan chiqish neyronlari faollashishi kerak.


Stoxastik o'rgatish usullari ehtimolli qoidalarga, determinalli usullar esa - aniq qoidalarga asoslanadi.

7-§. Neyronli to'rlar tavsifi

7.1. Neyronli to'rlarning turlari

Ma'lum ko'rinishda bog'langan neyronlardan (tugunlardan) ma'lum sondagi kirish va chiqishlarga ega bo'lgan NTlar quriladi. Odatda uch turdag'i neyronlarni ajratish mumkin: kiruvchi, chiquvchi va neyronning yashirin qatlamlari (7.14-rasm).

Kiruvchi qatlam Yashirin qatlam Chiquvchi qatlam



7.14-rasm. To'g'ri bog'lanishli NT.

NTlarning faoliyati ikki bosqichdan iborat bo'ladi: *to'rnii kiruvchi axborotga o'rgatish* (kiruvchi vektor) va *o'rgatilgan to'rda kiruvchi vektorlarni aniqlash* uchun qo'llash. Oxirgi bosqich odatda testdan o'tkazish deyiladi.

NTlarning ba'zi modellarida kiruvchi va chiquvchi signallar ajratilmaydi (masalan, Xopfld modeli) va to'rning ularga mos kirishlari (chiqishlari) to'rning faoliyat ko'rsatish jarayonida o'z vazifalarini almashishi mumkin.

Hozirgi kunda NTlarning juda ko‘p xilma-xilliklari mavjud. Ularni to‘r tuzilishi, neyron modelining xususiyatlari, o‘qitish xususiyatlariga ko‘ra ajratishadi.

Tuzilishiga ko‘ra NTlarni to‘liqsiz bog‘lanishli (yoki qatlamlili) va to‘liq bog‘lanishli, tasodifiy va regulyar (qat’iy) bog‘lanishli, simmetrik va nosimmetrik bog‘lanishli kabi turlarga ajratish mumkin.

To liqsiz bog‘lanishli NTlar to‘liqsiz bog‘langan yo‘naltirilgan graflar bilan tavsiflanadi. Bunday NTlarning keng tarqalgan turi *perseptronlar* hisoblanadi. Ular bir qatlamlili (oddiy perseptronlar) va ko‘p qatlamlili, to‘g‘ri, kesishuvchi va teskari bog‘lanishli turlarga bo‘linadi. *To‘g‘ri bog‘lanishli* NTlarda j -qatlam neyronlari kirishlarda faqat i -qatlamdagi neyronlar, ya’ni quyi qatlamdagi neyronlar bilan bog‘lanishi mumkin (bu yerda $j > i$). *Kesishuvchi bog‘lanishli* NTlarda bir qatlam ichida bog‘lanishga ruxsat beriladi, ya’ni yuqorida keltirilgan tengsizlik $j \geq i$ ga almashadi. *Teskari bog‘lanishli* NTlarda $j < i$ bo‘lganda j -qatlamning kirishlarda i -qatlam bilan aloqasi ham ishlatiladi. Bundan tashqari bog‘lanish shakliga qarab perseptronlar *regulyar* va *tasodifiy* bog‘lanishli turlarga ajratiladi.

Kirish va chiqishlarda ishlatiladigan signallarga qarab NTlar *analog* va *binar* turlarga bo‘linadi.

Vaqtni modellashtirish bo‘yicha NTlar *uzluksiz* va *diskret* vaqtli to‘rlarga bo‘linadi. Dasturiy foydalanish uchun diskret vaqtli turi ishlatiladi.

Kirishlarda axborotni uzatish usuliga ko‘ra NTlar :

- kirish neyronlariga qarab signallarni uzatuvchi;
- chiqish neyronlariga qarab signallarni uzatuvchi;
- kirish neyronlarining kuchiga qarab signallarni uzatuvchi.

Chiqishlarda axborotni uzatish usuliga ko‘ra NTlar:

- chiqish neyronlariga qarab signallarni qabul qiluvchi;
- chiqish neyronlari kuchiga qarab signallarni qabul qiluvchi.

O‘rgatishni tashkil etishga ko‘ra NTlar *o‘qituvchi yordamida* *o‘rgatadigan* (supervised neyral networks) va *o‘qituvchisiz o‘rgatadigan* (nonsupervised) turlarga bo‘linadi. O‘qituvchi yordamida o‘qitishda o‘qitish bosqichida o‘qituvchi misollarni beradigan yoki NT faoliyatining to‘g‘riligini baholaydigan va o‘zining mezonlariga mos holda NTning holatini o‘zgartiradigan yoki NTni kengaytiradigan tashqi muhit bor deb faraz qilinadi. O‘zgartirish mumkin bo‘lgan NTning holati deganda odatda quyidagilar tushuniladi:

- neyronlar kuchi;
- neyronlar bo‘sag‘a(porog)si;

- neyronlar o'rtasida yangi aloqalarni o'rnatish (biologik neyronlarning yangi aloqalarni o'rnatish va eskilarini yo'q qilish xususiyati egiluvchanlik deyiladi).

O'qitish usuliga ko'ra NTlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- kirishlar bo'yicha o'qitish;
- chiqishlar bo'yicha o'qitish.

Kirishlar bo'yicha o'qitishda o'qituvchi misol faqat kiruvchi signallar vektoridan iborat bo'ladi, chiqishlar bo'yicha o'qitishda unga kiruvchi vektorga mos keladigan chiquvchi signallar vektori ham kiradi.

Agar NTlarni bilimlarni tasvirlash usuli deb qarasak, u holda bilimlar odatda neyronlar o'rtasidagi bog'lanishlar kuchi shaklida saqlanadi.

NTlarning *bilimlarni tasvirlash* usuli sifatidagi kamchiliklari:

- NT ishining natijalarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar va uning nima uchun u yoki bu qarorni qabul qilishini tushuntirishdagi qiyinchiliklar;

- natijalarni olishda takrorlanmaslik va bir ma'nolilikga kafolat berish mumkin emasligi.

NTlarning *bilimlarni tasvirlash* usuli sifatidagi afzalliliklari:

- bilimlarni formallashtirishning shart emasligi, formallashtirish misollarga ko'ra o'qitishga almashtiriladi;

- noaniq bilimlarni ular tabiiy intellektual tizim, ya'ni miyada amalga oshadiganday tabiiy tasvirlash va qayta ishslash;

- parallel qayta ishslashga yo'naltirilganlik, ya'ni qurilmaviy imkoniyat ta'minlanganda haqiqiy vaqtida ishslash imkoniyatini taminlaydi;

- ko'p o'lchamli (uch o'lchamlidan katta) ma'lumotlar va bilimlarni kichik o'lchamdagи ma'lumotlardek qayta ishslash imkoniyati.

Hozirda bitta tizimga bilimlarni tasvirlashning mantiqiy va (yoki) empirik usullari bilan NTlarda qo'llaniladigan assotsiativ usullarni birlashtirish sezilmoqda. Bu tadqiqotlar natijasida quyidagilar paydo bo'ldi: semantik Ntlar, noaniq Ntlar, ekspert tizimlar.

Bu tadqiqotlarning maqsadi xuddi shaxs o'qitadigandek o'qitadigan SITlarini yaratish hisoblanadi.

Neyron majmuini belgilangan ravishda bir-biri bilan hamda tashqi muhit bilan bog'lab, har xil turdagи NTlarning modellarini qurish mumkin. Bu holda kirish signallar to'plami to'rning kirish vektorini, chiqish signallari to'plami esa chiqish vektorini tashkil qiladi. NTning bog'lanish vaznlari W matritsa ko'rinishda ifodalanadi. Bunda matritsaning w_{ij} elementi i va j neyronlar o'rtasidagi bog'lanish vazni bo'ladi. Neyron tarmog'i o'zining


ishlash jarayonida kirish vektorini chiqish vektoriga o'zgartiradi, ya'ni axborotni qayta ishlash jarayonini bajaradi. Bu qayta ishlashning aniq ko'rinishi neyron modelining turlari bilan hamda NTning arxitekturasi va xossalari bilan belgilanadi.

NTlarning arxitekturasi va turlari neyronlarning to'rdagi bog'lanish tartibi bilan belgilanadi. Shuning uchun ko'pincha NTlarni va tizimlarni konneksionistik nomi bilan ataydi ("Connection" - "Bog'lanish" ingliz so'zidan).


NTlarini ikki asosiy: to'liq bog'langan va iyerarxikli turlariga ajratadi (7.15-rasm).

To'liq bog'langan NT - bu har bir neyronning chiqishi barcha boshqa neyronlar kirishlari bilan, uning kirishlari esa qolgan neyronlar chiqishlari bilan bog'langan to'r. Bundan tashqari har bir neyronning chiqishi uning kirishiga ulangan bo'ladi ("o'z - o'ziga bog'lanish") (7.15, a- rasm). N neyronlardan iborat bo'lgan to'liq bog'langan NTda bog'lanish soni N^2 teng.

Iyerarxikli NT –bu neyron guruhlarining tegishli alohida qatlama va darajalarda joylashgan tarmog'i. Bunday NTda tegishli qatlamlarning har bir neyroni oldingi va keyingi qatlamlarning har bir neyronlari bilan bog'langan bo'ladi (7.15, b -rasm). Uning kirish va chiqish qatlamlari tashqi muhit bilan ham bog'langan.




a) To'liq bog'langan NT.




b) Iyerarxikli NT.

7.15-rasm. NTlar turlari.

Bog'lanish yo'nalishlari bo'yicha teskari aloqasiz - norekurrent (feed-forward) (7.16-rasm) va teskari aloqlali - rekurrent (feed-back) (7.17-rasm) NTlar ajratiladi.




7.16-rasm. Norekurrent NT.



7.17-rasm. Rekurrent NT.

Agar rekurrent NTda o'zining bir qatlamdagи neyronlar o'rtasida tormozlaydigan (manfiy bog'lanishli vaznlar bilan) aloqalari bo'lsa, u holda bunday to'rni lateral yoki lateralli tormozlanishli NT deb ataydi (7.18-rasm).



7.18-rasm. Lateralli tormozlanishli NT.


Bir qatlami NT - bu sodda, iyerarxik, norekurrent turdagи to'r. Bunday to'rda tashqi muhit signallarini qabul qiladigan va taqsimlaydigan kirish neyronlar qatlami hamda hisoblanadigan neyronlar qatlami mavjud bo'ladi. Ularning har birining chiqish signallari uning kirishiga keladigan vaznlangan yig'indi funksiyasi sifatida belgilanadi. Chiqish signallar majmuisi NTning $Y = W \cdot X$ chiqish vektorini tashkil qiladi. Bu yerda X - n o'lchamli kirish vektori; W - $n \times m$ o'lchamli (m - chiqish katlamning neyronlari soni) bog'lanish vaznlar matritsasi; Y - m o'lchamli chiqish vektori.

Ko'p qatlami NT - bu bir nechta hisoblanuvchi neyronlar qatlamlaridan iborat bo'lgan to'rlar. Bunday qatlamlar soni ko'payishi bilan to'rning hisoblash quvvati ham oshadi.

7.2. Mak-Kalok-Pitts neyronli to'riining formal modeli

Sun'iy neyron modeli ilk bor 1943 yilda Dj. Mak-Kalokk va U. Pitts tomonidan tavsiflangan [7,16]. NTlarda bilimlar neyroo'xshash elementlar (yoki neyronlar) deb ataluvchi to'plamlar va ular o'rtasidagi aloqalardan iborat bo'ladi. Burchak boshida yo'naliш konnektivizm deyiladi. Mak-

Kallok-Pitts neyronining formal modeli 7.19 - rasmida ko'rsatilgan.



7.19-rasm. Mak-Kallok-Pitts neyronli to'riining formal modeli

Bu model hozir ham NTlarda alohida neyronni tavsiflash uchun keng qo'llaniladi.

Bu yerda:

x_i - neyronning i - kirishidagi signal;

ω_i - neyronning i - kirishi massasi;

y - neyronning chiqishi;

h - neyronning ishlash chegarasi.

Modelda neyron kirishlaridagi signallarning orttirilgan yig'indisi h chegaraviy qiymat bilan taqqoslanadi, agar u chegaradan oshib ketsa chiqishda signal mavjud bo'ladi. Neyronlarning hozirgi modelida chegaraviy funksiya umumiyl holda chiziqli funksiya bilan almashtiriladi. Bu funksiya sifatida

$$f(S) = \frac{S}{S + \alpha}$$

keltirish mumkin. α parametr odatda siljish deyiladi. Shuning uchun odatda neyron ko'paytuvchilar, summator va chiziqsiz elementlardan tashkil topgan deyiladi.

7.3. Rozenblatt perseptronni

Perseptron ta'rifi. Perseptron binarli kirish signallari yordamida obyektlarni ikkita sinfga ajratish masalasini yechishi kerak. Kirish signallari naborini n -o'lchovli x vektori bilan belgilaymiz. Vektoring barcha elementlari «*Chin(1)*» yoki «*Yolg'on(0)*» mantiqiy o'zgaruvchilarni qabul qiluvchi elementlar hisoblanadi.

Perseptron deb-quyidagi funksiyaning qiymatini hisoblovchi qurilmaga aytildi

$$\Psi = [\sum_{i=1}^m \alpha_i \varphi_i > \theta],$$


bu yerda α_i - perseptron vazni, θ - chegaraviy qiymat (porog), φ_i - kirish signallarining qiymatlari, []-qavs mantiqiy o'zgaruvchilarning «*Chin*» yoki

«Yolg'on» qiymatlaridan 0 yoki 1 sonli qiymatlarga o'tishni bildiradi [7, 16]. Perseptronning kirish signallari sifatida barcha to'rlarning kirish x signallari va boshqa perseptronlarning chiqish signallari qatnashishi mumkin. Doimiy $\varphi_0 \equiv 1$ kirish signalini qo'chimcha kiritib va $\alpha_0 = -\theta e$ 'tiborga olib perseptronni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\Psi = [\sum_{i=1}^m \alpha_i \varphi_i > 0]$$

Korinib turibdiki, ushbu ifoda chegaraviy qiymatli chiziqlimas almashtirgichli bitta neyron bilan hisoblanadi. Neyronlarning shunday bir nechta qatlamlari tizmasi (kaskad) *ko'pqatlamli perseptron* deb ataladi. Endi perseptronning ba'zi bir xossalarni qaraymiz. Perseptronning batafsil tavsifi va ifodasi [65] ishda keltirilgan.


Rozenblatt perseptroni [7, 16, 30] tarixiy birinchi o'rgatuvchi NT hisoblanadi. Perseptronning bir nechta turlari mavjud (7.20 va 7.21-rasmlar).



7.20. Birqatlamli perseptron.

Klassikli perseptronni, ya'ni chegaraviy qiymatli neyronlarga va kirish signallari qiymati no'l yoki birga teng bo'lган to'rni qaraymiz.


Barcha sinaptikli (kirish) vaznlar butun sonlardan iborat bo'lishi mumkin. Ko'pqatlamli perseptron o'zining imkoniyatlari bo'yicha ikkiqatlamliga ekvivalent bo'ladi. Barcha neyronlar sinapsiga ega bo'lib, ushbu sinapslarga doimo birlik signal uzatiladi. Ushbu sinapsning vaznnini bundan keyin chegaraviy qiymat (porog) deb ataymiz. Birinchi qatlamning har bir neyroni barcha bog'lanishli aloqalarda kirish signallaridan chiquvchi va minus ishora bilan olingan hamda ikkiga kamaytirilgan chegaraviy qiymati kirish signallarining summatorlar soniga teng bo'lган bitta sinaptikli vaznga ega bo'ladi.



7.21-rasm. Ikkiqatlamli perseptron.

Shunday qilib, obyektlarni anglab olishga o'rgatmaydigan birinchi qatlamni o'z ichiga olgan ikkiqatlamli perseptronlar bilan chegaralanish mumkin. Ta'kidlaymizki, to'la birinchi qatlamni qurish uchun 2^n ta neyronlardan foydalanish talab qilinar edi, bu yerda n - perseptronning kirish signallari to'plami.

7.22-rasmida kirish signallarining uch o'lchovli vektori uchun to'liq perseptronning sxemasi keltirilgan.



7.22-rasm. Uchta kirish signalli to'liq Rozenblatt perseptroni.

Albatta n ning yetarli katta qiyamatlarida bunday to'rlarni qurish mumkin bolmaganligi uchun bu holda birinchi qatlamning ba'zi neyronlar to'plamostilaridan foydalaniladi. Bunday to'plamostilari sonini faqat masalani to'liq yechib bo'lgandan keyin aniqlash mumkin. Odatda foydalaniladigan to'plamostilari tadqiqotchi tomonidan qandaydir *mazmunli mulohazalar asosida* yoki *tavakkal ravishda* tanlanadi.

Perseptronni o'rgatishning klassikli algoritmi Xebba qoidasining xususiy holi hisoblanadi [7]. Perseptronni birinchi qatlamining vaznlar aloqasi obyektlarni anglab olishda o'rgatuvchi hisoblanmaganligi uchun ikkinchi qatlam neyronining vaznini bundan keyin vaznlar deb ataymiz. Ta'kidlaymizki, agar perseptronga birinchi sinfning obyekti kelib tushsa, u holda perseptron chiqishda nol(0)li signal, agarda obyekt ikkinchi sinfdan kelib tushsa-bir(1)li signal berishi kerak.

7.4. Assotsiativ xotirali neyronli to'rlar

Assotsiativ xotirali NTlarni tuzishdan oldin *assotsiativli xotira* qanday tuzilma va u qanday masalalarni yechishda qo'llaniladi kabi savollarni qarab chiqamiz.

Insonda assotsiatsiya paydo bo'lishi uchun u obyekt haqidagi to'liq bo'limgan ba'zi axborotlarni olishi va ushbu axborotlar asosida obyektni batafsil tavsiflashi mumkin bo'lsa. Masalan, unchalik tanish bo'limgan odam haqida ba'zi bir axborotlarga asoslanib uni anglab olish mumkin. Bu holda odatdag'i ko'nikma bo'yicha inson xotirasida assotsiatsiya paydo bo'ladi. Ta'kidlash joizki, obyektni aniq anglab olish uchun to'liq bo'limgan axborotlar yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun obyektlarni to'liq anglab olishga erishish uchun ular haqidagi qo'shimcha axborotlardan ham foydalanish talab etiladi.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, *assotsiativli xotira*-bu noto'liq va qisman noishonchli axborotlar asosida "oldindan tanish bo'lgan" obyekt haqida yetarli to'liq tafsifni tiklashga imkoniyat yaratadi. "Oldindan tanish bo'lgan" so'zi juda muhim hisoblanadi, chunki oldindan notanish bo'lgan obyektlar bilan assotsiatsiyalarni paydo qilish mumkin emas. Bu holda obyekt kimga oldindan tanish bo'lgan bo'lsa, o'sha odamda assotsiatsiya paydo bo'ladi.

Endi masalalarni *assotsiativli xotira yordamida yechishni formallashtirish masalasini* qaraymiz [7, 30]:

1. Tanish bo'lgan obyektlar bilan ular haqidagi boshlang'ich axborotlarning o'zaro munosabatlarini aniqlash va obyektlarni aniq

tavsiflash uchun qo'shimcha axborotlar bilan to'ldirish.

2. Boshlang'ich axborotlardan noishonchli axborotlarni olib tashlash va qolganlari asosida birinchi masalani yechish.

Bu yerda obyektning *aniq tavsifi* deganda assotsiativli xotira uchun yetarli bo'lган barcha axborotlar tushuniladi. Ikkinci masala qadambaqadam yechilmaydi, balki olingan axborotlarning ma'lum bo'lган etalonlar va noishonchli axborotlarsiz saralanib olingan axborotlar bilan o'zaro munosabatini aniqlash amalga oshiriladi.

Misol. *Masalaning formal qo'yilishi.* n -o'lchovli $\{x^i\}$ vektorda m ta etalonlar to'plami berilgan bo'lsin. Shunday to'r qurish kerakki, ushbu to'rning kirishida ixtiyoriy obyektni tasvirlaydigan x vektor to'rning chiqishida "Eng o'xhash" etalonni aniqlasin.

Quyida obyekt deganda ± 1 koordinatali n -o'lchovli vektorlar va etalon misolida \mathcal{X} ga "Hammadan ko'ra" tushunchasiga x ga yaqin x^i vektor tushuniladi.

Osongina payqash mumkinki, bu talab x va x^i vektorlarning maksimal skalyar ko'paytmasiga ekvivalent

$$\|x - x^i\|^2 = \|x\|^2 + \|x^i\|^2 - 2(x, x^i).$$

O'ng qismning birinchi ikki qo'shiluvchisi ixtiyoriy x va x^i obyektlar uchun mos tushadi, negaki barcha obyektlarning vektor uzunliklari \sqrt{n} ga teng. Shunday qilib, yaqin obyektlarni izlash masalasi shunday obyektlarni izlashga olib kelinadiki, ularning skalyar ko'paytmasi maksimal bo'lishi kerak bo'ladi.

7.4.1. Xopfild neyronli to'rlari

Xopfild NTlari taniqli assotsiativ xotirali to'rlar hisoblanadi [7]. NTlarning turli shakllari orasida shunday to'rlar uchraydiki, ular yordamida obyektlarni sinflashda o'qituvchili o'rgatish va o'qituvchisiz o'rgatish prinsiplari to'g'ri kelmaydi. Bunday to'rlarda vaznli koeffitsiyentlar qayta ishlanadigan ma'lumotlar haqidagi axborotlar asosida to'rlarning ishga tushishidan oldin, faqat bir marta hisoblanadi va to'rlar yordamida barcha o'rgatishlar xuddi ushbu hisobga keltiriladi.

Xopfild tarmog'i asosida quyidagi g'oya yotadi - H "Energiya"ni gradiyentli minimallashtirish uchun differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishida (Lyapunov funksiyasi) yozib olamiz.

Bunday sistemaning teng ta'sir etuvchi nuqtalari energiyaning

minimum nuqtalarida topiladi. Energiya funksiyasini har bir etalonning minimum nuqtasi va minimum nuqtasida obyektlarning barcha koordinatalari ± 1 qiymat orasida bo'lishi kerak degan mulohazalardan kelib chiqib quramiz.

$$H = -\frac{1}{2} \sum_{i=1}^m (x, x^i)^2 + \alpha \sum_{j=1}^n (x_j^2 - 1)^2 \quad \text{funksiyasi bu talablarni qat'iy}$$

qonatlantirmaydi, lekin taxmin qilish mumkinki, bunda birinchi qo'shiluvchi etalonlarga yaqinlashishini ta'minlasa (fiksirlangan uzunlikdagi \mathcal{X} vektor uchun $(x, x^i)^2$ skalyar ko'paytmaning kvadrati $x = x^i$ bo'lganda maksimumga erishadi), ikkinchi $\sum_{j=1}^n (x_j^2 - 1)^2$ qo'shiluvchi esa barcha koordinata nuqtalarining absolyut qiymatlarini 1 ga yaqinlashtiradi.

α qiymat bu ikki talab o'rtasidagi o'zaro nisbatni xarakterlaydi va vaqt o'tishi bilan u o'zgarishi mumkin.

Energiya uchun mavjud ifodadan foydalanib, Xopfld tarmog'i harakatini tavsiflovchi tenglamalar sistemasini

$$\dot{x}_j = -\frac{\partial H}{\partial x_j} = \sum_{i=1}^m (x, x^i)^2 x_j^i - 4\alpha(x_j^2 - 1)x_j \quad (7.1)$$


yozish mumkin.

(7.1) ko'rinishdagi Xopfld to'ri *uzluksiz vaqtli to'r* hisoblanadi. Bu, balkim, ayrim analogli amalga oshirish variantlari uchun qulay bo'lishi mumkin, lekin raqamli kompyuterlarda qadamba-qadam diskret vaqtda ishlaydigan to'rlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xopfld NTlarining struktursi 7.23-rasmda keltirilgan [7]. *Xopfld NT* - bu alohida turdag'i rekurrent NT. Bunday to'rda har bir neyronning kirishiga, X kirish vektorning tegishli komponentasidan tashqari, birinchi qatlamning taqsimlovchi neyronlari orqali boshqa neyronlarning chiqish signallari ham keladi. U bitta neyronlar qatlamidan iborat bo'lib, neyronlar soni bir vaqtida to'rning kirishi va chiqishi hisoblanadi.

Barcha sinaptikli (kirish) vaznlar butun sonlardan iborat bo'lishi mumkin. Ko'pqatlamli perseptron o'zining imkoniyatlari bo'yicha ikkiqatlamliga ekvivalent bo'ladi. Barcha neyronlar sinapsiga ega bo'lib, ushbu sinapslarga doimo birlik signal uzatiladi. Ushbu sinapsning vaznini bundan keyin chegaraviy qiymat (porog) deb ataymiz. Birinchi qatlamning har bir neyroni barcha bog'lanishli aloqalarda kirish signallaridan chiquvchi va minus ishora bilan olingan hamda ikkiga kamaytirilgan chegaraviy

qiymati kirish signallarining summatorlar soniga teng bo'lgan bitta sinaptikli vaznga ega bo'ladi.



7.23-rasm. Xopfield to'rning strukturali sxemasi

To'rni nomlash jarayonida to'rning vaznli koeffitsiyentlari quyidagicha o'rnatiladi [65]:

$$w_{ij} = \begin{cases} \sum_{k=0}^{m-1} x_i^k x_j^k, & i \neq j \\ 0, & i = j \end{cases} \quad (7.2)$$

Bu yerda i va j - indekslar, mos ravishda, oldsinaptikli va ortsinaptikli neyronlar; x_i^k , x_j^k - k-etalon vektorining i -va j -elementlarri.

Xopfield NTlarining ishlash algoritmi quyidagicha (p-iteratsiyalar tartib raqami) [7]:

1. To'rning kirishiga noma'lum signal beriladi. Ushbu signalni haqiqiy kiritish aksonlar qiymatlarini o'rnatish yordamida amalga oshiriladi:

$$y_i(0) = x_i, \quad i = 0 \dots n-1, \quad (7.3)$$

Qavsdagi nol to'rning ishlash sikllaridagi nolli iteratsiyani bildiradi.

2. Neyronlarning yangi holati

$$s_j(p+1) = \sum_{i=0}^{n-1} w_{ij} y_i(p), \quad j=0 \dots n-1 \quad (7.4)$$

va aksonlarning yangi qiymati

$$y_j(p+1) = f[s_j(p+1)] \quad (7.5)$$

hisoblanadi. Bu yerda f -sakrashli ko'rnishdagi aktivlashgan funksiya bo'lib, u 7.24, b-rasmida keltirilgan.

3. Oxirgi iteratsiyadan keyin aksonlarning chiqish qiymatlarining o'zgarganligi tekshiriladi. Agar o'zgargan bo'lsa, u holda 2-qadamga, aks holda tugatish (agar chiqishlar bir maromda bo'lsa). Bu holda chiquvchi signal o'zida kirish signallari bilan eng yaxshi mos tushadigan etalon obyektni aks ettiradi.

Ba'zi hollarda Xopfld NTlari obyektlarni *to'g'ri anglab ololmaydi* va chiqishda *muhim bo'lman* obyektni beradi. Bu barcha to'rlarning imkoniyati chegaralanganligi muammosi bilan bog'liq. *Xopfld NTlarida* xotirada eslashi mumkin bo'lgan obyektlarning umumiy soni m taxminan $0.15 \cdot n$ ga teng bo'lgan qiymatdan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, agarda ikkita A va B obyektlar bir-biriga juda o'xhash bo'lgan holda kirishda A obyekt berlgan bo'lsa, u holda chiqishda B obyektning paydo bo'lishiga olib keladi va aksincha.

Xopfld to'rini *diskret vaqt oralig'i da* quramiz. To'r kiruvchi x vektorni shunday o'zgartirishni amalga oshirishi kerakki, x^i chiquvchi vektorning hisoblangan to'g'ri javobi etalonga yaqin bo'lmos'i kerak.

To'rning o'zgarishini

$$x^i = \text{Sign} \left(\sum_{i=1}^m w_i x^i \right) \quad (7.6)$$

ko'rnishda izlaymiz. Bu yerda, w_i - i - etalonning vazni bo'lib, uning x vektorga yaqinligini xarakterlaydi, Sign - chiziqlimas operator, y_i koordinatali vektorni $\text{sign}(y_i)$ koordinatali vektorga o'zgartiradi.

To'rlarning harakat qilishi. To'r quyidagi tartibda ishlaydi:

1. To'r kirishiga x obyekt beriladi, chiqishida esa x^i obyekt hosil qilinadi.

2. Agar $x^i \neq x$ bo'lsa, u holda $x = x^i$ bo'ladi va 1- qadamga qaytamiz.

3. Olingan x^i vektor natija hisoblanadi.

Shunday qilib, hamma vaqt natija to'rni o'zgartirishdagi (7.6) qo'zg'almas nuqta hisoblanadi va xuddi shu shart (to'rning obyektni qayta ishlashdagi o'zgarmasligi) to'xtash sharti bo'lib hisoblanadi.

Aytaylik i' - x obyektga yaqin joylashgan etalon raqami bo'lsin. Agar x boshlang'ich obyektga proporsional yaqin etalonning vazni tanlansa, u holda x^i obyekt $x^{i'}$ etalonga x ga qaraganda yaqin bo'ladi va bir nechta iteratsiyalardan so'ng x^i obyekt $x^{i'}$ etalon bilan ustma-ust tushadi.

(7.6) ko'rinishdagi to'rning oddiy ko'rinishi Xopfild to'rining *diskret varianti* hisoblanib, unda taqdim etilayotgan obyekt vazni etalonlarning skalyar ko'paytmasiga teng.


$$x' = \text{Sign} \left(\sum_{i=1}^m (x, x^i) x^i \right) \quad (7.7)$$

Xopfild to'rlari (7.7) $0.15 n$ tartibli sust korrelirlangan obyektlarni eslab qolish va aniq tasvirlash xususiyatiga ega. Bu mulohaza ikkita cheklanishga ega:

- 1) Etalonlar soni $0.15 n$ dan oshmaydi;
- 2) Etalonlar sust korrelirlangan.

Xususan, ikkinchi cheklanish muhim ahamiyatga ega, negaki to'r ishlov beradigan obyektlar ko'pincha juda o'xhash bo'ladi.

Misol tariqasida lotin alfavitining harflarini keltirish mumkin. Xopfild to'rini (7.7) formula yordamida o'rganganda uchta birinchi harflarni (7.25, a, b, v - rasmlarga qarang) anglashda, to'rning kirishiga javob sifatida ixtiyoriy etalonlar taqdim etilganda, 7.24, g-rasmida keltirilgan harflar olinadi (barcha harflar 10×10 nuqtali ramkalarda keltirilgan). Bunday keltirilgan misollar bilan assotsiativ xotirada to'rning ishlash sifati haqidagi birinchi savol quyidagicha: To'r bu etalon harflarning o'ziga to'g'ri ishlov bera oladimi (ya'ni ularni buzmaydimi)?



7.24-rasm. Harf tasvirlarini anglab olish:

a, b, v - etalonlar, g - ixtiyoriy etalonni ko'rsatishda to'r javobi.

Obyektlarning korrelirlangan o'lchovi deb - $C_{ij} = \frac{|(x^i, x^j)|}{n}$

miqdorni ataymiz.

Xopfild to'ri ishini obyektlarning korrelirlangan darajasiga bog'liqligini quyidagi misol bilan osongina namoyish etishimiz mumkin.

Shunday uchta etalon x^1, x^2, x^3 :

$$\begin{aligned}
& \left(x^1, x^2 \right) + \left(x^1, x^3 \right) > n, \\
& \left(x^1, x^2 \right) + \left(x^2, x^3 \right) > n, \\
& \left(x^1, x^3 \right) + \left(x^2, x^3 \right) > n, \\
& \left(x^i, x^j \right) > 0 (\forall i, j)
\end{aligned} \tag{7.8}$$

berilgan bo'lsin.

Ixtiyoriy koordinatalar uchun to'rtta imkoniyatdan bittasi mavjud:

- 1) $x_l^i = x_l^j = 1 (\forall i, j)$,
- 2) $x_l^i = -x_l^j = x_l^k = 1$,
- 3) $x_l^i = -x_l^j = x_l^k = -1$,
- 4) $x_l^i = x_l^j = -1 (\forall i, j)$.

Birinchi holatda kuch formulasi (7.7) q -chi etalonning to'rini taqdim etganda, (7.8) shart bo'yicha barcha skalyar ko'paytmalar musbat bo'lganligi uchun

$$x'_l = \text{Sign} \left(\sum_{i=1}^3 (x^q, x^i) \times 1 \right) = 1$$

bo'ladi. Shunga o'xshash to'rtinchi holatda $x'_j = -1$ ni topamiz.

Ikkinchi holatda alohida uchta variantni:

$$\begin{aligned}
x = x^i, x'_j &= \text{Sign} \left(- \left(x^i, x^i \right) + \left(x^i, x^j \right) + \left(x^i, x^k \right) \right) = 1 \\
x = x^j, x'_l &= \text{Sign} \left(- \left(x^j, x^i \right) + \left(x^j, x^j \right) + \left(x^j, x^k \right) \right) = 1 \\
x = x^k, x'_l &= \text{Sign} \left(- \left(x^k, x^i \right) + \left(x^k, x^j \right) + \left(x^k, x^k \right) \right) = 1
\end{aligned}$$

qarab chiqamiz, negaki ixtiyoriy obyektning skalyar kvadrati n ga teng, (7.8) shart bo'yicha ikkita ixtiyoriy etalonlarning skalyar ko'paytmasi n dan katta. Shunday qilib, taqdim etilgan etalonga bog'liq bo'limgan holda $x'_j = 1$ ga ega bo'lamiz. Shunga o'xshash uchinchi holatda $x'_j = -1$ ga ega bo'lamiz.

Oxirgi xulosa quyidagicha: agar etalonlar (7.8) shartni qanoatlantirsa, u holda ixtiyoriy etalon taqdim etilganda chiqishda doimo bitta obyekt ko'rindi. Bu obyekt etalon yoki "Химера" (русчадан, хом-хайол), ya'ni ko'pincha turli etalonlarning anglanuvchi qismlaridan tuzilgan bo'lishi mumkin ("Ximera"ga misol sifatida 7.24, g-rasmda keltirilgan obyekt xizmat qilishi mumkin). Yuqorida harflar misolida qaralganlar bunday holatni batafsil ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar “Sust korrelirlangan obyektlar” tushunchasini detallashtiruvchi talablarni ifodalash imkoniyatini beradi.

Barcha etalonlarni to‘g‘ri anglash uchun $\sum_{\substack{i=1 \\ i \neq j}}^m C_{ij} < 1, \forall j$ tengsizlikning

bajarilishi yetarlidir. Ushbu shartni oddiyroq ko‘rinishda $C_{ij} < \frac{1}{m}, \forall i \neq j$ keltirish mumkin.

Bu shartlardan ko‘rinadiki, etalonlar qancha ko‘p berilgan bo‘lsa, ularning korrelirlangan darajasiga shuncha qat’iy talablar qo‘yiladi, hamda ularning ortogonallari yaqin bo‘lishi kerak.

(7.7) almashtirishni ikkita almashtirishning superpozisiyasi

$$P_x = \sum_{i=1}^m (x, x^i) x^i, \quad x' = \text{Sign}(Px) \quad (7.9)$$

sifatida qaraymiz.

$L(\{x^i\}) = \left\{ x \mid x = \sum_{i=1}^m \alpha_i x^i; \alpha_i \in R \right\}$ orqali etalonlar ko‘phadining chiziqli fazosini belgilaymiz. U holda (7.9) dagi birinchi almashtirish vektorlarni R^n dan $L(\{x^i\})$ ga o‘tkazadi. (7.9) dagi ikkinchi almashtirish P_x birinchi almashtirishning natijasida obyektlarni giperkub uchlaridan biriga o‘tkazadi. Osongina ko‘rsatish mumkinki, (7.9) dagi ikkinchi almashtirish obyektlarni P_x nuqtaga yaqinroq joylashgan giperkubning uchiga o‘tkazadi.

Haqiqatdan ham, a va b giperkubning turli ikkita uchi bo‘lsin, bunda $a - P_x$ ga yaqin, $b = x'$ bo‘lsin. a va b turlicha bo‘lganligi sababli, indekslar to‘plami mavjud, va ularda a va b vektorlarning koordinatalari turlicha. Bu to‘plamni $I = \{i : a_i = -b_i\}$ orqali belgilaymiz. (7.9) dagi ikkinchi almashtirish va $b = x'$ dan kelib chiqadiki, P_x vektor koordinatalari belgilari b vektor koordinatalari belgilari bilan doimo mos tushadi.

$i \in I$ bo‘lganda a va P_x ning i - vektorlar koordinatalari belgilarining turlicha ekanligini hisobga olgan holda

$$|a_i - (P_x)_i| = |a_i| + |(P_x)_i| = 1 + |(P_x)_i|$$

hosil qilish mumkin.

$i \in I$ bo‘lganda b va P_x ning i - vektorlar koordinatalari belgilarining mos tushishini hisobga olgan holda

$$|b_i - (P_x)_i| = |b_i| + |(P_x)_i| = 1 + |(P_x)_i|$$

hosil qilish mumkin.

a va b uchlardan P_x nuqtagacha bo'lgan masofani

$$\begin{aligned}\|b - P_x\|^2 &= \sum_{i=1}^n (b_i - (P_x)_i)^2 = \sum_{i \in I} (b_i - (P_x)_i)^2 + \sum_{i \notin I} (b_i - (P_x)_i)^2 < \\ &< \sum_{i \in I} (1 + |(P_x)_i|)^2 + \sum_{i \notin I} (a_i - (P_x)_i)^2 = \sum_{i=1}^n (a_i - (P_x)_i)^2 = \|a - P_x\|^2\end{aligned}$$

solishtiramiz.

Olingan $\|b - P_x\| < \|a - P_x\|$ tengsizlik a ning P_x ga yaqin ekanligiga qarama-qarshi ekanligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, isbotlandiki, (7.9) dagi ikkinchi almashtirish P_x nuqtani yaqinroq joylashgan giperkubning uchiga o'tkazadi.

Diskret vaqtida ishlaydigan Xopfilt to'rining klassik turi quyidagicha quriladi. $\{e^i\}, i=(1, \dots, m)$ - etalon obyektlarning tanlovi bo'lsin. Har bir obyekt, etalonlarni hisobga olgan holda, n -o'lchovli vektor koordinatalari nolga yoki birga teng bo'lgan ko'rinishga ega. x obyektni to'rning kirishiga taqdim etganda, to'r x ga o'xshashroq obyektni hisoblaydi. Obyektlarning yaqinlik o'lchovi sifatida mos vektorlarning skalyar ko'paytmasini tanlaymiz. Hisoblashlar $x' = sign\left(\sum_{i=1}^m (x, e^i) e^i\right)$ orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayon keyingi iteratsiyadan so'ng $x = x'$ bo'lgancha davom ettiriladi.

Oxirgi iteratsiya natijasida olingan x vektor natija hisoblanadi. To'r ishining formulasini

$$x'_j = sign\left(\sum_{i=1}^m (x, e^i) e_j^i\right) = sign\left(\sum_{i=1}^m \sum_{k=1}^n x_k e_k^i e_j^i\right) = sign\left(\sum_{k=1}^n x_k \sum_{i=1}^m e_k^i e_j^i\right) = sign\left(\sum_{k=1}^n a_{jk} x_k\right)$$


yoki

$$x' = sign(Ax)$$

ko'rinishda hosil qilamiz. Bu yerda

$$a_{jk} = a_{kj} = \sum_{i=1}^m e_j^i e_k^i.$$

7.25-rasmda to'rt o'lchovli obyektlarni anglovchi Xopfilt to'ri keltirilgan.



7.25-rasm. Xopfield to'ri. Xopfield to'rda neyronlarning to'g'ri va teskari faollashuvi.

Odatda Xopfield to'ri sinaptik kartalar bilan shakllantiriluvchi to'rlarga talluqli bo'lishadi. Xopfield to'rini qurish uchun "Shaffof" bo'sag'aviy elementlardan foydalanamiz. Quyida Xopfield to'rini o'rganuvchi algoritm keltirilgan.


1. Barcha nolga teng bo'lган sinaptik mezonlarni qo'yamiz.
2. To'rga birinchi e^1 etalonni taqdim etamiz va ishlash jarayonini bir takt oldinga o'tkazamiz (7.25, b-rasmga qarang).
3. Har bir neyronning chiqishiga e^1 vektoring mos keluvchi koordinatalarini keltiramiz (7.25,v-rasmga qarang). Tuzatish: j - sinapsdagi i - neyronning hisobi to'g'ridan-to'g'ri ishlovchi signalni teskari ishlovchi signal ko'paytmasiga teng. Sababi, teskari ishlashda bo'sag'aviy element shaffof, summator esa to'rlanish nuqtasiga o'tadi, va tuzatish $e_i^1 e_j^1$ ga teng.
4. Keyin o'qitish qadaming birga teng bo'lган parametrlarini o'qitish bilan davom ettiramiz. Natijada $a_{ij} = e_i^1 e_j^1$ hosil qilamiz.

Bu algoritmni takrorlab, ikkinchi qadamdan boshlab, barcha etalonlar uchun $a_{ij} = \sum_{i=1}^m e_i^k e_j^k$ hosil qilamiz. Bu bo'lim boshida keltirilgan Xopfield to'rining sinaptik haritasini shakllantirish formulasi bilan to'lig'incha mos tushadi.

7.4.2. Xemming neyronli to'rlari

Agar NT yordamida etalonni *oshkora ko'rinishda emas*, balki uning *tartib raqaminigina olish yetarli* deb hisoblansa, u holda assotsiativ xotirali Xemming NTidan foydalanish qulay hisoblanadi [7, 30]. Bunday holda Xemming to'riga Xopfild to'riga nisbatan xotira va hisoblashlar hajmi kam sarflanadi. Bu Xemming NTining strukturasidan ham ochiq ko'rindi (7.26-rasm).

To'r ikkita qatlardan iborat. Birinchi va ikkinchi qatlarning har biri m ta neyronlardan iborat, bu yerda m -etalonlar soni. *Birinchi qatlam neyronlari* to'rning kirishlar bilan bo'g'langan n ta to'rlardan (soxta nolli qatlamni hosil qiluvchi) iborat. *Ikkinci qatlam neyronlari* bir-biri bilan *ingibratorli* (manfiyli teskari) sinaptikli aloqalar bilan bo'g'langan. Har bir neyron uchun musbat teskari aloqali bitta sinaps uning aksonlari bilan birlashtirilgan.



7.26-rasm. Xemming NTning strukturali sxemasi.

Xemming NTlarining goyasi testlanayotgan obyektdan boshqa barcha etalon obyektlargacha bo'lган Xemming masofasini topishdan iborat. Xemming masofasi deb ikkita binar qiymat qabul qiluvchi vektorlarning bitlardagi farqlar soniga aytildi. To'r kirishdagi noma'lum obyektgacha minimal masofaga ega bo'lган etalon obyektni tanlashi kerak va natijada to'rda ushbu etalon obyektga mos keluvchi bitta chiqish faollashadi.

Birinchi qatlamning vaznli koeffitsiyentlarining nomlanish (initsializatsiy) jarayoniga va chegaraviy qiymatli (porogli) aktivlashuv funksiyasiga quyidagi qiymatlar beriladi:

$$w_{ik} = \frac{x_i^k}{2}, i=0 \dots n-1, k=0 \dots m-1, \quad (7.10)$$

$$T_k = n/2, k = 0 \dots m-1 \quad (7.11)$$

Bu yerda x_i^k - k-etalon obyektning i-elementi.

Ikkinci qatlamda to'rlarni tormozlovchi (to'xtatuvchi) vaznli koeffitsiyentlarni qandaydir $0 < \varepsilon < 1/m$ qiymarlarga teng qilib olinadi. Neyronning sinapsi o'zi bilan bo'g'langan aksonlari bilan $+1$ vaznga ega bo'ladi.

Xemming to'rlarining ishslash algoritmi quyidagicha:

1. To'rning kirishlariga noma'lum $X = \{x_i: i=0 \dots n-1\}$ vektor berildi. Ushbu vektordan foydalanib birinchi qatlamning neyronlari holati hisoblanadi (yuqoridagi qavslı index qatlam tartib raqamini bildiradi):

$$y_j^{(1)} = s_j^{(1)} = \sum_{i=0}^{n-1} w_{ij} x_i + T_j, j=0 \dots m-1 \quad (7.12)$$

Bundan keyin olingan qiymatlar bilan ikkinchi qatlam aksonlari qiymatlari nomlanadi:

$$y_j^{(2)} = y_j^{(1)}, j = 0 \dots m-1 \quad (7.13)$$

2. Ikkinci qatlam neyronlarining yangi holati

$$s_j^{(2)}(p+1) = y_j(p) - \varepsilon \sum_{k=0}^{m-1} y_k^{(2)}(p), k \neq j, j = 0 \dots m-1 \quad (7.14)$$

va ularning aksonlarining qiymatlari

$$y_j^{(2)}(p+1) = f[s_j^{(2)}(p+1)], j = 0 \dots m-1 \quad (7.15)$$

hisoblanadi.


3. Oxirgi iteratsiyadan keyin ikkinchi qatlan neyronlarining chiqishi qiymatlarining o'zgarganligi tekshiriladi. Agar o'zgargan bo'lsa, u holda 2-qadamga, aks holda tugatish.

Ta'kidlash joizki, Xemming NTlari bilan obyektlarni anglab olish boshqa to'rlarga nisbatan ancha oddiy hisoblanadi.

7.4.3. Ikki yo'nalishli assotsiativli xotira

Ikki yo'nalishli assotsiativli xotira (IAX) Xopfild to'rlarining mantiqiy davomi bo'lib, ularga ikkinchi qatlam qoshiladi. IAX strukturasi

7.27 -rasmida keltirilgan [7,16,30].



7.27-rasm.IAX ning strukturali sxemasi.

To'r bir-biri bilan assotsiatsiyalashgan juft obyektlarni eslash qobiliyatiga ega. Aytaylik juft obyektlar $X^k = \{x_i^k : i=0 \dots n-1\}$ va $Y^k = \{y_j^k : j=0 \dots m-1\}$, $k=0 \dots r-1$ (bu yerda r -juft obyektlar soni) vektorlar ko'rinishida yozilgan bo'lzin. To'rning birinchi qatlaming kirishiga qandaydir $P = \{p_i : i=0 \dots n-1\}$ vektorning uzatilishi ikkinchi qatlamning kirishida qandaydir boshqa $Q = \{q_j : j=0 \dots m-1\}$ vektorni tashkil qilishga chaqiradi va ushbu vektor keyin yana birinchi qatlamning kirishiga tushadi. Vektorlarning har bir shunday siklida birinchi va ikkinchi qatlamlarning chiqishlarida etalon obyektlarning juftligiga yaqinlashadi, ya'ni ulardan eng boshida to'rning kirishiga uzatilgan birinchisi X -obyekt P ga juda o'xshash bo'ladi, ikkinchisi - Y - esa u bilan assotsiyalhgan bo'ladi. Vektorlar o'rtasidagi assotsiyalashuv birinchi qatlamning vaznli $W^{(1)}$ matritsasida kodlashtiriladi. Ikkinch qatlamning vaznli $W^{(2)}$ matritsasi birinchi qatlamning vaznli $W^{(1)}$ matritsasining transponirlangan $(W^{(1)})^T$ matritsasiga teng. IAX to'rini obyektlarni anglab olishga o'rgatish jarayoni. xuddi *Xopfild to'rlari* kabi, W va W^T matritsalarning elementlari qiymatlarini oldindan quyidagi formula yordamida hisoblashdan iborat:

$$w_{ij} = \sum_k x_i y_j, \quad i=0 \dots n-1, \quad j=0 \dots m-1 \quad (7.16)$$

Bu formula xususiy hol uchun, ya'ni obyektlar vektor ko'rinishda yozilganda

$$\mathbf{W} = \sum_k \mathbf{X}^T \mathbf{Y} \quad (7.17)$$

matritsali tenglamaning kengaytirilgan ko'rinishdagi yozuvi hisonlanadi. Bunda mos $[n*1]$ va $[1*m]$ o'chovli ikkita matritsaning ko'paytmasi (7.16) ko'rinishga keladi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosaga kelamiz. *Xopfilda, Xemming va IAX* to'rlari noto'liq va noto'g'ri (buzilgan) axborotlar bo'yicha obyektlarni tiklash masalasini oddiy va samarali yechishga imkoniyat yaratadi. Ushbu to'rlar hajmining unchalik katta emasligi (eslab qoladigan obyektlar soni) shundan iboratki, ular nafaqat obyektlarni eslab qoladi, balkim ularni umumlashtiradi ham, masalan, Xemming to'rlari yordamida maksimal o'zhashlik kriteriyasi asosida obyektlarni sinflashni ham amalga oshiradi [8]. Shuning bilan birgalikda leltirilgan NTlar uchun daturiy va apparatik modellarni qurish ularning ko'plab sohalarda qo'llanilishiga imkoniyat yaratadi.

7.5. O'qituvchisiz o'rgatuvchi neyronli to'rlar

Yuqorida keltirilgan to'rlar o'qituvchili o'rgatuvchi to'rlarga kiradi. Ularni muvaffaqiyatlil qo'llash uchun exspertning ishtiroki zarur.

O'qituvchisiz o'rgatuvchi to'rlarda o'rgatish jarayonida to'rlarning vaznlari to'g'rilanib (uzatilib) boriladi. Bunda to'rlarni to'g'rilib borish neyronlardagi mavjud vaznli koeffitsiyentlar asosida olib boriladi. Ushbu prinsip asosida ishslashdigan Xebba NTini keltiramiz.

7.5.1. Xebba to'ri bo'yicha o'rgatishning signalli usuli

Bu usul bo'yicha o'rgatishda vaznlarning o'zgarishi quyidagi qoida bo'yicha aniqlanadi [7, 30]:

$$w_{ij}(t) = w_{ij}(t-1) + \alpha \cdot y_i^{(n-1)} \cdot y_j^{(n)}, \quad (7.18)$$

bu yerda $y_i^{(n-1)}$ -(n-1)-qatlamning i-neyronining chiquvchi qiymati; $y_j^{(n)}$ -n-qatlamning j-neyronining chiquvchi qiymati; $w_{ij}(t)$ va $w_{ij}(t-1)$ - sinapsning vaznli koeffitsiyentlari bo'lib, ular mos ravishda t va (t-1)-iteratsiyalarda ushbu neyronlarni birlashtiradi; α - o'rgatish tezligining koeffitsiyenti. Bu yerda va bundan keyin n sifatida to'rning ixtiyoriy qatlami tushuniladi.

Xebba to'ri bo'yicha o'rgatishning *differensial usuli* ham mavjud.

$$w_{ij}(t) = w_{ij}(t-1) + \alpha \cdot [y_i^{(n-1)}(t) - y_i^{(n-1)}(t-1)] \cdot [y_j^{(n)}(t) - y_j^{(n)}(t-1)] \quad (7.19)$$

Bu yerda $y_i^{(n-1)}(t)$ va $y_i^{(n-1)}(t-1)$ - (n-1)-qatlamni i -neyronining t и $(t-1)$ iteratsiyalardagi mos chiqish qiymatlari; $y_j^{(n)}(t)$ и $y_j^{(n)}(t-1)$ -n-qatlamni i -neyronining t и $(t-1)$ iteratsiyalardagi mos chiqish qiymatlari.

Yuqorida keltirilgan formulalar asosida *Xebba to'ri bo'yicha o'rgatishning to'liq algoritmi* quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Barcha vaznli koeffitsiyentlarga katta bo'lмаган qiymatlar ta'minlanadi.

2. To'rning kirishiga kiruvchi obyekt uzatiladi va uyg'atuvchi signallar klassik to'griqatlamli prinsip bo'yicha to'rning barcha qatlamlarga tarqaladi (feedforward) [17], ya'ni to'rdagi har neyron uchun orttirilgan yig'indi hisoblanadi va unga neyronning aktivlashgan funksiyasi qo'llaniladi, natijada neyronning chiqish qiymatlari $y_i^{(n)}$, $i=0\dots M_i-1$, (M_i - i -qatlamdagi neyronlar soni; $n=0\dots N-1, N$ - to'rdagi qatlamlar soni) hosil bo'ladi..

3. (7.18) yoki (7.19) formulalar bo'yicha olingan neyronlarning chiqiash qiymatlari asosida vaznli koeffitsiyentlar o'zgartiriladi.

4. Chiqish qiymatlari berilgan aniqlikda barqarorlashmagunch 2-qadamdan sikl bajarailaveradi.

Siklning ikkinchi qadamida kiruvchi obyektlarning barchasi navbatma-navbat to'rning kirishiga taqdim qilinadi.

7.5.2. Koxonen neyronli to'rlari

Koxonen to'rlari [7, 30] dinamik yadrolar usulining xususiy holi bo'lib, sinflash masalasini *o'qituvchisiz yechadigan to'rlar* hisoblanadi. Koxonen to'rlarining fazoli variantini qaraymiz. n -o'lchovli fazoda m nuqtadan (obyektdan) iborat $\{x^p\}$ nabor berilgan bo'lsin. *Talab qilinadi*, $\{x^p\}$ nuqtalar to'plamini Evklid masofasining kvadrati bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan k ta singlarga ajratish. Buning uchun α^i ta shunday k nuqtalarni topish kerakki, ular uchun

$$D = \sum_{l=1}^k \sum_{x \in P_1} \|a^i - x\|^2 \text{ minimal bo'lsin,}$$

bu yerda $P_i = \{x: \|a^i - x\| < \|a^q - x\|, \forall q \neq 1\}$.

Bu masalani yechishning turli algoritmlari mavjud. Ulardan eng samaralirog'ini keltiramiz [7,30].

1. Ba'zi boshlang'ich a^i nuqtalar naborini beramiz.

2. $\{x^p\}$ nuqtalar to'plamini quyidagi qoida bo'yicha K ta sinflarga ajratamiz

$$P_i = \{x: ||a^i - x|| < ||a^q - x||, \forall i \neq q\}.$$

3. Hosil qilingan ajratish bo'yicha $D_i = \sum_{x \in P_1} ||a^i - x||$ minimallik sharti bo'yicha yangi a^i nuqtani hisoblaymiz.

$|P^i|$ yordamida i-sinf dagi nuqtalar sonini belgilaymiz va 3-qadamda qo'yilgan masalaninig yechimini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin

$$a^i = \frac{1}{|P_i|} \sum_{x \in P_i} x.$$

Algoritmning 2- va 3-qadamlarini a^i nuqtalar nabori o'zgarmas bo'lib qolguncha davom ettiramiz. Obyektlarni sinflashga o'rgatishning oxirida shunday n NTni hosil qilamizki, u ixtiyoriy x nuqtadan barcha qolgan a^i nuqtalargacha Evklid masofasining kvadratlarini hisoblaydi va x nuqtani k -sinfning biriga talluqli ekanligini aniqlaydi. To'rda javob sifatida minimal signalni beruvchi neyronning tartib raqami olinadi.

Endi ushbu algoritmni NTli ifodalashni qaraymiz. Birinchidan, Evklid masofasining kvadratini hisoblashni to'rlar ko'rinishida ifodalash ancha murakkab hisoblanadi (7.28, a-rasm).

Ta'kidlaymizki, kvadrat masofalarni to'liq hisoblash shart emas. Haqiqatdan ham:

$$||\alpha^i - x|| = (\alpha^i - x, \alpha^i - x) = ||\alpha^i||^2 - 2(\alpha^i, x) + ||x||^2.$$

Oxirgi formulada birinchi had x nuqtadan bo'gлиq emas, ikinchi had adaptivli summator yordamida hisoblanadi va uchinch had barcha taqqoslanadigan qiymatlar uchun bir xil. Demak, har bir sind uchun birinchi ikkita hadlarni hisoblaydigan NTni oson hosil qilish mumkin (7.28, б-rasm).

O'rgatuvchi to'rni qisqartirishning ikkinchi tomoni algoritmning ikkinchi va uchinchi qadamlarini ajratishdan voz kechish hisoblanadi.

Sinflash algoritmi.

1. 7. 28, б-rasmida keltirilgan bitta neyronlar qatlidan iborat NT kirishiga x vektor uzatiladi.


2. Minimal javobni beradigan neyron tartib raqami x vektor qarashli bo'lган sind raqami hisoblanadi.

O'rgatish algoritmi.


1. Barcha to'rlardagi tuzatishlarni nolga teng deb hisoblaymiz.

2. $\{x^p\}$ to'plamdagи har bir nuqta uchun quyidagi protseduralarni bajaramiz.


2.1. To'rda sinflash uchun nuqtani (obyektni) olamiz.



a) Evklid masofasining kvadratini hisoblovchi Koxonen neyron to'ri.



b) Koxonen to'ri i-neyronining to'g'ri ishlashi.



b) Koxonen to'ri i-neyronining teskari ishlashi.

7.28-rasm. Koxonen to'ri. Кохонен to'ri neyronlarining to'g'ri va teskari ishlashi.

2.2. Aytaylik sinflashda nuqta 1-sinfga tegishli degan javob olingan bo'lsin. U holda to'rning teskari ishlashi uchun Δ vektor uzatilgan bo'lsin va uning koordinatalari quyidagi qoida bo'yicha aniqlansin:

$$\Delta_i = \begin{cases} 0, & i \neq 1 \\ 1, & i = 1 \end{cases}$$

2.3. Ushbu nuqtalar uchun hisoblangan tuzatmalar oldingi hisoblanganlarga qo'shiladi.

3. Har bir neyron uchun quyidagi prorseduralarni amalgaga oshiramiz.

3.1. Agar oxirgi sinaps bilan hisoblangan tuzatma 0 ga teng bo'lsa, u holda NTdan olib tashlanadi.

3.2. Aytaylik, o'rgatish parameteri qiymati-oxirgi sinaps yordamida hisoblangan tuzatmaga teskari qiymatga teng bo'lsin.

3.3. Birinchi n ta sinapslarda to'plangan tuzatmalarning kvadratlar yig'indisini hisoblaymiz va (-2) ga bo'lib, oxirgi sinapsning tuzatmasiga kiritamiz.

3.4. $h_1 = 0, h_2 = -2$ parametrlar bilan o'rgatish qadamini bajaramiz.

4. Agar yana hisoblangan sinaptikli vaznlar oldingi qadamda olingan vaznlardan farq qilsa, u holda algoritmning birinch qdamiga o'tamiz.

8-§. Neyronli to'rlarning yutuqlari va kamchiliklari

NTlarning bilimlarni tasvirlash usuli sifatidagi yutuqlari:

- bilimlarni formallshtirishning zarur emasligi, ya'ni formallashtirishning obyektlarni o'rganishga almashganligi;
- noravshan bilimlarni tabiiy tasvirlash va ishslash tabiiy intellectual tizimidek, ja'ni inson miyasidek amalga oshiriladi;
- parallel ishslashga yo'naltirilganligi - mos apparatli quvvatlash natijasida real vaqtda ishslash imkoniyatini ta'minlaydi;
- ko'po'lchovli ma'lumotlar va bilimlarni ishslash imkoniyati.

NTlarning bilimlarni tasvirlash usuli sifatidagi kamchiliklari:

- NTlar ishi natijalarini verballashtirishning va nima uchun u yoki bu qarorni qabul qilganligini tushuntirishlarning qiyinligi;
- olingan natjalarni takrorlanishini va birqiyatliliginini ta'minlashning mumkin emasligi.

Hozirgi vaqtda neyronli to'rlardan foydalanib bilimlarni tasvirlashning mantiqiy va empiric usullarini bitta tizimga birlashtirish g'oyasi ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu ning natijasida quyidagi tadqiqot yo'nalishlari paydo bo'ldi:

- semantikli NTlar;
- noravshan NTlar;
- "Ikkiyarmsharli" ETlar.

Bu yo'nalishlardagi tadqiqotlarning maqsadi - bu shunday SIT yaratiga yo'naltirilgan bo'lib, ular xuddi insonga o'xshab o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'rgatishda tashqi olam parametrlari va simvolli tushunchalar hamda tushunchalar ierarxiyasi o'rtaсидagi assotsiativli aloqalarni yaratishi, assotsiativli izlash va mantiqiy xulosalashni birgalikda qo'llab masalalarni yechishi kerak.

Nazorat savollari

1. Neyron to'rlar yordamida o'rgatish masalasi bo'yicha birinchi tadqiqotlarni qaysi olimlar amalga oshirgan?
2. "Perseptron" nomli neyron modeli kim tomonidan va nechanchi yilda yaratilgan?
3. Neyron nima va neyron tarkibiga nimalar kiradi?
4. NTli hisoblashlarning afzalligi qanday holatlarda ko'rindi?
5. NT qanday murakkab masalalarni yechishda qo'llaniladi?
6. Mak-Kallop-Pitts neyronining formal modeli qanday?
7. To'g'ri bog'lanishli va to'liqsiz bog'lanishli NT sxemasini keltiring?
8. Kirishlarda va chiqarishlarda axborotni uzatish usuliga ko'ra NTlar qanday turlarga ajratiladi?
9. O'qitishni tashkil etishga ko'ra NTlar qanday turlarga bo'linadi?
10. NTlarning bilimlarni tasvirlashning usuli sifatidagi kamchiliklari va afzalliklarini izohlang?
11. To'liq bog'langan, iyerarxikli va Lateralli tormozlanishli NTlar sxemasini keltiring?
12. Bir qatlamlı va ko'p qatlamlı NTlar qanday to'rlar?
13. Xopfild NTi sxemasini keltiring?
14. Perseptron turdagı NT sxemasini keltiring?
15. NTlar yordamida yechiladigan sinflash, klasterlash, approksimatsiyalash va avtoassotsiatsiyalash masalalari mohiyatini tushuntiring?
16. NTlarni o'rgatishning supervizorli, supervizorsiz va tasdiqlash usullarini tushuntiring?
17. Xopfild tarmog'ida neyronlarning to'g'ri va teskari faollashuvi sxemasini keltiring?

Nazorat testlari

1. Inson miyasi nechta neyronlardan va ular o'rtaсидаги aloqalar nechtadan iborat?

- a) 10^{10} - 10^{11} neyronlardan va 10^{22} gacha aloqalardan iborat;
- b) 10^{15} - 10^{17} neyronlardan va 10^{24} gacha aloqalardan iborat;
- c) 10^{17} - 10^{20} neyronlardan va 10^{25} gacha aloqalardan iborat;
- e) 10^{18} - 10^{20} neyronlardan va 10^{27} gacha aloqalardan iborat.

2. Elektr faolliklikka ega bo'lgan va organizmni operativ boshqaradigan tirik organizmlar nerv hujayralarining alohida turi –bu hisoblanadi.

- a) neyron; b) sinaps; c) akson; e) soma.

3. Neyron tarkibiga nimalar kiradi?

a) dendritlar, akson, soma; b) neyropaketlar; neyrokompyuterlar, sinaps;

- c) dendritlar, akson, neyrokompyuterlar; e) triggerlar, akson, soma.

4. NTlar yordamida asosan qanday tipdagi masalalar yechiladi ?

- a) Sinflash, klasterlash, approksimatsiyalash, avtoassotsiatsiya;

b) Differensiallash, klasterlash, integrallash, avtoassotsiatsiya;

- c) Bo'laklash, ketma-ket izlash, to'plamlarni qo'shish;

e) To'plamlarni ko'paytisrish, mantiqiy amallar bajarish, sinflash.

5. To'g'ri bog'lanishli NTlarda odatda uch turdag'i qanday neyronlar qatlamlari mavjud bo'ladi ?

- a) Kiruvchi, yashirin va chiquvchi neyronli qatlamlar;

b) Topologik , o'xshashlik va chiquvchi neyronli qatlamlar;

- c) Supervizorli, vaznli va sinapsli neyronli qatlamlar;

e) Buyruq-asosli, topologik va kiruvchi neyronli qatlamlar.

6. Kirishlarda axborotni uzatish usuliga ko'ra NTlar qanday turlarga bo'linadi?

a) kirishga, chiqishga va kirish neyronlarining kuchiga qarab signallarni uzatuvchi NTlar;

- b) Topologik, o'xshashlik va chiquvchi signallarni uzatuvchi NTlar;

c) Supervizorli, vaznli va sinapsli signallarni uzatuvchi NTlar;

- e) Buyruq-asosli, topologik va kiruvchi signallarni uzatuvchi NTlar.

7. Chiqishlarda axborotni uzatish usuliga ko'ra NTlar qanday turlarga bo'linadi ?

a) chiqish neyronlariga va chiqish neyronlarining kuchiga qarab signallarni qabul qiluvchi NTlar;

- b) Topologik, o'xshashlik va chiquvchi signallarni uzatuvchi NTlar;

c) Supervizorli, vaznli va sinapsli signallarni uzatuvchi NTlar; e) Buyruq-asosli, topologik va kiruvchi signallarni uzatuvchi NTlar.

8. O'rgatishni tashkil etishga ko'ra NTlar qanday turlarga bo'linadi?

a) O'qituvchili va o'qituvchisiz o'rgatadigan NTlar;

b) Topologikli va chiquvchi signallarsiz NTlar;

c) Supervizorli va vaznli NTlar;

e) Buyruq-asosli va topologikli NTlar.

9. Har bir neyronning chiqishi barcha boshqa neyronlar kirishlari bilan, uning kirishlari esa qolgan neyronlar chiqishlari bilan bog'langan bo'lsa—bu NT deyiladi.

a) to'liq bog'langan; b) topologikli; c) supervizorli;

e) to'liq bog'lanmagan.

10. Neyron guruhlarining tegishli alohida qatlama va darajalarda joylashgan tarmog'i—bu NT bo'ladi.

a) iyerarxikli; b) topologikli; c) supervizorli; e) to'liq bog'langan.

11. Bir nechta hisoblanuvchi neyronlar qatlamlaridan iborat bo'lgan to'rlar-bu NTlar bo'ladi.

a) ko'p qatlamli; b) to'liq va topologikli; c) rekurrent;

e) lateralli va to'liq bog'langan.

12. Mak-Kallokk va U. Pits NTining formal modeli qaysi formula bilan tavsiflanadi ?

a) $S = \sum \omega_i x_i$; b) $S = \frac{1}{n} \sum \omega_i x_i$; c) $S = -\frac{1}{2} \sum \omega_i x_i$; e) $S = -\sum \omega_i x_i$.

13. Perseptron nechta qatlamli bo'lishi mumkin ?

a) ko'p qatlamli; b) faqat bir qatlamli; c) faqat ikki qatlamli;

e) faqat nol qatlamli.

14. Xopfld NTlari va hisoblanadi.

a) bir qatlamli; teskari aloqali; b) bir qatlamli; to'g'ri aloqali;

c) ko'p qatlamli; teskari aloqali; e) ko'p qatlamli; to'g'ri aloqali.

15. Xemming NTining kirishdagi obyektgacha masofaga ega bo'lgan etalon obyektni tanlashi kerak va natijada to'rda ushbu etalon obyektga mos keluvchi chiqish faollashadi.

a) noma'lum; minimal; bitta; b) noma'lum; maxsimal; bitta;

c) noma'lum; minimal; ikkita; e) noma'lum; minimal; uchta.

8-BOB. SUN'iy INTELLEKTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA YO'NALISHLARI

1-§. Sun'iy intellektning resurslar bilan bog'liq muammolari

SIning resurslar bilan bog'liq muammolari *ikki* tipdagi resurslarning etishmasligi bilan bo'g'liq. *Birinchisi*-bu kompyuterli resurslarning etishmasligi bo'lib, unda kompyuterlarning hisoblash quvvati, operativ xotira va tashqi xotira hajmlari e'triborga olinadi. *Ikkinchisi* esa-inson resurslarining etishmasligi bo'lib, unda ilmiynamo intellektual DTLarni yaratishga bilimlarning turli sohlaridan ilg'or mutaxassislarni jalb etish va uzoq muddatli tadqiqot loyihalarni tashkillashtitirish talab etiladi.



Bugungi kunda *birinchi tipli resurslar* yaxshi pog'onaga chiqqan (yoki yaqin besh-o'n yilda chiqadi) bo'lib, ular inson uchun juda qiyin bo'lган amaliy masalalarni yechmoqda. *Ikkinchisi tipli resurslar* bilan bog'liq holat esa dunyo bo'yicha yomonlashmoqda. Shuning uchun ham SI sohasidagi muaffaqiyatlar yirik universitetlar qoshidagi uncha ko'p bo'lмаган ilg'or tadqiqot institutlari va markazlarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar bilan bog'liq [6] (8.1-jadval).

2-§. Istiqbolli yo'nalishlar va texnologiyalar

SIning istiqbolli yo'nalishlarini mutaxassislar nuqtai-nazaridan qisqacha quyidagicha qaraymiz.

Neyronli to'rlar. Bu yo'nalish birinchi o'rinda barqaror turibdi. Quyidagi *yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar* davom etmoqda [1,4,5,7,12, 15, 19]:

- real vaqt (dinamik) rejimida obyektlarni anglashni o'rgatish va sinflash algoritmlarini mukamallashtirish;
- tabiiy tillarni ishslash;
- tasvirlarni, nutqlarni va signallarni anglab olish;
- foydalanuvchiga moslashuvchi intellektualli interfeys modellarini yaratish.

NTlar yordamida yechilayotgan asosiy amaliy masalalarga quyidagilar kiradi:

- moliyalashtirishni bashoratlash;
- tizimlarni tashxislash;

8.1-jadval. Sun'iy intellektning istiqbolli texnologiyalari bo'yicha asosiy ilmiy maktablar.

Neyronli to'rilar (Neural Networks)	Noravshan tizimlar (Fuzzy Systems)	Intellektual robotlar (Robotics)	Mul'tiagentli tizimlar (Multi-agent Systems)	Ma'lumotlar ni intellektual tahlili (Intelligent Data Analyzing)	Tabiiy tilni ishlash (Natural Language Processing)
<p>University of Toronto www.cs.toronto.edu/neuron/,</p> <p>Iowa State University http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/,</p> <p>Institute in Sheffield http://www.shef.ac.uk,</p> <p>Austrian Research Institute for AI www.ai.univie.ac.at,</p> <p>Bauman nomidagi MDTU http://www.chat.ru/</p>	<p>Stanford University http://cs.stanford.edu/Research,</p> <p>Iowa State University http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/,</p> <p>MIT http://www.ai.mit.edu,</p> <p>Carnegi-Mellon University http://www.cs.cmu.edu,</p> <p>University of Melbourne http://www.cs.mu.oz.au,</p> <p>Stanford University http://www.cs.mu.oz.au,</p>	<p>Iowa State University http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/,</p> <p>Santa Fe Institute Http://alife.santafe.edu,</p> <p>University of Melbourne http://www.cs.mu.oz.au,</p>	<p>Iowa State University http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/,</p> <p>Stanford University http://cs.stanford.edu/ Research,</p> <p>Manchester University http://www.cs.mu.oz.au,</p>	<p>Massachusetts Institute of Technologies (MIT) Http://www.ai.mit.edu, Stanford University http://cs.stanford.edu/ Research,</p> <p>Edinburg University http://www.informatics.ed.ac.uk, New University of Lisboa http://www.cs.mu.oz.au</p>	

~vlasov/, RFA SB HM (Krasnoyarsk), Neyrokibernetika instituti (Rostov- Don), SpbGETU, V.M.Glushkov nomidagi kibernetika instituti (Kiyev), XTURE, MIFI, Lebedev nomidagi fizika instituti http://canopus.lpi.msk.su/neurolab/	New University of Lisboa http://www.di.fct.unl.pt , Rossiya sun'iy intellekt instituti (Moskva- Novosibirsk) www.aha.ru/~artint/ , Dasturiy tizimlar instituti (Pereslavl'- Zalesskiy) www.botik.ru/ PSI/	Http://cs.stanfo rd.edu/ Research, Edinburg University Http://www. .informati cs.ed.ac.uk , Tokyo University, University of Sussex, V.M.Glushkov nomidagi kibernetika instituti (Kiyev), FAW-Ulm instituti (Germaniya)	Edinburg University http://www. .informati cs.ed.ac.uk , Austrian Research Institute for AI www.ai.univie.ac.at, Rossiya sun'iy intellekt instituti www.aha.ru/ ~artint/	cs.man.ac.uk	http://www.di.fct. unl.pt , Harvard University http://www.eecs. harvard.edu/ai , Austrian Research Institute for AI www.ai.univie.ac.at, Bauman nomidagi MDTU http://www.chat.ru/ ~vlasov/ , Rossiya sun'iy intellekt instituti (Moskva- Novosibirsk) www.aha.ru/~artint/ , FAW-Ulm instituti (Germaniya)
--	--	--	--	--------------	---

- to'rlar faoliyatini nazorat qilish;
- ma'lumotlarni shifrlash.

Oxirgi yillarda *parallel qurilmalar* asosida NTlar ishini sinxronlashtirishning samarali usullarini izlash bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda.

Evolyutsiyali hisoblash. Evolyutsiyali hisoblash sohasini (kompyuter ilovalarning va robototexnik qurilmalarning avtonomli va moslashuvchanlik xususiyatlari) rivojlantirishda nanotexnologiyalarga e'tibor berilmoqda [18,19,25]. Evolyutsiyali hisoblash birvaqtida faoliyat ko'rsatayotgan uzellar to'plamidan iborat o'zini-ozi yig'ish, o'zini-o'zi shakllantirish va o'zini-o'zi tiklash tizimlari kabi amaliy muammolariga ta'sir qilmoqda. Bunda raqamli avtomatlar sohasidagi ilmiy natijalarni qo'llash mumkin bo'lmoqda.

Evolyutsiyali hisoblashning yana bir aspekti-bu avtonom agentlardan kunlik masalalarni echish uchun shaxsiy kotibalar sifatida foydalanish. Shaxsiy kotibalar shaxsiy hisoblarni, uchinchi avlod algoritmlari yordamida tarmoqlarda kerakli ma'lumotlarni tanlab oluvchi assistantlarni, ishlarni rejalashtiruvchilarni, shaxsiy o'qituvchilarni, virtual sotuvchilarni va h.k. boshqaradi. Bunga robototexnika va u bilan bog'liq barcha sohalar ham taaluqli.

Evolyutsiyali hisoblashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari-bu standartlar, intellektual qatlamlar, senriylar/savollar tillari, insonlar va dastururlarning o'zaro aloqasini tashkil etishning samarali uslubiyotlarini ishlab chiqishdan iborat.

Avtonom harakatlanuvhi modellar xonalarni tozalash, egulik buyurtmalar berish va taylorlash, avtomobilarni boshqarish va b.q. sohalarga faol joriy qilinmoqda.

Kelajakda evolyutsiyali hisoblashdan foydalanib murakkab masalalarni (genlarga o'xshash tarmoqlardan va katta massivli ma'lumotlardan iborat masalalrn tez tadqiq qilish) yechish uchun avtonomli agentlar jamoasidan foydalaniladi. Buning uchun evolyutsiyaning mumkin bo'lgan quyidagi yo'nalishlarini o'rganish bilan shug'ullanish talab qilinadi: jamoalar bilan ishlash, birgalidagi ishlarni rejalashtirish, aloqalar uslublarini o'rganish, guruxli o'zini'-o'zi o'rgatish, noto'liq ma'lumotlar bilan berilgan noravshan sohada kooperativli harakat, qiziqishlari bo'yicha birlashuvchi bir nechta agentlarning harakati, o'zaromunosabat ziddiyatlarini hal qilishni o'rganish va h.k.

Noravshan mantiq. Noravshan mantiq tizimlari barcha sohalarga nisbatan ko'proq *gibriddi* bosqaruv tizimlarida faol qo'llaniladi [11, 16, 19].

Tasvirlarni ishlash. Bu sohada tasvirlarni tavsiflash va tahlil qilish tadqiqotlari tasvirlarni qisish, turli protokollardan foydalaniib uzatilgan tasvirlarni kodlashtirish, biometrik tasvirlarni va sputnikli rasmlarni ishlash kabi masalalarni yechishda davom ettiriladi. Keyingi rivojlanishlar tasvirlarning mazmunini tahlil qilish va indekslash, nusxa olishdan himoyalash, mashinali ko'rish, tasvirlarni anglab olish va sinflash algoritmlarini yaratishdan iborat [13, 22, 16].

Ekspert tizimlar. Ekspert tizimlarga talab yetarli yuqori pog'onda saqlab qolinadi. Bugungi kunda eng katta e'tibor real vaqt rejimida ishlaydigan tizimlarga, bilimlarni saqlash, olish, tahlil qilish va modellashtirish, dinamik rejalashtirish tizimlariga qaratilmoqda [6,17,21].

Intellektualli ilovalar. Kombinatorli muammolarni (masalan, transport masalalarida uchraydigan) optimal yechimini tez topish qobiliyatiga ega intellektual ilovalar sonining o'sishi rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishi va sanoatining o'sishi bilan bo'g'liq.

Taqsimlangan hisoblashlar. Kompyuterli tarmoqlarning tarqalishi va yuqori ishlab chiqarishli klasterlarning yaratilishi taqsimlangan hisoblashlar masalasiga qiziqishni oshirdi. Bu masalalarga resurslarni muvozanatshtirish, protsessorlarni optimal yuklash, maksimal samaralilikga erish maqsadida qurilmalarni o'zini-o'zi shakllantirish, yangilanishga talabgor elementlarni kuzatish, tarmoqdagi elementlar orasidagi nomosliklarni aniqlash, dasturlar ishlashining aniqliliginini tashxislash kabilar kiradi.

Real vaqtli operatsion tizimlar. Avtonom robototexnikli qurilmalarning paydo

bo'lishi real vaqtli operatsion tizimlarga talablarni oshiradi. Bu talablarga o'zini-o'zi sozlashni tashkillashtirish, hizmat ko'rsatuvchi operatsiyalarni rejalashtirish, vaqt tanqisligi sharoitida qaror qabul qilishda SI vositalaridan foydalananish kabilar kiradi.

Intellektualli injeneriya. Oxirgi yillarda yirik dasturiy tizimlarni (dasturiy injeneriya) yaratish jarayonlarini tashkillashtirish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar SIda alohida qiziqish uyg'otmoqdalar. SI usullari ko'proq boshlang'ich matnlarni tahlil qilish va ularning ma'nosini tushunish, talablarni boshqarish, tasniflashni tuzish, loyihalash, kodli generatsiyash, testlash, sifatni baholash, masalalarni parallel tizimlarda echish kabilarda qo'llanilmoqda.

Dasturiy injeneriya asta-sekinlik bilan bilimlarni tasvirlash va ishlashning (hozircha intellektual injeneriyada asosiy e'tibor bilimlardagi

axborotlarni o'zgartirish uslublariga qaratilgan) ko'proq umumiy muammolarini qaraydigan intellektual injeneriyaga aylnadi [1,6,12,17,19].

O'zini-o'zi tashkillashtiruvchi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT). O'zini-o'zi tashkillashtiruvchi MBBT haqiqiy masalalarga egiluvchanlik bilan moslashish qobiliyatiga ega bo'ladi va boshqarishni talab etmaydi.

Sida mashhurligi bo'yicha quyidagi texnolgiylar guruhlari turadi:

- 1) Tabiiy tillarni avtomatik tahlil qilish (leksikali (so'z boyligi), morfologikli, terminalogikli, notanish so'zlarni ajratib olish, milliy tillaarni aniqlash, tarjima qilish, hatolarni tuzatish, lug'atlardan samarali foydalanish);
- 2) Yuqoriunumli OLAP-ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish, so'rovlarni vizualli berish uslublari;
- 3) Shoshilinch holatlarda doktorlarga maslahat beruvchi tibbiy tizimlar, jarrohlik operatsiyalar jarayonida aniq harakarni bajaruvchi robotlar-manipulyatorlar;
- 4) To'liq avtomatlashtirilgan kiberzavodlar yaratish, moslashuvchan tejamkor ishlab chiqarish, tez protiplashtirish, ishni rejalashtirish, ta'minot zanjirini bir-biriga moslashtirish;
- 5) Moliya, tibbiyot va matematika sohalarida haqiqy masalalarni yechishga yo'naltirilgan amaliy usullarni ishlab chiqish;
- 6) Turli o'yinlar va ovunchoq dasturlar. Yangi yo'nalishli tadqiqotlarga: ijtimoiy harakatlar, munosabatlar, insoniy tuyg'ular, ijodiyot kabilalar kiradi.

Yaponiyada SIning mashxur yo'nalishlari va texnologiyalari.

Evropa va Amerika mamlakatlariga nisbatan Yaponiyada SI bo'yicha yo'nalishlar va texnologiyalar orasida quyidagi ilmiy maktablar mashxur hisoblanadi:

- E-bozorlar va E-ayksionlar ishlarini modellashtirish va yaratish;
- bioinformatika (kataklarning elektronli modeli, oqsilli axborotlarni parallel kompyuterlarda tahlil qilish, DNK hisoblovchilar);
- tabiiy tillarni ishlash (matnlar ma'nosini anglash va tushunishning o'zini-o'zi o'rgatuvchi ko'ptilli tizimlari);
- Internet (tarmoqlarni va odamlar yashaydigan uylarda real vaqt rejimida ishlaydigan turli datchiklarni, intellektual interfeyslarni integratsiyalash, Internetning amaliy va tizimli tushunchalarini formallashtirish asosida qo'lda bajariladigan ishlarni, katta hajmdagi

axborotlardan kerakli ma'lumotlarni ajratib olishning iteratsiyali texnologiyalarini avtomatlashtirish);

- robototexnika (mashinali o'rgatish, avtonomli qurilmalarning bir-biri bilan samarali aloqasini tashkil etish, harakatlarni tashkillashtirish, harakatlarni rejalashtirish, harakatlarni tavsiflovchi axborotlarni indekstsya qilish);

- bilimlarni tasvirlash va ishlash uslublari (bilimlar sifatini oshirish, inson-ekspertlardan bilimlarni olish usullari, ma'lumotlarni izlash va tuzish, xujjatlar almashinuvini boshqarish).

Ko'pchilik ishlar mantiqiy xulosalash, robotlarni o'rgatish va ularning harakatini rejalashtirish algoritmlariga bag'ishlangan.

Harbiy texnologiyalar. NTlar sohasidagi tadqiqotlar boshqarishning murakkab masalalarini yechishda yaxshi natijalar olishga imkoniyat yaratmoqda va uni *DARPA* harbiy ilmiy agentligi moliyalashtirmoqda. Masalan, Smart Sensor Web loyihasi-jang maydonida sinxronli ishlaydigan turli xildagi datchiklarning taqsimlangan tarmoqlarini tashkillashtirishga mo'ljallangan. Bunday tarmoqdagi har bir obyekt (bahosi 300 dollar) vizualli, elektromagnitli, raqamli, kemyoli va b.q ma'lumotlar bilan tasvirlnadi. Bu loyiha optimallashtirishning ko'po'lchovli masalalarini yechishning yangi matematik usullarini talab qiladi. Texnikalar ishining to'xtab qolish sabablarini, maqsadlarini, tahlilini va bashoratini avtomatik tarzda aniqlash bo'yicha tadqiqotlar (masalan, ovoz bo'yicha) olib borilmoqda.

Intellektni modellashtirish tizimlarining harbiy sohalarida o'zi yurar robor- mashinalar va boshqaruvchisiz samolyotlardan iborat mustaqil harakatlanuvchi armiyalar haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq yaqin o'n yillarda o'zining yechimini kutayotgan muammolar ham yetarlicha. Eng avvalo bu muammolarga real vaqt rejimida avtomatik anglab oluvchi tizimlarning videoaxborotlarni to'g'ri tahlil qilish qobiliyatiga ega emaslidigidir. Shuningdek, avtonom qurilmalarning katta birlashmalarida qarama-qarshiliklarni hal qilish, o'zinikini va begonalarni mutlaqo aniq anglab olish, yo'q qilib tashlanadigan nishonni tanlash, tanish bo'lмаган muhitda harakat qilish algoritmlarni ishlab chiqsh kabi masalalarini hal qilish ham dolzarb hisoblanadi.

Shuning uchun harbiylar amliyotda kichikroq masshtabli maqsadlarga erishishga intiladi. Asosiy e'tibor nutqni anglab olish tadqiqotlariga qaratiladi, qo'lida bajariladigan ishlarni avtomatlashtirish va uchuvchilarning mehnatini engillashtirish maqsadida ekspert va maslaxat beruvchi tizimlar yaratiladi. NTlar signallarni ishlashda va suvostidagi

toshlarni minalardan farqlashda samarali qo'llanilmoqda. Genetik algoritmlardan harbiy qurilmalarning (mo'ljalni olish, boshqarish tizimlarida) ishlashini aniqlovchi tenglamalarning yechimini evristik izlashda, shuningdek, anglab olish masalalarida-tabiyy va sun'iy obyektlarni ajratishda, harbiy mashinalarning tipini aniqlashda, kameralar yordamida olingan tasvirlarni tahlil qilishda foydalaniladi.

3-§. Asosiy xulosalar

Bugungi kunda SI texnologiyalarini rivojlanishining belgilovchi faktori- bu kompyuterlarni hisoblash quvvatining o'sish surati hisoblanadi, chunki inson psixikasining ishlash jarayoni hozirgacha noma'lumligicha qolmoqda. Shuning uchun SI yo'nalishidagi mavzular yetarli darajada standart shaklda va tarkibi bo'yicha ancha vaqtidan buyon o'zgarmasdan kelmoqda. Lekin zamonaviy kompyuterlar unumdarligining o'sishi va algoritmlar sifatining oshishi turli ilmiy usullarni amaliyatga qo'llashga imkoniyat yaratmoqdalar. Bunday holatlar hozirgi vaqtgacha intellektual o'yinchoqlarda amalga oshirilib kelingan bo'lsa, endi uydagi robotlar bilan ham shunday holatlar amalga oshiriladi.

Obyektlar juda kam xossalar bilan berilganda vaqtinchalik unitilgan "variantlarni birma-bir oddiy tekshirish" usullaridan (xuddi shaxmat dasturlari kabi) foydalanish qaytadan tiklanmoqda. Bunday yondashuvlar (ularni muvaffaqiyatli qo'llashning asosiy resursi-bu unymdarlik hisoblanadi) yordamida juda ko'plab masalalarni yechish mumkin (masalan, kriptografiya sohasidagi masalalar). Avtonomli qurilmalarning ishonchli harakat qilishida yetarlicha oddiy, lekin ko'p resurslarni talab etadigan moslashuvchanlik xususiyatga ega bo'lgan algoritmlar yordam beradi. Buning uchun tashqi ko'rinishi odamga o'xshaydigan emas, balki xuddi odamga o'xshab harakar qiladigan tizimlarni yaratish maqsad qilib qo'yiladi.

Olimlar ancha uzoqni ko'zlab kelajakga harakat qilishmoqdalar. Yaqin kelajakda o'z yechimini topishi mumkib bo'lgan masalalar bo'yicha quyidagi savollar mavjud: Mustaqil ravishda o'ziga o'xshaydigan nusxalarni hosil qilish (nusxalarni k'opaytirish) qobiliyatiga ega bo'lgan avtonom qurilmalarni yaratish mumkinmi? Bunday algoritmlarni fan yaratish qobiliyatiga egami? Bunday mashinalarni biz nazorat qila olamizmi? Bu kabi savollarga hozircha javoblar yo'q.

Formal mantiqni bilimlarni tasvirlash va qayta ishlashga mo'ljallangan amaliy tizimlariga qo'llash faol davom etadi. Shuning bilan

birgalikda formal maniq haqiqiy hayotni to’la aks ettiraolmaganligi sababli mantiqiy xulosalashning turli tizimlarining bitta qatlamga birlashuvi amalga oshadi. Bunda obyektlar haqidagi axborotlarni batafsil tasvirlash va bu axborotlarni manipulyatsiya qilish qoidalari qarashlaridan xulosalashni abstrakt formal tavsiflash va xulosalashning universal mexanizmlarini yaratishga o’tiladi, obyektlarnig o’zi esa xarakteristikalarining ehtimolli taqsimlanishiga asoslangan ko’p bo’lmagan ma’lumotlar massivi bilan xarakterlanadi.

SI ilmiy etilgan soha bo’lib, u asta-sekinlik bilan oldinga uzluksiz siljimoqda. Uning kelajakdagi rivojlanishi turli matematik fanlar kesimida, ayniqsa, mulohazalar va predikatlar mantiqi, ehtimollar nazariyasi, noravshan to’plam va noravshan mantiq kabi fanlarning qo’llanilishi natijasida namoyon bo’ladi.

Nazorat savollari

1. SIning resurslar bilan bog’liq muammolari qanday tipdagи resurslarning etishmasligi bilan bo’g’liq?
2. SIning istiqbolli texnologiyalari bo’yicha asosiy ilmiy maktablarni keltiring?
3. NTlar bo’yicha tadqiqotlar qaysi yo’nalishlarda davom etmoqda?
4. Evolyutsiyali hisoblashni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlarini keltiring?
5. Noravshan mantiq tizimlari qanday sohalarda faol qo’llaniladi?
6. Tasvirlarni ishlash sohasida qanday masalalar yechiladi?
7. Ekspert tizimlarga bugungi kunda e’tibor qanday tizimlarni yaratishga qaratilmoqda?
8. Intellektualli ilovalarning o’sishi nimalarga bog’liq?
9. Taqsimlangan hisoblashlarga qanday masalalar kiradi?
10. Real vaqtli operatsion tizimlarga qanday masalalar kiradi?
11. Intellektualli injeneriyada qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
12. SIda mashhurligi bo’yicha qanday texnolgiylar guruxlari turadi?
13. Yaponiyada SIning qanday mashxur yo’nalishlari va texnologiyalari mavjud?
14. NTlar harbiy texnologiyalar sohasida qanday qo’llaniladi?
15. Genetik algoritmlardan harbiy qurilmalarda qanday masalalarda foydalilanadi?

Xotima

Umid bilan aytmoqchimizki, o`quv qo`llanmani o`rganib chiqqach kitobxon uning foydali ekanligi haqida ishonch hosil qiladi, ko`pincha esa SITlarni qo`llash zarurligi, ularning imkoniyatlari, qurish prinsiplari va rivojlanish yo`nalishlari haqidagi tasavvurlarni shakllanishiga olib keladi.

SITlar evolyutsiyasi jadal sur`atlar bilan o`smaqdada. Ulardan ayrimlari (masalan, idrok etish, ET, timsollarni anglash va sinflash, mashinali tarjima, nutqni anglash va boshqalar) bugungi kun uchun axborot – kompyuterli muhitda xizmat qiluvchi insonlar uchun odatiy komponentalar bo`lib hisoblanadi. SITlarning asosiy yo`nalishlaridan biri ET larning amalda keng qo`llanishiga erishilgan (AQSh, Yaponiya va Evropada) bo`lishiga qaramay, ularni ommaviy ishlab chiqarish va yoyishga to`sqinlik qiluvchi bir qator hal bo`lmagan quyidagi muammolar bor.

- ETlarni yaratish shu paytgacha uzoq va qiyin jarayon bo`lib qolayotganligi;

- bilimlarni qabul qilish (olish): saralash, strukturalash, tasvirlash, sozlash va bilimlarni kuzatib borish;

- hayotda ko`pincha yechiladigan masalalar vaqt o`tishi bilan turlicha yechilishi taqozo etiladi, ko`pgina ETlar: asosan o`zgarmas masalalarni yechishga mo`ljallanganligi uchun ularni boshqa masalalarga qo`llab bo`lmaydi;

- bilimlar injeneriyalarini dastur bo`yicha quvvatlashning yo`qligi (chunki ekspertdan bilimlarni olish va ularni formallashtirish ET larni yaratishda eng qiyin va ma'suliyatli masala hisoblanadi).

Demak, ETlarni yaratish va ulardan natijalar olish uchun hali ko`p ishlar qilinishi kerak.

Boshqalari esa, hozircha ekzotik va amaliy qo`llashdan uzoqda deb tuyulayotganlari, ertagayoq bizning hayotimizga puxtalik bilan kirib keladi.

SITlar ko`plab bilimlar sohasiga tegishli bo`lgan tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Birinchi navbatda diskret matematika, matematik mantiq, kibernetika, matematik lingvistika, sun`iy intellekt, psixologiya, sistemotexnika va boshqalarni aytish kerak. Bundan tashqari, dasturlash texnologiyasi, Internet, ko`pagentli tizimlar va boshqalarda barcha so`nggi muvaffaqiyatlar foydalaniladi.

Misol tariqasida, intellektual ATlar va dasturlashning zamonaviy texnologiyalarining o`zaro kirishi natijasi *Microsoft.NET* platformasini ko`rsatish mumkin, uni yaratishda korporatsiya 2 mldr. doll. ortiq mablag` sarfladi va uni rivojlantirishda 5 mingdan ortiq mutaxassislar ishlamoqda.

Yangi imkoniyatlarni esa u SI g`oya va usullarini mujassamlashtirish hisobiga egallamoqda.

Shunday qilib, kompyuter bilan “tabiiy” muloqotga javob beruvchi *Natural Interface* texnologiyalari qo`lyozma ma`lumotlarni kiritish va anglashni, nutqni anglashni va sintez qilishni ta`minlaydi, shuningdek, turli xil tashqi qurilmalardan qulay foydalanish uchun sharoitlar yaratadi.

Universal Canvas texnologiyasi XML-sxemaga asoslangan arxitekturani, ya’ni Internet ni “o`qish” uchun platformasidan “o`qish/yozib olmoq” platformasiga aylantiradi, va hujatlar ustida o`zaro tahrirlash, manbalarni birlashtirish, tushuntirishlar berish, tahrirlash va tahlil qilish kabi jarayonlarni ta`minlaydi.

Information Agent texnologiyasi Internet ga foydalanuvchi vakilni kiritish imkonini beradi, bu vakil foydalanuvchining ehtiyojini, ma’qul ko`rganlarini biladi va Internet – servislarni unga ko`nikishiga imkon beradi.

Smarttags texnologiyasi Intellisense texnologiyasining rivojlangani hisoblanadi. U dasturchi – yordamchi *Microsoft Office*, *Internet Explorer* va boshqa ilovalarda, shuningdek, avtoo`zgartirish, avtoformatlash, avtoto`ldirish va boshqa funksiyalar bilan ishlovchi foydalanuvchining harakatlarini oldindan bilishga va xatolarni tuzatishga imkon beradi.

SIning bazaviy asoslari bilimlarga tayanish, tabiiy tillarda muloqotni tashkil etish, matnni tushunish, mantiqiy xulosa chiqarish, yechimlarni asoslash va tushuntirish hisoblanadi.

O`quv qo`llanmaning hajmi chegaralanganligi tufayli SITlarning barcha yo`nalishlarini qarab chiqish imkonini bermaydi. Amaliy intellektual avtomatlashtirilgan tizim(IAT)lar [1-3,13,16, 18] va ET texnologiyalari to`g`risidagi ma`lumotlarni bibliografik ro`yxatda ko`rsatilgan [2-4,6,9,16,17] manbalardan olishlari mumkin. Intellektual anglovchi tizmlarni qurish modellari [2,3,7,15,16,22] manbalarda yoritilgan. Neyronli to’rlar [1-4,6,7,17,19,30] qaralgan. Intellektual robotlar asosini tashkil etuvchi modellar [2,3,17,25] larda tavsiflangan.

SITlar investitsiyalar kiritish bo`yicha istiqboli porloq sohalardan biriga aylanmoqda. Intellektual ATlari investitsiya kiritishda kelajakda eng asosiy yo`nalishlardan biri hisoblanmoqda.

XXI asrni fan va texnikada SITlar keng qo`llanilmaydi deb fikrlab bo`lmaydi. Tabiiy intellekt imkoniyatlarini ochish uchun sharoitlar yaratilgani tufayli, ular inson hayotining barcha yo`nalishlariga chuqr ta’sir ko`rsatadi, va uni yanada qulay va qiziqarli bo`lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Башмаков А.И., Башмаков И.А. Интеллектуальные информационные технологии: Учеб. пособие. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2005. - 304 с : ил. - (Информатика в техническом университете). ISBN 5-7038-2544-X.
2. Bekmuratov K.A., Mamaraufov O.A., Bekmuratov D.K. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lif muassasalari uchun uslubiy qo'llanma. Tashkent. "Navro'z" nashriyoti DUK. 2015. 366 bet. (UDK 004.8. ISBN:978-9943-381-08-7).
3. Bekmuratov K.A., Mamaraufov O.A., Bekmuratov D.Q.. Sun'iy intellekt. Ma'ruzalar matni. Samarqand: TATU Samarqand filiali. SamDU bosmaxonasida chop etildi. 2018. – 655 bet. ISBN:978-9943-997-51-6).
4. Бессмертный И.А. Искусственный интеллект - СПб: СПбГУ ИТМО, 2010. -132 с.
5. Вольфганг Эртел. Введение в искусственный интеллект. Издательства Шпрингер. 2011. 316 с.
6. Гаврилов А.В. Системы искусственного интеллекта: Учеб. пособие: в 2-х ч. - Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2001. - Ч. 1. - 67 с.
7. Горбань А.Н. Обучение нейронных сетей. М.: изд-во СССР-США СП “ParaGraph”, 1990. 160 с.
8. Гундо Ван Россум, Фред Л.Дрейк. Введение в Python. Изд. Network theory. 2003. 1120 с.
9. Давид Пул, Алан Макворт. Искусственный интеллект. Основы вычислительных агентов. Chembidge University Press.2010. 682 с.
10. Дафни Коллер, Пир Фидман. Вероятностные графические модели. Принципы и техники. Изд.MID Press, 2009.-1231 с.
11. Заде Д. А. Понятие лингвистической переменной и его применение к принятию приближенных решений / Д. А. Заде. - М. : Мир, 1976. -168 с.
12. Иванов В. М. Интеллектуальные системы : учебное пособие / В. М. Иванов. - Екатеринбург : Изд-во Урал.ун-та, 2015. — 92 с.ISBN 978-5-7996-1325-9.
13. Косимов С.С. Ахборот технологиялари. Ўқув қўлланма. Тошкент. Алоқачи.2006.-369 б.
14. Лихтарников Т.П., Сукачева Д.Л. Математическая логика. Сант-Петербург,1999 г. 288 с.
15. Мичи Д., Спигелхалтер Д.Ж, Тейлор С.С. Машинное

обучение, нейронная и статистическая классификация. 1994 г. 290 с.

16. Павлов С. Н. Системы искусственного интеллекта : учеб. пособие. В 2-х частях. / С. Н. Павлов. - Томск: Эль Контент, 2011. - Ч. 1. - 176 с. ISBN 978-5-4332-0013-5.

17. Попов Д.А. Искусственный интеллект : в 3 кн. / под ред. Д. А. Попова. -М.: Радиои связь, 1990. -Кн.1: Системы общения и экспертные системы. -461 с.

18. Потапов А.С. Технологии искусственного интеллекта – СПб: СПбГУ ИТМО, 2010. – 218 с.

19. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект. Современный подход 2-е изд. / Artifical Intelligence: A Modern Approach 2. Изд-во: Вильямс. 2007. 1408 с. ISBN код книги: 0-13-790395-2.

20. Тураев Х.Т. Дискрет математика. 1, 2- томлар. Ўкув қўлланма. Т-2001. 456 б.

21. Филиппович Ю.Н., Филиппович А.Ю. Системы искусственного интеллекта. - М.: МГУП, 2009. - 312 с.

22. Фор А. Восприятие и распознавание образов.- М.: Машиностроение. 1989. -272 с.

23. Хачатурова Е.М., Кимизбаев О.Э. Учебное пособие по курсу “Экспертные системы”. ТУИТ ИММ Алоқачи, Ташкент 2006.105 с.

24. Штовба С. Д. Введение в теорию нечетких множеств и нечеткую логику [электронный ресурс] / Д. С. Штовба. - Режим доступа: <http://www.matlab.ru/fuzzylogic/book1/index.asp>.

25. Юрьевич Е.И. Основы робототехники. 2-е издание. Изд-во: БХВ-Петербург. 2005. 416 с. ISBN код книги: 5-94157-473-8.

Internet manzillari

26. Mamaraufov O.A., Bekmuradov D.K., Djumayev S. Intellektual tizimlar. Elektron masofaviy ta’lim kursi.

<http://etuit.uz/dl/course/view.php?id=808>

27. <http://www.searchengines.ru/>

28. <http://www.tuit.uz/>

29. <http://www.ziyonet.uz>

30. neyronus.com/robo.html.

Qisqartma so`zlar

AT	Axborot texnologiy
AQT	Axborotni qidirish tizimi
BB	Bilimlar bazasi
BF	Baholash funksiysi
BT	Bayesli to'r
CASE	Computer Aided Software Engineering – dasturiy ta'minotni avtomatik yaratish
CLIPS	C Language Integrated Production System- ekspert tizimni yaratish uchun dasturiy qobiq
DARPA	Defense Advanced Research Projects Agency – AQSh himoya vazirligi istibolli tadqiqotlarni rivojlantirish agentligiri
DM	Data Mining – ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish
DNSH	Dizyuntiv normal shakl
DT	Dasturiy ta'minot
EHM	Elektron hisoblash mashinasi
EL	Elaboration Language – qayta ishlash va aniqlik kiritish tili (IDEF5 da foydalaniladi)
ET	Ekspert tizim
FT	Formal tizim
HF	Holatlar fazosi
HM	Hisoblash mashinasi
HOLAP	Hybrid OLAP – gibridli OLAP (OLAPda ma'lumotlarni saqlash uslubi)
HTML	Hyper Text Markup Language – gipermatnli belgilashlar tili
HTTP	Hyper Text Transport Protocol – gipermatnni uzatish protokoli
IA	Intellektual agent
IAT	Intellektual avtomatlashtirilgan tizim
IT	Intellektual tizim
KDD	Knowledge Discovery in Databases – ma'lumotlar bazasidan bilimlarni ajratib olish
KNSH	Konyunktiv normal shakl
KIF	Knowledge Interchange Format – bilimlar yordamida almashish formati (bilimlarni tasvirlash tillaridan biri)
LIAT	Loyihalash ishlarining avtomatlashtirilgan tizimi

LO`	Lingvistik o'zgaruvchi
MATLAB	Matritsavyi laboratoriya
MB	Ma'lumotlar bazasi
MBBT	Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi
MM	Matematik mantiq
MF	Mansublik funksiyasi
NK	Neyrokompyuter
NM	Noravshan munosabat
NMXCH	Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish
NP	Neyropaket
NT	Neyronli to`r
NO'	Noravshan o'zgaruvchi
OLAP	On-Line Analytical Processing – ma'lumotlarni interaktivli analitik ishslash
PM	Predikatlar mantiqi
SNT	Sun'iy neyron to'rlar
SPSS	«Statistical Package for the Social Sciences» - «Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket»
SI	Sun'iy intellekt
SIT	Sun'iy intellekt tizim
TAT	Timsollarni anglovchi tizim
TDNSH	Takomil diz'yunktiv normal shakl
TKNSH	Takomil kon'yunktiv normal shakl
TT	Tabiiy til
TV	Texnik vositalar
UT	Universal to'plam
QQQ	Qarorl qabul qilish
XML	Extensible Markup Language – belgilashning kengaytiriladigan tili
XMLP	XML Protocol - XML-ma'lumotlarni uzatish protokoli
YaAT	Yangi axborot texnologiya

Atamalar va tushunchalar izohi

№	Atama	Ma’nosi va mazmuni
1.	Aksioma	Isbotsis qabul qilinadigan tasdiq.
2.	Analogiya	Ikkita matematik tushunchalarda mavjud bo’lgan xususiy xossalarning o’xshashligi bo’yicha aqliy xulosalash.
3.	Atribut	1) Belgi, ma’lumotlar tavsifi. 2) Obyektning ajralmas xossasi.
4.	Bilimlar bazasi	Hisoblash mashinalarida bilimlar saqlanadigan joy.
5.	Mulohaza	Chin yoki yolg’on qiymat qabul qiluvchi fakr.
6.	Graf	Tugunlar to’plami va ularni birlashtiruvchi yoylarni tasvirlovchi matematik tuzilma.
7.	Daraxt	Sikllarsiz bog’lamgan graf.
8.	Dizyunksiya	“Yoki” mantiqiy amali bo’lib, uni qo’llash natijasida o’zgaruvchilarning birortasi “chin” qiymat qabul qilsa, yangi ifoda “chin” bo’ladi. ✓ belgilanadi.
9.	Tabiiy til	Insonlar o’rtasida axborotlarni almashishning odatiy usuli.
10.	Bog’liklik	Funksiyalar va ularning argumentlari o’rtasidagi munosabatlar.
11.	Xulosa	“Obyekt - qiymat” juftlik bilan ifodalangan bilimlar bazasi fakti.
12.	Bilimlar	Faktlar, tasdiqlar va evristik qoidalar.
13.	Deklarativli bilimlar	Masala echimi protseduralarini oshkora saqlamaydigan bilimlar.
14.	Kauzalli bilimlar	Predmet sohadagi obyektlar o’rtasida sabab-oqibat aloqalari to’g’risidagi bilimlar.
15.	Noaniq bilimlar	Noto’liq, ba’zan qarama-qarshi xususiyatiga ega bilimlar.
16.	Protsedurali bilimlar	“Masala qanday echiladi” savoliga javob beradigan bilimlar.
17.	Induksiya	Xususiylikdan umumiylilikni hosil qilish.
18.	Interpretatsiya	Faktlarga aniq va ma’noli mazmundagi bilimlarni qo’shib yozish, sharxlash, tushuntirish.
19.	Chin	Noqarama-qarshi aksiomalar tizimlaridan olingan barcha qat’iy va aniq isbotlanuvchi tasdiqlar xossasi.

20.	Predikatlar hisobi	Argumentlar-o'zgaruvchilar yordamida mantiqiy formulalarning (predikatlarning) xulosalash qoidalari tizimi.
21.	Kvantor	Bir mantiqiy formulani boshqa ko'rinishga o'tkazishni amalga oshiruvchi mantiqiy operator. Kvantorlar umumiyligini kvantori $\forall x$ ("barcha x uchun") va mavjudlik kvantoriga $\exists x$ ("shunday x mavjudki, uning uchun") bo'linadi.
22.	Konyunksiya	Barcha argumentlari chin bo'lsa, qiymati chin bo'luvchi, " \wedge " yoki " \wedge " belgilanuvchi mantiqiy amal.
23.	LISP	Sun'iy intellekt sohasida simvolli hisoblashlarni amalga oshirishga mo'ljallangan dasturlash tili.
24.	Mantiq	Fikrlashning qonunlari va normalari, isbotlashning uslublari haqidagi fan.
25.	Ehtimolli mantiq	Chin qiymatlar ehtimolliklar bilan izohlanadigan mantiq.
26.	Noklassik mantiq	Ikkita chinlik qiymatdan ("yolg'on", "chin") ko'p yoki an'anaviy mantiqdan aksiomalar tizimi va xulosalash qoidalari bilan farqlanadigan mantiq.
27.	Noravshan mantiq	Formulalarning chinlik darajasini xarakterlovchi son $0 \leq \mu \leq 1$ (norashanlik o'lchovi) bilan ifodalanadigan mantiq.
28.	Predikatlar mantiqi	Formulalari predikatlardan iborat mantiq.
29.	Formal mantiq	Fikrlash shakllarini o'rganadigan matematik mantiq bo'limi.
30.	Metabilimlar	Bilimlar haqidagi bilimlar.
31.	Metaqoidalalar	Qoidalarni qanday qo'llash haqidagi qoidalalar.
32.	Nobog'langanlik	Shunday aksiomalar (formulalar) tizimi hossasi bo'lib, bunda boshqa aksiomalardan (formulalardan) birorta ham aksioma(formula) kelib chiqmaydi.
33.	Noaniqlik	Faktning ishonchlilikiga qoyilgan cheklov.
34.	Noto'liqlik	Nazaraiyalar doirasida nazariyaning har qanday formulasini isbot qilish mumkin emasligini bildiradi.
35.	Tajriba	Amaliyotga asoslanib haqiqiylikni anglash.
36.	To'liqlik	T nazariyaning to'liqligi shuni anglatadiki, bunda ushbu nazariyaning ixtiyoriy f formulasi o'zi chin

		bo'ladi yoki unga teskari bo'lgan f formula chin bo'ladi.
37.	Xulosalash qoidasi	Nazariyaning bir formulasini boshqa formullalardan olish qoidasi.
38.	Asos	"Obyekt-qiyomat" juftlik bilan ifodalangan bilimlar bazasi fakti.
39.	Semantikli	Simvolli ifodaning shakli emas, balki ma'nosи, qiymati yoki muhimligiga taaluqli.
40.	Sintaktikli	Simvolli ifodaning ma'nosи yoki qiymati emas, balki shakli yoki tuzilmasiga talluqli.
41.	Tizim	Obyektlar majmuasi, bir butun sifatida qaralgan obyektlar ustida amallar va ular o'rtasidagi aloqalar.
42.	Xulosa (oqibat)	Boshqa formulalardan xulosalash qoidalari yordamida hosil qilingan formula.
43.	Strategiya	Vaziyatlardan kelib chiqib har bir harakatni belgilovchi variantlarni tanlahni aniqlovchi qoidalari majmuasi.
44.	Evristikli qoida (evristika)	Qandaydir masalani bajarish uchun noto'liq usul.
45.	Ekspertli tizim	Inson bilimlarni egallashga va tajriba orttirishga bir necha yillar sarflaydigan sohalarda yuqori darajadagi ishlarni amalga oshiruvchi mashinali tizim.
46.	Qoida	Bu bilimlar vazifasining IF <Shart>, THEN <harakat> ko`rinishidagi rasmiy usuli.
47.	Evristik	Predmetli sohada yechimlarni qidirishni soddalashtiradigan yoki chegaralaydigan qoidalari.
48.	Sun'iy intellekt	Tabiatdagi jarayon va hodisalarni o`rganish(tadqiqot qilish)da insondagi ayrim intellektual qobiliyatlarni texnik jihatdan mujassamlashtirgan umumiy tushuncha.
49.	Rezolyutsiyalar usuli	Predikatlar mantiqidagi teoremalarni isbotlashga asoslangan va isbotlashning mukammal usuli hisoblangan.
50.	Sun'iy intellektli tizim	Fe'l-atvori maqsadga yo`naltirilgan qobiliyatni o`zida aks ettiruvchi ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar.

51.	Bionika	SI sohasidagi tadqiqotlarning bazaviy yo`nalishlaridan biri bo`lib, o`z tarkibida inson ongi uchun xarakterli va inson tomonidan yechiladigan masalalar asosida yotuvchi strukturalar va jarayonlarni sun'iy qaytadan tiklash muammolari bilan shug`ullanadi.
52.	Intellekt	I. Lotincha «intellektuz» so`zidan kelib chiqqan bo`lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki fahmlash (aql) ma`nosini beradi. II. Fikrlash qobiliyati, ratsional bilish va shunga o`xshash. Umumiy holda esa fikrlash, shaxsni aqliy rivojlanishi sinonimi bo`lib xizmat qiladi. III. Turmushdagi dalillar o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni tushunish qobiliyati. Bu qobiliyat belgilangan maqsadga erishishga olib boruvchi harakatlarni ishlab chiqish uchun kerak bo`ladi.
53.	Robot	«Robot» chex so`zidan olingan bo`lib, odamzodga o`xshab harakat qiluvchi mashinani anglatadi. «Robot» termini birinchi bo`lib chex yozuvchisi Karel Chapekning 1920 yilda yozgan R.U.R. («Rassum universal robotlari») pesasida qo`llangan.
54.	Bashoratlash	Oldindan aytish. Bashoratlash berilgan vaziyatlardan ehtimolli oqibatlarni hulosalash. Ob-havo ma'lumotlari, yo`l-transpor hodisasi, hosildorlik, harbiy holat va h.k.larni oldindan aytish.
55.	Tashxis	Kuzatishlar natijasida tizimdagи buzilishlar haqidagi xulosalar.
56.	Loyihalash	Cheklovlar bo`lganda tizim shakl-shamoyilni qurish.
57.	Boshqarish	Tizim holatini interpretatsiyalash, bashoratlash, tuzatish va monitoring qilish.

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
Kirish.....	7
1-bob. SUN'Y INTELLEKT FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA USULI. SUN'Y INTELLEKT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.....	12
1-§. Fanning mazmuni.....	12
2-§. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari	15
3-§. Zamonaviy intellektual tizimlar va ularning asosiy yo'nalishlari.....	21
3.1. Neyrobionik yo'nalish.....	23
3.2. Axborotli yo'nalishi.....	24
3.3. Sun'iy intellekt tizimlarini sinflash.....	30
4-§. Sun'iy intellektni inson faoliyatining turli sohalariga tadbiq etish.....	34
5-§. O'zbekistonda intellektual tizimlarning rivojlanishi	38
6-§. Tyuring testlari va suhbatdosh kompyuter dasturlari.....	40
7-§. Intellektual agentlar.....	43
8-§. Sun'iy intellektning asosiy tarkibiy qismlari va arxitekturasi..	51
9-§. Sun'iy intellektning asosiy xususiyatlari.....	53
Nazorat savollari.....	53
Nazorat testlari.....	54
2-bob. MULOHAZALAR VA PREDIKATLAR MANTIQLARI.....	57
1-§. Mulohaza. Mulohazalar ustida amallar.....	57
2-§. Mulohazalar mantiqida isbotlash usullari.....	59
2.1. Mulohazalar mantiqida isbotlashning semantik usuli.....	59
2.2. Mulohazalar mantiqida isbotlashning sintaktik usuli.....	63
3-§. Predikatlar mantiqi	67
4-§. Birinchi tartibli predikatlar mantiqi.....	75
5-§. Sun'iy intellektda mantiqiy xulosalashlar	78
5.1. Deduktiv mantiqiy xulosalash.....	78
5.2. Abduktivli va induktivli mantiqiy xulosalashlar.....	82
Nazorat savollari.....	83
Nazorat testlari.....	84
Masala va topshiriqlar.....	85

3-bob. MANTIQ CHEKLOVLARI VA NOANIQLIKNI MODELLASHTIRISH	90
1-§. Tarixiy ma'lumotlar.....	90
2-§. Bilimlarning noaniqligi va ularni ishlash uslublari.....	91
2.1. Masalalarni tavsivlashda noaniqliklarning turlari.....	91
2.2. Ma'lumotlar va bilimlarning xususyatlari.....	94
3-§. Noravshan bilimlar va ular ustida amallar.....	95
3.1. Noravshan bilimlar	95
3.2. Noravshan to'plamlar.....	96
3.3. Noravshan mantiq amallari.....	102
3.4. Noravshan to'plamlar ustida oddiy amallar.....	104
3.5. Noravshan munosabatlar.....	112
4-§. Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari.....	120
5-§. Lingvistik o'zgaruvchilar.....	123
Nazorat savollari.....	126
Nazorat testlari.....	127
Masala va topshiriqlar.....	129
4-bob. QIDIRUV YORDAMIDA MUAMMOLARNI ECHISH.....	134
1-§. Sun'iy intellekt masalalarini yechishning umumiyl uslublari..	134
2-§. Sun'iy intellekt masalalarini yechishning usullari.....	135
2.1. Masalalarni yechishda qidiruv usullarini sinflash.....	135
2.2. Qidiruv yordamida muammoni echish.....	136
2.2.1. Holatlar fazosida yechimni qidiruv usullari.....	136
2.2.2. Chuqurligi bo'yicha qidiruv strategiyasi.....	138
2.2.3. Kengligi bo'yicha qidiruv strategiyasi.....	140
2.2.4. Evristikli qidiruv.....	142
2.2.5. <i>A*</i> qidiruv algoritmi.....	143
Nazorat savollari.....	149
Nazorat testlari.....	149
Masala va topshiriqlar.....	151
5-bob. QAROR QABUL QILISHNING MARKOV JARAYONLARI VA O'YINLAR NAZARIYASI.....	154
1-§. Hodisalar oqimi.....	154
2-§. Markov modeli va Markov tasodifiy jarayonlari.....	157
2.1. Markov modeli.....	157
2.2. Markov tasodifiy jarayonlari.....	157

2.3. Yashirin Markov modeli.....	165
3-§. Monte-Karlo usuli	167
3.1. Monte-Karlo usuli yordamida statistik modellshtirish.....	167
3.1.1. Statistik modellashtirishning umumiyl sxemasi.....	168
3.1.2. Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimini modellashtirish.....	169
3.2. Monte-Karlo usuli yordamida imitatsion modellashtirish.....	171
3.2.1. Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimini imitatsion modellashtirish.....	173
4-§. O'yinlar nazariyasi.....	177
4.1. Asosiy tushunchalar va ta'riflar.....	177
4.2. Matritsavyi o'yin. Alfa-betta parchalanish.....	179
4.3. O'yining egar nuqtasi. Sof strategiyalar.....	182
4.4. Matritsavyi o'yinni soddalashtirish.....	183
5-§. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish.....	187
5.1. Noaniqlik sharoitida optimal strategiyani tanlash mezonlari...	187
5.2. Noaniqlik sharoitida tajribani o'tkazish masalasini yechish algoritmi.....	191
Nazarat savollari.....	196
Nazarat testlari.....	196
Masala va topshiriqlar.....	198
6-bob. MASHINALI O'QITISH VA MA'LUMOTLARNING INTELLEKTUAL TAHLILI.....	201
1-§. Bayes ehtimolligi.....	201
2-§. Bayesli to'rlar.....	206
3-§. Ma'lumotlarning intellektual tahlili.....	213
3.1. Data Mining – Ma'lumotlarning intellektual tahlili.....	213
3.2. Klasterlash.....	219
3.3. Klasterlar yordamida sinflash algoritmlari	224
Nazarat savollari.....	235
Nazarat testlari.....	236
Masala va topshiriqlar.....	238
7-bob. NEYRONLI TO'RLAR.....	242
1-§. Neyronli to'rlar sohasidagi tadqiqotlar tarixi.....	242
2-§. Neyronli to'rlarning asosiy tushunchalari va elementlari	244
3-§. Neyroto'rlar arxitekturasi.....	250
4-§. Neyronli to'rlarni obyektlarni anglab olishga o'rgatishning	

umumiy sxemasi va uslubiy jihatlari.....	251
5-§. Neyronli to’rlar yordamida yechiladigan asosiy masalalar....	253
6-§. Neyron to’rlarni o’rgatish usullari.....	256
7-§. Neyronli to’rlar tavsifi	258
7.1. Neyronli to’rlarning turlari.....	258
7.2. Mak-Kallok-Pitts neyronli to’riining formal modeli.....	262
7.3. Rozenblatt perseptroni.....	263
7.4. Assotsiativ xotirali neyronli to’rlar.....	266
7.4.1. Xopfild neyronli to’rlari.....	267
7.4.2. Xemming neyronli to’rlari	276
7.4.3. Ikki yo’nalishli assotsiativli xotira	277
7.5. O’qituvchisiz o’rgatuvchi neyronli to’rlar.....	279
7.5.1. Xebba to’ri bo’yicha o’rgatishning signalli usuli.....	279
7.5.2. Koxonen neyronli to’rlari.....	280
8-§. Neyronli to’rlarning yutuqlari va kamchiliklari.....	283
Nazorat savollari.....	284
Nazorat testlari.....	285
8-bob. SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA YO’NALISHLARI.....	287
1-§. Sun’iy intellektning resurslar bilan bog’liq muammolari.....	287
2-§. Istiqbolli yo’nalishlar va texnologiyalar.....	287
3-§. Asosiy xulosalar.....	294
Nazorat savollari.....	295
Xotima.....	296
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	298
Qisqartma so`zlar.....	300
Atamalar va tushunchalar izohi.....	302

ESHONQULOV SHERZOD UMMATOVICH

QARSHIBOYEV NIZOMIDDIN ABDUMALIK O‘G‘LI

“Sun’iy intellekt asoslari” fanidan
O‘QUV QO‘LLANMA

Bosishga ruxsat etildi 26.05.2022

Qog‘oz bichimi 60x84¹/₈. TIMES garniturasi

Shartli bosma tabog‘i 3.2. Nashr tabog‘i 2.2

Adadi 100. Buyurtma № 15–12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti

Toshkent, Komolon ko‘chasi, Erkin tor ko‘chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko‘chasi, 6–uy.

Shrifti “Times New Roman”

ISBN 978–9943–9748–1–4



Eshonqulov Sherzod Ummatovish Jizzax politexnika instituti “Energetika va radioelektronika” fakulteti “Ishlab shiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasi p.f.n., v.b. dotsent muallif tomonidan 2 ta darslik, 2 ta o‘quv qo‘llanma, tanlov fanidan 14 ta o‘quv qo‘llanma, 48 ta dasturiy mahsulot, 4 ta monografiya, 130 dan ortiq ilmiy maqolalar va 75 dan ortiq xalqaro va mahalliy anjumanlarda tezislar chop etgan.



Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o‘g‘li Jizzax politexnika instituti “Energetika va radioelektronika” fakulteti “Ishlab shiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasi assistenti “Ranglarni identifikatsiyalash va tahlil qilish tizimiga raqamli ishlov berish algoritmi va dasturiy taminotini yaratish” mavzusida ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Muallif tomonidan 5 ta Darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, tanlov fanidan 14 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 15 ta dasturiy mahsulot, 6 ta monografiya, 30 dan ortiq ilmiy maqolalar va 40 dan ortiq xalqaro va mahalliy anjumanlarda tezislar chop etgan.